O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-3/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Karimov Ravshanbek Allayarovich, PhD, k.i.x.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№3/4 (136), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026 y. – 207 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

MUNDARIJA

Abdinazarov M.A. Ahmad Yassaviy ijodi asosida hikmatnavislik an'anasining shakllanishi 6
Abdullayeva Z.Sh. Xalq og'zaki ijodida baxshichilik san'atining an'anaviylik va transformatsion jarayonlari 9
Abdumannobova Z.Sh. Tilshunoslikda argoning lingvistik tahlili 11
Abdusamatova Z.I., Murxanova N. Arab tilidagi siniq va to'g'ri ko'plikning ingliz tilidagi ko'plik shakllari bilan qiyosiy tahlili 14
Absalamov X.U. Yozma nutq kompetensiyasi tushunchasining nazariy asoslari va uning lingvodidaktik talqini 16
Achilov M.N. Fransuz frazeologizmlarining tarixiy-etimologik manbalari 19
Alimova K.T. Sog'liqni saqlash va ta'lim yangiliklari sarlavhalarida implitsit madaniy presuppozitsiyalar germenevtik tahlil va sun'iy intellekt yordamida monitoring 21
Amirova Z.O. Amerika va o'zbek adabiyotida moddiy va ma'naviy qadriyatlar qiyosiy-tipologik tahlil 24
Azamatova S.Sh. Zulfiya Isroilova she'rlarida noverbal vositalardan foydalanishning pragmatik jihatlari 26
Azizova N.E. New socio-cultural connotations of human appearance in modern uzbek phraseology 29
Babadjanova G. Linguo-poetic functions of medical terminology in the genre of medical thriller 33
Babaqulova D.M. Aqliy faoliyat fe'llarining kognitiv-semantik xususiyatlari 36
Babaqulova D.M. Badiiy matnlarda aqliy faoliyat fe'llarining funksional-stilistik qo'llanilishi 40
Bakhshilloeva Sh.A. The epiphanic moment as a form of artistic discovery: a theoretical and analytical approach 43
Berdiqulova Sh.R. Zidlov bog'lovchilarining grammatik xususiyatlari: ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil 46
Berdiyeva N.F. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida keltirilgan onomastik birliklarning lug'aviy-nominativ tiplari xususida 49
Bobomuradova M.E. Surxondaryo shevalarida rasm-rusum va marosimga oid etnografizmlar 52
Bovmanova B.T. O'zbek tilida halollikning qadriyat sifatidagi o'rni 54
Bo'riyeva Sh.G'. O'zbek maqollarida qadriyatlarning lisoniy ifodalanishi: o'ziga xos obrazlilik, ramziylik va milliy realiyalar (ovqat, kiyim, turmush nomlari)dan foydalanish 57
Do'stmurodova Sh. Omon Matjon she'riyatida milliy va tarixiy mavzular talqini 59
Elbekova Sh.N. Ahmad Tabibiy kichik janrdagi she'rlarining mavzuiy guruhlanishi 62
Ergasheva D.A. Badiiy matnda metafora va epitetning kombinatsion imkoniyatlari 65
Ergasheva G.S. Lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik kesishmasi: antroponimik komponentli frazemalar tahlili misolida 68
Ergashev A.H. Graf Lev Tolstoyning portret yaratish mahorati va badiiy til unsurlaridan foydalanish konsepsiyasi 71
Esanova L.N., Bakirov P.U. A comparative study of ecological terms in english and uzbek 75
Esanova Z.I. Tilshunoslikda sud diskursining o`rganilishi 78
Esonturdiyeva D.Yu. O'zbek tili reklama diskursida deyktik birliklar tahlili 81

Fazliddinova D. Gothic novels in english literature 83
Goipova S.M. Ingliz va o‘zbek tillarida “ko‘ngil” maydoniga oid frazeologizmlarning semantik tadqiqi 85
G‘ofurova S.M. Harbiy terminologiyaning rivojlanishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro ta’siri 88
Hamrayeva M.A. “Nibulinglar qo‘shig‘i» qahramonlik eposining tarixi va unda til vositalarining qo‘llanilishi 91
Haydarova Z.A. Vasiliy Shukshin va Xayriddin Sulton asarlarida krossover usuli hamda ijodkor konsepsiyasi 94
Hayitov Sh.A., Boymurodova M.B. “Devonu lug‘otit turk” ustoz Abduqodir Hayitmetov talqinida 96
Hojiyeva N.H., Siradjidinova X.I. Metafora tarixi. Aristotelning metafora haqidagi qarashlari 104
Ibayev A.J. O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning differensial belgilari va ularni erkin birikmalardan ajratish muammosi 107
Ibragimova E.I. Kesatiq va kinoya ironik mazmun ifodalash usullari sifatida 111
Ibragimov J.I., Kenjayev X.M. Xalq og‘zaki ijodi an’analarining adabiy muhitni yuzaga keltirishdagi o‘rni 114
Ibragimova Sh.N. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari va neologizmlarning til tizimidagi o‘rni 117
Irisov M.Sh. “Oyparcha” va “Kelinoy” dostonlaridagi antroponimlarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari 120
Isaqova E.D. Ingliz va o’zbek tillarida “flora” konseptiga oid tez aytishlarning fono-stilistik xususiyatlari 123
Ismatullayeva S. Abdulla Qodiriy ijodida ijtimoiy muammolarninng badiiy talqini 126
Ismatullayeva N.M. Zamonaviy lingvopragmatik tahlil tamoyillari 128
Ismoilova F.A. Islomiy terminlarning leksik-semantik, etimologik va morfologik klassifikatsiyasi 132
Jalilov B.T. Ingliz ommaviy axborot vositalarida pretsedent aytimlar 134
Jumaniyazov A., Polvanova N., Allaberganova F., Toshnazarova D., Jumaniyazova D. Til va nutqning umumiylik va xususiylik tomonlari tahlili bobida ayrim mulohazalar 137
Jumaniyazova D.A., Nurjanova K. Nemis va o‘zbek maqollarining funksional-semantik xususiyatlari 145
Jumaniyozova Ch.M. Hajm-o‘lchov tushunchasining o‘xshatishlar orqali verballashuvi 149
Jurayeva S.H., Aliyeva N.X. Linguopragmatic challenges and strategies in humor translation: a comparative study of english and uzbek 151
Kamilova D.K. Mahalliy tadqiqotlarda o‘zbek terminologiyasining nazariy talqini va shakllanish bosqichlari 153
Kaxarov Q.Sh. Nemis va o‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik etiketi: qiyosiy-pragmatik tahlil 156
Kaxarov Q.Sh. Nemis tilida yozma va og‘zaki taklif shakllarining lingvopragmatik xususiyatlari 158
Kaxarova M.M. Rasmiy nemis nutqida passiv konstruksiyalar va depersonalizatsiyaning qo‘llanilishi 160
Kaxarov Q.Sh. Nemis nutqiy etiketining shakllanishi va nazariy asoslari 162

Kenjayeva L. Semantic and Narrative Modeling of Alternative Reality in Fantastic Texts: A Comparative Study of Khojakbar Shaykhov and H. G. Wells 164
Kuchiboyev M.A. Badiiy matnda yovuzlik fenomeni: Shekspir va Milton ijodida demonologik obrazlar tahlili 167
Kulmuhamedova L.A. Qisqa badiiy nasrning adabiy janr sifatidagi o‘rni va xususiyatlari 170
Kurvonbekov M.I. Derivational patterns of emotive verbs in english and uzbek 174
Mahmudova N.T. Topishmoqlarda predmetli kodlarning lingvomadaniy xususiyatlari 177
Mamadkulova K.A. Shakespeare – a great creative personality or a historical mystery? 180
Mannonova F.Sh. Mistik poeziyasida figurativ tilning estetik ta'siri 183
Matmurotova M.A., Nazarova G. Sonetlarda lirik syujet masalasi 186
Matyazova N.S. Xalq dostonlarida mifologik tasavvurlar va obrazlar tizimi 189
Ma'diyeva A.D. G‘arb va Sharq she'riyatida an'anaviy obrazlar: Nemis adabiyotshunoslari nigohida 192
Mirzaev J.R. Ingliz romantizmida hayotiy "yangi jannat" haqidagi polemika masalasi 195
Muhiddinova M.Sh. Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida avtopsixologik tasvir, talqin va uslub masalasi 197
Mullaboyeva Sh.B. O‘zbek tilida frazeologik birliklar vositasida estetik bahoning ifodalanishi 200
Muzaffarova M.M. Stylistic characteristics of units in political linguistics 204

UO'K 821.512.16

AHMAD YASSAVIY IJODI ASOSIDA HIKMATNAVISLIK AN'ANASINING SHAKLLANISHI

M.A.Abdinazarov, o'qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy ijodi asosida hikmatnavislik an'anasining shakllanishi va uning XII–XIX asrlarda davom etgan taraqqiyoti ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif Devoni hikmat asarining turkiy tasavvuf adabiyotidagi o'rni, uning g'oyaviy manbalari hamda badiiy-estetik xususiyatlarini yoritadi. Tadqiqotda hikmat janrining shakllanishida Qur'oni karim va Hadis ta'limotlarining ta'siri, shuningdek, qadimgi turkiy og'zaki ijod an'analari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat, hikmatnavislik an'anasi, tasavvuf adabiyoti, turkiy mumtoz adabiyot, hikmat janri, barmoq vazni, irfoniy g'oyalar, Qur'oni karim, Hadis.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ формирования традиции мудрых изречений на основе трудов Ахмада Яссави и её развития в XII–XIX веках. Автор освещает место мудрых изречений в тюркской мистической литературе, их идеологические источники, а также художественно-эстетические особенности. В исследовании анализируется влияние учений Священного Корана и хадисов на формирование жанра мудрых изречений, а также его связь с традициями древнетюркского устного творчества.*

Ключевые слова: *Ахмад Яссави, Девани Хикмат, традиция мудрых изречений, суфийская литература, турецкая классическая литература, жанр мудрости, каллиграфия, мистические идеи, Священный Коран, хадисы.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the formation of the tradition of wisdom writing based on the work of Ahmad Yassavi and its development in the 12th–19th centuries. The author sheds light on the place of the work of wisdom in Turkish mystical literature, its ideological sources, and artistic and aesthetic characteristics. The study analyzes the influence of the teachings of the Holy Quran and Hadith on the formation of the wisdom genre, as well as its connection with the traditions of ancient Turkic oral creativity.*

Keywords: *Ahmad Yassavi, Devani Hikmat, tradition of wisdom writing, Sufi literature, Turkish classical literature, wisdom genre, fingering, mystical ideas, Holy Quran, Hadith.*

Hikmatlarda oyat va hadislar mazmuni bevosita iqtibos tarzida emas, balki tasavvufiy talqin, ramziy obrazlar va xalqona ifoda vositalari orqali yoritiladi[3]. Bu holat hikmatlarning keng omma tomonidan oson qabul qilinishiga va ularning ma'naviy tarbiya vositasi sifatida samarali xizmat qilishiga zamin yaratadi. Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan yassaviylik tariqati turkiy tasavvuf maktabining dastlabki namunasini tashkil etadi. Bu tizim shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlariga asoslangan mukammal ruhiy kamolot tizimini taklif etadi[14]. Ushbu tizimda insonning ichki olamini poklash, nafsni jilovlash, Allohga muhabbat va ixlos orqali yetuklikka erishish asosiy maqsad sifatida talqin etiladi. Hikmatlarda bu g'oyalar sodda va lo'nda bayon qilinib, murakkab tasavvufiy tushunchalar xalq tafakkuriga mos shaklda ifodalanadi[13]. Xoja Ahmad Yassaviy tarixiy xizmatlaridan biri shundaki, u Islom va tasavvuf ta'limotini turkiy tilli xalqlar orasida ona tili orqali targ'ib qilgan[4]. Arab va fors tillarining hukmronligi kuchli bo'lgan davrda turk tili diniy-ma'rifiy til sifatida shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Natijada turkiy xalqlar Islomiy bilimlarni bevosita o'z tilida anglash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu nuqtai nazardan, "Devoni hikmat" madaniy-ma'rifiy ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga kelgan yirik adabiy hodisadir. Ahmad Yassaviy hikmatlarining diniy-ma'rifiy asoslarini tahlil qilish jarayonida Qur'oni karim bilan bir qatorda hadisi shariflar muhim manba vazifasini bajaradi. Hikmatlar shariat va irshodga asoslanib, xalqning ongiga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatadi[1]. Islom ilmiy an'anasida Qur'on va Sunnat bir-birini to'ldiruvchi asosiy manba sifatida qaraladi. Shu prinsip Yassaviy hikmatlarida ham aniq ko'zga tashlanadi. Hikmatlarda hadislar to'g'ridan-to'g'ri rivoyat shaklida keltirilmasa-da, ularning

ma'naviy-axloqiy ruhi, tasavvufiy talqini va tarbiyaviy mazmuni chuqur singdirilgan[4]. Turkiy tasavvuf adabiyotini ilmiy jihatdan birinchi bo'lib tizimli tadqiq etgan olimlardan biri Mehmet Fuat Köprülü Ahmad Yassaviy ijodiga alohida e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida Yassaviy hikmatlari islomiy tasavvufning Sunnatga tayangan xalqona shakli sifatida baholanadi[6]. Köprülü fikricha, Yassaviy faqat shoir yoki shayx emas, balki hadis va Sunnat ruhini turkiy muhitga moslashtirgan diniy-ma'rifiy islohotchi sifatida namoyon bo'ladi[4]. Köprülü ta'kidlaydiki, Yassaviy hikmatlari madrasa uchun yozilgan murakkab diniy risolalar emas, balki Payg'ambar Muhammad s.a.v sunnatini xalq ongiga singdirishga xizmat qilgan ma'rifiy matnlardir. Bu jarayonda hadislarning lafzi emas, mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi asos qilib olingan, shuning uchun olim buni "Sunnatning poetik tarjimasi" deb ataydi[4]. Yassaviy hikmatlarida eng ko'p uchraydigan mavzular: faqrlik va tavoze, sabr va shukr, riyo va kibrdan yiroqlik, oxiratni eslash. Bular hadislar mazmunida markaziy o'rin tutuvchi axloqiy tushunchalardir[5]. Masalan, Payg'ambar s.a.v ning faqrlik va tavozeni ulug'lovchi hadislari Yassaviy hikmatlarida tasavvufiy ruhda keng yoritiladi[4]. Yassaviy hikmatlari murakkab falsafiy tushunchalarni emas, balki Qur'oni karimning asosiy aqidaviy va axloqiy g'oyalarini sodda, tushunarli va ta'sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Bu jihat hikmatlarning diniy-ma'rifiy mohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir[4]. Shunday qilib, Xoja Ahmad Yassaviy o'zbek mumtoz adabiyotida **"hikmat"** deb atalgan yangi janrga asos soldi. Hikmatlarning kelib chiqishi qadimgi turkiy she'riyatning quyidagi xususiyatlari bilan bog'liq:

She'r vazni va tuzilishi. Hikmatlarda barmoq she'r tizimining o'n ikkilik turkumi (4+4+4) eng faol qo'llanilgan bo'lib, asosan to'rtliklar ko'rinishida aks etgan[4].

Ijroiylik xususiyati. Qadimgi turkiy adabiyotga oid doston, qo'shug', yir, ko'g singari janrlarga oid asarlar "o'zan", "yirchi", "baxshi", "oqin"lar tomonidan ijro etilgan. Hikmatlar ham xalq orasida "hofiz", "hofizbobo" deb yuritilgan, she'riyat va musiqadan yaxshi xabardor bo'lgan qobiliyatli insonlar tomonidan aytilgan[6].

Sinkretik xususiyati. Yir, ko'g, yig'i-yo'qlovlar ijrosi so'z va musiqa mushtarakligida yuzaga kelgan. Hikmatlar ham mungli musiqiy ohangda ma'lum she'riy vaznga solib ijro etilgan[6]. Islom sivilizatsiyasigacha bo'lgan turkiy adabiyot o'zining qadimiy qatlamlariga ega bo'lib, unda og'zaki she'riyat paydo bo'lgandan boshlab doimiy rivojlangan hamda turk elatlarining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Akademik I.V. Steblev fikricha, qadimgi turklarda og'zaki she'riyat ("slovesnaya literatura") taraqqiy etgan bo'lib, bu madaniyatning yuksak darajaga yetganidan dalolat beradi[12]. Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari turk qavmlarini irshod qilish va ma'rifat ulashishda she'riyatning ta'sir kuchini to'g'ri belgilay oldi. Buyuk pirning donishmandligi jahriy (ovoz chiqarib) zikr turini tatbiq etganligida ham ko'rinadi. Shu tarzda, jahriy zikr natijasida insonlarda ishq va jazba hosil bo'ladi. Yassaviyning atrofidagi turkiy qavmlar jazbaga moyil, jo'shqin tabiatli bo'lgan. Jahriy zikr tarzi o'sha paytda xalq ko'nglini hayajonlantirish va unda din va tasavvufga mehr-muhabbat uyg'otish uchun qulay vosita bo'lgan[4]. Qur'oni karimda "hikmat" tushunchasi ko'pincha "Kitob" tushunchasi bilan yonma-yon keladi. Bu esa hikmatning vahiydan ajralmagan holda talqin qilinishini anglatadi. Jumladan, Juma surasi 2-oyatida Payg'ambar Muhammad s.a.v ning vazifalari qatorida "Kitob va hikmatni o'rgatish" alohida ta'kidlanadi[9]. Ushbu oyat Yassaviy hikmatlarining diniy manbasini aniqlashda asosiy dalil sifatida xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari va tasavvufiy-islomiy konsepsiya Najmiddin Komilov shunday yozadi: "Tasavvufda hikmat ilmiy xulosa emas, balki ruhiy tajriba orqali idrok etilgan haqiqatdir"[5]. Bu ta'rif Qur'oni karimdagi hikmat konsepsiyasiga to'liq mos keladi. Qur'onda hikmat egasi bo'lish sharti sifatida nafsni poklash, kibr va jaholatdan xalos bo'lish talab etiladi. Shu jihatdan, hikmat faqat aql mahsuli emas, balki axloqiy kamolot natijasidir. Ahmad Yassaviy hikmatlarida tazkiya masalasi doimiy markaziy o'rinni egallaydi. Shoir o'z hikmatlarida hikmatni nafs bilan kurash orqali qo'lga kiritiladigan ma'naviy maqom sifatida talqin qiladi. Bu esa Qur'oni karimdagi tazkiya–hikmat bog'liqligining tasavvufiy talqinidir[11]. Hikmat va iymon–amal birligi Qur'oni karimda hikmat tushunchasi iymon va amal birligi bilan chambarchas bog'langan. Qur'onda ilmga ega bo'lishning o'zi kifoya emasligi, ilmning amaliy hayotda namoyon bo'lishi zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Hikmat ana shu birlikning eng oliy ifodasidir. Ibrohim Haqqul o'z tadqiqotlarida tasavvuf adabiyotida hikmat tushunchasini "iymonning ichki shakli" sifatida talqin qiladi[2]. Haqqul shunday yozadi: "Tasavvufiy matnlarda

hikmat — iymonning badiiy va axloqiy ifodasidir. Unda e’tiqod so‘zga, so‘z esa hayotiy mezonga aylanadi”[4]. Bu fikr Ahmad Yassaviy hikmatlariga to‘la mos tushadi. Yassaviy uchun hikmat — Qur’on va hadis mazmunining she’riy, ammo chuqur ma’naviy talqinidir. Uning hikmatlarida iymon faqat e’tiqod darajasida emas, balki amal, sabr, qanoat va faqrlik orqali namoyon bo‘ladi. Qur’oni karim va hikmat Baqara surasi, 269-oyat tafsiri shunday: “U hikmatni O‘zi xohlagan kishiga beradi. Kimga hikmat berilgan bo‘lsa, unga juda ko‘p yaxshilik berilgan bo‘lur. Buni faqat aql egalari anglabyetadilar”[10]. Tafsir mazmuni: Hikmat — to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri hukm chiqarish, Qur’on va Sunnatni chuqur anglash, ilmni amalda qo‘llash, halol-haromni ajrata bilish, so‘z va ishda adolatli bo‘lish. Alloh hikmatni har kimga emas, balki O‘zining xohlovchilariga beradi; bu hikmat faqat aql yoki bilim bilan emas, balki Allohning fazl-u marhamati bilan berilishini bildiradi. “O‘ta ko‘p yaxshilik” deganda dunyo va oxirat saodati, foydali ilm, solih amal va Allohga yaqinlik nazarda tutiladi. “Ulu-l-albab” — sof aql egalari, ya’ni nafsga ergashmaydigan, fikrlab ibrat oladigan, oyatlardan xulosa chiqaradigan kishilardir. Xulosa: Kimga Alloh hikmat bersa, u inson haqiqiy boylikka erishgan bo‘ladi. Komilov bu “ko‘p yaxshilik”ni insonning botiniy va zohiriy uyg‘unligi deb izohlaydi. Ya’ni hikmat — ichki e’tiqod bilan tashqi amal o‘rtasidagi muvozanatdir[5]. Hikmatning tasavvufiy-falsafiy tizimdagi roli Tasavvuf ta’limotida hikmat tushunchasi Qur’oni karim va Sunnat asosida shakllangan, keyinchalik falsafiy, axloqiy va badiiy qatlamlar bilan boyigan. Komilov tasavvuf tarixini tahlil qilar ekan, hikmatni tasavvufiy tafakkurning boshlang‘ich nuqtasi sifatida baholaydi[5]. Uning fikricha, hikmat — shariatdan tariqatga, tariqatdan haqiqatga o‘tishdagi asosiy ko‘prikdir. Ahmad Yassaviy maktabi shu ko‘prik vazifasini bajaradi. Yassaviy hikmatlari murakkab falsafiy terminologiyasiz, ammo chuqur ma’naviy mazmun bilan tasavvuf g‘oyalarini xalq ongiga singdirgan. Ibrohim Haqqul bu holatni “tasavvufning demokratiyalashuvi” deb ataydi[2]. Qur’on oyatlarining badiiy-talqin xususiyatlari va Ahmad Yassaviy hikmatlari Ahmad Yassaviy hikmatlarining g‘oyaviy-ma’rifiy asoslarini tahlil etishda Qur’oni karim ta’limotining tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Yassaviy ijodi islomiy aqida va Qur’oniy axloqiy tamoyillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, hikmatlar mazmunida ilohiy manbaning ruhiy va ma’naviy ta’siri yaqqol seziladi. Biroq, Yassaviy Qur’on oyatlarini bevosita ko‘chirish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri sharhlash yo‘lidan bormaydi, balki ularning mazmunini tasavvufiy-badiiy talqin asosida, ramziy va xalqona ifoda vositalari orqali bayon etadi[7]. Tavhid g‘oyasi va insonning ilohiy maqsadi Qur’oni karimda ilgari surilgan tavhid g‘oyasi — Allohning yagonaligi va mutlaq qudrati — Yassaviy hikmatlarining markaziy mavzularidan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — Qur’on va hadis manbalari bilan bog‘liqligi, 23-25-betlar.
2. Haqqul, Ibrohim. Tasavvufiy adabiyotning badiiy tahlili. Samarqand: Sharq, 2004, 78–80-bet
3. Hikmat va Tasavvufiy Ramzlar — Ramziy obrazlar va xalqona ifoda vositalari, 41-bet.
4. Ibid., 58-bet. — Turkiy tilda diniy-ma’rifiy targ‘ibot.
5. Komilov, Najmiddin. Tasavvuf falsafasi va Ahmad Yassaviy hikmatlari. Toshkent: Fan, 2001, 54-bet.
6. Köprülü, Mehmet Fuat. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. İstanbul: Maarif Matbaası, 1939, 45–48-bet.
8. Mansur, Abdulaziz. Tafsir al-Qur’an al-Karim. Toshkent: Fan, 2003, 281-bet.
9. Navoiy, Alisher. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent: Sharq, 1970, 12–14-bet.
10. Qur’on, Juma surasi, 2-oyat; tafsir: Mansur, Abdulaziz. Tafsir al-Qur’an al-Karim.Toshkent: Fan,2003,281-b.
11. Qur’oni karim, Baqara surasi, 269-oyat; tafsir: Mansur, Abdulaziz. Tafsir al-Qur’an al-Karim, 290-bet.
12. Qur’oni karim, Luqmon surasi, 12-oyat; tafsir: Mansur, Abdulaziz. Tafsir al-Qur’an al-Karim. Toshkent: Fan, 2003, 281-bet.
13. Steblev, I.V. Turkiy og‘zaki she’riyat tarixi. Moskva: Nauka, 1976, 33–36-bet
14. Turkiy Tasavvufiy Tafakkur — Murakkab tasavvufiy tushunchalar xalq tafakkuriga mos ifodasi, 55-bet
15. Yassaviyalik Tariqati — Shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari, 27-bet.

UO'K 398.8

XALQ OG'ZAKI IJODIDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSION JARAYONLARI

Z.Sh.Abdullayeva, o'qituvchi, Termiz davlat universiteti, badiiy rahbar, "Jayhun" folklor-etnografik xalq ansanbli, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbek xalq qo'shiqlari qadimiy ajdodlarimizning turmush tarzi va an'analarini asrlar osha mukammallashib kelayotgan boy ma'naviy merosi bilan bog'liqdir. Har bir qo'shiqlarning kelib chiqishi ajdodlarimizning xo'jalik, madaniy hamda siyosiy hayotida yuz bergan yutuqlari, kamchiliklari, xursandchiligi, g'am-tashvishlari, oilaviy va mahalla hayotidagi kechinmalari zaminida paydo bo'lgan va sayqallanganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *"Avesto" da Ardvisura Anaxita (Naxita-Naxit-Nohid), "bo'ri bo'ldi", Eron ilohiysi-Axura Mazda va Veretragna-Varaxran (Varaxram yoki Vaxran-Baxran-Bahrom).*

Аннотация. *Данная статья посвящена богатому духовному наследию узбекских народных песен, совершенствовавшемуся на протяжении веков и отражающему образ жизни и традиции наших древних предков. Происхождение каждой песни объясняется успехами, неудачами, радостями, печалями и опытом наших предков в их экономической, культурной и политической жизни.*

Ключевые слова: *Ардвисура Анахита (Нахита-Нахит-Нохид) в Авесте, «она стала волком», иранское божество Ахура Мазда и Веретрагна-Варахран (Варахрам или Вахран-Бахран-Бахрам).*

Abstract. *This article is about the rich spiritual heritage of Uzbek folk songs, which has been perfected over the centuries, reflecting the lifestyle and traditions of our ancient ancestors. The origin of each song is explained by the successes, shortcomings, joys, sorrows, and experiences of our ancestors in their economic, cultural, and political lives.*

Keywords: *Ardvisura Anahita (Nakhita-Nakhit-Nohid) in the Avesta, "she became a wolf", the Iranian deity Ahura Mazda and Veretragna-Varakhran (Varakhram or Vahran-Bahran-Bahram).*

Kirish. Xalq qo'shiqlari rivojlanishining asosi, avvalo, o'ziga xos tub o'troq xalq sifatida o'zbeklarning mavjudligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ularning qo'shnilar, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi xalqlar bilan doimiy aloqasi, madaniy hamkorlik va o'zaro almashuvlar natijasida qo'shiqlar boyib, yanada shakllangan. Bu jarayon xalq madaniyatining boyishida muhim omil sifatida hisoblanadi. Eng asosiy jihat shundaki, o'zbek ajdodlari moddiy va ma'naviy madaniyatning ilk ildizlarini yaratgan xalq bo'lib, ularning faoliyati xalq og'zaki ijodi bilan mustahkam bog'langan. Shu sababli, o'zbek xalq qo'shiqlari qadimiy diniy e'tiqodlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Masalan, zardushtiylik an'analarida homiy kuchlar yordamiga tayanish tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu an'analardan ilhomlangan xalq qo'shiqlari asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Jumladan, Anaxita xosildorlik, suv va udum ilohasi sifatida ulug'lanib, bir qo'lida olma, ikkinchisida anor tutgan go'zal qiz sifatida tasvirlanadi. Bu kabi qo'shiqlar xalq ijodida qadimiy e'tiqodlarni, tabiat va inson faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalashning yorqin namunasidir.

Xalq og'zaki qo'shiqlari va aytishuvlarida Anaxita – O'rta Osiyo xalqlarining suv, ma'murchilik va muhabbat ilohasi sifatida ulug'lanadi. U "Avesto"da Ardvisura Anaxita (Naxita, Naxit, Nohid) nomi bilan zikr qilinadi. Ardvisura nomining semantik tarkibi quyidagicha talqin qilinadi: ard – tartib, buyruq; avi/ob – suv; sura/shira/shir – sut va suv bilan bog'liq ma'nolar. Shu tarzda, xalq qo'shiqlarida Anaxita tabiat va suv bilan bog'liq barcha hayotiy elementlarni o'zida jamlagan figura sifatida aks ettiriladi[1:72].

Dunyo xalqlari og'zaki ijodida Anaxita yunonlar tomonidan Anaitas deb atalib, Olimp xudolari qatoriga kiritilgan. Qadim O'rta Osiyo mifologiyasida esa Anaxita Mitra-Quyosh tangrisi, Ahura Mazda va Veretragna/Varaxran (Varaxram, Vaxran, Baxran, Bahrom) bilan birgalikda xudolar uchligini tashkil qilgan va "Avesto"da mustahkam o'rin egallagan. Xalq qo'shiqlarida Anaxitaga bag'ishlangan ibodatxonalar, masalan, Pars-Persepol (Eronning Fors ostoni)da qurilgan ibodatxona,

g‘oyat muqaddas hisoblangan. Shu yerda Sosoniylar sulolasining asoschisi Artasher I Papak (224–652) bir paytlar kohinlik qilgan. Shoh Artakserks (401–358) esa Anaxitaning haykallarini Vavilon, Suz, Ekbaton, Persapol, Baqtr (Balx), Damashq va Sarda shaharlarida o‘rnatgan.

Zardushtiylikdagi yana bir iloh, Hubbi, suv xudosi sifatida alohida tavsiflanadi va keyinchalik xalq og‘zaki ijodi durdonalarida Erxubbi qiyofasi orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, Mitra ham xalq qo‘shiqlarida ulug‘langan: u mo‘l-ko‘lchilikni ta’minlovchi iloh, ayniqsa dehqonlar va chorvadorlarning homiysi sifatida qabul qilingan. Mitra – quyosh xudosi bo‘lib, cheksiz saxovati va nurlari bilan olamga farovonlik, qut-baraka olib keladi. Dunyo xalqlarining og‘zaki ijodida Mitra xudosi uzoq tarixdan buyon keng tarqalgan. Misrning Memfis shahrida eramizning V asrida Mitra ibodatxonasi mavjud bo‘lgan va Rim imperiyasi davrida u qator hududlarda mashhur bo‘lib, hatto Britaniya orollarigacha yetib borgan. Rimda Mitra tavalludi 25-dekabr kuni nishonlangan, u shu paytda quyosh, nur, musaffolik va haqiqat xudosi sifatida e’zozlangan. Xristianlik paydo bo‘lgach, Mitra tavalludi bayrami Iso tavalludi (Rojdestvo Xristovo) bilan almashtirilgan, qo‘shiqlarda Mitra quyosh xudosi sifatida, Iso esa Quyosh xudosi o‘g‘li sifatida tasvirlangan.

Zardushtiylikda yomg‘irdan keyingi kamalak Mitraning kamonidan uzilgan oqlarga qiyos etilgan, bu esa milliy ruhdagi qo‘shiqlarda ifodalanadi. Anaxita nomi esa qut-baraka tushunchalarining etimologik rivojida muhim o‘rin tutadi. Anaxita, Naxita, Nohid va Ona qut iboralari bir-biri bilan bog‘lanib, ona-hayot timsoli va qut-baraka ma’nolarini birlashtiradi. Shu sababli, masalan, Qoraqalpog‘istondagi Onaxut muqaddas ziyoratgohi hosildorlik va mo‘l-ko‘llik bilan bog‘liq muqaddas makon sifatida e’tirof etilgan[2:78].

Natijalar. Xalqimizning turkiy e’tiqodlariga xos qo‘shiqlarda, shuningdek, Ko‘k tangri bilan bog‘liq e’tiqodlar mavjud. Ushbu e’tiqodlarda ayrim buyumlar va hayvonlar ilohiylashtirilgan, ularning qahramonligi va timsollari xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin egallagan. Eng e’tiborli jihati shundaki, qadimgi turkiylar e’tiqodida ot va bo‘ri muqaddas hayvon totemi sifatida qabul qilingan.

Xalq qo‘shiqlarida ot alohida qut-baraka, mo‘l-ko‘llik, rizq-ro‘z, mardlik, saxovat va baraka timsoli sifatida ifodalanadi. Shu sababli otning oxuri, taqasi, egar va jabduqi ham muqaddaslashtirilgan. Masalan:

- Otning taqasi eshikka qoqilsa, uyga baraka keladi va yomonlik kirmaydi.
- Otning yolini uy to‘riga ilib qo‘yish, chaqaloqning ilk kuylagini otning qozig‘iga yoki boshiga tutatish, bolani otning oxuridan yoki egar ostidan o‘tkazish kabi amaliyotlar mavjud.

Shuningdek, bo‘ri ham turkiy xalqlarda muqaddas hayvon sifatida e’tirof etilgan. Bo‘rining tishi, tirnoqlari, terisi yovuz kuchlarga qarshi vosita sifatida ishlatilgan. Ona allasidagi qo‘shiqlarda ham bo‘ri elementlari chaqaloqni himoya qilish, baraka berish maqsadida qo‘llangan. Bo‘rining yoshligida tutib olingan bolalari ekin va chorvalar orasiga baraka keltiruvchi ramz sifatida ishlatilgan. Shomonlarning termalarida bo‘ri oralagan joy hosildorlikni ifodalovchi belgiga aylangan va bo‘rining junini ot yoli singari isiriqqa qo‘shib, yovuz kuchlar haydalgan [3:34].

Xalq og‘zaki ijodida bo‘ri qadimdan muhim timsol sifatida aks etadi. Masalan, oilada o‘g‘il bola tug‘ilganda xalq qo‘shiqlarida va termalarda bu hol “bo‘ri bo‘ldi” iborasi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, sovchining quda tomonidan olgan rozilik javobini aniqlashda ham “sovchidan bo‘rimi yoki tulki?” deb so‘ralgan; ish silliq o‘tgan taqdirda “bo‘ri” deb javob berilgan. Shuningdek, biror katta ish yoki ishni muvaffaqiyatli bajarish holatida ham “bo‘ri bo‘ldi” iborasi qo‘llanilgan.

Ko‘rinib turibdiki, qadimgi turkiy xalqlarda ot va bo‘ri muvaffaqiyat va murodga yetish timsoli sifatida e’tirof etilgan. Masalan, uzoq muddat farzand ko‘rmagan eri-xotinga bo‘ri tishlagan, bo‘ri hamla qilgan yoki bo‘ri yaralagan qo‘y yoki echki go‘shtlarini iste’mol ettirish odatlari mavjud bo‘lgan; bu amaliyotlar ba’zi hududlarda hozirgacha saqlanib qolgan.

Muhokama. Xalq e’tiqodida qadim tangrilarni uy hayvonlari shaklida tasavvur qilish, odamzodning chorvaga muqaddas nazar bilan qaraganligidan dalolat beradi. Masalan:

- Hind xalqlarida Indira (qadimiy nomi Vritraxan) ho‘kiz shaklida e’zozlangan.
- Yunonlarda Appolon, chorva homiysi sifatida, qo‘y shaklida tasvirlangan.
- Zardushtiylik dini asoschisi Zardushtra (tushtr-ushtur-shutur-tuya), oltin tuya timsoli bilan bog‘lanib, karvonboshi, sarbon va yo‘lboshchi sifatida talqin qilingan.

Shuningdek, Avesto manbalariga koʻra, yerda paydo boʻlgan birinchi inson Gavomard (Kayumars) ikki tanali hoʻkiz-odam (kentavrga oʻxshash) sifatida tasvirlanadi. Bahodir qahramonlar nomlarida esa hayvon nomlari koʻp uchraydi: masalan, Gershas (asp-ot) tarkibida ot soʻzi mavjud[4:37].

Xuddi shu tarzda, turkiy xalqlar ham ot, it, tuya, boʻri va boshqa hayvonlarni muqaddas deb bilgan, ularga sigʻinishgan va hayotiy marosimlarda ularni himoya va baraka timsoli sifatida ishlatganlar. Bu esa xalq ogʻzaki ijodida hayvon totemizmi va diniy e'tiqodlarning uygʻunligini koʻrsatadi. Xalq ogʻzaki ijodida jang va momaqaldiroq tangrisi sifatida e'tirof etilgan Varaxran-Bahrom (Veretragna, Mirrix-Mars) qadimiy "Avesto" manbalarida bayon qilingan. Ushbu iloh xalq qoʻshiqlarida oʻz ifodasini topgan va koʻplab shakllarda tasvirlanadi. Veretragna kishilarni oʻz junidan toʻqilgan kiyimga burkaydigan, tuya, oʻtkir tishli, dushmanlarga qarshi beayov, shiddatli-toʻngʻiz, oʻqdan tez uchuvchi burgut kabi qiyofalarda tasvirlanadi. Shu bilan birga, Veretragna lahzalar davomida shamol, hoʻkiz, ot, tuya, toʻngʻiz, boʻz bola, burgut-kalxat, qoʻy, echki va nihoyat goʻzal jangchiga aylanish kabi oʻn xil shaklga kiradi. Bu motiv xalq qoʻshiqlarida jang, himoya va qahramonlik timsoli sifatida qoʻllanilgan. Shuningdek, qoʻy ham baraka timsoli sifatida xalq qoʻshiqlarida keng tasvirlangan. Masalan, paykallarda bogʻlar tepasida qoʻchqor shoxi ilib qoʻyish, Shomonlar chaqirilib termalar va aytishuvlarni amalga oshirish, qoʻy kalla suyagini ilib qoʻyish kabi amaliyotlar baraka va himoya timsoli sifatida talqin qilingan. Shu tariqa, voha amaliy bezak san'ati va xalq qoʻshiqlari yovuz kuchlar va yomon nazarga qarshi kurash vositasi sifatida ishlatilgan. Qoʻchqor shoxi esa "Qoʻchqorak" guliga oʻxshash timsol sifatida, zardevol va soʻzanalarning bezaklarida ham ishlatilgan, lekin u faqat bezak emas, balki yovuz kuchlarga qarshi himoya vositasi sifatida ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, odam koʻzi tasviri, tugʻdona daraxti, koʻzmunchoq, isiriq, qalampir va chaqirtikon kabi narsa-buyumlar ham yovuz nazarga qarshi kurashda xalq qoʻshiqlarida muhim rol oʻynagan[5:48].

Xulosa. Xalq qoʻshiqlari xoʻjalik hayoti bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, turli fasllar, tabiat hodisalari va mehnat jarayonlarini aks ettiradi. Masalan, Dehqonbobo, Xizirbobo va Sulaymon misollarida xalq qoʻshiqlari orzu-umidlarni amalga oshirish, hosildorlik va barakani ta'minlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, omochning tishi ("Poza") va choʻpon tayogʻi ham ilohiylashtirilgan, ular kinna, jin va alavastini haydashda vosita sifatida qoʻllanilgan. Xalq qoʻshiqlarida bu timsollar orqali tabiat va inson faoliyatini boshqarish, yovuz kuchlarga qarshi kurashish va baraka soʻrash an'analari saqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murtazoyev B. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" va Xusrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonlarining qiyosiy tahlili. Nomzodlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 1991. –B.78.
2. Murtazoyev B. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" va Xusrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonlarining qiyosiy tahlili. Nomzodlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 1991. –B.78.
3. Belov A.V. Rojdestvo Xristovo. Izd.2-ye. –Moskva: Politizdat, 1974. –S.33-35.
4. Alaviya M. Oʻzbek xalq marosim qoʻshiqlari.-Toshkent: Fan, 1974.-B.37.
5. Murtazoyev B. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" va Xusrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonlarining qiyosiy tahlili. Nomzodlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 1991. –B.47-48.

UO'K 81'246.2

TILSHUNOSLIKDA ARGONING LINGVISTIK TAHLILI

Z.Sh.Abdumannobova, talaba, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada stilistik cheklangan leksik birliklar – argo, jargon va slengning zamonaviy tilshunoslikdagi oʻrni yoritiladi. Noadabiy leksikaning ingliz tilida adabiy tildan ajralib chiqish jarayoni tarixiy jihatdan tahlil qilinadi hamda argo terminining etimologiyasi va rivojlanish bosqichlari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, argo va jargon tushunchalarining oʻxshash va farqli jihatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, argoning asosiy belgisi uning yashirinlik xususiyati ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit soʻzlar: *argo, jargon, sleng, noadabiy leksika, stilistik cheklangan leksika, ogʻzaki nutq, sotsiolingvistika, yashirin til, jinoyatchilar tili, til standartlashuvi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается место стилистически ограниченных лексических единиц – арго, жаргона и сленга – в современной лингвистике. Исторически анализируется процесс отделения нецензурной лексики в английском языке от литературной нормы, а также изучается этимология термина «арго» и этапы его развития. Кроме того, на основе научных источников анализируются сходства и различия понятий арго и жаргона, при этом основной характеристикой арго обосновывается его скрытный, тайный характер.*

Ключевые слова: *арго, жаргон, сленг, нецензурная лексика, стилистически ограниченная лексика, устная речь, социолингвистика, тайный язык, язык преступников, стандартизация языка.*

Abstract. *This article discusses stylistically restricted lexical units – argot, jargon, and slang – in modern linguistics. It analyzes the historical separation of non-literary vocabulary from the English literary standard and examines the etymology and development of the term argot. The similarities and differences between argot and jargon are explored, and it is concluded that secrecy is the main distinguishing feature of argot.*

Keywords: *argot, jargon, slang, non-literary vocabulary, stylistically restricted lexis, spoken language, sociolinguistics, secret language, criminal argot, language standardization.*

So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida nafaqat yozma nutq, balki og‘zaki nutqni tadqiq qilishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati jonli muloqotda qo‘llanuvchi leksik qatlam argo, jargon va sleng nutq birliklarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ta’kidlash lozimki, bugungi kungacha bajarilgan ko‘plab sotsiolingvistik yo‘nalishdagi tadqiqot materiallariga so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan aynan shu birliklar asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ularning oddiy xalq tiliga yaqinligi tilning jamiyatdagi ijtimoiy bahosini aniqlashda muhim omil hisoblanishi mutaxassislarning e’tiborini jalb etib kelmoqda.

Stilistik cheklangan leksik birliklar (argo, jargon va sleng) haqida fikr bildirishdan avval, ushbu noadabiy leksikaning ingliz tilida qanday qilib adabiy tildan ajralib chiqqaniga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Ta’kidlash lozimki, bu jarayon uyg‘onish davriga, ya’ni ingliz tilini standartlashtirish g‘oyalari ilgari surilgan paytlarga borib taqaladi. Chunki, aynan tilni adabiylashtirish orqali uni umumiy bir qolipga solishga bo‘lgan urinishlar avval nutqda, keyin esa badiiy, publitsistik va lingvistik adabiyotlarda argo, jargon va sleng atamalarining paydo bo‘lishiga va ularning hozirgi mavqelariga erishishiga sabab bo‘ldi.

Aslida esa ushbu g‘oyani ilgari surgan ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan Samuel Jonsonning asosiy maqsadi tilni o‘zgarmas yaxlit bir tizimga solish orqali ingliz tilini har xil “parazit” va substandart so‘zlardan tozalash, ularning adabiy tilga suqilib kirishini to‘xtatish bo‘lgan. Afsuski, ularning bu urinishlari o‘zini oqlamadi. Aksincha, o‘sha paytlarda juda past nazar bilan qaralgan oddiy sleng birliklari XXI asrga kelib hatto sleng tili (slanguage – a blend of slang + language) maqomiga erishdi va hozirda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan alohida til deb ham yuritilmoqda [1;13].

Noadabiy leksika tarkibidagi argo, jargon va sleng terminlari, ko‘pincha, tilshunoslikda yonma-yon qo‘llaniladi. Shu sababli, avvalo, ushbu yondosh tushunchalar haqida jahon tilshunosligida hozirgi kungacha bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish orqali ular o‘rtasidagi asosiy o‘xshash va farqli jihatlarni ajratib olish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Aytish lozimki, argo va jargon atamalari fransuz tilidan, sleng esa ingliz tili orqali tilshunoslikka kirib kelgan [2;28].

Argo terminining etimologiyasiga nazar solar ekanmiz, u haqda tadqiqotchilarning turli xil qarashlarni ilgari surganliklariga guvoh bo‘ldik. Masalan, P.Tixanov (1899-1900) argo so‘zining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: 1) argo qadimiy Yunonistondagi “Argos” shahri nomidan olingan; 2) u “Ragot” nomidan olingan. A.Doza esa “argot” leksemasi fransuz tilidagi “Hargoter – so‘kmoq, haqorat qilmoq” fe’lidan olingan deb tavsiflaydi [3;53]. M.A.Grachevning ta’kidlashicha, argo termini fransuz tilidagi “Ergo (fr. ergot) – xo‘rozning pixi” so‘zining noto‘g‘ri qo‘llanishidan paydo bo‘lgan. Xo‘rozning pixi o‘sha davrlarda o‘g‘rilar belgisi hisoblangan [4;128]. Y.Yordanning fikricha, argo so‘zining tarixi rumin tilidagi “argo – qush, parranda tili” so‘ziga borib taqaladi [5;540].

Argoning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, manbalarning guvohlik berishicha, u, dastlab, sodda til so‘z sifatida 1200-1300 yillarda paydo bo‘lgan. Lekin, termin sifatida ilk bor 1600-1700 yillar oralig‘ida qayd etilgan bo‘lib, u, asosan, yashirin maqsadlarda, ya’ni atrofdagilardan o‘z-o‘zini himoya qilish maqsadida, asosan, jinoyat olami vakillari tomonidan foydalanilgan [6;7].

XVII asrgacha bo‘lgan davr mobaynida ushbu termin aynan “O‘g‘rilar tili” ma’nosida argo nomi bilan emas, balki fransuz tilidagi so‘z birikmalari:“langue bleu, la langue verte, italien rogue” kabi nomlar ostida yuritilgan.

“Argo” termini ko‘p davlatlarda turlicha nomlar bilan ataladi. Masalan, ingliz tilshunosligida, ko‘pincha, kent (cant), nemis tilida – rotveli (rotwelsch), ispan tilida – serigonza (xèrigonza), portugal tilida – kalao (calao), niderland tilida – bargoyenz (bargoens), fransuz tilida – argo, rus tilida – argo, jargon yoki kent [7;12], o‘zbek tilshunosligida esa argo [8] deb ataladi.

Tadqiqotchilar tomonidan argoning XIX asrgacha aholining katta qismi uchun tushunarsiz va yashirin til bo‘lgani aytiladi. XIX asrda esa Parijning bir nechta kvartallarida jinoyat olamining tashqi muhitdan ajralishi nihoyasiga yetib, jinoyatchilar argosi boshqalar uchun ham tushunarli til bo‘la boshladi va u sodda til so‘zlar bilan aralashib ketdi. Aynan shu davrdan boshlab argo sodda til so‘zlar tarkibiga chuqur kirib bordi va o‘zining “Yashirin til” maqomini sekin-astalik bilan yo‘qotib, jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlar leksikonidan ham muqim o‘rin egallay boshladi [9;103].

G.Bosh argo haqida fikr bildirar ekan, sodda til so‘z va argoni bir-biriga aralashtirmaslik kerakligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, argo ijtimoiy jihatdan boshqalar uchun yopiq, muayyan toifalar uchun maxfiy til hisoblanadi va uning bir nechta turlari mavjud: jinoyatchilar argosi, kasbiy yoki korporativ argo / jargon. Ular orasida aynan jinoyatchilar argosi sodda til so‘zlarning paydo bo‘lishida eng muhim omil hisoblanadi [10;23-24].

Argo haqida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarning xilma-xilligi, o‘xshash va farqli tomonlarining ko‘pligi sababli, ularni umumlashtirilgan holdagi tasnifini keltirib o‘tamiz. Argoga tavsif bergan olimlarning qarashlarini, asosan, uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Argoni faqat jamiyatning eng past tabaqalari tomonidan qo‘llaniladigan yashirin til deb hisoblovchi tadqiqotchilar. Ularning fikricha, argo atamasi faqat o‘g‘ri va jinoyatchilar tomonidan ishlatiladigan, boshqalar uchun tushunarsiz bo‘lgan tor doiradagi yopiq tilga nisbatan qo‘llanishi kerak. Bunday qarash argoni ijtimoiy jihatdan noqulay va sirli til sifatida ko‘radi, uning asosiy funksiyasi – tashqi dunyo bilan aloqani cheklash va ma’lumotlarni yashirishdir. Shu bilan birga, ular argoning ijtimoiy xavfsizlik va jinoyat olami doirasida qanday ishlatilishini chuqur o‘rganadilar.

2. Argoni jamiyatdagi yoshi, qiziqishi, kasbi yoki qarashlari o‘xshash bo‘lgan turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanuvchi kasbiy yoki korporativ argo/jargon sifatida talqin qiluvchilar. Ularning fikricha, argo faqat jinoyatchilik tiliga tegishli emas, balki professional yoki ijtimoiy guruhlar o‘zaro muloqotda soddalashtirilgan va qisqa ifodali maxsus leksik birliklardan foydalanadi. Bunday tadqiqotchilar argo va jargonni sinonim sifatida ishlatadilar va ularni guruh ichidagi aloqani mustahkamlovchi, tajriba va bilimlarni tez uzatishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘radilar.

3. Argo atamasini keng ma’noda qo‘llovchilar ularning fikriga ko‘ra, argo ham yashirin va maxfiy til, ham korporativ va kasbiy jargon hisoblanadi. Tahlillar shunday xulosaga olib keldiki, argo va jargon ikki xil tushuncha bo‘lib, ular orasidagi asosiy farq argoning yashirinligida ko‘rinadi. Demak, bizningcha, argo stilistik cheklangan leksikaning bir turi bo‘lib, jamiyatning eng quyi qatlami hisoblangan jinoyat olami vakillari nutqida ishlatilganda, o‘zining asl vazifasi bo‘lmish yashirinlik xususiyatini namoyish etadi va to‘liq argo nomi bilan yuritiladi. Jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlar (yoshi, jinsi, kasbi, qiziqishiga ko‘ra uyushgan) leksikonida qo‘llanilganda, u o‘zining yashirinlik xususiyatini yo‘qotib, jargonga aylanadi. Shu sababli, bu o‘rinda u ham “argo” ham “jargon” deb yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Coleman J. The Life of Slang. – Oxford: Oxford University Press, 2012, p.13.

2. Rahimov G‘. Britaniya va Amerika slengining sotsiolingvistik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. ...diss. – Samarqand, 2006 – b.28.

3. Lipatov A.T. Сленг как проблема социолингвистики. – M.:Elpis, 2010.– b. 53.

4. Grachev M.A. Интервенция криминального языка // Наука и жизнь. – M., 2009. № 4. – c. 128.

5. Yordan Y. Романское языкознание. – M.: Progress, 1971. – c. 540.

6. Giraud P. L’argot. 9-e edition / P. Guiraud. – Paris: Presses Universitaires de France, 1985. – p. 7, 128 pp.

7. Rudenko M.Y. Исследование Арго, Жаргон и Сленга: Вопросы терминологии // Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2016. – b. 127.

8. Qarang: Rahimov G'. Britaniya va Amerika slengining sotsiolingvistik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. ...diss. – Samarqand, 2006. – b. 31; Sharipova O' va Rahimov I. Tilshunoslik asoslari. – T., 2006. – б. 47; Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2007. – б. 102.

9. Gadet F. Le français populaire. Paris: Presses Universitaires de France, 1992, p. 103.

10. Bauche H. Le language populaire. – P.: Payot, 1951, pp. 23-24.

UO'K 81'36:81'41

ARAB TILIDAGI SINIQ VA TO'G'RI KO'PLIKNING INGLIZ TILIDAGI KO'PLIK SHAKLLARI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Z.I.Abdusamatova, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon
N.Murxanova, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tilidagi ko'plik kategoriyasining asosiy turlari- siniq koplik(jam taksir) va to'g'ri ko'plik(jam solim) ingliz tilidagi ko'plik shakllari,ularning qo'llanilishi va o'xshash jihatlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda arab tili grammatikasiga katta hissa qo'shgan arab va o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari asosida ko'plikning morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *arab tili grammatikasi, siniq ko'plik, to'g'ri ko'plik, jam' taksir, jam' solim, ingliz tili, qiyosiy tilshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье в сравнительном аспекте рассматриваются основные виды категории множественного числа в арабском языке ломаное множественное число (*джамʿ таксир*) и правильное множественное число (*джамʿ солим*), а также формы множественного числа в английском языке, их употребление и сходные черты. В исследовании на основе научных взглядов арабских и узбекских ученых, внесших значительный вклад в грамматику арабского языка, анализируются морфологические и семантические особенности категории множественного числа.*

Ключевые слова: *грамматика арабского языка, ломаное множественное число, правильное множественное число,* джамʿ таксир, джамʿ солим*, английский язык, сопоставительное языкознание.*

Abstract. *This article provides a comparative study of the main types of the plural category in the Arabic language—broken plurals (*jamʿ taksir*) and sound plurals (*jamʿ solim*) and the plural forms in the English language, their usage, and their similarities. The study analyzes the morphological and semantic features of the plural category based on the scholarly views of Arab and Uzbek linguists who have made significant contributions to Arabic grammar.*

Keywords: *Arabic grammar, broken plural, sound plural,* jamʿ taksir, jamʿ solim*, English language, comparative linguistics.*

Tilshunoslikda ko'plik kategoriyasi son tushunchasini ifodalovchi muhim grammatik hodisa hisoblanadi. Arab tilida ko'plik murakkabligi va turli xilligi bilan ajralib tursa, ingliz tilida,aksincha, aksar hollarda qo'shimcha orqali yasaladi. Shu bois arab va ingliz tillaridagi ko'plik tizimini qiyosiy o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

To'g'ri ko'plik so'zning asosiy shakli, ya'ni ildizi va tuzilishi saqlangan holda yasaladi. Bunda so'zning ichki tarkibi o'zgarmaydi, faqat oxiriga maxsus qo'shimchalar qo'shiladi. Shu sababli u "solim", ya'ni "butun holda saqlangan" ko'plik deb ataladi. Arab tilida to'g'ri ko'plik ikki xil bo'ladi: jam' mudhakkar solim va jam' muannas solim. Jam' mudhakkar solim erkak jinsidagi, aql egasi bo'lgan shaxslarni bildiruvchi otlarga nisbatan qo'llanadi. Bunday ko'plik shaklida so'z oxiriga raf holatida "-ūna", nasb va jarr holatlarida esa "-īna" qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan, "muslim" so'zi ko'plikda "muslimūna" shaklini oladi. Jam' muannas solim esa ayol jinsidagi so'zlar uchun ishlatiladi va asosan "-āt" qo'shimchasi orqali hosil qilinadi. Bu turdagi ko'plik nafaqat ayol jinsidagi shaxslarni, balki ayrim jonsiz predmetlarni ham ifodalashi mumkin. To'g'ri ko'plikning asosiy xususiyati shundaki, u grammatik jihatdan muntazam, qoidalari aniq va o'rganish uchun nisbatan qulaydir.

Siniq ko‘plik esa arab tilidagi eng murakkab va o‘ziga xos ko‘plik turi hisoblanadi. Bu ko‘plik shaklida so‘zning ichki tuzilishi buziladi, ya’ni unlilar almashadi, bo‘g‘inlar soni o‘zgaradi yoki yangi tovushlar qo‘shiladi. Shu bois u “taksir”, ya’ni “sindirilgan” ko‘plik deb yuritiladi. Masalan, “kitāb” so‘zining ko‘pligi “kutub” shaklida keladi. Siniq ko‘plik qat’iy grammatik qoidalarga bo‘ysunmaydi, balki ma’lum vaznlar asosida shakllanadi. Arab tilida bunday vaznlar juda ko‘p bo‘lib, ularning soni o‘ttizdan ortiqdir. Shu sababli siniq ko‘plik shakllarini ko‘pincha lug‘at orqali o‘rganishga to‘g‘ri keladi.Siniq ko‘plik nafaqat grammatik, balki semantik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U ba’zan oddiy ko‘plikni emas, balki ko‘plik darajasini, miqdorning ko‘pligini yoki umumiylik ma’nosini ham ifodalaydi. Arab tilida ko‘plab jonsiz predmetlar, hayvonlar va hatto ayrim insonlarga oid so‘zlar aynan siniq ko‘plik orqali ifodalanadi. Shu jihatdan u to‘g‘ri ko‘plikka qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi, ammo o‘rganishda murakkabroqdir.

Ingliz tilida ko‘plik asosan -s / -es qo‘shimchalari orqali yasaladi (book → books). Ayrim istisno holatlar mavjud (man → men, child → children), biroq arab tilidagi kabi siniq ko‘plik tizimi mavjud emas.

Ingliz tilidagi ko’plikni(plural) arab tilidagi ko’plikka solishtiradigan bo’lsak, ular deyarli teskari deyilsa mubolag’a bo’lmaydi. Sababi shundaki, arab tilidagi ko’plikning 65-70% siniq ko’plik,atigi 30-35%i esa to’g’ri ko’plik hisoblanadi. Ingliz tilida esa ko’plik ayrim holatlardan tashqari, barcha so’zlarga “s”, “es” qo’shimchasi qo’shish orqali yasaladi, ya’ni 90-95%i muntazam ko’plik hisoblanadi.

Ko‘plik kategoriyasini qiyosiy tadqiq etishda muhim, ammo kam yoritiladigan masalalardan biri — ko‘plik va kollektivlik munosabatidir. Arab tilida ayrim siniq ko‘plik shakllari real son ko‘plikdan ko‘ra kollektiv (jamlanma) ma’noni ifodalaydi. Bunday holatda ko‘plik shakli individual birliklarning yig‘indisini emas, balki ularning yagona tushuncha sifatida idrok etilishini anglatadi. Ingliz tilida esa kollektivlik asosan alohida leksik birliklar (family, team, staff) orqali ifodalanadi va grammatik ko‘plik bilan majburiy bog‘lanmaydi. Bu holat arab tilida ko‘plik kategoriyasi kognitiv tasnif vositasi sifatida faolroq ishlatilishini ko‘rsatadi. Yana bir muhim farq ko‘plik va aniqlik (definiteness) o‘rtasidagi munosabatdir. Arab tilida ko‘plik shakli aniqlik kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ma’rifa shakldagi ko‘plik umumiy tushunchani emas, balki aniq referentlar majmuasini bildiradi. Ingliz tilida esa aniqlik artikl orqali ifodalanadi va ko‘plik shakli bu jarayonda ikkilamchi rol o‘ynaydi. Demak, arab tilida ko‘plik semantik aniqlashtirish funksiyasini ham bajaradi.

Shuningdek, ko‘plik kategoriyasining tarjima jarayonidagi muammolari alohida e’tiborga loyiq. Arab tilidagi ayrim siniq ko‘pliklar ingliz tiliga tarjima qilinayotganda oddiy grammatik plural bilan cheklanib bo‘lmaydi, chunki asl matndagi umumiylik, miqdoriy kenglik yoki stilistik ohang yo‘qolishi mumkin. Bu esa qiyosiy grammatika bilan birga qiyosiy tarjimashunoslik doirasida ham ko‘plik kategoriyasini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Arab va ingliz tillaridagi ko‘plik kategoriyasini qiyosiy o‘rganish tillarning morfologik tizimi hamda grammatik tafakkuridagi farqlarni ochib beradi. Arab tilida ko‘plik shakli ko‘pincha so‘zning ichki tuzilishiga ta’sir etib, leksik asosning o‘zgarishi bilan yuzaga keladi. Masalan, kitāb so‘zining ko‘plik shakli kutub tarzida ifodalanib, bunda unlilar almashuvi va bo‘g‘in strukturasining o‘zgarishi kuzatiladi. Ingliz tilida esa xuddi shu leksik birlik book - books shaklida yasaladi va so‘zning ichki tarkibi saqlanib qoladi. Bu holat ingliz tilida ko‘plik shakllanishi tashqi grammatik ko‘rsatkich orqali amalga oshishini ko‘rsatadi.

Arab tilida ko‘plikning ikki asosiy turi uchraydi: muntazam (sālim) ko‘plik va notekis (kasr) ko‘plik. Muntazam ko‘plik ko‘pincha erkak jinsida -ūn/-īn, ayol jinsida esa -āt affikslari orqali hosil qilinadi (talib - ṭullāb emas, balki talib - talibūn/ṭālibīn; muallima - muallimāt). Notekis ko‘plik esa ichki flexiya, ya’ni unli almashuvi, undoshlar orasidagi vokal tuzilmaning o‘zgarishi va bo‘g‘inlar soni hamda urg‘u (ta’kid)ning siljishi orqali vujudga keladi: kitāb - kutub, qalam - aqlām, rajul - rijāl kabi. Bu hodisa semitik tillarga xos bo‘lgan ildiz-andaza (jizr–vazn) tizimining bevosita natijasidir va ko‘plik ma’nosi ko‘pincha ildizning ichki vokal andazasi bilan belgilanadi.

Ingliz tilida esa ko‘plik asosan analitik va aglutinativ ko‘rsatkich —s/-es affiksi orqali hosil qilinadi: book - books, class - classes. So‘zning ichki fonologik tuzilishi, qoida tariqasida,

o‘zgarmaydi, bu esa morfologik jarayonning "tashqi" ko‘rsatkichlar bilan belgilanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ingliz tilida tarixiy sabablarga ko‘ra notekis plural shakllar ham mavjud: man → men, woman → women, child → children, foot → feet, mouse → mice kabi misollar ichki unli almashuvi yoki suppletivlik unsurlarini saqlab qolgan. Biroq bunday istisnolar tizimning umumiy yo‘nalishini o‘zgartirmaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, arab tilida ko‘plik hosil qilish leksik-morfologik darajada kuchli integratsiyalashgan bo‘lib, semantik farqlanishni ham ta’minlashi mumkin (masalan, ayrim so‘zlar uchun ko‘plik andazalari ma’no nozikliklarini bildiradi). Ingliz tilida esa ko‘plik ko‘proq sintaktik va morfologik sathda belgilanuvchi grammatik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi; so‘z turkumlari hamda gap tuzilishida kelishuv (agreement) qoidalari bilan uyg‘unlashadi. Natijada, har ikki tilning ko‘plik kategoriyasini o‘rganish tipologik jihatdan morfologik boylik va soddalik o‘rtasidagi muvozanatni, shuningdek, ichki (ablaut) va tashqi (affiks) mexanizmlar o‘rtasidagi farqlarni aniq namoyon etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, arab tilidagi ko‘plik shakli grammatik ma’nodan tashqari semantik yuk ham ko‘taradi. Masalan, rajul (erkak) so‘zining rijāl ko‘plik shakli nafaqat sonni, balki umumlashtirilgan ijtimoiy guruh ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilida esa “man – men” shakli faqat grammatik ko‘plikni bildiradi va qo‘shimcha semantik ma’no yuklamaydi. Demak, arab tilida ko‘plik shakli ma’no kengayishi bilan bevosita bog‘liq.

Ko‘plikning gapdagi grammatik moslashuviga e’tibor qaratilganda ham sezilarli farqlar kuzatiladi. Arab tilida jonsiz predmetlarni bildiruvchi ko‘plik shakllari ko‘pincha birlikdagi ayol jins shakli bilan moslashadi. Masalan, *al-kutub jadīda* birikmasida kutub ko‘plikda bo‘lsa-da, sifat birlik muannas shaklida keladi. Ingliz tilida esa the books are new birikmasida sifat va fe’l ko‘plik shakliga moslashadi, biroq jins kategoriyasi mavjud emas. Bu holat arab tilida ko‘plik kategoriyasi sintaktik tizim bilan chuqur integratsiyalashganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tilidagi ayrim notekis ko‘plik shakllari (child - children, mouse - mice) mavjud bo‘lsa-da, ular yopiq va cheklangan tizimni tashkil etadi. Arab tilida esa bunday ichki o‘zgarishli ko‘plik shakllari keng va ochiq tizim bo‘lib, nutq amaliyotida faol qo‘llanadi. Natijada, arab tilini o‘rganuvchi shaxs ko‘plikni faqat qoidalar orqali emas, balki kontekst va semantik idrok asosida egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Tadqiqot natijalariga ko‘ra, arab tilidagi ko‘plik tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ayniqsa siniq ko‘plik lingvistik jihatdan katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida esa ko‘plik shakllari soddaroq va barqaror qoidalarga asoslangan. Bu holat arab tilini o‘rganuvchilar uchun maxsus grammatik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Wright W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge: CUP, 1896, - P. 161.
2. Sibavayh. Al-Kitāb. 1988, - B. 72.
3. Usmonov S. Arab tili grammatikasi. Toshkent: Fan, 2015, - B. 126.
4. Abbos Hasan. Mukammal nahv. 1986, - B. 75.

UO’K 81’38:37.016

YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING LINGVODIDAKTIK TALQINI

X.U.Absalamov, PhD, dots.v.b., Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozma nutq kompetensiyasi tushunchasining nazariy asoslari va uning lingvodidaktik talqini tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot kompetensiyaviy paradigma, kommunikativ yondashuv hamda diskurs nazariyasi doirasida olib borildi. Yozma nutq kompetensiyasi ko‘p komponentli tuzilma sifatida talqin qilinib, uning lingvistik, diskursiv, pragmatik, sotsiokulturologik va strategik tarkibiy qismlari aniqlashtirildi. Shuningdek, yozma nutqni o‘qitishning integrativ-kommunikativ modeli asoslab berildi. Tadqiqot natijalari yozma nutq kompetensiyasi shaxsning nafaqat grammatik bilimlari, balki tafakkur madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanligi va metakognitiv nazorat qobiliyatini ham qamrab oluvchi murakkab jarayon ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so'zlar: *yozma nutq, kompetensiya, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, diskurs, akademik yozuv, strategik kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье системно анализируются теоретические основы понятия письменной речевой компетенции и её лингводидактическая интерпретация. Исследование выполнено в рамках компетентностного подхода, коммуникативной парадигмы и теории дискурса. Письменная речевая компетенция рассматривается как многокомпонентная структура, включающая лингвистический, дискурсивный, прагматический, социокультурный и стратегический компоненты. Обосновывается интегративно-коммуникативная модель обучения письменной речи. Результаты исследования показывают, что письменная речевая компетенция представляет собой сложный когнитивно-коммуникативный процесс, охватывающий не только грамматические знания, но и культуру мышления, социальную адаптацию и метакогнитивный контроль.*

Ключевые слова: *письменная речь, компетенция, лингводидактика, коммуникативный подход, дискурс, академическое письмо, стратегическая компетенция.*

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the theoretical foundations of written communicative competence and its linguodidactic interpretation. The study is conducted within the framework of the competence-based paradigm, communicative approach, and discourse theory. Written communicative competence is interpreted as a multi-component structure comprising linguistic, discursive, pragmatic, sociocultural, and strategic elements. An integrative-communicative model for teaching writing is substantiated. The findings indicate that written communicative competence is a complex cognitive and communicative process that encompasses not only grammatical knowledge but also critical thinking, social adaptability, and metacognitive regulation.*

Keywords: *written communication, competence, linguodidactics, communicative approach, discourse, academic writing, strategic competence.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida shaxsning kommunikativ salohiyati uning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yozma nutq kompetensiyasi global axborot makonida samarali faoliyat yuritishning muhim sharti bo'lib, u nafaqat lingvistik bilimlarni, balki tafakkur madaniyatini, mantiqiy fikrlashni, ijtimoiy kontekstni anglashni va pragmatik moslashuvni ham talab etadi. Kompetensiya tushunchasi tilshunoslikka Noam Chomsky tomonidan kiritilib, dastlab u "lingvistik kompetensiya"ni ideal til egasining ichki bilim tizimi sifatida talqin qilgan. Biroq mazkur yondashuv real kommunikativ jarayonni to'liq qamrab olmagani sababli, keyinchalik Dell Hymes tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi ilgari surildi va unda tilning ijtimoiy qo'llanish qobiliyati asosiy mezon sifatida belgilandi. Shu tariqa, yozma nutq kompetensiyasi ham sof grammatik bilimdan tashqari, kontekstual va funksional xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab tizim sifatida shakllandi. Bugungi kunda lingvodidaktikada yozma nutq kompetensiyasi matn yaratish, uni strukturaviy tashkil etish, auditoriyaga moslashtirish va reflektiv tahrirlash ko'nikmalarini o'z ichiga oluvchi integrativ jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi yozma nutq kompetensiyasi tushunchasining nazariy ildizlarini ochib berish hamda uning lingvodidaktik interpretatsiyasini tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, unda nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv, komponentli tahlil va modellash metodlari qo'llanildi. Avvalo, kompetensiya tushunchasining evolyutsiyasi va uning tilshunoslikdagi talqinlari o'rganildi. Xususan, Michael Canale va Merrill Swain tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modeli tahlil qilinib, undagi grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar yozma nutq kompetensiyasiga nisbatan moslashtirildi. Shuningdek, sotsiokognitiv yondashuv asosida Lev Vygotskyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmini tushuntirishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi ajratib ko'rsatildi va ularning o'zaro funksional bog'liqligi aniqlashtirildi. Modellash jarayonida yozma nutqni shakllantirishning integrativ-kommunikativ

modeli ishlab chiqildi, bunda reproduktiv, transformativ va produktiv bosqichlar o‘zaro uzviy tizim sifatida qaraldi. Metodologik jihatdan tadqiqot kompetensiyaviy paradigma doirasida olib borildi va unda shaxsning faol subyekt sifatidagi roli asosiy e'tiborga olindi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalari yozma nutq kompetensiyasining ko‘p komponentli va dinamik tizim ekanini tasdiqladi. Birinchidan, lingvistik komponent yozma nutqning grammatik to‘g‘riligi, leksik boyligi va sintaktik murakkabligini ta'minlaydi, biroq u yakka holda to‘liq kompetensiyani ifodalay olmaydi. Ikkinchidan, diskursiv komponent matnning mantiqiyligi, kohesiyasi va koherensiyasini ta'minlab, mazmunning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi; bu borada Teun A. van Dijkning diskurs nazariyasi muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, pragmatik komponent yozuvchining kommunikativ vaziyatni to‘g‘ri baholashi va auditoriyaga mos stil tanlash qobiliyatini ifodalaydi. To‘rtinchidan, sotsiokulturologik komponent madaniy kontekstni hisobga olish, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olishni talab qiladi. Nihoyat, strategik komponent yozma jarayonni rejalashtirish, tahrirlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi metakognitiv mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yozma nutq kompetensiyasi faqat tayyor bilimlarni qo‘llash emas, balki yangi matn yaratish, g‘oyalarni tizimlashtirish va ijtimoiy muhitga moslashtirish jarayonidir. Shu bois uni rivojlantirish jarayoni tizimli, bosqichli va reflektiv xarakterga ega bo‘lishi zarur.

Lingvodidaktik talqinda yozma nutq kompetensiyasi o‘qitish jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi va u kommunikativlik, integrativlik hamda refleksivlik tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy metodist olimlar, jumladan Jack C. Richards va Jeremy Harmer yozma nutqni jarayon sifatida o‘qitish modelini taklif etib, unda pre-writing, drafting, revising va editing bosqichlari alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv yozma nutqni yakuniy mahsulot emas, balki dinamik va interaktiv jarayon sifatida ko‘rishga imkon beradi. Shuningdek, konstruktivistik paradigma vakili Jean Piaget yozma nutqni shaxsning faol bilim qurish jarayoni sifatida talqin qilib, o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga urg‘u beradi. Lingvodidaktik modelda yozma nutqni shakllantirish o‘quvchining motivatsiyasi, kognitiv faolligi va ijtimoiy tajribasiga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi o‘qitish metodlarining kommunikativ yo‘naltirilganligi, teskari aloqa tizimining mavjudligi va reflektiv baholash mexanizmlariga bevosita bog‘liq. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida yozma nutqni o‘qitish integrativ-kommunikativ model asosida, real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozma nutq kompetensiyasi nazariy jihatdan lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya hamda diskurs nazariyalarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli hodisa hisoblanadi. U nafaqat til tizimini bilish va grammatik me'yorlarga rioya qilishni, balki til birliklarini muayyan kommunikativ vaziyatda maqsadga muvofiq qo‘llay olish, matnni mantiqiy izchillikda qurish, auditoriyani hisobga olish va madaniy moslikni ta'minlash kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois yozma nutq kompetensiyasi sof lingvistik bilimlar yig‘indisi emas, balki integrativ xarakterga ega bo‘lgan, bir nechta nazariy paradigmalar kesishuvida shakllangan kompleks tizim sifatida talqin qilinadi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan yozma nutqni ko‘p komponentli, bosqichma-bosqich va reflektiv rivojlanadigan jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda o‘quvchi dastlab lingvistik birliklarni o‘zlashtiradi, keyingi bosqichda ularni kommunikativ vaziyatga moslashtiradi, undan so‘ng esa matnni diskurs darajasida yaxlit va mantiqiy tuzilma sifatida shakllantirishni o‘rganadi. Reflektivlik esa yozma nutqning muhim xususiyati bo‘lib, o‘quvchining o‘z matnini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va ularni mustaqil ravishda tuzatishi orqali namoyon bo‘ladi. Aynan shu reflektiv jarayon yozma nutqni og‘zaki nutqdan farqlab turadi va uning ongli, nazorat qilinadigan faoliyat sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish integrativ-kommunikativ model asosida tashkil etilganda sezilarli samaradorlikka erishiladi. Bunday model doirasida lingvistik aniqlik, pragmatik moslik va sotsiokulturologik adekvatlik o‘zaro uyg‘un holda shakllantiriladi. Mashqlar tizimi real kommunikativ vaziyatlarga asoslanadi, diskursiv bog‘liqlikni ta'minlashga yo‘naltiriladi hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi. Natijada

yozma matnlar nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki mantiqan asoslangan, adresatga yo‘naltirilgan va madaniy jihatdan mos bo‘ladi.

Xulosa. Yozma nutqni o‘qitish jarayoni faqat grammatik mashqlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. U diskursiv qurilish mexanizmlarini, pragmatik maqsadni belgilashni, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini, shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya elementlarini ham qamrab olishi zarur. Faqat shundagina yozma nutq kompetensiyasi kompleks va barqaror tarzda shakllanadi hamda o‘quvchilarning akademik va professional faoliyatda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
2. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches.
4. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
5. van Dijk, T. A. (1985). Discourse and Communication.
6. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today.
7. Harmer, J. (2004). How to Teach Writing.
8. Piaget, J. (1970). Genetic Epistemology.
9. Hyland, K. (2003). Second Language Writing.
10. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching.

UO’K 811.133.1`373.7

FRANSUZ FRAZEOLOGIZMLARINING TARIXIY-ETIMOLOGIK MANBALARI

M.N.Achilov, o‘qituvchi, Toshkent Tibbiyot Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ilmiy maqolamizda fransuz frazeologizmlarining tarixiy-yetimologik manbalari hamda ularning umumiy va farqli tomonlari tahlil qilinadi. Frazeologiyaning insonning ruhiy holatini, hissiy kyechinmalarini va dunyoqarashini aks yettiruvchi tomonlari tarjimalar asosida analiz qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, majoziy ma’no, iboralar, frazeologik birliklar.*

Аннотация. *В данной научной статье анализируются историко-этимологические источники французских фразеологизмов, а также их общие и различные аспекты. На основе переводов анализируются аспекты фразеологии, отражающие психическое состояние человека, его эмоциональные переживания и мировоззрение.*

Ключевые слова: *фразеология, переносное значение, выражения, фразеологические единицы.*

Abstract. *Our scientific article analyzes the historical and etymological sources of French phraseologisms, as well as their common and different aspects. The aspects of phraseology that reflect a person’s mental state, emotional experiences and worldview are analyzed on the basis of translations.*

Key words: *phraseology, figurative meaning, expressions, phraseological units.*

Kirish. Fransuz tilidagi frazeologik birliklarning tarixiy-etimologik manbalari o‘rganar ekanmiz ushbu til lingvistikasi doirasida bu yo‘nalish frazeologizmlarning kelib chiqish omillari, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda semantik evolyutsiyasini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi. Fransuz frazeologiyasi turli tarixiy qatlamlar lotin tilidan meros bo‘lgan birliklar, o‘rta asr xalq og‘zaki nutqi, diniy matnlar, ritsarlik adabiyoti, saroy uslubi hamda keyingi davr badiiy adabiyoti asosida shakllangan murakkab tizim hisoblanadi.Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, fransuz frazeologizmlarining eng qadimgi manbai vulgarlashgan lotin tili hisoblanadi. Romanistika vakillari frazeologik birliklarning ko‘pchiligi lotincha iboralar semantik transformatsiyasi natijasida paydo bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu jarayon tilning tarixiy taraqqiyoti davomida metaforizatsiya, metonimizatsiya va semantik torayish kabi hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Fransuz frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri **Charles Bally** frazeologik birliklarni tilning ekspressiv-stilistik resursi sifatida baholab, ularning kelib chiqishini

nutqiy tajriba va ijtimoiy kommunikatsiya bilan bog‘laydi. Uning qarashlariga ko‘ra, frazeologizmlar individual nutq mahsuli emas, balki jamoaviy nutq tajribasining tarixiy kristallashuvi natijasidir.

Alain Rey frazeologizmlarni tarixiy lug‘atlar materiallari asosida tahlil qilib, ularning kelib chiqish manbalari ko‘pincha quyidagi sohalarga borib taqalishini ko‘rsatadi:

- antik adabiyot;
- xalq maqollari va matallari;
- tarixiy voqealar;
- kasb-hunar leksikasi;
- harbiy terminologiya.

Reyning ta’kidlashicha, frazeologizmlarning etimologiyasini aniqlashda nafaqat lingvistik, balki tarixiy-madaniy kontekstni ham hisobga olish zarur, chunki ko‘plab iboralar bevosita ma’lum tarixiy hodisalar yoki ijtimoiy an’analar bilan bog‘liq holda shakllangan.

Frazeologik birliklarning tarixiy manbalarini o‘rganishda qiyosiy tilshunoslik tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Struktur-semantik yo‘nalish vakili bo‘lgan **Viktor Vinogradov** frazeologik birliklarning kelib chiqishini ularning semantik yaxlitligi va komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi bilan izohlab, tarixiy-etimologik tahlilni frazeologiya tadqiqotining zarur bosqichi sifatida ko‘rsatadi.

Fransuz tilidagi ko‘plab frazeologik birliklarning tarixiy-etimologik ildizlari antik yunon va rim adabiyotiga borib taqaladi. Antik davr matnlari Yevropa madaniy xotirasining asosiy qatlamlaridan biri bo‘lgani sababli, bu davr obrazlari, mifologik personajlari va syujetlari keyingi asrlarda frazeologik birliklar shaklida til tizimiga singib ketgan. Romanistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilidagi idiomatik iboralarning muhim qismi antik matnlarning o‘rta asr tarjimalari, diniy talqinlari va klassik ta’lim tizimi orqali ommalashgan.

Antik adabiyot manbalari deganda, avvalo yunon epik she’riyati, tragediya matnlari hamda rim klassik adabiyoti nazarda tutiladi. Xususan, Homer, Virgil va Ovidiy asarlaridagi obraz va syujetlar fransuz frazeologiyasida semantik metafora sifatida mustahkamlangan. Misol sifatida quyida birnecha (FB) larni berganmiz:

*”Talon d’Achille” (Axilles to‘pig‘i).Eng zaif nuqta. Axillesning yagona zaif joyi to‘pig‘i bo‘lgani haqidagi rivoyat asosida shakllangan.Bu ibora fransuz tilida insonning yashirin yoki asosiy kamchiligini ifodalaydi.”Cheval de Troie” (Troya oti).Yashirin xavf, ichkaridan zarba beruvchi vosita. Hozirda bu ibora siyosat, texnologiya, masalan kompyuter virusi nomi va publitsistik nutqda keng qo‘llanadi.”Ouvrir la boîte de Pandore”(Pandora qutisini ochmoq).Kutilmagan balolarni boshlab yubormoq.*Yunon mifologiyasida Pandora afsonasi. Ovid rivoyatlari orqali Yevropa madaniyatiga keng tarqalgan.

Frazeologiya nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan Sharl Balli antik manbalardan kirib kelgan iboralarni “tarixiy-madaniy stereotiplarning lingvistik kristallashuvi” deb ta’riflaydi. Uning fikricha, bunday birliklar oddiy metafora emas, balki kollektiv xotiraning til shakliga aylangan ko‘rinishidir.

Fransuz leksikografi Alan Rey esa fransuz frazeologiyasining katta qismi klassik ta’lim tizimi orqali tilga kirganini ta’kidlaydi. XVII–XIX asrlarda klassik gimnaziyalarda yunon va lotin matnlarini o‘qish majburiy bo‘lganligi sababli antik obrazlar xalq nutqiga ham singib ketgan.

Antik adabiyot fransuz frazeologik fondining muhim tarixiy qatlamini tashkil etadi. Bu qatlam mifologik va tarixiy personajlarga asoslanishi,metaforik semantikaning ustunligi,madaniy universallik darajasining yuqoriligi,ko‘p tillarda parallel ekvivalentlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadiva shu sababli antik adabiyotdan kelib chiqqan frazeologizmlar fransuz tilining nafaqat tarixiy merosi, balki zamonaviy nutqiy tizimining ham faol qismi hisoblanadi. Ularni o‘rganish fransuz frazeologiyasining genezisi, semantik evolyutsiyasi va madaniy asoslarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Fransuz frazeologizmlarining tarixiy-etimologik manbalari orasida xalq maqollari va matallari alohida o‘rin tutadi. Bunday birliklar tilning qadimiy qatlamini saqlab qolgan bo‘lib, ular xalq donishmandligi, tarixiy tajriba va madaniy stereotiplarning tilga singib ketgan shaklidir. Quyida ushbu masala bo‘yicha ilmiy qarashlar, misollar va izohli snoskalar keltiriladi.

Tilshunoslarning fikricha, ko‘plab fransuz iboralari dastlab mustaqil maqol yoki hikmatli gap bo‘lgan, keyinchalik qisqarib yoki ma’no siljishi orqali frazeologik birlikka aylangan. *Masalan: ”Chercher midi à quatorze heures” (ortiqcha murakkablashtirmoq).Aslida bu qadimiy maqoldan: Il ne faut pas chercher midi à quatorze heures (Tushni soat o‘n to‘rtdan izlama) ya’ni oddiy narsani qiyinlashtirma. ”L’habit ne fait pas le moine” (tashqi ko‘rinishga qarab baholama).*Bu ibora to‘liq maqol shaklida ham ishlatiladi va o‘rta asrlardagi monastir hayotidan kelib chiqqan. *Petit à petit l’oiseau fait son nid (asta-sekin maqsadga yetiladi).*Hozir ham maqol sifatida ishlatiladi, lekin “petit à petit” qismi mustaqil frazeologizmga aylangan. Fransuz frazeologiyasining maqollardan kelib chiqqan birliklari odatda o‘rta asr xalq og‘zaki ijodiga mansub. *Masalan: ”Mettre la charrue avant les bœufs” (ish tartibini buzmoq) so‘zma-so‘z aravani ho‘kizdan oldin qo‘ymoq.* Bu davr iboralari ko‘pincha diniy, dehqonchilik yoki ritsarlik hayotiga oid yoki antik va bibliyaviy hikmatlarning xalqona shakllaridan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik umumiy frazeologizmga aylangan.Ba’zi iboralar yozma manbadan xalq nutqiga o‘tgan, keyin yana adabiy tilga qaytgan. Fransuz frazeologizmlarining muhim qismi tarixan xalq maqollari va matallaridan kelib chiqqan. Bu jarayonxalq og‘zaki ijodi,diniy va tarixiy matnlar, adabiy asarlar o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan. Shunday ekan frazeologizmlar nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy tafakkuri va madaniy tajribasini saqlovchi lingvistik yodgorliklar hisoblanadi. Maurice Grevisse esa frazeologizmlar tarixini o‘rganishda etimologiyani majburiy bosqich deb hisoblaydi, chunki iboraning asl ma’nosini bilmasdan uning hozirgi semantikasi tushunilmaydi.

Xulosa. Frazeologizmlar tilning eng konservativ qatlamlaridan biri bo‘lib, ular ko‘pincha konkret tarixiy voqea, siyosiy hodisa yoki ijtimoiy tajriba natijasida shakllanadi. Fransuz frazeologizmlarining muhim qismi konkret tarixiy voqealar, siyosiy hodisalar, harbiy kampaniyalar,sud jarayonlari natijasida yuzaga kelgan. Ular dastlab referensial birlik bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan metaforik va umumlashgan ma’no kasb etgan. Shuning uchun tarixiy-etimologik yondashuv frazeologiyani o‘rganishda majburiy metodologik prinsip hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Achilov, M. N. (2023). Fonetik so’z yasalishi ibora va o’xshatishlarda. academic research in educational sciences, 4(tma conference), 80-83.

2. Ачилов, М. Н. (2023). Словообразование в латинском языке. Academic research in educational sciences, 4(tma conference), 84-87.

3. Ачилов, М. Н. Образование существительных первого типа в единственном и множественном числе в латинском языке. Муаллим м зликсиз билимлендири, 21.

4. Achilov, M. N. (2024). Zamonaviy tibbiyot terminologiyasining tarkibi va uning xususiyatlari. Academic research in educational sciences, (1), 404-406.

5. Norquliyevich, A. M. (2022). Lotin tilidagi nominal so'z yasalish hodisasi va uning reflekslari. In proceedings of international conference on educational discoveries and humanities (Vol. 1, NO. 3, PP. 144-146).

6. Ачилов, М. Н. Образование существительных первого типа в единственном и множественном числе в латинском языке. Муаллим œм зликсиз билимлендири, 21.

7. Ачилов, М. Н. (2019). Аналитическое словообразование. Modern scientific research, 247.

8. Ачилов, М. Н. (2019). Конверсионная транспозиция. Modern scientific research, 249.

9. Norquliyevich, A. M. (2025). Traditional, innovative, and interactive methods of teaching latin in medicine. *Educator insights: journal of teaching theory and practice*, *1*(3), 146-148.

10. Norquliyevich, A. M. (2025). The phenomenon of nominal word formation in medical terminology. *Modern education and development*, *22*(1), 34-37.

11. Achilov, M. (2025). XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta’rif. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *3*(4).

12. Achilov, M. Tibbiyot va frazeologiya inson omilida. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 674876.

UO’K 808.5

SOG‘LIQNI SAQLASH VA TA’LIM YANGILIKLARI SARLAVHALARIDA IMPLITSIT MADANIY PRESUPPOZITSIYALAR GERMENEVTIK TAHLIL VA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MONITORING

K.T.Alimova, katta o‘qituvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada sog‘liqni saqlash va ta’limga oid yangilik sarlavhalarida yashirin madaniy presuppozitsiyalar qanday kodlanishi va germenevtik doira asosida qanday ochib berilishi*

yoritiladi. Shuningdek, ekspert talqini bilan birga kontekstli til modellari orqali kross-til monitoring qilish uchun amaliy ish tartibi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *germenevtika, presuppozitsiya, sarlavha, freymlash, implikatura, infodemiya, mediakompetensiya, kross-til tahlil.*

Аннотация. *В статье рассматривается, как скрытые культурные пресуппозиции в заголовках новостей о здоровье и образовании управляют интерпретацией читателя и общественным доверием. Предлагается гибридная схема анализа: герменевтическая интерпретация и масштабирование через контекстные языковые модели для кросс-языкового мониторинга.*

Ключевые слова: *герменевтика, пресуппозиция, заголовок, фрейминг, импликатура, инфодемия, медиаграмотность, межъязыковой анализ.*

Abstract. *The article explains how implicit cultural presuppositions in health and education headlines guide readers' interpretation and trust. It proposes a hybrid workflow that combines hermeneutic interpretation with contextual language models for scalable cross-lingual monitoring.*

Keywords: *hermeneutics, presupposition, headlines, framing, implicature, infodemic, media literacy, cross-lingual analysis.*

Kirish. Raqamli axborot muhiti sharoitida yangilik sarlavhasi matnning "kirish darvozasi" bo'lib qoldi: ko'pchilik foydalanuvchi asosiy matnni ochmasdan turib, lentada sarlavhani ko'zdan kechiradi va shu asosda hissiy munosabat hamda dastlabki xulosa chiqaradi. Sog'liqni saqlash va ta'limga oid mavzular esa jamiyat uchun eng sezgir maydonlardan bo'lgani sababli sarlavha nafaqat axborot, balki ishonch, xavfsizlik, mas'uliyat va me'yor haqidagi tasavvurlarni tezkor tarzda shakllantiradi. Freymlash nazariyasiga ko'ra, OAV voqea-hodisani yoritishda ma'lum jihatlarni tanlab ajratadi va shu jihatlarni "ko'rinarlı" qilib beradi; natijada o'quvchi muammo nimada, sabab kimda, baho qanday va qanday yechim maqbul degan savollarga sarlavhaning o'zidayoq yo'nalish oladi [5].

Sarlavha pragmatik jihatdan ham o'ziga xos: u o'quvchini maksimal "kontekst effekti"ga minimal "qayta ishlash mehnati" bilan olib borishga intiladi. Dor sarlavhalarni "relevans optimizatori" sifatida talqin qilib, ular o'quvchini to'g'ri kontekstni qurishga yo'naltirishini ko'rsatadi [4]. Onlayn muhitda esa diqqat iqtisodiyoti kuchayib, klik-beyt strategiyalari sarlavhani yanada kompressiya qiladi: Blom va Hansen katta korpus asosida forvard-referensiya (oldinga ishora) sarlavhalarda "o'lja" vazifasini bajarishini empirik dalillar bilan asoslaydi [1].

Shu bilan birga, sarlavhaning asosiy kuchi ko'pincha aytilmagan, ammo taxmin qilinadigan ma'nolarda namoyon bo'ladi. Bunday yashirin qatlam presuppozitsiyalar (oldindan mavjud deb qabul qilinadigan bilimlar), implikaturalar (Graysga ko'ra muloqotning hamkorlik tamoyillari asosida chiqariladigan xulosalar) va madaniy skriptlar orqali ishlaydi [7].

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. So'nggi yillarda sog'liq mavzusidagi axborot oqimida infodemiya (noto'g'ri, chalg'ituvchi yoki haddan tashqari ko'p axborot tufayli qaror qabul qilish qiyinlashishi) muammosi alohida kun tartibiga chiqdi. WHO risk-kommunikatsiya, jamoa bilan ishlash va infodemiya boshqaruvi (RCCE-IM) orqali ishonchni mustahkamlash, savollarga tez javob berish, "axborot bo'shliqlari"ni yopish hamda xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi [13]. Ta'lim diskursida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: islohotlar, raqamli platformalar, baholash tizimi yoki chet til o'qitishdagi o'zgarishlar sarlavha orqali "taraqqiyot", "xavf", "nazorat" yoki "imkoniyat" ramkalarida ko'rsatiladi. UNESCO media va axborot savodxonligini (MIL) shaxsning zamonaviy kommunikatsiya ekotizimida axborotni topish, baholash va yaratish bo'yicha asosiy kompetensiyasi sifatida ko'radi; MIL o'qituvchilar uchun o'quv dasturi aynan tanqidiy o'qish va kontekstni to'g'ri qurish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan [11]. Demak, sarlavhalarni hermenevtik va pragmatik tahlil qilish nafaqat nazariy, balki pedagogik jihatdan ham dolzarb.

Tadqiqot usullari. Presuppozitsiyalarni aniqlashda lingvistik ko'rsatkichlar (takroriylik: "yana", "qayta"; davomiylik: "hamon"; normativlik: "kerak", "shart"; qiyos: "eng", "yana ham"; nominalizatsiya va agentni yashirish) hamda pragmatik kontekst (kimga qaratilgan, qanday ijtimoiy sharoitda) hisobga olinadi. Implikatura esa Grice tamoyillari (miqdor, sifat, uslub, relevans)

“buzilishi” yoki cheklanishi natijasida o‘quvchi chiqaradigan xulosalar sifatida qayd etiladi [7]. Hermenevtik doirada esa har bir sarlavha “butun” diskurs bilan tekshiriladi: sarlavha nimani nazarda tutyapti, qaysi gorizontga tayanadi, qanday madaniy skriptni faollashtiradi [6].

Olingan natijalar tahlili. Gibrid tahlil natijalari (pilotsifat) sarlavhada uchraydigan presuppozitsiyalar ko‘pincha freymni “oldindan” belgilab qo‘yishini ko‘rsatadi. Masalan, sog‘liq mavzusida “yana” (takroriylik) va “keskin” (intensivlik) kabi markerlar xavf ramkasini faollashtiradi; ta’lim mavzusida esa “majburiy”, “yangi tartib” kabi nomlar nazorat va institutsional islohot ramkalarini oldinga chiqaradi. Bunday sarlavhalar o‘quvchini muayyan ijtimoiy taxminlarga tayangan holda tez xulosa qilishga undaydi. Nabi va hammualliflar sog‘liq sarlavhalarini “skan” qilishning o‘zi ham ishonch va xulqiy niyatga emotsional yo‘l bilan ta’sir qilishini ko‘rsatadi; demak, sarlavhaning emotsional freymi bevosita amaliy oqibatga ega [9].

Kross-til solishtirishda quyidagi tendensiyalar kuzatildi. Ingliz sarlavhalarida agentni aniq nomlash va sababni keskinlashtirish tez-tez uchraydi, bu esa mas’uliyatni shaxs yoki tashkilotga bog‘laydi; o‘zbek sarlavhalarida esa institutsional neytrallik ko‘proq saqlanib, baho ko‘pincha presuppozitsiya sifatida “fon”da qoladi. Dor ta’kidlaganidek, sarlavha o‘quvchini optimal kontekstga yo‘naltiradi [4]; ammo bu “optimal”lik turli madaniyatlarda turlicha quriladi: bir joyda ko‘proq aytiladi, boshqa joyda ko‘proq taxmin qilinadi. Klikbeyt strategiyalari ham farqlanadi: Blom va Hansen ko‘rsatgan forvard-referensiya turidagi sarlavhalar o‘quvchini matnga kirishga majbur etadi, biroq sog‘liq mavzusida bu usul ortiqcha noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin [1].

Xulosa. Sog‘liqni saqlash va ta’lim diskursida yangilik sarlavhalari qisqa shakl orqali katta ijtimoiy ta’sirga ega: ular freymni belgilaydi, mas’uliyatni taqsimlaydi, emotsional fon yaratadi va o‘quvchini ma’lum madaniy taxminlar asosida xulosa chiqarishga undaydi. Hermenevtik yondashuv presuppozitsiyalar va implikaturalar orqali ishlaydigan implitsit ma’nolarni ochib beradi. Sun’iy intellektga tayangan monitoring esa bu kategoriyalarni ommaviy axborot oqimida erta aniqlash va ta’lim jarayonida mediakompetensiya ko‘nikmalarini real material asosida rivojlantirish imkonini beradi. Maqolada taklif etilgan gibrid ish tartibi amaliy qiymatga ega: WHO tavsiyalaridagi RCCE-IM yondashuvini kommunikatsion monitoring bilan qo‘llab-quvvatlash va UNESCO MIL maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Blom J.N., Hansen K.R. Click bait: Forward-reference as lure in online news headlines // Journal of Pragmatics. 2015. Vol. 76. P. 87–100.

2. Conneau A., Khandelwal K., Goyal N. va boshq. Unsupervised cross-lingual representation learning at scale // Proceedings of ACL 2020. P. 8440–8451.

3. Devlin J., Chang M.-W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // NAACL-HLT 2019 Proceedings. P. 4171–4186.

4. Dor D. On newspaper headlines as relevance optimizers // Journal of Pragmatics. 2003. Vol. 35(5). P. 695–721. DOI: 10.1016/S0378-2166(02)00134-0.

5. Entman R.M. Framing: Toward clarification of a fractured paradigm // Journal of Communication. 1993. Vol. 43(4). P. 51–58.

6. George T. Hermeneutics // The Stanford Encyclopedia of Philosophy. 2020. URL: https://plato.stanford.edu/entries/hermeneutics/

7. Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.

8. van Dijk T.A. News as discourse. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. 200 p.

9. Nabi R.L., Dobmeier C.J., Yaros A., Parikh R. Effects of scanning health news headlines on trust in science: An emotional framing perspective // Health Communication. 2024. DOI: 10.1080/10410236.2024.2321404.

10. Peters M.E., Neumann M., Iyyer M. va boshq. Deep contextualized word representations // NAACL-HLT 2018 Proceedings. P. 2227–2237.

11. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum – E-version. URL: https://www.unesco.org/mil4teachers/en/curriculum (мурожаат санаси: 2026-02-27).

12. World Health Organization. WHO policy brief: Building trust through risk communication and community engagement and infodemic management. 10 December 2024.

UO'K 82.091:821(73)+821(575.1)

AMERIKA VA O'ZBEK ADABIYOTIDA MODDIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Z.O.Amirova, PhD, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi
ORCID: 0009-0001-8883-6456

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amerika va o'zbek adabiyotida moddiy hamda ma'naviy qadriyatlar oppozitsiyasi qiyosiy-tipologik tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda Amerika adabiyotida shakllangan "Amerika orzusi" konsepti hamda o'zbek nasrida markaziy o'rin tutuvchi "ma'naviyat" kategoriyasi badiiy-falsafiy model sifatida talqin qilinadi. Qiyosiy yondashuv orqali kapitalistik individualizm va sharqona axloqiy-ijtimoiy tafakkur o'rtasidagi farqlar ochib beriladi. Tahlil natijasida Amerika nasrida moddiy muvaffaqiyatning ekzistensial inqirozga olib kelishi, o'zbek nasrida esa ma'naviy idealning axloqiy barqarorlik sifatida saqlanishi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *moddiyat, ma'naviyat, Amerika orzusi, qadriyatlar oppozitsiyasi, qiyosiy-tipologik tahlil, madaniy model, axloqiy paradigma.*

Аннотация. *В данной статье оппозиция материальных и духовных ценностей в американской и узбекской литературе исследуется на основе сравнительно-типологического анализа. В работе концепт «Американской мечты», сформировавшийся в американской литературной традиции, а также категория «духовность», занимающая центральное место в узбекской прозе, интерпретируются как художественно-философские модели. Сравнительный подход позволяет выявить различия между капиталистическим индивидуализмом и восточной этико-социальной моделью мышления. В результате анализа установлено, что в американской прозе материальный успех приводит к экзистенциальному кризису, тогда как в узбекской литературе духовный идеал сохраняется в качестве основы нравственной устойчивости.*

Ключевые слова: *материальность, духовность, Американская мечта, оппозиция ценностей, сравнительно-типологический анализ, культурная модель, нравственная парадигма.*

Abstract. *This article examines the opposition of material and spiritual values in American and Uzbek literature through a comparative-typological approach. The study interprets the concept of the "American Dream," formed within the American literary tradition, and the category of "spirituality," which occupies a central position in Uzbek prose, as artistic and philosophical models. The comparative perspective reveals the differences between capitalist individualism and the Eastern ethical-social paradigm of thought. The analysis demonstrates that in American prose material success often leads to existential crisis, whereas in Uzbek literature the spiritual ideal is preserved as a foundation of moral stability.*

Keywords: *materiality, spirituality, the American Dream, value opposition, comparative-typological analysis, cultural model, moral paradigm.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotning asosiy falsafiy muammolaridan biri moddiy farovonlik va ma'naviy barqarorlik o'rtasidagi ziddiyatdir. XX asr sanoatlashuv, kapitalizm va global ijtimoiy siljishlar davri sifatida qadriyatlar tizimini tubdan o'zgartirdi. G'arb madaniyatida bu jarayon "Amerika orzusi" g'oyasi orqali ifodalangan bo'lsa, Sharq, xususan o'zbek adabiyotida ma'naviyat insoniy kamolotning asosiy mezoni sifatida saqlanib qoldi. Qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan Amerika va o'zbek nasrini o'rganish ikki xil sivilizatsion modelning badiiy in'ikosini aniqlash imkonini beradi.

Amerika adabiyotida "Amerika orzusi" konsepti shaxsiy mehnat, tashabbus va qat'iyat orqali ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqidagi g'oyaga asoslanadi. Bu tushuncha dastlab mustamlaka davri protestant axloqi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik kapitalistik tafakkur doirasida shakllangan. M. Veber protestant etikasi va kapitalizm ruhiyati o'rtasidagi aloqani tahlil qilib, iqtisodiy muvaffaqiyatni ma'naviy tanlanganlik belgisi sifatida talqin etilganini ko'rsatadi [1]. Shu

tariqa moddiy muvaffaqiyat nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-ideologik kategoriya sifatida qaror topadi.

XX asrga kelib, ayniqsa "jaz davri" (Jazz Age) adabiyotida bu konsept tanqidiy qayta ko'rib chiqila boshlaydi. F.Skott Fitsjeraldning *The Great Gatsby* (1925) romani ana shu jarayonning yorqin namunasi hisoblanadi. Asarda "Amerika orzusi" nafaqat ijtimoiy yuksalish g'oyasi, balki estetik va semantik konstruksiya sifatida dekonstruksiya qilinadi.

Jey Getsbi obrazi moddiy modelning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U kambag'al oiladan chiqqan Jeyms Gatsdan o'zini qayta "yaratadi", yangi ism va yangi biografiya quradi. Bu jarayon shaxsning modernlik sharoitida o'zini konstruksiya qilishini anglatadi. Biroq Getsbining boyligi ichki ma'naviy bo'shliqni to'ldira olmaydi. Uning hashamatli uyida o'tkazilgan ziyofatlar tashqi joziba va ichki yolg'izlik o'rtasidagi keskin tafovutni ochib beradi.

Romanda yashil chiroq ramzi alohida semantik yuklama kasb etadi. Nik Kerrevey tilidan aytilgan mashhur satrlar bu ramzning ma'nosini chuqurlashtiradi:

"Gatsby believed in the green light, the orgastic future that year by year recedes before us" [2].

Mazkur iqtibos orzuning doimiy ravishda kechiktirilishi va unga erishish imkonsizligini ifodalaydi. Yashil chiroq umid va istiqbol ramzi bo'lish bilan birga, inson istagining cheksizligi va qoniqmasligini ham anglatadi. Shu tariqa moddiy model ontologik jihatdan yetarli emasligi ko'rsatiladi.

Fitsjerald asarida makon ham ideologik mazmun kasb etadi. Sharqiy Egg (East Egg) va G'arbiy Egg (West Egg) hududlari eski va yangi boylik o'rtasidagi ijtimoiy tafovutni ifodalaydi. "Kullar vodiysi" esa sanoatlashgan jamiyatning ma'naviy tanazzulini timsollaydi. Trilling ta'kidlaganidek, Fitsjerald "amerikalik ong tarixining axloqiy muallifi" bo'lib, u boylik ortidagi ma'naviy bo'shliqni ochib beradi [3].

Natijada roman moddiy muvaffaqiyatning tashqi jozibasi va ichki ma'nosizligi o'rtasidagi ziddiyatni fosh etadi. Kapitalistik modernlik shaxsni tashqi muvaffaqiyatga yetaklasa-da, ruhiy barqarorlikni kafolatlamaydi. Getsbining fojeasi uning kambag'alligida emas, balki ortiqcha boyligida namoyon bo'ladi: u iqtisodiy jihatdan yuksaladi, biroq ma'naviy jihatdan qulaydi.

Shu bois *The Great Gatsby* asari "Amerika orzusi"ni inkor etmaydi, balki uni ironik tarzda qayta talqin qiladi. Orzu iqtisodiy imkoniyat sifatida mavjud bo'lsa-da, u ma'naviy ideal bilan uyg'unlashmaganda ekzistensial bo'shliqqa olib keladi. Bu esa Amerika adabiyotida moddiy modelning ichki ziddiyatlarini ochib beruvchi asosiy badiiy xulosadir.

O'zbek adabiyotida ma'naviyat tushunchasi milliy mentalitet, tarixiy xotira va axloqiy an'analar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Sharqona tafakkurda insonning qadri moddiy boylik bilan emas, balki uning vijdoni, sha'ni, or-nomusi va ma'naviy pokligi bilan belgilanadi. Shu bois o'zbek nasrida moddiy muvaffaqiyat ko'pincha ikkilamchi ahamiyat kasb etadi, ma'naviy barqarorlik esa asosiy qadriyat sifatida talqin qilinadi.

Abdulla Qodiriyning *O'tkan kunlar* romanida XIX asr oxiri Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz fonida axloqiy sadoqat va vijdon masalalari markaziy o'rin egallaydi. Otabek obrazi ma'naviy modelning ifodasi sifatida talqin qilinadi: u savdo-sotiq bilan shug'ullansa-da, uning faoliyati boylik orttirish emas, balki adolatli va halol hayot qurish maqsadiga xizmat qiladi. Asarda inson sha'ni va sadoqati moddiy manfaatdan ustun qo'yiladi. Qodiriy qahramonlarining fojeasi boylik yetishmovchiligida emas, balki jamiyatdagi adolatsizlik va axloqiy tanazzulda namoyon bo'ladi.

Roman matnida or-nomus va sadoqat g'oyasi doimiy ravishda takrorlanadi. Otabekning Kumushga bo'lgan munosabati nafaqat muhabbat, balki axloqiy mas'uliyat bilan ham bog'liqdir. Shu jihatdan ma'naviy model individual manfaatdan ko'ra axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mahmudov ta'kidlaganidek, o'zbek badiiy tafakkurida "ma'naviyat milliy ongning barqaror yadrosi sifatida namoyon bo'ladi" [4].

Zamonaviy o'zbek nasrida urbanizatsiya va globalizm jarayonlari natijasida moddiy qadriyatlarning kuchayishi tasvirlanadi. Shahar makoni yangi iqtisodiy imkoniyatlar va iste'mol madaniyatini ifodalaydi. Biroq ko'plab asarlarda qahramonlar ichki ziddiyat orqali o'z ma'naviy o'zligini anglash jarayonini boshdan kechiradi. Moddiy muvaffaqiyat vaqtinchalik bo'lib chiqadi, insonning haqiqiy qadri esa axloqiy tanlov orqali belgilanadi. Masalan, mustaqillik davri nasrida

tadbirkorlik, migratsiya yoki boylik orttirish motivlari paydo bo‘lsa-da, syujet yakunida ko‘pincha qahramon ma’naviy xulosaga keladi. Ichki poklanish va vijdoniy uyg‘onish orqali ziddiyat yechimini topadi. Bu jihat o‘zbek nasrini Amerika adabiyotidagi fojeaviy dekonstruksiya modelidan farqlaydi.

Demak, o‘zbek nasrida ma’naviy model nafaqat tarixiy an’ana, balki zamonaviy sharoitda ham barqaror estetik prinsip sifatida namoyon bo‘ladi. Moddiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat mavjud bo‘lsa-da, u aksariyat hollarda axloqiy tiklanish bilan yakunlanadi. Bu esa o‘zbek adabiyotida ma’naviyatning tiklovchi va muvozanatlashtiruvchi kuch sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Moddiy va ma’naviy qadriyatlar oppozitsiyasi ikki xil ontologik modelni ifodalaydi. G‘arb modernligida shaxs iqtisodiy muvaffaqiyat orqali o‘zini tasdiqlaydi. Sharqona tafakkurda esa insonning qadr-qimmati axloqiy mas’uliyat va ma’naviy poklik bilan belgilanadi. Amerika nasrida moddiy muvaffaqiyatning fojeaviy oqibati ko‘rsatilsa, o‘zbek nasrida ma’naviy ideal tiklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Bu farq madaniy-falsafiy an’analar bilan izohlanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida zidlov bog‘lovchilar sintaktik va semantik jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning ishlatilish konteksti, joylashuvi va stilistik qiymati sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida zidlov bog‘lovchilar, masalan, but, however, nevertheless, ko‘pincha struktural jihatdan mustaqilroq bo‘lib, gap boshida yoki alohida diskursiv pozitsiyada keladi va ko‘pincha vergul bilan ajratiladi. Bu ularning gap tarkibidan nisbatan mustaqil ekanligini, shuningdek, matn darajasida mantiqiy va diskursiv o‘tishni ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi zidlov bog‘lovchilar esa ko‘proq intonatsiyaga tayanadi. Ammo, lekin, biroq kabi bog‘lovchilar odatda gapning o‘rtasida joylashadi va intonatsion pauza bilan ajratiladi. Bu bog‘lovchilar gap tarkibiga chuqur integratsiyalashgan bo‘lib, qarama-qarshilikni ifodalashda nutqning tabiiy ritmi va prosodiyasini hisobga oladi. Shu jihati bilan o‘zbek tilidagi bog‘lovchilar ingliz tilidagi ekvivalentlaridan farq qiladi, chunki ular ko‘proq gap ichidagi, kontekstual va intonatsion vosita sifatida ishlatiladi [7].

Ushbu farqlar ikki tilning o‘ziga xos sintaktik tizimlarini aks ettiradi. Ingliz tilida mustaqil pozitsiyadagi bog‘lovchilar gaplararo mantiqiy bog‘lanishni ta’minlasa, o‘zbek tilida bog‘lovchilar ko‘proq gap ichida integratsiyalashgan holda qarama-qarshi ma’noni etkazadi va tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan tabiiy qabul qilinishini osonlashtiradi.

Olingan natijalar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalarda ham keng qo‘llanish imkoniyatiga ega. Xususan, ular tarjima nazariyasi va amaliy tarjimada, qiyosiy grammatika tadqiqotlarida hamda ingliz va o‘zbek tillarini o‘rgatish jarayonida muhim manba sifatida foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, tarjimada semantik ekvivalentni topishda sintaktik va pragmatik jihatlarni hisobga olish zarurligi aniqlandi, chunki to‘g‘ri va aniq tarjima faqat so‘zma-so‘z ekvivalent bilan cheklanmaydi, balki tilning ichki struktural xususiyatlarini ham aks ettirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Bessonova L. Contrastive Linguistics: English vs Uzbek. –Moscow: Lomonosov University Press,2017.–240 p.
2. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
3. Hasanov B. O‘zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 312 b.
4. Huddleston R., Pullum G. K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 1842 p.
5. Karimova D., Islomov A. Qiyosiy grammatika: ingliz va o‘zbek tillari.–Toshkent: Akademnashr, 2021.– 260 b.
6. Leech G. Meaning and the English Verb. – Harlow: Longman, 2004. – 152 p.
7. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985. – 1779 p.
8. Rahmonov S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz va o‘zbek tillari. – Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti, 2020. – 310 b.
9. Tarpisheva N. Pragmatics of Connectives in English and Uzbek. – Tashkent: Ilmiy nashriyot, 2019. – 198 p.
10. Xudoyberganova M. O‘zbek tili grammatikasi: sintaktik tahlil.–Toshkent: Universitet nashriyoti,2020.–285 b.

UO’K 81’37

ABULG‘OZIY BAHODIRXONNING “SHAJARAYI TURK“ ASARIDA KELTIRILGAN ONOMASTIK BIRLIKLARNING LUG‘AVIY-NOMINATIV TIPLARI XUSUSIDA

N.F.Berdiyeva, magistrant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida qo‘llangan onomastik birliklarning lingvistikaning turli ottenkalarida muqoyasa qilindi. birliklar qo‘llanilishiga ko‘ra semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan tadqiq etildi.*

Kalit so‘zlar: *Semantik, sintaktik, pragmatik, aniqlovchi, ega, kesim, hol, to‘ldiruvchi, diniy nomlar, pressuppozitsiya.*

Аннотация. *В этой статье сравниваются ономастические единицы, использованные в произведении Абулгозия Бахадирхана «Шаджараи турк», на различных уровнях лингвистики. Единицы были исследованы с семантической, синтаксической и прагматической точек зрения в зависимости от их использования.*

Ключевые слова: *семантические, синтаксические, прагматические, определяющие, владеющие, разделяющие, дополняющие, религиозные имена, пресс поддержка.*

Abstract: *This article compares the onomastic units used in Abulg‘oziy Bahodirkhon's work 'Shajarayi Turk' across various branches of linguistics. The units were studied semantically, syntactically and pragmatically according to their usage.*

Key words: *semantic, syntactic, pragmatic, defining, owning, dividing, supplementing, religious names, pressupposition.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida toponimshunoslik, antroponimshunoslik kabilar tilshunoslikning onomastika sohasi tarkibida muhim yo‘nalish sifatida tobora takomillashib bormoqda. Uning tarkibida muayyan mahalliy hudud joy nomlarini ifodalovchi, shaxsni atovchi va boshqa onomastikaning mustaqil turlari genezisi va etimologiyasini tavsiflash, kishilarning milliy an’ana va qadriyatlari, turmush tarzi, e’tiqodiy dunyoqarashi, tarixiy-madaniy boyliklari to‘g‘risidagima’lumotlar asosida aniqlash, semantik xususiyatlarini, xalqning lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, diniy-mifologik qarashlari mujassamlashgan nomlarning lingvogeografik, etnolingvistik, lingvokulturologik, konseptual, paradigmatik, onomastik-grammatik belgilarini aniqlashda dolzarblik kasb etmoqda.

Xalq o‘tmishi, shakllanish bosqichlari, tarixi, milliy-madaniy qadriyatlari, uzoq o‘tmishga borib taqaladigan an’ana va urf-odatlarini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi lisoniy birliklar – toponim,

antroponim, gidronim, nekronimlarni muayyan badiiy asar misolida lingvistik tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Shu ma’noda, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asari onomastikasini lingvistik jihatdan tadqiq etish yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Asosiy qism. “Shajarayi turk” bilan tanishib chiqqach, venger olimi German Vamberi uning muallifiga shunday baho bergan edi: “Abulg‘oi Bahodirxonning ko‘pgina ishlari Boburni xotiraga tushiradi. Jahon uning “Shajarayi turk” nomli tarixiy asari uchun ham undan minnatdordir” [7] Abulg‘ozi tarixchi, adib, shoir sifatida bir qator asarlar yozgan taniqli siymodir. Ularning ba’zilari qimmatli tarixiy yozma yodgorliklar sifatida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bular “Shajarayi turk”, [1] “Shajarayi tarokima” [1], “Manofe’-ul inson bitiklaridir”.

Abulg’ozining “Shajarayi turk” asari onomasik materialga boy bo‘lib, unda turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklarning onomastik tizimiga xos tarixiy xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Ikkinchidan esa, unda atoqli otlarning deyarli barcha tiplari mujassamlashgan, uchunchidan esa ko‘pgina ismlar, etnonimlar va toponimlarning hosil bo‘lish asosi va sababilariga oid xarakterli lisoniy, etnografik va tarixiy talqinlar mavjud.

Nomshunoslikda biror bir tildagi atoqli otlarning jamiki ko‘rinishlari majmui “onomastik ko‘lam” [1] deb yuritilmoqda. Ma’lum tilning onomastik ko‘lami va adadi uning sinxronik, ya’ni zamonaviy holatidan kelib chiqib baholanadi, har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuini 3 xil yo‘sinda baholash mumkin:

1. Sinxronik-zamonaviy holati asosida
2. Diaxronik, ya’ni tarixiy holatiga ko‘ra
3. Ham sinxronik, ham diaxronik holatga ko‘ra, ya’ni umumiy tarzda olingan holatda.

Onomastik ko‘lamni baholashning eng qiyin usuli tarixiy (diaxronik) holatini baholashdir. Bunga sabab o‘tmish davr onomastikasining jonli, real holati endilikda unutilgan bo‘ladi,uning ustiga o‘tmish davr nomlari, ularning barcha tiplari har qanday yozma manbada ham to‘liq aks etmaydi. Shu sababli ham, biror til tarixiy onomastikasining ko‘lami va holatini baholashning birdan-bir yo‘li tarixiy yozma obidalar tilida saqlangan atoqli otlar bo‘lib qolmoqda. «Shajarayi turk» onomastikasining qimmatli tomonlaridan biri ham mana shundadir. Bizning kuzatishimizcha, «Shajarayi turk» asarida 1357 ta atoqli ot mavjud. Ulardan 880 tasi antroponimlar, 286 tasi toponimlar, 118 tasi etnonimlar, 51 tasi gidronimlar, 22 tasi oronimlardir.

«Shajarayi turk»ning tilida uchraydigan onomastik materialni lug‘aviy-nominativ nuqtai nazardan tasniflash unda atoqli otlarning quyidagi tiplari mavjudligini ko‘rsatadi:

1. Antroponimlar: ismlar, laqablar, arabcha kunyalar, patronimik nomlar. **Turk** ismi. *“Yofas o'g'lonlarining otasi erdi... Turk otlig' o'g'lini barcha o'g'lonlaridan ulug' ko'rub, o'z o'rniga o'tkardi va barchasiga aytdi: - Turkni o'zingizga podsho bilingiz va uning so'zidan chiqmangiz...”* Turk ismi Nuh alayhissalomning o‘g‘li Yofasning farzandi sifatida keltiriladi. Lisoniy jihatdan bu ism "kuchli", "baquvvat", "yetuk" ma’nolarini anglatadi. Abulg‘ozi talqinida "Turk" nafaqat shaxs ismi, balki butun bir millatning geneologik asosi sifatida ideallashtiriladi.Turk ismi asarda nafaqat shaxs nomi, balki "adolatli va qat'iyatli hukmdor" tushunchasining sinonimi sifatida namoyon bo'ladi.

O’g’uzxon turkiy xalqlar epikasining markaziy siymosi. O'g'uzxon ismi turkiy onomastikaning eng murakkab birligidir. Abulg‘ozi uni islomiy va qadimgi turkiy an'analar bilan bog'laydi. *"Ul vaqtda ot qo'ymoq odati mundoq erdi: har o'g'ul tug'ilsa, bir yildan so'ng ot qo'yar erdilar. Bu o'g'ul tug'ulub, bir yoshga yetganda, otasi to'y qildi... Shunda o'g'lon tilga kirib aytdi: - Mening otimni O'g'uz qo'yingiz!"* "O'g'uz" so'zi asarda "ona suti" (og'iz suti) yoki "urug'lar ittifoqi" ma'nosida talqin qilinadi. Uning tilga kirib o'ziga ot qo'yishi – mifologik antroponimikadagi "ilohiy tanlanganlik" belgisidir. "O‘g‘uz" so‘zi etimologiyasi bo‘yicha turlicha qarashlar mavjud. Birinchisi: *oq sut* (ona suti bilan bog‘liqlik) ma’nosi; ikkinchisi: *o‘q* (urug‘, qabila ma’nosida).

2. Etnonimlar: urug‘, qabila va elatlar nomi. Etnonimlar xalq tarixi va tili uchun qimmatbaho material hisoblanadi [6]. «Shajarayi turk»da uchraydigan etnonimlar lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki xil:

1. Yakka holda uchraydigan etnonimlar: mang‘it, qatag‘an, chiyut, kiyot, turk, uyg‘ur, o‘zbek, qozoq.

2. Tarkibida izohchi so‘zlar bo‘lgan etnonimlar. Bunda etnonim urug‘, el, xalq so‘zlari bilan birgalikda keladi: idurkin urug‘i, yasur urug‘i, buyut urug‘i, ungut eli, qarluq eli, uyg‘ur eli, qavikli eli, tatar xalqi, tibet xalqi, jaloyir xalqi kabi.

Qipchoq: *"Bir xotunni to'lg'oq tutdi, ul vaqtda hech uy yo'q erdi. Bir ulug' daraxtning kavagi bor erdi, ul xotun daraxt kavagiga kirdi va o'g'ul tug'di... Abulg'ozi aytdi: - Bu o'g'ilning oti Qipchoq bo'lsin!"* Qadimiy turkiy tilda "qipchoq" so'zi "ichi bo'sh daraxt" (kavak) ma'nosini anglatadi. Bu yerda ism qo'yish motivi bevosita voqea joyi (toponimik muhit) bilan bog'liq.

Qanli (Qang'li): Ma'nosi: "Arava", "aravali". Abulg‘ozi keltirishicha, bu urug' vakillari birinchi bo'lib arava yasaganlari uchun shunday atalganlar. Ism shaxs yoki guruhning mehnat quroli yoki ixtirosi bilan bog'liq holda semantik o'zgarishga uchragan. Qadimiy turkiy tilda arava harakatlanayotganda chiqaradigan ovoz ("qang‘-qang‘") yoki uning o‘zi "qang‘" deb atalgan. *"O'g'uzxon cherigi (qo'shini) ko'p o'ljalar olib, ko'chib keladur erdilar. Ul o'ljalarni ko'tarib kelishga kuchlari yetmadi. Shunda bir necha dono kishilar kengashib, bir narsa yasab, ustiga yuklarini yuklab tortib keldilar. Ul narsani ko'rganlar: «Bu nima?» - deb so'radilar. Yasaganlar: «Qang'li», - dedilar. Shuning uchun ul kishilarning avlodini Qang'li deb atadilar." Qang‘li ismini tahlil qilganda bir necha lingvistik qatlamni ko‘rishimiz mumkin. 1. Onomatopoetik (Tovushga taqlid) asos: Arava g‘ildiragi aylanayotganda chiqaradigan g‘iyqillagan ovoz turkiy tillarda "qang‘" tarzida aks etgan. Demak, ism tagida tovushga taqlid so‘zi yotadi. 2.Funksional semantika: Bu ism shunchaki ism emas, balki "ixtirochi" yoki "hunarmand" semasini tashiydi. Chunki asarda Qang‘li xalqining ajdodlari ilk bor yuk tashish muammosini hal qilgan muhandislar sifatida tasvirlanadi. 3. Etnonimga aylanish jarayoni: Dastlab bir guruh hunarmand kishilarga berilgan ushbu sifat (aravali kishilar) keyinchalik shaxs ismiga, so‘ngra ulkan urug‘ — Qang‘li etnonimiga aylangan.*

3. Toponimlar: qishloq va shaharlar nomi, ba’zi jug‘rofiy hududlar, joylarning atoqli otlari. Урганч: «Факир Урганчда бўлдуқ. Урганч ўзбекининг бузулганининг зикри…» , Бухоро: «Бириси Бухорога ва бириси Туркистонга кетди», Туркистон: «Тақи Бухорога ва Туркистонга кетди».

4. Gidronimlar: dengizlar, daryolar, soylar, ko‘llar, quduqlar, buloqlar va b. nomi. Ittil — Volga daryosining qadimiy turkiy nomi bo‘lib, uning etimologiyasi bo‘yicha tilshunoslikda bir necha qarashlar mavjud. 1. Tub ma’nosi: Qadimgi turkiy tildagi *idil / etil* o‘zagi "oqari suv", "ulug‘ daryo" yoki "to‘shib oquvchi" ma’nolarini anglatadi. 2. Semantik evolyutsiyasi: Abulg‘ozi asarida bu nom daryoning nafaqat hajmi, balki uning siyosiy-geografik mahobati (ulug‘vorligi) ramzi sifatida ham qo‘llanadi.

Xulosa. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari nafaqat tarixiy, siyosiy, etnografik, jug‘rofiy ma’lumotlarga, balki lisoniy materiallarga ham boy asardir. Bu asar tilidagi onomastik material misolida ham o‘z ifodasini topgan. “Shajarayi turk”da ulkan tarixiy davr, ya’ni turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining qadimiy davrlardan XVII asrgacha bo‘lgan tarixi tasvirlanishi asar tilida atoqli otlarning boy materiallari o‘z ifodasini topishiga bois bo‘lgan.

Asar tilida ham real, ham afsonaviy atoqli otlar uchraydi. Bu nomlarning ma’nosi va etimologiyasi yuzasidan Abulg‘ozi anchagina mulohazalar bildirgan bo‘lib, bu fikrlarning aksariyati xalq etimologiyasiga tayangan talqinlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk \\ Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
2. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 1998.
3. Bo‘riyev Omonullo. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo.\\ Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
4. Sattorov G‘. O‘zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1990.
5. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1998.
6. Qoraev S. Etnonimika. Toshkent: O‘zbekiston, 1979. 10–11-b.
7. Вамберт Г.А. История Бухары и Мавараннахра. том-1 Москва 1964

UO'K 811.512.130:81'28:39

SURXONDARYO SHEVALARIDA RASM-RUSUM VA MAROSIMGA OID ETNOGRAFIZMLAR

M.E.Bobomuradova, magistrant, Termiz Davlat Pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo shevalarida uchrashi mumkin bo'lgan rasm-rusum va marosimlarga oid etnografik leksik birliklar lingvistik va etnolingvistik tomonlama tahlil etilgan. Voha aholisi nutqida saqlanib qolgan tug'ilish, beshik to'yi, muchal to'yi, nikoh, motam va boshqa marosimlarga xos birliklarning mazmun-mohiyati, ushbu marosim birliklarining til tizimidagi o'rni, semantik xususiyatlari va madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Surxondaryo shevalari, etnografizmlar, rasm-rusum, urf-odat, udum, lingvokultura, etnolingvistika, marosim leksikasi, xalq an'analari. etnolingvistika, xalq madaniyati.*

Аннотация. *В данной статье проведён лингвистический и этнолингвистический анализ этнографических лексических единиц, встречающихся в диалектах Сурхандарьи, связанных с обрядами и ритуалами. Рассмотрено содержание и сущность единиц, характерных для таких обрядов, как рождение, праздник колыбели, праздник «мукал», брак, траур и других. Показано место этих обрядовых единиц в языковой системе, их семантические особенности и связь с культурными ценностями.*

Ключевые слова: *диалекты Сурхандарьи, этнографизмы, обряды и ритуалы, традиции, обычаи, лингвокультура, этнолингвистика, лексика обрядов, народные традиции, этнолингвистика, народная культура.*

Abstract. *This article provides a linguistic and ethnolinguistic analysis of ethnographic lexical units related to rituals and ceremonies, which can be found in the dialects of Surxondaryo. The study examines the content and essence of units specific to ceremonies such as birth, cradle festival, "muchal" festival, marriage, mourning, and others. The role of these ceremonial units in the language system, their semantic characteristics, and their connection to cultural values are highlighted.*

Keywords: *Surxondaryo dialects, ethnographisms, rituals and ceremonies, traditions, customs, linguoculture, ethnolinguistics, ceremonial lexicon, folk traditions, ethnolinguistics, folk culture.*

Surxondaryo vohasi o'ziga xos etnik va madaniy qatlamlarga boy bo'lib, bu hududning shevalari xalqning qadimiy urf-odatlari, rasm-rusumlari va marosimlariga oid leksik birliklar bilan alohida diqqatga sazovordir. Marosim etnografizmlari mazmuni, semantik yuklamasi va qo'llanish doirasi bilan boshqa hududlardagi shunga o'xshash birliklardan ajralib turadi. Ushbu leksik birliklar orqali xalqning mentaliteti, dunyoqarashi va ijtimoiy hayot tarzi til vositasi orqali aks ettiriladi, shuningdek, vohaning boy etnik merosini va madaniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi [7]. O'zbek tilidagi shevalar va ularning xususiyatlari, tasnifi ustida V.V.Radlov, Ser Ali Lapin, I.I.Yudaxin, Y.D.Polivanov, G'ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, B.To'ychiboyev, B.Hasanov, S.Ibrohimov, A.Ishayev, S.Rahimov kabi bir qator olimlar ilmiy ish olib borishgan.

Surxondaryo xalqining tug'ilish va bolalik marosimlariga oid leksik birliklari o'ziga xos tizimga ega bo'lib, "chilla", "beshikka solish", "beshik to'yi", "alla aytish", "suyuq oshlar", "qovurdog' oshi" kabi so'zlar keng qo'llanadi. Bu birliklar yangi tug'ilgan chaqaloqning hayotga kirib kelishi bilan bog'liq qadimiy udumlar mazmunini aks ettiradi. Oilaviy marosimlar ijtimoiy hayot zaruriyati natijasida paydo bo'lib, inson aql zakovati, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Shu jihatdan oilaviy marosimlar uzoq davr davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir [2]. Chaqaloq tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar leksikasida bir qancha maxsus birliklar uchraydi: Beshikkerti – chaqaloqni beshikka solish marosimi, bunda yangi tug'ilgan chaqaloqning beshikka moslashishi uchun turli xil xalq hayotiga bog'liq rasm-rusumlar olib boriladi. Masalan, "qo'rqma-qo'rqma", "uxla-uxla". Qirq chiqarmoq – bolaning 40 kunligi tugaganda o'tkaziladigan odat. Bunda "chilla" – ayol va chaqaloqning dastlabki 40 kunlik davri hisoblanadi. Bu davr davomida ko'rpacha solish – yangi tug'ilgan bolaga maxsus tikilgan ko'rpachani joyiga qo'yish udumi. Bu

atamalar lingvokulturologik ma’no kasb etib, bolani “barakali, baxtli, baquvvat” bo‘lishiga ishonch bilan bog‘liq hududning urf-odati sanaladi.

Nikoh marosimlariga oid etnografizmlar ham serqirra bo‘lib, “qiz oshi”, “yor-yor aytish”, “nahor oshi”, “chaqiriq”, “kelin ko‘rdi”, “kelin salom”, “kuyov keldi” kabi birliklar vohaning marosim tizimida muhim o‘rin egallaydi. Yor-yor – kelinni olib kelish marosimidagi qo‘shiq bo‘lib, bunda kelinning yaqin dugonalari kelinni kuyov uyiga olib kelish davomida yoki yo‘lda ushbu “yor-yor” qo‘shig‘i orqali to‘yni qiziqarli tarzda o‘tkazishga yordam beradi. Kelin salom – kelinning yangi oila a’zolariga ta’zim bilan salom berishi bo‘lib, bu marosimda ham kelin bilan ham kelinning oila a’zolari bilan birgalikda tanishish marosimi bo‘ladi [1]. Qo‘nolti – to‘y kunida o‘tkaziladigan dastlabki yig‘in bo‘lib, bunda kelinning kuyov uyiga muqim joylashib ketishi nazarda tutiladi. Kelin va kuyovga yangi turmushidan oldin yaqinlari tomonidan baxt, farovonlik tilash, baraka, yomon ko‘z va balolardan asrash niyatida bajariladigan marosimdir. Qiz oshi – to‘y oldidan qiz tomonidan beriladigan osh, bunda kelinning yaqinlariga, barchaga kelinning turmushga chiqayotganini bildirish rasm-rusumi deb ham qaraladi. Sandig‘ ochdi – kelinning sepini ommaga ko‘rsatish marosimi bo‘lib, bu marosim kelinning yaqinlari tomonidan kuyov va uning yaqinlariga tayyorlagan turli xil sovg‘a – salomlaridir [6]. Bu birliklar Surxon vohasining tug‘ilish, nikoh marosimi strukturasida mustaqil semantik mavqega ega bo‘lgan etnografizmlar hisoblanadi. So‘zlar urf-odat, marosimlar, to‘y jarayonining bosqichlari, qatnashchilari va marosimning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydi.

Surxondaryo shevalarida a’za marosimlari tarkibida qadimiy va islomiy qadriyatlarning sintezi yuzaga chiqqan: Yo‘qlov – marhumning uyiga borib ta’ziya bildirish, bunda marhumning hurmati, yaqinlarining hurmati bir hol-ahvol so‘rash maqsadida amalga oshiriladi. Marhum xotirasi uchun duo o‘qiladi. Chalpak pishirish – marhumning ruhiga atalgan taom tayyorlash, marhum uchun duolar, motam kunlarida xayr-unlik sifatida bajariladi. Marhumning ism-sharifi qo‘shib aytiladi. Bunga barcha motam qatnashchilari hamda yaqinlari savob uchun qilinadigan amal sifatida qarashadi [4]. Qirq ovqat – marhumning 40 kunlik marosimida beriladigan ovqat. Bu marosimda ham marhum xotirasi uchun qilinadigan savobli ishlar nazarda tutiladi. Yetti yuz oshi – an’anaviy ma’naviy tadbirlar uchun tayyorlanadigan taomlar. Bu birliklar nafaqat marosim nomlari, balki jamiyatda qo‘llaniladigan madaniy so‘zlardir. Motam marosimlariga oid “yo‘qlov”, “so‘ngi oshi”, “ko‘rpa yozish”, “yettisi”, “chilla tutish” kabi birliklar esa xalqning o‘lim haqidagi qarashlari, marhumni e’zozlash va jamoaviy birdamlik tamoyillarini ko‘rsatib beradi. Bu leksik birliklar ko‘pincha faqat marosim kontekstida qo‘llanadigan, semantik jihatdan tor doiradagi mazmunga ega etnografizmlar sanaladi.

Har bir faslda o‘tadigan urf-odat va marosimlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bahor, hosil va mavsumiy marosimlar viloyatning dehqonchilik an’analari, ish yuritish tartibi va tabiatiga aloqador rasm-rusumlar ham Surxondaryo sheva leksikasida aks etadi: Xalqimizda Navro‘z bayrami alohida ko‘tarinki va jozibadorlik, tantanavorlik hamda mehr-oqibatlilik mazmuni ufurib turgan holatda o‘tgan [5]. Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham Navro‘z haqida e’tiborli gaplar qayd etilgan. Ona tilimizga tamal toshi qo‘ygan mutafakkir shoir Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ham Navro‘z haqida dilbar satrlar uchraydi. Sharqning yana bir latif allomasi Yusuf Xos Hojibning “Qutag‘du bilig” (Saodatga boshlovchi bilim) kitobida “Sharqdan esgan nasim olamni bezash uchun jannat yo‘lini ochadi, yerga ifor to‘kiladi”, – deyilgan. Falsafiy mushohadaga boy o‘tkir satrlar sohibi Umar Hayyom o‘z “Navro‘znoma”sida tiriklik haqida o‘tli misralar bitgan. Abulqosim Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” asarida Navro‘z haqida qayd etgan bebaho fikrlar asrlar osha xalq qalbida yashab kelmoqda. Navro‘z ham xalq ham davlat bayramidir. Sumalak sayli – Navro‘z oldidan ayollar tomonidan sumalak tayyorlash marosimidir. Bu sayl ayollar tomonidan uyma-uy yoki mahallalarda o‘tkaziladi va u bahorning kelishini, yangi hayotning boshlanishini, yaxshilik va yasharishning boshlanishi, tozalanishni bildiradi. Sumalak – un va bug‘doy niholidan tayyorlanadigan xushbo‘y, shirin taom bo‘lib, u mo‘l-ko‘lchilik, baraka va totuvlik ramzidir. Sumalak saylida barcha o‘g‘il-qizlar, yosh-u qarilar birdek xursandchilik kayfiyatida qatnashadilar. Ko‘klam supurish – hovlilarni bahor fasliga tayyorlash odati hisoblanadi. Uloq (ko‘pkari) – yirik marosimlarda o‘tkaziladigan o‘yin. Bu asosan “sunnat to‘y”, “muchal to‘y”larda o‘tkaziladigan an’anaviy marosimdir. Boychechak sayli – bahor

kelganini nishonlash udumi. Bunda bolalar boychechakni olib, barcha qishloqdoshlari uyiga kirib chiqadi [3]. "Shomga yaqin qishloq bo'ylab bolalarning yangroq ovozi jarangladi:

Boychechak avval bahorda ochiladi-yey, ochiladi,
Yaxshilarning qoshida sochiladi-yey, sochiladi.
Boy-che-chak, bo-oy-che-chak!"

Bu birliklar xalqning tabiat bilan bog'liq dunyoqarashini aks ettiradi. Marosim leksikasining lingvistik tuzilishi Surxondaryo xalqining tarixiy-madaniy xotirasini, diniy va etnik qatlamlarning singishini hamda vohaning o'ziga xos til tizimini ochib beradi. Etnografizmlarning fonetik, semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish hududning til-madaniy merosini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Maishiy hayot va turmush tarzi bilan bog'liq birliklar: Surxondaryo shevalarida kundalik hayotdagi rasm-rusumlar ham til vositasida mustahkamlangan: Osh yuvdi – to'y oldi tayyorgarlik yig'ini bo'lib, to'y boshlanishidan oldin qarindosh-urug'dan maslahat olinadi. Chopon yopish – hurmat va ehtirom sifatida chopon kiydirish marosimi hisoblanib, bu xalqning an'anaviy urf-odati sirasiga kiradi. To'y davomida uy egalariga chopon kiydirish orqali o'z hurmatini izhor etadi. Taqa urish – yangi uy yoki hovlini baraka tilab "taqa bilan" boshlab berish yoki yangi uyning eshigiga taqa osib qo'yiladi, bu bilan xonadonga rizq kiradi deb hisoblashadi. Bu leksik birliklarning barchasi marosimiy amallarni semantik jihatdan aniq tasniflaydi.

Surxondaryo shevalaridagi rasm-rusum va udumlarga oid birliklar tilning etnolingvistik boyligini tashkil etadi. Ular xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy tasavvurlari, ijtimoiy hayoti va o'ziga xos madaniy merosini aks ettiradi. Ushbu birliklarni o'rganish nafaqat shevalarni tasniflash, balki xalqning etnomadaniy tafakkurini anglash uchun ham muhim manba sanaladi. Surxondaryo shevalarida saqlanib qolgan marosimga oid etnografik birliklar xalq og'zaki ijodi, qadimiy udumlar va marosimlarning bugungi kungacha yetib kelgan shakllarini ko'rsatib beruvchi muhim til birliklari bo'lib, ularning ilmiy o'rganilishi o'zbek etnolingvistikasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent. 2013. – 212 b.
2. G'ulomov A. O'zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent. 1995. – 314 b.
3. Jo'rayev M. Janubiy o'zbek shevalarining lingvistik tavsifi. 2012.
4. Mahmudov Q. O'zbek shevalarining leksik xususiyatlari. – Toshkent. 2015. – 219 b.
5. Qayumov A. O'zbek xalqining urf-odatlari va marosimlari. – Toshkent: Fan, 1998.
6. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika). – Toshkent: Fan, 1985.
7. Xamidov M.A. Surxondaryo shevalariga doir ayrim paremalar tahlili. Oriental Renaissanse: Innovative, educational, natural and social sciences jurnali. 2022. – B.677-683.

UO'K 811.512.1

O'ZBEK TILIDA HALOLLIKNING QADRIYAT SIFATIDAGI O'RNI

B.T.Bovmanova, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi va uning shakllanish jarayoni keng yoritilib, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni hamda inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Unda qadriyatlarning paydo bo'lish manbalari, ularning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy nuqtai nazardan izohlanadi. Shuningdek, qadriyatlarning mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda inson xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli haqida batafsil fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, aksiologiya, aksiolingvistika, aksiologik juftliklar, halollik*

Аннотация. *В данной статье широко рассматривается понятие ценностей и процесс их формирования, анализируется роль ценностей в жизни общества, а также их значение в духовном развитии личности. В ней объясняются источники возникновения ценностей и их тесная связь с социальными, культурными и духовными факторами с научной точки зрения. Кроме того, подробно рассматриваются сущность ценностей, их влияние на развитие общества, а также их роль в формировании поведения и мировоззрения человека.*

***Ключевые слова**: ценность, аксиология, аксиолингвистика, аксиологические пары, честность*

***Abstract.** This article broadly discusses the concept of values and the process of their formation, analyzing the role of values in social life as well as their importance in the spiritual development of individuals. It explains the sources of the emergence of values and their close connection with social, cultural, and spiritual factors from a scientific perspective. In addition, the essence of values, their influence on the development of society, and their role in shaping human behavior and worldview are discussed in detail.*

***Keywords:** value, axiology, axiolinguistics, axiological pairs, honesty*

Qadriyat aksiologiya fanining bosh planidagi tushuncha bo‘lib, u voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Aksiologiya dastlab falsafa tarkibida o‘rganilgan, keyinchalik ijtimoiy fanlarning maxsus sohasi sifatida shakllangan. Shu nuqtayi nazardan qadriyatga aloqador ilmiy izlanishlar ham dastlab mantiq va falsafa fanlari doirasida olib borilgan.

Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida — ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida — istiqlol, urush davrida — tinchlik, tutqunlikda — erkinlik, kasal yoki bemorlikda — sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega[1].

Qadriyatlar uch turli bo‘lib, olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, *abadiy qadriyatlardir*. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar *milliy qadriyatlardir*. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar *shaxsiy qadriyatlardir*. Har bir insonda ma’lum millatning a’zosi sifatida mavjud voqeliklarga o‘ziga xos munosabat mavjud bo‘ladi. Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetish jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan o‘zi, o‘zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalarning qadrini anglash tomon boraveradi. Bu foniy dunyoning o‘tkinchigi, umrning mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligiqarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o‘rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi.[2]

Darvoqe qadriyatlarda kognitiv xususiyat mavjud bo‘lib, ular inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa, tabiiyki, aksiologiyaga lingvistik aspektda yondashish masalasini ko‘ndalang qo‘yadi. Antropotsentrik paradigmaning vujudga kelishi tilshunoslik va aksiologiya fanlarining aloqasi natijasida aksiolingvistika fanining shakllanishiga olib keldi. Mazkur fan insonning olamga munosabati, dunyoda mavjud qadriyatlarni mujassam etgan faoliyatni o‘z ichiga oladi. Aksiolingvistikaga oid ilk qarashlar Aristotelga tegishli bo‘lib, keyingi davrlarda A.Ivin, N.Arutyunova, Y.Volf, S.Pavlov, V.Karasik, L.Bayramova, G.Bagautdinova va boshqa bir qancha olimlar o‘z tadqiqotlari bilan aksiolingvistikaning alohida yo‘nalish ekanligini isbotlab berishdi. Yuqoridagi ishlarning deyarli barchasi aksiologik qarashlarning ma’lum til birliklari orqali ifodalanish darajasini tahlilga tortish natijasida vujudga keldi. Aksiolingvistik tadqiqotlarning ko‘p qismi rus, ingliz, tatar, xorvat, polyak ya’ni, qozon tilshunoslik maktabiga tegishli. Bu maktab olimlari ishlarida asosan, qiymat, lingvistik baho, qiyoslanayotgan ikki xalq qadriyatlar tizimidagi mushtarak va farqli xususiyatlarni ochib berilgan. Shu o‘rinda slavyan tillarida olib borilgan ishlarni

ham keltirish o‘rinli. Jumladan, S.Ter-Menisova S.Ter-Minasova rus va ingliz tilidagi qiymat ma’nolarini qiyosiy o‘rganib, ingliz tilida quyidagi aksiologik ma’nolar ustunlik qilishini aniqlaydi: honesty *“halollik”,* prudence *“ehtiyotkorlik”,,* diligence *“mehnatsevarlik”,* professionalism *“prefessionalizm”,* responsibility *“mas’uliyatlilik”,* obedience *“gapining ustidan chiqish”,* thrift *“tejamkorlik”,* selfishness *“xudbinlik”,* personal freedom *“shaxsiy erkinlik”,* conservatism *“konservatizm”,* material well-being *“moddiy farovonlik”,* the secret of family life *“oilaviy hayotning sirliligi”*. Rus tilidagi iboralarda esa quyidagi baho tushunchalari ustunlik qiladi: практика “*tajriba*”, *общительность, корпоративность* “*jamoatchilik*”, патриотизм “*vatanparvarlik*”, справедливость “*adolat*”[3].

Aksiolingvistikada qadriyat va aksqadriyat aksiologema termini bilan ifodalanadi. Bu terminni ilk bor maqollar ma’no-mohiyatini tekshirgan K.Jukov tilshunoslikka olib kirdi: “Aksiologema aksiologik nuqtayi nazardan ma’lum bir qadriyatni yoki aksqadriyatni belgilaydigan aforizmlar va so‘zlar uchun umumiy semantik maydon hisoblanadi”[4].

Tadqiqotlarda aksiologik frazeologiyani tadqiq qilish mobaynida qadriyat va aksqadriyat maqomidagi aksiologik diadalar (“aksiologik juftliklar”) ni klassifikatsiyalash masalasi o‘rtaga tashlangan. Bunday tasniflarni aksiologik frazeologiyaga doir barcha tadqiqotlarda uchratish mumkin. Aksiologemalar tadqiqotlarda turlicha tasnif qilingan bo‘lsa-da, ularni antropotsentirik xususiyat birlashtirib turadi. Masalan, G.Bagautdinova qadriyat tiplarini quyidagicha ko‘rsatadi:

1. Fiziologik aksiologemalar: hayot–o‘lim, sog‘lik–kasallik.
2. Moddiy aksiologemalar: boylik–kambag‘allik.
3. Ijtimoiy aksiologemalar: mehnatsevarlik - ishsizlik.
4. Ruhiy aksiologemalar: baxt-baxtsizlik.
5. Ma’naviy–axloqiy aksiologemalar: rost-yolg‘on.
6. Intellektual aksiologemalar: aql - aqlsizlik.
7. Emotsional aksiologemalar: kulgi-yig‘i.
8. Mifologik aksiologemalar: jannat–do‘zax[5].

Qadriyatlarning turlari borasida so‘z borar ekan, F.Usmonovning quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi. Tadqiqotlarda “axloqiy estetik hamda diniy qadriyatlarni birgalikda ma’naviy qadriyat sifatida baholamoq kerak. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Masalan, halollik va mehr-oqibat kabi yushunchalarning diniy ildizlari borligini, bunday tushunchalar jamiyat a’zolarining ma’naviy olamiga singib ketganini inkor etib bo‘lmaydi”[6]

O‘zbek madaniyatida halollik ham umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan, ham milliy ko‘rinish kasb etgan qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Halollik so‘zining asosi hisoblangan *halol* so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, uning etimologiyasi quyidagicha: *halol* bu arabcha so‘z **halāl(un)** shakliga ega; o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini **h** undoshiga, cho‘ziq **ā** unlisini **â** unlisiga almashtirib qabul qilingan: **halāl → ҳалâл(ҳалол**); asli “qoidaga rioya qilindi”, “qonuniy bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi **halla³** fe’lidan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, arab tilida “qoidaga rioya qilingan, qonuniy” ma’nosini, o‘zbek tilida esa “shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan” ma’nosini anglatadi.[6] Bu asos leksemadan keyinchalik ***halollamoq*** va ***hallolik*** kabi so‘zlar hosil qilingan.

Izohli lug‘atda esa halollik so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi:

***Halollik.* 1.** Vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish; to‘g‘rilik, soflik. *Halollik, to‘g‘rilik, poklik — odamiylikning eng zaruriy mezonidir. [*Gazetadan] *Yoshlikda hamma ham oliyjanob hislar, sof vijdon, halollik, nomus haqidagi fikrlar bilan to‘lgan bo‘ladi. [*F. Musajonov]

2. Erga yoki xotinga xiyonat qilmaslik; vafodorlik.

3. Halol ekanlik. *Men mavizni tamom shar’iy qilib tayyorlayman, tunov kuni mahallamizning oxunlari halolligiga fatvo berib ketdilar.[*A. Qodiriy, O‘tgan kunlar](O‘TIL, 5-jild, 528-bet).

Diniy tushuncha bo‘lgan halollik shariat mumkin qilgan taom, kasb, turmush o‘rtoq, kiyim, savdo va boshqa narsalarni anglatadi. Lekin halollik so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lsa-da, bu tushuncha arablar kirib kelguncha ham turkiy xalqlarda mavjud edi. Chunki bu kabi ijtimoiy-axloqiy tushuncha va qarashlar kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida jamiyat hayotini tartibga solishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu tushunchalar orasida halollik, adolat,

mehnatga sadoqat kabi tamoyillar alohida o‘rin egallagan. Masalan, O‘rta Osiyoda Islomdan oldingi diniy ta’limotlardan biri hisoblangan zardushtiylik o‘zida axloqiy poklikni mujassamlagan. Ta’limotning ***“Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”*** shiori zamirida ham aynan halollik tushunchasi mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688 б.

2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2 жилд. – Тошкент: Университет, 2009. – 205 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

4. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.

5. https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kremniy-uz/ 106.

6. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9B%D0%B5%D0%B2

UO’K 811.512.130

O‘ZBEK MAQOLLARIDA QADRIYATLARNING LISONIY IFODALANISHI: O‘ZIGA XOS OBRAZLILIK, RAMZIYLIK VA MILLIY REALIYALAR (OVQAT, KIYIM, TURMUSH NOMLARI)DAN FOYDALANISH

Sh.G‘.Bo‘riyeva,o‘qituvchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur ishda o‘zbek maqollarida milliy qadriyatlarning lisoniy ifodalanishi, ularning o‘ziga xos obrazliligi, ramziyligi hamda milliy realiyalar orqali ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollar xalq tafakkurining ixcham va badiiy shakli sifatida insonning axloqiy qarashlari, turmush tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lisoniy birlik ekanligi yoritiladi. Xususan, maqollarda qo‘llanilgan obrazli ifodalar orqali mehnatsevarlik, sabr-toqat, birlik, halollik kabi qadriyatlarning ramziy vositalar yordamida ifodalanishi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek maqollari, milliy qadriyatlar, lisoniy ifodalash, obrazlilik, ramziy ma’no, milliy realiyalar, ovqat, kiyim-kechak, turmush nomlari, paremiologiya.*

Аннотация. *В данной работе анализируется лингвистическое выражение национальных ценностей в узбекских пословицах, их своеобразная образность, символичность и особенности отражения национальных реалий. В исследовании пословицы рассматриваются как лаконичная и художественная форма народного мышления, в которой находят отражение нравственные взгляды человека, жизненный опыт, социальные отношения и национальное мировоззрение. В частности, показано, что посредством образных выражений в пословицах символическими средствами передаются такие ценности, как трудолюбие, терпение, единство и честность.*

Ключевые слова: *узбекские пословицы, национальные ценности, лингвистическое выражение, образность, символическое значение, национальные реалии, пища, одежда, названия быта, паремиология.*

Abstract. *This paper analyzes the linguistic expression of national values in Uzbek proverbs, focusing on their distinctive imagery, symbolism, and representation of national realia. The study considers proverbs as a concise and artistic form of folk thinking that reflects moral views, life experience, social relations, and the national worldview. In particular, it demonstrates how values such as diligence, patience, unity, and honesty are symbolically expressed through figurative language in proverbs.*

Keywords: *Uzbek proverbs, national values, linguistic expression, imagery, symbolic meaning, national realia, food, clothing, everyday life terms, paremiology.*

Paremiologiya - maqol va topishmoqlarni ilmiy tadqiq qilish sohasidir. Maqollar inson tajribasini, axloqiy qadriyatlarni va ijtimoiy me’yorlarni qisqa, ixcham va badiiy shaklda ifodalaydi. Lisoniy obrazlilik - maqol va iboralarda metaforik, idiomatik va ramziy vositalar yordamida ma’no yaratishdir.

Milliy realiyalar - tilga xos bo‘lgan, ma’lum madaniy kontekstga ega bo‘lgan predmet nomlari, masalan, ovqat, kiyim-kechak, turmush nomlari. Ular nafaqat predmetni bildiradi, balki chuqur madaniy va ma’naviy ma’noni ham o‘zida mujassam etadi. “Chopon kiygan kishining obro‘si ayon bo‘ladi”. Chopon - o‘zbek milliy kiyimi bo‘lib, asosan erkaklar yoki bayram va tadbirlarda kiyiladi. U xalqning ijtimoiy va madaniy hayotida qadriyatlarni ifodalovchi ramziy vosita sifatida xizmat qiladi. Maqollarda yoki iboralarda chapan ko‘pincha obro‘, shaxsiy axloq, ijtimoiy maqom va insonning jamiyatdagi nufuzi bilan bog‘lanadi. Tilshunoslik va paremiologiya nuqtai nazaridan, bu maqol konkret predmet - kiyim orqali abstrakt qadriyatlar - obro‘, axloq, hurmatni ifodalaydi. Chopon milliy realiya sifatida o‘zbek maqollarida va og‘zaki ijodda milliy identitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy obro‘ni lisoniy ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, kiyim-kechak realiyalari orqali xalqning madaniy va axloqiy qadriyatlari yanada aniq va esda qolarli shaklda yetkaziladi [1].

Maqolalar manbai sifatida klassik va zamonaviy to‘plamlar, xalq og‘zaki ijodi va lug‘atlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari: semantik tahlil, tipologik taqqoslash va ramziy interpretatsiya. Maqolalardagi qadriyatlar lisoniy va madaniy jihatdan tahlil qilindi.

O‘zbek maqollarida obrazlilik qadriyatlarni yanada ta’sirli va esda qolarli qiladi. Masalan, “Mehnat qilgan erni, er qilgan mehnatni qadrlaydi” maqolida mehnatsevarlik qadriyatini ta’kidlaydigan obrazlar mavjud. Obrazlar orqali ma’no qisqa va aniq ifodalanadi, tinglovchi yoki o‘quvchi uni tez anglaydi. “Ko‘ngil dengiz, so‘z esa qayiq.” Ushbu maqol obrazli ifoda orqali insonning his-tuyg‘ulari va so‘zning roli haqida fikr bildiradi. “Ko‘ngil dengiz” - inson qalbini, uning chuqur his-tuyg‘ularini ramziy tarzda ifodalaydi. “So‘z esa qayiq” - inson fikri va gaplarining bu his-tuyg‘ularni yetkazishda vosita ekanligini ko‘rsatadi [2].

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, maqol abstrakt tushunchalarni (his-tuyg‘ular, fikr, ifoda) konkret obrazlar orqali yetkazadi, bu esa lisoniy ixchamlik va tasviriylikni oshiradi. Bu maqol obrazlilikning klassik namunasi bo‘lib, o‘zbek paremiologiyasida so‘zning qadri, inson qalbi va muloqot qadriyatlarini lisoniy vositalar orqali boy va ramziy tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Shu tariqa, abstrakt qadriyatlar konkret va esda qolarli obrazlar orqali anglatiladi.

Ramziy elementlar maqollarda qadriyatlarni tushuntirishda muhim vositadir. Masalan, “Nonu suv bilan birga dildan ham ber” maqolida non ramzi - mehmondo‘stlik, saxovat va mehr-muhabbat. Ramzlar orqali abstrakt qadriyatlar konkret predmetlar yordamida ifodalanadi. “Non - dildan berilgan ezgu niyat ramzi.” Bu maqol nonni ramziy vosita sifatida ishlatadi. Non oddiy ovqat bo‘lish bilan birga, mehmondo‘stlik, saxovat, mehr-muhabbat kabi abstrakt qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu maqolda konkret predmet (non) orqali abstrakt tushunchalar (saxovat, samimiyat, ezgu niyat) ramziy tarzda ifodalanadi. Maqol ixcham va obrazli bo‘lib, esda qoluvchi ramziy struktura yaratadi. Shu tariqa, xalq paremiologiyasida non ramzi insoniy qadriyatlar va ijtimoiy axloqiy me’yorlarni yetkazish vositasi sifatida mustahkam o‘rin egallaydi. Non bu maqolda ramziy ifodaning klassik namunasi bo‘lib, o‘zbek maqollarida qadriyatlarni lisoniy va madaniy jihatdan yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ramzlar orqali abstrakt qadriyatlar konkret va tushunarli shaklga ega bo‘ladi, bu esa maqolning badiiy va pedagogik qiymatini oshiradi [3].

Maqollarda ovqat, kiyim-kechak va turmush nomlari xalqning kundalik hayoti va madaniy an’analarini aks ettiradi. Masalan:

Ovqat: “Non bilan mehmondo‘stlik ko‘rsatiladi”, “Choy ichish - ijtimoiy uchrashuv ramzi”.

Kiyim-kechak: “Kurta kiygan kishining axloqi ayon bo‘ladi” - milliy identitet va odob-axloq ramzi.

Turmush nomlari: “Uy egasi dildan kutib oladi” - oila va mehmondo‘stlik qadriyatlarini ifodalaydi [4].

“Choy ichib, do‘st bilan suhbatlash.” Choy o‘zbek madaniyatida ijtimoiy uchrashuv ramzi. Maqol do‘stlik, samimiyat va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi.

“Kiyimingni ko‘r, kimligingni bil.” Kiyim orqali insonning ijtimoiy maqomi va odob-axloqi ramziy tarzda ifodalanadi. Shu maqol milliy identitet va axloq qadriyatlarini aks ettiradi.

“Mehnat - boylik kaliti.” Maqol mehnatsevarlik qadriyatini obrazli tarzda ifodalaydi. Mehnat realiyasi xalqning kundalik hayoti bilan bog‘langan.

“Uyga hurmat - oila barqarorligi.” Uy realiyasi milliy qadriyatlar, oilaviy hurmat va barqarorlikni ramziy tarzda aks ettiradi.

Maqollarda qadriyatlarning ko‘p qatlamli ifodalanishi til va madaniyat uyg‘unligini ko‘rsatadi. Ramzlar va realiyalar qadriyatlarni aniq, ammo boy ma’no bilan taqdim etadi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek tilida maqollar qadriyatlarni saqlash va yetkazishda muhim vosita sifatida qolmoqda [5].

O‘zbek maqollari xalqning qadriyatlar tizimini lisoniy va madaniy jihatdan aks ettiruvchi noyob manbadir. Obrazlilik, ramziy ifodalar va milliy realiyalar orqali qadriyatlar yanada boy va esda qolarli shaklda ifodalanadi. Tadqiqot maqolalarning milliy-madaniy o‘ziga xosligini, ularning til va madaniyat uyg‘unligidagi ahamiyatini va xalq tafakkuridagi o‘rnini yoritadi. Kelajakda maqollarning paremiologik va madaniy jihatdan yanada chuqur o‘rganilishi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbek maqollari xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ixcham, badiiy va ramziy shaklda ifodalovchi noyob lisoniy birliklardir. Ular insonning axloqiy qarashlari, turmush tajribasi va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, maqollarda qadriyatlar uch asosiy vosita orqali yetkaziladi. Birinchidan, obrazlilik orqali abstrakt tushunchalar tasviriy va ramziy shaklda ifodalanadi; masalan, “Ko‘ngil dengiz, so‘z esa qayiq” maqolida inson qalbi va so‘zning roli obrazli tarzda tasvirlangan. Ikkinchidan, ramziy ifodalar yordamida konkret predmetlar orqali abstrakt qadriyatlar yetkaziladi; masalan, “Non - dildan berilgan ezgu niyat ramzi” maqolida non saxovat va mehmondo‘stlikni ramziy tarzda ifodalaydi. Uchinchidan, milliy realiyalar - ovqat, kiyim-kechak va turmush predmetlari - xalqning kundalik hayoti, urf-odatlari va milliy identitetini aks ettiradi. Masalan, “Choy ichish - do‘stlik ramzi”, “Chapan kiygan kishining obro‘si ayon bo‘ladi” yoki “Somsa bilan mehmon kutib olinadi” kabi maqollar o‘zbek xalqining ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini lisoniy va ramziy jihatdan yetkazadi [6].

Shu tariqa, o‘zbek maqollari nafaqat xalqning hayotiy tajribasini ixcham va badiiy shaklda ifodalaydi, balki milliy qadriyatlarni, odob-axloq me’yorlarini va ijtimoiy normalarni ramziy vositalar orqali avlodlarga yetkazadi. Ular milliy o‘ziga xoslik, lisoniy obrazlilik va madaniy uyg‘unlikni uyg‘unlashtiruvchi muhim manba sifatida qadrlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maqollar lisoniy va madaniy jihatdan boy, pedagogik va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, xalq tafakkuri va qadriyatlarini o‘rganishda noyob vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abduraxmonov M. O’zbek paremiologiyasi: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2010. - 248 s.
2. Ganiyev B. Maqol va matalarning ramziy va obrazli tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. –184 b.
3. Halilov N. O‘zbek milliy qadriyatlari va til orqali ifodalanishi. –Toshkent: Sharq, 2018. – 210 b.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Maqollar bo‘limi. - URL: http://www.navoiy.uz
5. Qodirov S. O‘zbek tilining lisoniy xususiyatlari. –Toshkent: Fan, 2008. – 276 b.
6. Raxmonov A. Maqollar va og‘zaki ijodda milliy qadriyatlar. – Toshkent: Akademiya, 2012. – 220 b.
7. Sultonov I. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi va paremiologik manbalar. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2014. – 200 b.
8. Xodjayev R. Og‘zaki ijod va xalq ma’naviyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 150 b.
9. Yo‘ldoshev T. O‘zbek xalq maqollari va ularning ma’nosi. – Toshkent: Sharq, 2015. – 192 b.
10. Zokirov F. O‘zbek tilshunosligi: paremiologiya bo‘limi. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 230 b.

UO’K 81-13

OMON MATJON SHE’RIYATIDA MILLIY VA TARIXIY MAVZULAR TALQINI

Sh.Do'stmurodova, magistrant, Buxoro Innovatsion Ta'lim va Tibbiyot Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning adabiyotimizdagi o‘rni, ijodiy uslubi hamda poetik mahorati tahlil etilgan. Shoirning she’rlaridan namunalar keltirilib, ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu doirasi va ichki falsafiy mazmuni yoritilgan. Shuningdek, Omon Matjonning milliy ruh, insoniylik va hayot haqidagi teran fikrlari poetik ifoda vositasida qanday aks etgani tadqiq etiladi. Maqola shoir ijodini chuqur o‘rganishga harakat qilinib, she‘rlaridagi san’atlar va xususiyalar ham sanab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *She’riyat, ijodkor, mavzu, milliy, umuminsoniy, tarixiy mavzular*

Аннотация. *В статье анализируется место народного поэта Узбекистана Омона Матжона в нашей литературе, его творческий стиль и поэтическое мастерство. Приводятся примеры стихотворений поэта, освещаются их идейно-художественные особенности, тематический диапазон и внутреннее философское содержание. Также исследуется, как глубокие мысли Омона Матжона о национальном духе, человечности и жизни отражены в поэтическом выражении. В статье делается попытка углубиться в творчество поэта, а также перечисляются искусства и особенности его стихов.*

Ключевые слова: *поэзия, создатель, тема, национальная, универсальная, историческая темы*

Abstract. *This article analyzes the place of the Uzbek people's poet Omon Matjon in our literature, his creative style, and his poetic skills. Examples of the poet's poems are given, highlighting their ideological and artistic features, thematic scope, and internal philosophical content. The study also examines how Omon Matjon's deep thoughts about the national spirit, humanity, and life are reflected in poetic expression. The article attempted to explore the poet's work in depth, and also listed the arts and features in his poems.*

Keywords: *poetry, creator, theme, national, universal, historical themes*

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida mavzular olamining rang-barangligi, qamrovning kengligi muhim jihatlardan biriga aylanib ulgurdi. Mavzu nafaqat she’riy, nasriy matn badiiy asar tarkibidan biri bo‘lib, hissiy, aqliy, mantiqiy, tafakkurning mahsuli sanaladi. Shuningdek, mavzuda milliy va umumbashariy qadriyatlar aks etishi, uning intertekstuallik xususiyati zamonaviy she’riyatda muhim qirralaridan biridir. Badiiy asar mavzusi ijodkor tanlagan va tasvirlagan hayotiy voqealar, asarda qo‘ygan va yoritgan asosiy masalalar yig‘indisidan, adabiy asarga asos bo‘lgan bosh fikr va maqsaddan iboratdir.

Adabiyotshunoslik nazariyasiga oid kitoblarda “mavzu – arabcha “aynan asosga qo‘yilgan” ma’nosini anglatadi. Ijodkor tomonidan tanlab olingan va hayotning muayyan muammolarini umumiylashtir voqealar tasviri, anashu akslangan hayot (voqea) ko ‘rinishlarni mag‘zini chaqish (fikriy tadqiqot va tahlil) va uni g‘oyaviy- emotsional tarzda baholashdir”. [1, 115]

Qomusiy olim Abdurauf Fitrat yozadi: “Adabiyotning mavzu’i butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o‘z ichki-tashqi dunyosida sezib onglag‘anlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong‘ingacha, kichik bir yaproqdan ulug‘ o‘rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozuvchi uchun mavzu’ bo‘larlik narsalardir. Biroq adib-yozuvchi o‘z asarining tilagiga (g‘oyasiga) ko‘ra mavzu tollaydir; qanday bir tilakni ko‘zda tutib, qanday bir fikrni bermakchi bo‘lib asar yozar esa, shunga kuchlirak boylangan bir mavzuni oladir.

Yozuvchi-adib tomonidan tollab oling‘an mavzu’ asarning tilagi bilan munosabatsiz esa, yozuvchi mavzu’ni tollashga yanglishg‘an bo‘ladir.[2, 15]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iste’dodli ijodkor, O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon ijodining mavzullar olamini tasnif qilishga harakat qilamiz. Omon Matjon ijodini kuzata turib mavzular olamining rang-barangligining guvohi bo‘lamiz. Shoir abadiy mavzulardan tortib, zamonaviy mavzulargacha qalam tebratgan. Vatan, Vatanparvarlik, sadoqat, tarix, tabiat, ona, yolg‘izlik, tog‘, orol, ovul, sevgi, muhabbat, insoniylik kabi bir qancha mavzular shoir ijodini bezab turibdi.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam yangi o‘zbek she’riyatidagi ijtimoiylashuv haqida fikr yuritar ekan, yozadi: “XX asrda tubdan ijtimoiylashgan o‘zbek she’riyati badiiylik darajasi nuqtayi nazaridan ikkiga ajralmoqda: birinchisi – davr muammolari sana’atkorona aks ettirilgan, ko‘pning dardi shoir dardiga, demakki ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan (personifikatsiya bo‘lgan) she’riyat. Bunga Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi shoirlar she’riyati misol bo‘ladi”[3,157] Binobarin, yuqorida tilga olingan shoirlar ijtimoiy dardni shaxsiy dard sifatida ifoda etdilar, Omon Matjon ijodi ham bu borada salmoqli bo‘ldi.

Vatan mavzusi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da Vatan kalimasi quyidagicha izohlanadi.

Vatan "(tug'ilib o'sgan joy, yurt) 1. Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyor. 2. Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. Ona Vatan. 3. Turar joy, boshpana, maskan, uy. 4.O'simlik va sh. k. larning asli kelib chiqqan yerini bildiradi"[4, 444]

Vatan lirikasi ijtimoiy she'riyatning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Unda insonning vataniga bo'lgan muhabbati, ehtiromi, uning tarixi, madaniyati va kelajagi bilan bog'liq his-tuyg'ular, fikrlar va tasvirlar ifoda etiladi. Shu jihatdan, bosh mavzu ham vatanga bo'lgan muhabbat, uning milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analariga sadoqat bilan bog'liq. Vatan lirikasining asosiy xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Qator-qator minor ko'rdim Xivada,
Ko'k toqini bekor ko'rdim Xivada.
Ichon uchun Dishon qurbon bo'libdir,
Elga jonlar nisor ko'rdim Xivada. [5, 91]

Shoir Xorazm diyorida tug'ilib, o'sganligi uchun ham Vatan timsolini Xorazim, Xiv ava tarixiy qadamjolarsiz tasavvur qila olmaydi. Uning har bir satrida Xorazimni oddiy xasidan tortib, gul-u rayhonigacha o'z ifodasini topadi. "O'zbekistonning tarixiy shahri Xivaning mustahkam devor bilan o'ralgan ichki shahri bo'lib, Markaziy Osiyodagi birinchi Jahon me'rosi obyektiga aylandi. Asrlar davomida qad rostlagan (eng qadimiy me'moriy yodgorliklar XIV asrga to'g'ri keladi.

Istehkomlar, masjid, madrasalar, maqbara, minoralar, karvonsaroy va hammomlar Ichan qal'ani o'ziga xos yodgorlik shahriga aylantirdi. Ko'hna Xiva 1968-yilda rasman qo'riqxona maqomini oldi [1]. Qadimy va navqiron shaharning nafaqat devorlar, she'riyat, san'at uchun poytaxt vazifasini bajarayotganligi keyingi satrlarda qalamga olinadi. *"Jahon nazm poytaxti Xorazm, Dutor nadir, setor ko'rdim Xivada".* Ushbu she'r qofiyalanishi ba, ca, da, ga tarzida bo'lib, 5+6 shaklida turoqlangan. She'r muuqaddimasida, "*O'zbek elim o'lmagaysan dunyoda,*
Mangu yuksak viqor ko'rdim Xivada". shaklidagi tilak tarzida yakunlanadi.

Yoki *"Bu yurt ufqida bir nur ko'rindi"* satrlari bilan boshlanuvchi she'rida ham istiqlol mavzusi baralla bo'y ko'rsatadi. Ushbu she'r istiqlolga erishilgan dastlabki yilda yaratilgan.

Har qalbdagi umid,pok xayol haqqi,
Bayroqda yuz ochgan ilk hilol haqqi,
Tolemizda balqqan istiqlol haqqi,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.[5, 91]

Ushbu mavzu shoirning "Qush yo'li" dostonida ham yanada mufassal ochib berilgan.

Tarixiy va milliy mavzular. Omon Matjon ijodida alohida o'rin tutadi. U o'zbek adabiyoti va tarixining buyuk shaxslarini mavzu qilib olib, ular orqali milliy g'urur va iftixor tuyg'ularni uyg'otadi,tarixdan xulosa chiqarishga undaydi. "Bu – Mashrab, Mashrab!" she'rida Mashrabning shaxsiyati mavzusi orqali erkinlik va haqiqat uchun kurash tasvirlanadi:

Kim u, temuriylar xonadonining
O'choqlarin quchib, qo'r titayotgan?!
Yo'llar tiklanishin, toj yarqirashin.
Millat uyg'onishin zor kutayotgan
Va zulmatni buzgan na'ralar boshlab.
Bu –Mashrab,Mashhrab! [5, 13]

Mansab, hoyu-havasga berilmagan, adabiy nur deb, adabiy isyon qilib, xalqni uyg'otishni chinakkam orzu qilgan Mashrab shoir siymosi gavdalantirilgan. O'n banddan iborat mazkur she'rda, Mashrabning qarashlari orqali, jadidlar g'oyalari ifodalangandek go'yo. O'zi o'lgan bo'lsada, bizni tashlab ketmadi satrlari fikrimizni dalillaydi.

Bu mavzu tanlashda shoir tarixni hozirgi kun bilan bog'laydi. Shuningdek, "Xorijdagi o'zbeklarim" she'rida "Xorijdagi o'zbeklarim, o'lmay olgan o'zliklarim, qani endi yurtga keling, O'z xonlarim, o'z beklarim."[5, 12] kabi she'rlarda xorijdagi o'zbeklar mavzusi orqali milliy birlik va vatan sog'inchi ifodalanadi. Bunday mavzularni tanlash shoirning milliy ruhiyatni chuqur anglashini ko'rsatadi.

Ijtimoiy va siyosiy mavzular ham shoir mavzu doirasining kengligini namoyish etadi. "Dushanbada tanklar" she'rida Tojikistondagi voqealar mavzusi orqali qo'shni xalqlarning taqdiri va tinchlik masalalari ko'tariladi:

Dushanbada tanklar!
Qora guldiros
Pomirning zirxiga purkdi uchqunlar. [5, 80]

Bu yerda shoir siyosiy ziddiyatlarni tanlab, ularni insoniy qadriyatlar bilan bog'laydi, bu esa uning zamonaviy muammolarga befarq emasligini ko'rsatadi.

Yana bir misol – "2–3 yanvar, Xorazm" she'ri, unda qishning sovuqligi orqali milliy ramzlar – O'zbekistonning mustahkamligi va qushlar (jon qushlari) tasvirlanadi. She'r qishning qattiq sovug'i, muzlagan daraxtlar, qushlarning halokati kabi oddiy tabiat hodisasi bilan boshlanadi:

Xorazmda qor yukidan ogochlar sindi.
Kun-tun falak tegirmoni muz sepdi g'o'yo... [5, 6]

Ammo shoir bu manzarani birdan butun O'zbekistonning ramzi qilib ko'taradi:

O'zbekiston! Sening o'ktam oyoqlariningni
Yuz yil shundoq qo'yvormadi, Shimol muzlari.

Shoir oddiy qish sovug'ini sovet davridagi milliy bosim, qiyinchiliklarga bardosh berish va kelajakka umid bilan bog'laydi. Qushlar, "jon qushlari" iborasi orqali millatning nozik ruhini ifodalaydi. Shoir tomonidan mavzu kengaytirilib, falsafiy va milliy darajaga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon mavzu tanlash mahorati uning ijodini boy va ko'p qirrali qiladi. U tabiatdan tortib, falsafa, tarix, ijtimoiy muammo va sevgigacha bo'lgan mavzularni tanlab, ularni o'zbek ruhiyati va zamonaviy hayot bilan bog'laydi. "Iymon yog'dusi" saylanmasi bu mahoratni yorqin aks ettiradi va shoirni o'zbek adabiyotining chinakam ustasi sifatida taqdim etadi. Uning mavzularidagi xilma-xillik nafaqat o'quvchini o'ylatadi, balki milliy adabiyotimizni boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.115

2. Фитрат. Адабиёт қоидалари.Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.15.

3. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: Адиб, 2012. – Б.157.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1-жилд. -Т.: Ўзбекистон Энциклопедияси, 2006. – Б. 444.

5. Омон Матжон.Имон ёғдуси.(сайланма) Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. – Б.91.

UO'K 821.512.1.09

AHMAD TABIBIY KICHIK JANRDAGI SHE'RLARINING MAVZUIY GURUHLANISHI

Sh.N.Elbekova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ahmad Tabibiy kichik she'rlarining mavzuiy tipologiyasi hamda ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi ishqiy, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy va tasavvufiy yo'nalishlar mavzuiy guruhlanadi. Natijada shoir kichik janrlardagi she'riy merosining badiiy qimmati ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Tabibiy, kichik she'riy janrlar, mavzuiy tipologiya, ishqiy lirika, tasavvufiy talqin, axloqiy-ta'limiy motivlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется тематическая типология коротких стихотворений Ахмада Табиби и их идеологические и художественные характеристики. Тематически сгруппированы романтическое, нравственно-воспитательное, социально-философское и мистическое направления в творчестве поэта. В результате на научной основе выделена художественная ценность поэтического наследия поэта в малых жанрах.*

Ключевые слова: *Ахмад Табиби, короткие поэтические жанры, тематическая типология, романтическая лирика, мистическая интерпретация, нравственно-воспитательные мотивы.*

Abstract. *This article analyzes the thematic typology of Ahmad Tabibi's short poems and their ideological and artistic characteristics. The romantic, moral-educational, socio-philosophical and*

mystical directions in the poet's work are thematically grouped. As a result, the artistic value of the poet's poetic heritage in small genres is highlighted on a scientific basis.

Key words: *Ahmad Tabibi, short poetic genres, thematic typology, romantic lyrics, mystical interpretation, moral-educational motifs.*

Adabiyotshunoslikda lirik asarlarni mavzuiy jihatdan guruhlash muallifning ijodiy dunyoqarashini, estetik ideallarini va badiiy tafakkur yo‘nalishini aniqlashning muhim metodlaridan biri hisoblanadi. “Mavzu” tushunchasi asarda aks etgan hayotiy hodisalar doirasi, muallif munosabati va g‘oyaviy yo‘nalishning badiiy ifodasini qamrab oladi. Mumtoz lirika an’anasida mavzuiy tasnif ishqiy, tasavvufiy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy hamda didaktik qatlamlar asosida olib borilgan bo‘lib, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy va boshqa ko‘plab shoirlar ijodini o‘rganishda samarali natija bergan.

“Tabibiy adabiy merosi mavzusiga ko‘ra rang-barang bo‘lib, shoir lirik asarlari tahlili milliy adabiyotimizdagi nazariy qarashlarni boyitishi shubhasiz”. Ahmad Tabibiy lirikasini mavzuiy guruhlash shoir ijodiy merosining ichki yaxlitligini, yetakchi motivlar tizimi va ungagina xos bo‘lgan individual badiiy qiyofasini ochib berish imkonini yaratadi. Shoir asarlarida mavzular alohida – alohida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘lib, bu holat ularni matniy tadqiq etish va tasniflash jarayoniga kompleks ravishda yondashishni talab etadi. Tabibiy devonlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalaridagi lirik asarlarni tadqiq qilish jarayonida ular asosan diniy-tasavvufiy, dunyoviy ishq muhabbat, ilm-ma’rifat, hasbi hol, musiqa va san’at, tabiat tasviri, ijtimoiy-falsafiy kabi mavzularga bag‘ishlanganini kuzatish mumkin [1].

Diniy –tasavvufiy mavzuga bag‘ishlangan asarlar. “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlikdir”, – deganlaridek adabiyotimiz tarixiga nazar solsak, mumtoz ijodkorlarimizning so‘zga, she’riyatga yuksak hurmatda bo‘lganligini, uni oliy qadriyat sifatida ko‘rganligini anglaymiz. Hazrat Navoiy bobomiz ham so‘zni guhari sharif deya ta’riflaganlar. Mumtoz shoirlarimiz devonlarining debochasidan, xotimasiga qadar har qadamda Yaratganga bandalik, Rasulullоh (s.a.v)ga ummatlik mas’uliyatini bir nafas bo‘lsada yodidan chiqarmagan. Ushbu ruboiy ham Yaratganga hamd ruhida yaratilgan:

Hamd o‘lsun ongaki, bor Qodiri yakto,
Qildi iki harfdin jahonni paydo,
Ne ushbu jahonki, o‘n sakiz ming olam,
Bil do‘zax-u jannat, ins-u jin, arz-u samo [2].

Ahmad Tabibiy ijodida ham diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlar muhim o‘rin egallaydi. Shoirning bunday ruhdagi she’rlari mumtoz o‘zbek adabiyotida shakllangan tasavvufiy an’analarning izchil davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu asarlarda ilohiy ishq, nafsni poklash, komil inson g‘oyasi hamda Haqqa yetishish yo‘lidagi ruhiy kamolot masalalari yetakchi mavzular sifatida talqin etilgan. “Tabibiyning lirik asarlari tadqiqi uning yoshlik chog‘laridanoq nafaqat, diniy va dunyoviy ilmlarni, balki ilmi bade’, ilmi aruz va ilmi qofiyani ham mukammal egallaganini ko‘rsatadi. Shoir arab va fors tillarini puxta o‘rgangan. Ko‘plab mumtoz ijodkorlar singari Tabibiy she’riyatini ham islom ma’rifati va ma’naviyatidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Shoirning aksar baytlari Qur’oni

karim oyatlari va hadisi shariflarga bitilgan she’riy sharhlar ekanligi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi” [3].

Tabibiy tasavvufiy lirikasining markazida ilohiy ishq tushunchasi turadi. Shoir dunyoviy ishqni ilohiy ishqqa eltuvchi vosita sifatida talqin qiladi. Bu hol mumtoz tasavvuf adabiyotiga xos bo‘lgan “majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa o‘tish” tamoyiliga mos keladi. Tabibiy she’rlarida oshiq obrazi orqali insonning ma’naviy izlanishlari, ruhiy iztiroblari va Haqqa intilishi ifodalanadi.

Hajringda chekib toki oh-u faryod,
Zahri sitaming ichgali bo‘ldim mo‘tod,
Aylab mani emdi dard-u g‘amdin ozod,
Ey sho‘x, visoling aro bir tun qil shod.

Shoirning diniy-tasavvufiy asarlarida nafs tushunchasi alohida e’tiborga olinadi. Nafs insonni ilohiy yo‘ldan chalg‘ituvchi kuch sifatida tasvirlanib, undan voz kechish va riyozat orqali ruhni

poklash zarurligi ta'kidlanadi. Bu jihat Tabibiyning tasavvufiy qarashlari Qur'oni karim va hadis mazmuni bilan mushtarak ekanini ko'rsatadi [4].

Orazing anvorig'a "Vash-shams" matla', ey habib,
Kokuling "Val-layl" tahiyyotida asru dilfirib.
Lablaring jonbaxsh qildi sharbati "Yuhyil-izom",
Ko'zlaring "Mozog'" kuhli birla topti zayn-u zeb.
"Qoba qavsayn" ittihodin qoshlaring aylab ayon,

Tabibiy diniy-tasavvufiy asarlarining til va uslub xususiyatlari ham diqqatga sazovordir. Shoir ramziy obrazlar — may, soqiy, yor, hijron, visol, yo'l, manzil kabi tasavvufiy timsollardan keng foydalanadi. Ushbu ramzlar orqali ilohiy haqiqatni bevosita emas, balki badiiy va majoziy yo'sinda ifodalashga erishadi. Bu esa Tabibiy ijodini mumtoz tasavvufiy poeziyaning yetuk namunalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Soqiy sitam charx yetishgusi mango,
Bas tut karam aylab qadah ruhafzo.
To no'sh etibon oni mane zor, gado,
Aflok sori chekib fig'on-u g'avg'o [5].

Dunyoviy ishq - muhabbat mavzusi (ishqiy lirika). Shoir lirikasida ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar markaziy o'rinni egallaydi. U ishqni nafaqat hissiy kechinma, balki insonni komillikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. Ishqiy she'rlarda yor, oshiq, hijron, sadoqat va shikoyat motivlari an'anaviy obrazlar orqali ifodalanadi. Tabibiy ishqiy kechinmalarni tasvirlashda xalqona va mumtoz poetik vositalarni uyg'unlashtiradi. Yor timsoli goho hayotiy, goho ramziy qiyofada namoyon bo'lib, bu holat ishq mavzusining ko'p qatlamli talqinini yuzaga keltiradi. Hijron va visol qarama-qarshiligi orqali oshiq ruhiy olamidagi ichki kurash tasvirlanadi. Tabibiyning kichik janrlardagi she'rlari ishqni ifodalash jihatidan, boshqa mumtoz adabiyot vakillari ijodidan bir qancha jihatlari bilan ajralib turadi:

– *Ishqning ko'p qatlamli talqini:* majoziy va haqiqiy ishqning o'zaro tutashib ketishidir. Shoir asarlarida yor obrazi ko'pincha aniq shaxs sifatida emas, balki ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ishqiy kechinmaning ma'nosini kengaytirib, uni tasavvufiy-falsafiy darajaga ko'taradi. Natijada, oshiqning yor vasliga intilishi insonning Haq yo'lidagi intilishiga qiyoslanadi. Masalan shoirning quyidagi qit'asida ham ishq va hijron o'ziga xos bir uslubda tasvirlangan [6].

Moyili ishq o'lsa har kim dahr aro,
Qolmag'ay zarra onga to nomus-u or.
Maqsad-u armoni aslo qolmag'ay,
Ushbu olam ichra g'ayri vasli yor.
Furqat o'lsa chekkusi oh-u fig'on,
Vuslat o'lsa bo'lg'usidur kom-u kor.

– *Hijron markazli ishqiy kechinma:* Tabibiyning ishqiy lirikasida hijron motivi visoldan ustun turadi. Shoir oshiq ruhiyatini aynan ayriliq, iztirob va sabr holatida tasvirlashga moyildir. Hijron faqat shikoyat manbai emas, balki oshiqni poklaydigan, uni ma'naviy yuksaltiradigan vosita sifatida talqin qilinadi. Bu jihat shoirni yuzaki hissiy lirika emas, balki ichki ruhiy tahlilga asoslangan yozuvchi ekanligini isbotlaydi. Bu holat ayniqsa quyidagi ruboiyda izchil yoritilgan [3].

Faryodki ul sho'x jafo qildi mango,
Chekmak ne g'am-u sitam ravo qildi mango.
Bir kecha visolini muyassar qilmoy,
Mahsuli azob ila ano qildi mango.

Ilm-ma'rifat mavzusidagi she'rlar. Tabibiy she'riyatida ilm – ma'rifat mavzusiga bag'ishlab yozilgan she'rlar ham anchagina. Tabibiy fikricha hayotni, insoniyatni ilm-ma'rifatdan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bashariyatni zulmatdan qutqaruvchi, jamiyatni farovon hayotga olib chiquvchi yagona yo'l – ma'rifat yo'li deb biladi. Shoirning ta'kidlashicha ilm – ma'rifat johilni, g'ofilni jaholat uyqusidan uyg'otadi, uning hayotiga fayz va nur bag'ishlaydi. Tabibiy "*Manga tavfiqi iymonimni yo'ldosh aylagil yo Rab...*" misralari bilan boshlanuvchi g'azalida ham insonlarni iymondan, himmatdan, ilmdan bebahra qoldirmasligi haqida bayon qiladi.

Hasbi hol mavzusi. Tabibiy ijodida hasbi hol mavzusi shoirning lirik merosini g‘oyaviy jihatdan birlashtiruvchi yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida e’tiborni tortadi. Shoirning hasbi hol ruhidagi she’rlarida, avvalo, shaxsiy kechinmalari, ichki iztiroblari va ruhiy holati markaziy o‘ringa chiqadi. Lirik qahramon o‘z holatini ochiq va samimiy tarzda bayon etar ekan, u ko‘pincha zamona adolatsizligi, insoniy munosabatlarning sovuqlashuvi hamda ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuvi bilan bog‘liq holatlardan ranjish kayfiyatida tasvirlanadi. Bu jihat Tabibiy hasbi hol lirikasini faqat shaxsiy dard ifodasi bilangina cheklab qo‘ymay, uni ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan ham boyitadi [2].

Hasbi hol mavzusining Tabibiy ijodidagi muhim jihatlaridan yana biri – faqru qanoat g‘oyasining tasavvufiy talqinda berilishidir. Shoir o‘z holini bayon qilar ekan, moddiy yetishmovchilikni emas, balki ma’naviy faqirlikni ulug‘laydi. Bu hol tasavvufda “faqirlik” tushunchasining ilohiy mohiyatini anglatib, insonning dunyoviy bog‘liqliklardan xalos bo‘lishi va Haqqa yaqinlashuvi g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ahmad Tabibiy kichik janr imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda chuqur g‘oya va badiiy mazmunni ixcham shaklda ifodalagan. Mavzuiy tipologik tahlil natijasida shoir kichik she’riy merosining g‘oyaviy-estetik qimmati va o‘ziga xos poetik mahorati aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Tuhfatu-s-sulton”, Inv. № 82, 39-b
2. Amonov. Sh. N. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: 2023.
3. G‘anixo‘jayev F. Tabibiy (hayoti va ijodi). – Toshkent: Fan, 1978.
4. Laffasiy. Tazkirai shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992.
5. Qo‘lyozma. دیوان منتحب طبیبی O‘zRFAShI Asosiy fond. Inv. №1122.
6. Tanlangan asarlar. Ahmad Tabibiy. (Nashrga tayyorlovchi: Shermuhammad Amonov). – Toshkent: Bookmany print, 2025.

UO’K 81’373.612:81’38

BADIIY MATNDA METAFORA VA EPITETNING KOMBINATSION IMKONIYATLARI

D.A.Ergasheva, doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy matnlardagi metafora va epitetning kombinatsion imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan. Odil Yoqubov asarlaridan olingan matnlar asosida metafora va epitetning lingvopoetik tahlili amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Badiiy nutq, badiiy uslub, metafora, epitet, tasviriy vositalar, kombinatsion imkoniyat, obrazlilik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются комбинаторные возможности метафоры и эпитета в литературных текстах. На основе текстов из произведений Одиля Якубова проводится лингвопоэтический анализ метафоры и эпитета.*

Ключевые слова. *Художественная речь, художественный стиль, метафора, эпитет, образные средства, комбинаторные возможности, образность.*

Abstract. *This article discusses the combinatory possibilities of metaphor and epithet in literary texts. A linguopoetic analysis of metaphor and epithet is carried out on the basis of texts taken from the works of Odil Yakubov.*

Ke ywords. *Artistic speech, artistic style, metaphor, epithet, figurative means, combinatory possibilities, imagery.*

Bugungi kunda badiiy matnning lingvopoetik tahlili keng o‘rganilayotgan aspektlardan hisoblanadi. Badiiy nutqni bu usulda o‘rganish tilshunoslik uchun qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, adabiyotshunoslik uchun ham shuncha shu darajada muhimdir. Chunki til birliklari badiiy asarda fikr, tushuncha ifodalovchi vosita sifatida chegaralanib qolmaydi. Badiiy asar asosini tashkil qiluvchi obrazlilikka xizmat qiladi. Badiiy asar mazmuni, g‘oyasi shu obrazli til tufayli vujudga kelishi natijasida asarning estetik mohiyati ham oshadi. Shunga ko‘ra badiiy nutq obrazli nutq bo‘lib, u ham aloqa-aralashuv, ham estetik vazifa bajaradi. Bu badiy nutqning vazifasi nechog‘lik kengligini namoyon etadi. Badiiy adabiyot, – deb yozadi A.N.Vasilyeva, “obrazli qabul qilish va g‘oyaviy

estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi"[1]. Til esa obyektiv borliq va unga kishilarning munosabatlarini keng va har tomonlama ko‘rsatib berishda juda katta, hatto, chegarasiz imkoniyatlarga egadir. Til yozuvchining individual o‘ziga xosligini namoyon etuvchi vosita sifatida badiiy matn jozibasini his qilishga ko‘maklashadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida asosan muallif tomonidan obraz yaratishda til vositalaridan qay tarzda foydalanganligi muhim.

Yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisaning hayotiyligi, fikr yaqqolligi shu yozuvchining til tasviriy vositalari - epitetlar, o‘xshatishlar, metafara, metonimiya, mubolag‘a, kichraytirishlardan to‘g‘ri foydalanishida ko‘rinadi [2]. Badiiy asarda qo‘llangan barcha so‘zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so‘zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g‘oyasini o‘quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisa o‘quvchining munosabatini uyg‘otadi. Bularsiz, umuman asar haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Badiiy asarda ishlatiladigan so‘zlarning ba'zilari betaraf qimmatda bo‘lsa, ba'zilari nutqqa ekspressivlik, emotsiya berish uchun xizmat qiladi.

Badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko‘rinishini qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun metafora, epitetlarning kombinatsion imkoniyatlari chegarasizdir.

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida metafora va epitetlar masalasi har tomonlama o‘rganilib, ular orasidagi tafovutlar ancha oydinlashtirildi. K.A.Dolinin haqli ravishda metaforalarning ham so‘z birikmalaridan iborat bo‘lishini ta'kidlaydi [3]. Bu kabi vositalar tilning tasviriy vositalari hisoblanib, nutqda xususan, badiiy nasrda, ularning har birining o‘ziga xos o‘rni bor. Biroq tasviriy vositalardan metafora, epitet, o‘xshatish, sifatlash badiiy nutq uchun muhim bo‘lgan, badiiy-obrazlilikni ta'minlashda ko‘lamdorligi bilan alohida ajralib turuvchi badiiy vositalardir.

Badiiy asarlarda qahramonlar obrazini yaratishda ularning xarakter-xususiyati bilan qo‘shib tasvirlash uchun metafora va epitetlarning kombinatsion imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi. Yozuvchilar davr ruhiga mos leksik vositalarni topib, bu til vositalarini qahramon obrazi bilan birlashtiradi. Masalan: ... *Hazrat Sarkor qancha uxladi, o‘ziyam bilmaydi... Yopiray, bu qora vahima qaydan keldi? U hozirgina yorug‘ esdaliklardan ko‘ngli taskin topib, osoyishta uyquga ketgan edi-ku... hamma baloga hozirgina ko‘rgan tushi sabab! Yomon tush! Vahimali tush!* (O.Yoqubov. "Osiy banda") Berilgan matnda *qora vahima, yorug‘ esdaliklar, osoyishta uyqu, yomon tush, vahimali tush* epitetli birikma hisoblanib, lingvistik jihatdan epitet aniqlovchi vasifasidagi so‘z bo‘lsa-da, badiiy matnda u oddiy ta'rif bilan emas, estetik baholanmoqda. Aslida epitetlar bir necha turga bo‘linadi: doimiy, metaforik baholovchi, bezak, affektiv va hakazo. Yuqorida berilgan matndagi epitetlar esa metaforik baholovchi epitetlar sanaladi.

Bizga ma'lumki, epitet biror birikma tarkibiga kirganda, bu birikma epitetli birikma deb qaraladi [4]. Milliy mentalitetdagi qahramonlik, go‘zallik, kuch va bahodirlik ramzlarini ifodalovchi *sher yurak, arslon bilak, qirg‘iy ko‘z, pari qiz, badom qovoq, otash qalb* kabi epitetlar ma'lum bir estetik yoki emotsional ottenkani yuzaga chiqaradi. Shu sababdan epitetni faqat grammatik aniqlovchi deb emas, balki badiiy tafakkurning mahsuli sifatida ko‘rish lozim.

Epitetdan farqli o‘laroq metaforaning lingvistik xususiyati shundaki, aniqlanmish ko‘chma ma'noda qo‘lanadi, u semantik transfer orqali yangi ma'no hosil qiladi. Masalan, *ga‘flat uyqusi, hayot yo‘li, ilm dengizi, ko‘ngil daryosi* kabi. Metafora shu xususiyati bilan nutqning eng samarali lingvopoetik vositasi hisoblanadi. Adabiy tilda tasviriy vositalarning faoliyati nafaqat estetik, balki gnoseologik vazifani ham bajaradi. Chunki har qanday metafora, epitet, o‘xshatish yoki o‘xshatish orqali muallif dunyo haqidagi o‘zining konseptual tasavvurini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy vositalar tilda kodlangan estetik model sifatida ko‘riladi. U. Eko semiotikasida aytilishicha, har qanday badiiy belgi inson tafakkurida muayyan ma'noni uyg‘otadi va shu orqali matnning ko‘p qatlamli semantikasini yuzaga keltiradi [5] Demak, tasviriy vositalar — bu oddiygina bezak emas, balki adabiy matnning asosiy ma'no ishlab chiqaruvchi mexanizmlaridan biridir.

Lingvopoetik yondashuvga ko‘ra, tasviriy vositalar til birliklarining ikkinchi darajali semantizatsiyasi natijasida yuzaga keladi [6] Masalan, oddiy so‘zning lug‘aviy ma'nosi birlamchi bo‘lsa, uning metaforik qo‘llanilishi ikkilamchi semantik yuklama yaratadi. Shuning uchun ham, adabiyotshunoslikda tasviriy vositalarning ko‘chma ma'no asosida yuzaga kelishi qoidasi markaziy

nazariy tamoyil hisoblanadi. Bu esa, V.Vinogradov ta’kidlaganidek, til birliklarining lingvopoetik konnotatsiyasini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Badiiy matnda metafora va epitetning kombinatsion imkoniyatlarini, lingvistik mohiyatini to‘liq anglash uchun ularning funksional-semantik vazifalarini ham tahlil qilish zarur. Chunki har bir adabiy vosita til birliklari doirasida muayyan semantik yuklama bilan maydonga chiqadi va matnda turlicha vazifani bajaradi. Masalan, metafora so‘zning lug‘aviy ma’nosidan tashqari qo‘shimcha obrazli ma’no beradi. Epitet predmet yoki hodisaning alohida belgilarini emotsional-estetik jihatdan ajratib ko‘rsatadi. O‘xshatishda esa ikki predmet yoki hodisani qiyoslash orqali yangicha obraz yaratadi. Bu jarayonda asosiy vazifa — oddiy til birliklariga estetik yuklama qo‘shishdir. Masalan, *Shu-shu, amirning boshida aylanib yurgan qora bulutlar to‘zg‘ib, unga omad va saodat yor bo‘libdi. Alam shamlari o‘chib o‘rniga quyosh misol oy balqibdi.* (O.Yoqubov. “Ko‘hna dunyo”) Berilgan matnda berilgan *qora bulut* epitetli birikma hisoblansa, *alam shamlari* birikmasi metafora hisoblanadi. Chunki *qora bulut* epitetida aniqlovchi ko‘chma ma’noda qo‘llangan, *alam shamlari* metafora, aniqlanmish ko‘chma ma’noda ifodalangan.

Tasviriy vositalarning lingvistik mohiyati ularning matndagi integratsion o‘rni orqali yanada to‘liq namoyon bo‘ladi. Chunki badiiy matn – bu alohida birliklarning oddiy yig‘indisi emas, balki yaxlit estetik tizimdir. Ushbu tizimda metafora, epitet, o‘xshatish kabi vositalar bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, umumiy obrazlilikni shakllantiradi: *Bo‘tako‘zbegimning yonida yonboshlab yotib, bu o‘lanlarni, dasht oqshomiday tiniq, mayus laparlarni tong otguncha eshitgisi keladi, shirin tushga o‘xshagan bu mas’ud damlar toabad tugamasa, esdaliklar tug‘yonida bir umr qolsam deydi.* (O.Yoqubov. “Ko‘hna dunyo”) Ushbu matnda *dasht oqshomiday* o‘xshatish, *mayus lapar, shirin tush* epitetli birikmalar, *esdaliklar tug‘yoni* metaforasi badiiy yaxlit estetik vazifada qo‘llanganki, bu vositalar o‘zaro munosbatda umumiy obrazlilikni shakllantirgan. Badiiy matn — bu semiotik tizimlarning bir-biriga qo‘shilishi natijasida yuzaga keladigan murakkab tuzilma. Shu sababli tasviriy vositalarning integratsion o‘rni matnning semantik yaxlitligini yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Epitetlar obrazni emotsional bo‘yoqdorlik bilan ta’minlasa, o‘xshatishlar uning qiyosiy o‘lchovini beradi, metaforalar esa mutlaqo yangi konseptual asos yaratadi. Bularning barchasi o‘zaro uyg‘unlashib, matnning poetik kuchini oshiradi: *Shahzoda turgan joyida gilamga tiz cho‘kib, sajdaga bosh qo‘yarkan, ko‘ksidan achchiq faryod aralash bir nido otilib chiqdi* (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”). *achchiq faryod aralash bir nido* epitetli birikmasi orqali yozuvchi inson qalbining tub-tubida yotgan, yashirin manzaralarni o‘zining individual so‘z qo‘llash mahorati ila o‘quvchiga yetkazib beradi.

Badiiy matnlarda tabiiy hodisalarni ifodalovchi lug‘aviy vositalarning metaforik ma’noda qo‘llanilishi asosida o‘ta ta’sirchan, obrazli fikr ifodalanadiki, bu tabiiy hodisalarni anglatuvchi so‘zlarni badiiy ifoda vositalariga aylanishiga olib keladi: *Bu voqealarning bo‘lganiga qancha yillar o‘tdi, qancha suvlar oqib ketdi, boshidan qora bulut tarqab, chehrasida yulduz porlay boshladi.* (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”) Bu matndagi *suv, bulut, yulduz* so‘zlari metaforik ma’noda qo‘llangan. Yozuvchi *suvlar oqib ketdi* metaforik birikmasi orqali “insonning o‘tib ketgan umrini”, “o‘tgan vaqti”ni ifodalasa, *qora bulut* birikmasi orqali insonning boshidan o‘tgan “yomon, iztirobli, tashvishli, mudhish kunlar”ni, *yulduz porlay boshladi* birikmasi orqali esa “yaxshi, yorqin kunlar” ni ifodalagan. Bu metaforik ifodalar yozuvchining individual mahoratini, obraz yaratishda predmetlar o‘rtasidagi botiniy o‘xshashliklarni topganligini va bu holatda metaforik ma’no hosil qilishning ajoyib namunalardan foydalanganligini ko‘rsatadi.

Narsa, hodisa va inson o‘rtasidagi ilg‘ash murakkab bo‘lgan o‘xshashliklar asosida, kishi xayoliga kelmaydign obrazli ifodalar hosil qilinishi individual metaforalarning badiiy samaradorligini oshiradi, bunday ifodalardagi fikriy ta’sirchanlik yanada kuchayadi. Masalan, *Maxfiy eshikning qulfiga tekkan qilich, yulduz sachratib, sharaqlab ketdi*. (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”) Bu gapdagi *yulduz sachratib* birikmasi obrazli ifodaning yorqin namunasidir. *Yulduz* so‘zi metaforik “olov” ma’nosini ifodalagan, biroq ma’lumki, *olov* bilan *yulduz* orasida muayyan belgi o‘xshashligi yo‘q. Demak, ijodkor *yulduzga* qiyos qilayotgan *olov* oddiy olov emas. Yuqoridagi metaforik ifoda uchun asos bo‘lgan o‘xshashlik ijodkorona kuzatish va so‘z qo‘llash mahoratining namunasi sifatida maydonga kelgan.

Individual metafora va epitetlarning kombinatsion imkoniyatlari, badiiy-obrazliligi uning mazmuniga daxldor bo‘lib, so‘z yoki so‘z birikmasi matnda mazmunan poetiklashadi. Shu boisdan ham so‘zning metaforik ma’no ifodalashi, epitetli birikmalarning obraz yaratishi yozuvchining tildan foydalanish mahoratini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Васильева А.Н. Художественная речь. – М., 1983.

2. Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.Долинин К.А. Стилистика французского языка. – С. 133-134.

3. Shukurov I. Nutqiy ko‘chma ma’nolarning hosil bo‘lishi va konversiya. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1975, 5-son. – B. 68.

4. Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – С. 52.

5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2009. – B. 4.

UO’K 81’373.7

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK KESISHMASI: ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZEMALAR TAHLILI MISOLIDA

G.S.Ergasheva, tayanch doktorant, ToshDO‘TAU, o‘qituvchi, ChDPU, Chirchiq

Annotatsiya. *Mazkur maqola lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslikning uzviy bog‘liqligini o‘zbek va nemis tillaridagi antroponimik komponentli frazemalar - shaxs nomi ishtirokidagi turg‘un birliklar misolida ochib beradi. Antroponimlar kelib chiqishining diniy-afsonaviy, tarixiy, adabiy, xalq og‘zaki ijodi semantik rollarga ta’siri ko‘rsatildi; tarjimada ekvivalent tanlash muammolari va yechimlari, shuningdek, ko‘chirish, tavsifiy tarjima, madaniy moslashtirildi.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, frazeologiya, antroponim, tarjima, ekvivalentlik, o‘zbek tili, nemis tili.*

Аннотация. *Данная статья раскрывает тесную взаимосвязь лингвокультурологии и переводоведения на примере фразеологических единиц с антропонимическим компонентом в узбекском и немецком языках — устойчивых выражений, содержащих личные имена. Показано влияние религиозно-мифологических, исторических, литературных и фольклорных источников происхождения антропонимов на формирование их семантических ролей. Также рассматриваются проблемы выбора переводческих эквивалентов и способы их решения, включая калькирование, описательный перевод и культурную адаптацию.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, фразеология, антропоним, перевод, эквивалентность, узбекский язык, немецкий язык.*

Abstract. *This article explores the close relationship between linguoculturology and translation studies through phraseological units containing anthroponymic components in the Uzbek and German languages — fixed expressions that include personal names. The study demonstrates how the religious-mythological, historical, literary, and folkloric origins of anthroponyms influence their semantic roles. It also discusses the challenges of selecting appropriate translation equivalents and possible solutions, including calque translation, descriptive translation, and cultural adaptation.*

Keywords: *linguoculturology, phraseology, anthroponym, translation, equivalence, Uzbek language, German language.*

Kirish. Til har bir xalqning madaniyati, tarixi va milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi eng muhim omillardan biri ekanligi ko‘plab manbalarda ta’kidlanadi. Frazeologiya sohasi tilshunoslikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mavjud tilning lug‘at boyligini hamda uning badiiy ta’sir doirasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi hammamizga ma’lum. Chunonchi, frazeologik birliklar tilning emotsional va obrazlilik xususiyatlarini ifodalovchi elementlar bo‘lib, ular xalqning tafakkuri va dunyoqarashini aks ettirishi mavjud adabiyotlar tahlilidan ayon bo‘ladi. Ushbu fan doirasida so‘zlarning turg‘un birikmalaridan tashqari maqol, matal, aforizmlarni olimlar tomonidan turli tasnif qilishga urinishlar ham mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Sohaviy tadqiqotlardan shuni bilishimiz mumkinki, akademik olim A.Xojiev tomonidan *“frazeologiya”* terminiga ikki xil

ta'rif beriladi: "1. Tilshunoslikning frazeologik birliklarni o'rganuvchi bo'limi. 2. Tilning frazeologik birliklar majmui". [1; 125.]

Materiallar. Sohaga oid adabiyotlat tahlilini o'rganish orqali bilishimiz mumkinki, frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmlarning tabiati va zotiy xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatlaridir. Til – madaniyatning "genetik xotirasi", frazeologik birliklar esa shu xotiraning yuqori konsentratsiyalangan kodidir. Lingvomadaniyatshunoslik til birliklaridagi milliy-madaniy komponentni tadqiq qilsa, tarjimashunoslik uni boshqa madaniyatga "o'tkazish"ning nazariya va amaliy tamoyillarini beradi. Bu ikki yo'nalish ayniqsa antroponimik frazemalarda kesishadi: ular ko'pincha diniy-mifologik, tarixiy yoki adabiy manbali shaxs nomlariga tayanadi va madaniyatlararo talqinda qiyin "madaniy belgi" bo'lib chiqadi. Vereshchagin–Kostomarov maktabi frazeologizmlarni "madaniy semalar" tashuvchisi sifatida ko'rsatadi. Ularning fikricha, frazeologik birliklar tarkibida xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, stereotiplari va mental modeli aks etadi. Shu sababli frazeologizmlar oddiy leksik birlik emas, balki madaniy axborot tashuvchisi hisoblanadi. [2; 67.]

Masalan, rus tilidagi frazeologizm: ***"ехать в Тулу со своим самоваром"*** – keraksiz ish qilish ma'nosini bildiradi. Bu ibora Tula shahrining tarixan samovar ishlab chiqarish markazi bo'lganligi bilan bog'liq. Demak, frazeologizm tarkibida madaniy-tarixiy ma'lumot yashirin holda mavjud. Vereshchagin va Kostomarov bu hodisani "fonovaya kultura" (background culture) va "madaniy semalar" tushunchasi orqali izohlaydi. Ya'ni frazeologizm ma'nosini to'liq tushunish uchun til ortidagi madaniy kontekst ham zarur. Ularning ta'kidlashicha, til birliklari, ayniqsa frazeologizmlar, o'z tarkibida muayyan xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va milliy stereotiplarini aks ettiruvchi madaniy komponentlarni mujassam etadi. Bundan tashqari, Vereshchagin va Kostomarov frazeologik birliklarni o'rganishda *lingvostranovedeniye* (til va mamlakatshunoslik) yondashuvini ilgari suradilar. Rus frazeologiya maktabida frazeologik birliklar til tizimining alohida qatlamini tashkil etib, ular nafaqat semantik va stilistik jihatdan, balki lingvokulturologik jihatdan ham muhim birliklar sifatida qaraladi. Bu yondashuv ayniqsa rus frazeologiya tadqiqotchilari – **V. N. Teliya, A. V. Kunin, N. N. Zykova** kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali shakllangan. Ushbu an'anada frazeologizmlar milliy madaniyat, tarixiy tajriba va kollektiv ong bilan uzviy bog'liq bo'lgan semantik strukturalar sifatida talqin qilinadi. [3; 35.]

N. N. Zykovaning tadqiqotlarida frazeologik birliklar milliy dunyoqarashning til orqali ifodalangan modeli sifatida talqin qilinadi. Olimning ta'kidlashicha, frazeologizmlar xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan madaniy stereotiplar, qadriyatlar tizimi va mental tasavvurlarni o'zida aks ettiradi. Shu sababli frazeologik birliklarning semantik tarkibida ko'pincha milliy-madaniy komponent mavjud bo'lib, ularni lingvokulturologik tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Zykova frazeologizmlarning lingvokulturologik mohiyatini tushuntirishda ularning madaniy konnotatsiyasi tushunchasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, frazeologizmlar ma'nosida mavjud bo'lgan konnotativ komponentlar til egalarining tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy tasavvurlariga asoslanadi. [4; 28.]

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolada antroponimik komponentli nemis frazeologik birliklarini lingvokulturologik va tarjimaviy jihatdan tahlil qilishda kompleks lingvistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida nemis tilida keng qo'llaniladigan antroponimik frazeologik birliklar, jumladan ***"Gretchenfrage", "nach Adam Riese", "Hinz und Kunz", "vom Saulus zum Paulus", "alt wie Methusalem", "Freund Hein", "Hansdampf in allen Gassen", "Otto Normalverbraucher"*** kabi frazemalar tanlab olindi. Ushbu birliklar nemis tilining frazeologik tizimida faol qo'llanilishi, shuningdek ularning tarkibida tarixiy, diniy yoki adabiy manbalarga bog'liq bo'lgan shaxs nomlari mavjudligi sababli tadqiqot materiali sifatida tanlandi. Xususan, E. M. Vereshchagin va V. G. Kostomarov tomonidan ishlab chiqilgan lingvokulturologik konsepsiya metodologik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur olimlar til birliklarini, ayniqsa frazeologizmlarni, milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan semantik strukturalar sifatida talqin qilib, ularning tarkibida mavjud bo'lgan *"madaniy semalar"* va *"fon madaniyati" (background culture)* tushunchalarini alohida ta'kidlaydilar. [5; 79.]Bundan tashqari, tadqiqotda rus frazeologiya maktabi vakillari – V. N. Teliya, A. V. Kunin va N. N. Zykova tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik

tahlil tamoyillari ham metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ushbu olimlarning qarashlariga ko‘ra, frazeologik birliklar til tizimida milliy dunyoqarash va kollektiv tajribani ifodalovchi madaniy belgilar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli frazeologik birliklarni o‘rganishda ularning semantik strukturasini, madaniy konnotatsiyasini hamda ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liqligini aniqlash muhim metodologik vazifa hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi lingvistik metodlardan foydalanildi: [6; 320.]

- **struktur tahlil** – frazeologik birliklarning sintaktik modeli va tarkibiy tuzilishini aniqlash;
- **semantik tahlil** – frazemalarning lug‘aviy va figurativ ma’nolarini aniqlash;
- **lingvomadaniy tahlil** – antroponimlarning madaniy konnotatsiyasi hamda ularning tarixiy yoki madaniy manbalar bilan bog‘liqligini aniqlash;
- **qiyosiy-tarjimaviy tahlil** – frazeologik birliklarning boshqa tilga tarjima qilinish imkoniyatlari va ekvivalentlarini aniqlash.

Natija. Frazeologizmlar ko‘pincha madaniy belgilar (cultural markers) bilan bog‘langan holda shakllanadi. Bunday birliklar tarkibida tarixiy shaxslar, geografik nomlar, milliy an’analar yoki ijtimoiy voqeliklar aks etadi. Bu holat frazeologizmlarni madaniy xotiraning til orqali saqlanib qolgan shakli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida tanlab olingan antroponimik komponentli nemis frazeologik birliklari semantik, struktur va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur frazemalarda antroponimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki ma’lum bir madaniy va kognitiv ma’noni ifodalovchi lingvokulturologik marker vazifasini ham bajaradi. Bunday birliklarda shaxs nomlari real shaxsni emas, balki tarixiy, diniy yoki adabiy manbalarga asoslangan umumlashtirilgan semantik obrazni ifodalaydi.

Tahlil qilingan frazemalar kelib chiqish manbasiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratildi. Birinchi guruhni adabiy manbaga asoslangan frazeologizmlar tashkil etadi. Masalan, **“Gretchenfrage”** iborasi nemis klassik adabiyotining muhim namunasiga mansub bo‘lgan Faust asaridagi Gretchen obrazi bilan bog‘liq. Mazkur frazeologizm muhim yoki hal qiluvchi savol ma’nosini bildiradi va nemis tilida adabiy manbaga asosla ngan lingvokulturologik birlik sifatida shakllangan.

Ikkinchi guruhni tarixiy shaxslar bilan bog‘liq frazeologizmlar tashkil etadi. Jumladan, **“nach Adam Riese”** iborasi XVI asr matematigi Adam Ries nomi bilan bog‘liq bo‘lib, “aniq hisob-kitoblarga ko‘ra” degan ma’noni anglatadi. Ushbu frazema ilmiy tarix bilan bog‘liq bo‘lgan antroponimik birlik bo‘lib, matematik bilimlarning madaniy izini til tizimida aks ettiradi.

Uchinchi guruhni diniy manbaga asoslangan frazeologik birliklar tashkil etadi. Masalan, **“vom Saulus zum Paulus”** iborasi Bibliyadagi Paul the Apostle shaxsining hayotidagi keskin o‘zgarish bilan bog‘liq bo‘lib, “tubdan o‘zgarish” ma’nosini bildiradi. Shuningdek, **“alt wie Methusalem”** frazeologizmi Bibliyada eng uzoq umr ko‘rgan inson sifatida tilga olinadigan Methuselah obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, “nihoyatda qari” yoki “juda eski” ma’nolarini ifodalaydi.

To‘rtinchi guruhga ijtimoiy stereotiplarni ifodalovchi frazeologik birliklar kiradi. Masalan, **“Hinz und Kunz”** iborasi “har qanday odam” yoki “oddiy odamlar” ma’nosini bildiradi. Bu frazema umumiy erkak ismlarining qisqa shakllari asosida shakllangan bo‘lib, til tizimida umumlashtirilgan ijtimoiy tipni ifodalaydi. Shunga o‘xshash holat **“Hansdampf in allen Gassen”** frazeologizmida ham kuzatiladi. Bu ibora hamma ishga aralashadigan yoki hamma joyda ko‘rinadigan shaxsni ifodalaydi. Bu yerda “Hans” antroponimi nemis tilida keng tarqalgan ism sifatida umumlashtirilgan obrazni yaratadi.

Zamonaviy ijtimoiy stereotiplarni ifodalovchi frazeologik birliklardan biri **“Otto Normalverbraucher”** iborasidir. Ushbu frazeologizm “oddiy iste’molchi” yoki “o‘rtacha fuqaro” ma’nosini bildiradi. Antroponim “Otto” bu yerda real shaxsni emas, balki umumlashtirilgan ijtimoiy tipni ifodalaydi. Bu frazema zamonaviy nemis jamiyatidagi ijtimoiy tasavvurlarni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, antroponimik komponentli frazeologik birliklar nemis tilida turli madaniy manbalarga – adabiy, diniy, tarixiy va ijtimoiy stereotiplarga asoslanib shakllangan. Bunday frazemalarda antroponimlar til tizimida **madaniy kodlash mexanizmi** orqali umumlashtirilgan semantik obrazni yaratadi. [7; 332.]

Muhokama. Antroponimik komponentli frazemalarda ushbu jarayon ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday frazeologik birliklar tarkibida shaxs nomlari real shaxsni emas, balki ko‘pincha umumlashtirilgan ijtimoiy tip yoki xarakter modelini ifodalaydi. Lingvokulturologik tahlilda bu hodisa tipifikatsiya yoki stereotipik obraz yaratish mexanizmi bilan izohlanadi. Ya’ni, muayyan antroponim vaqt o‘tishi bilan umumlashtirilgan semantik belgiga ega bo‘lib, til egalarining ongida ma’lum xarakter xususiyatlarini ifodalovchi ramziy obrazga aylanadi.

Bundan tashqari, bunday frazemalar til tizimida baholovchi va ekspressiv funksiyani ham bajaradi. Antroponim orqali ifodalangan obraz ko‘pincha muayyan xulq-atvor modelini ijobiy yoki salbiy baholash imkonini beradi. Natijada frazeologik birliklar nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlarni til orqali uzatuvchi semantik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan antroponimik komponentli frazemalar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim lingvokulturologik birliklar hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan til tizimining nafaqat semantik, balki madaniy axborotni uzatuvchi muhim komponentlaridan biridir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy stereotiplari, qadriyatlari va kollektiv ongida shakllangan tasavvurlarni til orqali kodlaydi hamda milliy dunyoqarash modelining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўбекистон Миллий Энциклопедияси, 1985. - Б. 125.

2. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. *Language and Culture in Teaching Russian*. Moscow. 1990.

3. Zykova, N. N.. *Фразеология современного русского языка*. Москва: Академия. 2014

4. Телия, В. Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Москва: Языки русской культуры. 1996.

5. Кунин, А. В. *Курс фразеологии современного английского языка*. Москва: Высшая школа. 2005.

6. Ergasheva G.S. Nemis va o‘zbek frazeologizmlarining madaniy birliklari va tarjimada yuzaga keladigan muammolari. Oriental journal of philology, 2025. 320-327 b

7. Ergasheva G.S. Nemis tili frazeologiyasida “frazeologizm” va “frazema” tushunchalari tahlili. O‘zMU xabarlari. 2025. 1/5. 330-333 b.

UO’K 821.161.1-3

GRAF LEV TOLSTOYNING PORTRET YARATISH MAHORATI VA BADIIY TIL UNSURLARIDAN FOYDALANISH KONSEPSIYASI

A.H.Ergashev, PhD, katta o‘qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Lev Tolstoyning o‘ziga xos poetik mahorati, til va obrazlilikni shakllantirishdagi izlanishlari, badiiy portret yaratishdagi o‘ziga xos uslubi talqin etiladi. Qissada yuzaga chiqqan badiiy portret haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.*

Kalit so‘z: *obraz, uslub, portret, mahorat, poetika, xarakter, kompozitsiya, til.*

Аннотация. *В данной статье интерпретируются своеобразное поэтическое мастерство Льва Толстого, его поиски в формировании языка и образности, а также его особый стиль создания художественного портрета. Статья позволяет сформировать определённое представление о художественном портрете, раскрытом в повести.*

Ключевые слова: *образ, стиль, портрет, мастерство, поэтика, характер, композиция, язык.*

Abstract. *This article interprets Leo Tolstoy’s distinctive poetic mastery, his explorations in shaping language and imagery, and his unique style in creating an artistic portrait. It provides an opportunity to form a certain understanding of the artistic portrait presented in the novella.*

Keywords: *image, style, portrait, mastery, poetics, character, composition, language.*

XIX asrning birinchi yarmi XX asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk yozuvchi, daho ijodkor, hayot ziddiyatlarini o‘z asarlarida murakkab rakurslarda inkishof qila olgan mohir faylasuf Lev Tolstoy mana ikki yuz yildirki, butun insoniyatga katta bir adabiy-ilmiy, falsafiy-estetik saboq berib kelmoqda. Yozuvchi qaysi va qanday mavzuga qo‘l urmasin butun umri davomida umuminsoniy

masalalalar bir dam fikru zikridan, ijodidan bee'tibor qolgan emas. Yozuvchi ijtimoiy dard, pafos, zavq, hayrat, shijoat va iztirob bilan qalbidagi o‘chmas hasratlarini obrazli tarzda ifolalay oldi. Unga ergashgan dunyo adiblari Tolstoychalik yoza olmaganidan uyalgan. Fedor Dostoyevskiyning qarashlariga zid ravishda, u insoniyatni sevib yashashi, muhabbat bilan hayot kechirish muhimligini ta'kidlagandi. Tolstoyning ijtimoiy mavqei, kelib chiqishi, zodagon oiladan bo‘lishiga qaramay, faqirlik yuki, uning islomni qabul qilishi, payg‘ambarimiz hadislarini o‘z tiliga tarjima qilib, og‘ir hayot kechirishga o‘zini jisman hamda ruhan tayyorlashi, bu xarakterlar qahramonlari sajiyasiga, fe'l-atvoriga ko‘chib o‘tishini dalolatlaydi.

Lev Tolstoy haqiqiy vatanparvar, gumanizm, inson taqdiri bilan chinakam kurash olib borgan, kamdan-kam hollarda daholarga xos uchraydigan noyob, tug‘ma iste'dodlardan biri edi. U "Hojimurod" qissasida quyidagi masalalarni yanada jozibador shaklda yuzaga chiqara oldi:

"Bu 1851 yilning oxirlarida yuz bergan edi.

Noyabrning sovuq bir oqshomida, ruslarga qarashli yerlardan yigirma chaqirimcha uzoqlikdagi, chechenlarning tezak tutuniga ko‘milib yotgan notinch Maxket ovuliga Hojimurod kirib keldi. So‘fining o‘tkir tovushi endigina tingan va tezak hidi singib ketgan tog‘ havosida, bir-birovi bilan tortishayotgan erkaklarning shovqinlari, pastdagi buloqdan chiqayotgan xotinxalaj va bolalarning ovozlari, ovulning tig‘iz, xuddi ari uyasi singari bir-biriga yopishib ketgan uylariga taralayotgan sigir va qo‘ylarning ma'rashlari baralla eshitilmoqda edi. Hojimurod, o‘z qahramonliklari bilan dong chiqargan, biror yoqqa borganida tug‘ ko‘targan, atrofida ot o‘ynatib, uni kuzatib boruvchi o‘nlab muridlarsiz yurmaydigan Shomilning noibi edi. Hozir u, ostidan miltiq turtib chiqib turgan kigiz chakmonga o‘ralgan, quloqchinini bostirib kiygan holda, mumkin qadar o‘zini tanitmaslikka tirishib, yo‘lda uchragan ovul ahllarining yuzlariga o‘ynoqi qora ko‘zlari bilan yashirin nazar tashlab, bittagina muridi bilan bormoqda edi".

Keltirilgan adabiy portretga diqqat qilinsa, hayotdagi kabi o‘z so‘zida sobit, qahramon Hojimurod fenomenini shunday tasvirlar bilan oydinlashtiradi. Bunday tasvirlardan anglash mumkinki, hayoda o‘z so‘zida sobit bo‘lgan odamlar juda kamdan-kam uchraydi. Hojimurod – inson qalbidagi ezgu va latif hislar bilan barq urgan shaxs. Tinim bilmas mehnat qiladigan, o‘zgalarga munosabatda odob-axloq nuqtai nazaridan chekkaga chiqmaydigan bo‘lib ko‘rinadi. Shu xarakteri uni hamisha yetti o‘lchab bir kesishga odatlantiradi. Inson hamisha o‘z qarashlari bilan qoim. U qaysi mansab va ish etagidan ushlamasin, hamisha qalb dialektikasiga amal qilishi muhim degan qarorga keladi Lev Tolstoy. U urushni jini suymas darajada yomon ko‘radi. Bu xotirasida rosa pishilib, g‘oyaga, millat ravnaqiga aylanib borayotgan falsafasi bilan butun umr birga yashadi. Shu boisdan, ning dilida hamisha yolg‘izlik falsafasi hukm surardi.

U bu haqda shunday yozadi: ***"Men o‘zimni aqliy jahatdan mukammallashtirishga harakat qildim-qo‘limdan kelgan hamma narsani, hayot meni ro‘para qilgan nrasalarning barini o‘rganishga intildim; men irodamni mukammallashtirishga harakat qildim- o‘z-o‘zimga qoidalar yaratib, ularga amal qilishga urindim; o‘zimni jismonan mukammallashtirishga kirishdim- har xil mashqlar bilan kuchimni va chaqqonligimni o‘stirdim, har xil muhtojliklarni ko‘rib, o‘zimni bardoshga va sabr-toqatga o‘rgatdim. Bularning barini men mukammallashuv deb hisobladim."*** Ko‘rib o‘tganimizdek, Tolstoy doim o‘z ustida izlanish olib borishga odatlangan. Buni daho darajasiga olib chiqqan – iqrorida ham shunday hikmatlarni ilgari suradi. "Hojimurod" qissasida o‘ndan ortiq joyida Hojimurodning qalbini, shuurini bandi qilgan hayotiy aqidalarni falsafiy nuqtai nazardan qayta inkishof qiladi. Chunki falsafa va mantiq yozuvchi idealining asosiy markazida turadi.

Lev Tolstoyning diniy qarashlari va undan kelib chiqqan iqrornoma. Ёzuvchi Jovli Xushboq shunday ta'riflaydi: "Yozuvchilik asl tadqiqotchilik emasmi? Adibning "Hojimurod", "Sevastopol hikoyalari", "Kazaklar", "Dekabristlar" asarlarini o‘qigan kitobxon yozuvchi inson qalbining nechog‘lik ich-ichidan yoritib berganini ko‘radi, his etadi.

Buyuk yozuvchi "Iqrornoma" asarida esa hayotga inson nega keladi, nima uchun yashaydi, umuman olganda umr kechirishning ma'nosi nimalarda ekanligini tadqiq etadi. Kitobning bosh qismidayoq dinga munosabatini yashirib o‘tirmaydi. "Esimda, o‘n bir yoshda edim. Volodenka M. degan gimnaziya talabasi (allaqachon olamdan ko‘z yumib ketgan) yakshanba kuni biznikiga kelib, gimnaziyada kashf etilgan bir gapni katta yangilik sifatida gapirib berardi. Kashfiyot shundan iborat

ediki, Xudo yo‘q va bu borada bizga o‘rgatilayotgan jamiki narsalar behuda ekan (Bu 1838 yilda bo‘lgan). Esimda, akalarim bu yangilikka qiziqib qoldilar va meni maslahatga chaqirdilar. Yana shu narsa esimdaki, biz hammamiz ancha hayajonga tushib, bu yangilikni g‘aroyib va juda g‘aroyib va bo‘lishi mumkin gaplar tarzida baholadik".Qiziq, dastlab Xudo haqida gap ketganda, bepisand qo‘l siltagan, bu xususda tushunchalar ibtidoiy bo‘lgan ulug‘ adib umrining keyingi yillarida hayoti haqidagi mulohazalari butunlay ostin-ustun bo‘lib ketdi. Boshqa din ruhida tarbiyalangan yozuvchi endilikda islom dini, Olloh-Taolo haqida ham o‘ylay boshlaydi!".

Manbadan anglashiladiki, Lev Tolstoy hayotiy iqrorlari tavba-tazaru bilan o‘tgani, Alloh taoloni borligiga imon keltirib, islomni qabul qilgani, "meni Muhammadchi deb eslanglar" degan vasiyatlari ham shu tushunchalarning oydinlashuviga xizmat qilayotir. Demak, Lev Tolstoy hamisha o‘z botinida iymonni mustahkam saqlashga, kishi haqiga xiyonat qilmaslikka, odamiylikni birinchi planga chiqarishiga zamin hozirlaydi.

O‘zbekiston xalq yoyozuvchisi Shukur Xolmirzayev iqrorlarida badiiy portret yaratish san'ati, tildan unumli foydalanish mahorati haqida ham rus yozuvchilaridan ta'sirlanganini inkor qilib bo‘lmaydi. Ana shu konsepsiya Shukur Xolmirzayev fenomeniini ko‘z o‘ngimizda gavdalantirishga imkon beradi. Dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanishgan yozuvchi zoti borki, hamisha bu ikki daho haqida, ya'ni L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy iqrorlarini chetlab o‘tmaganining shohidi bo‘lamiz. Lev Tolstoyning har bir idroki, falsafasi, orzulari, iqrorlari bugun uchun ham, global dunyoda yashab qolish imkoniga ega odamzod uchun ham suv va havodek zarurligi ayonlashadi. Shu ma'noda, insoniyat yetib kelgan manzillaru makonlar, iqrorlar, tavba-yu, tazarrular semasida badiiy kompozitsiya asar arxitektonikasini muvofiqlashtirishga yo‘naltirgani namoyon bo‘ladi. Bunday tasvir ekzislari hamisha global masalalarni anglashga qandaydir rag‘bat, kuch va imkoniyatdir. O‘zbek va rus qissachiligida badiiy til imkoniyatlari, tildan unumli foydalanish manerasi ham yuqoridagi mulohazalarni anglashga katta burilishdir. Bunday iqrorlar har doim o‘zbek adabiyotida bo‘lgan va mumtoz klassiklarimizni o‘qiganimizda ham yaqqol ko‘zga tushishi tayin.

Yozuvchi "Iblis" qissasida shaytoni layin gapiga kirib, buzuq hayotga o‘rgangan odamlar ruhiyatii shu qadar tartiblatiradiki, natijada badiiy portret yanada mukammal ko‘rinishga keladi:

"Yevgeniyning o‘zi ham uylanishni orzu qilardi-yu, ammo uning orzusi onasinikiga o‘xshamas edi. Uylanish hisobidan ahvolini o‘nglab olish unga qabihlik bo‘lib ko‘rinardi. U kimga bo‘lmasin, halol yo‘l bilan, sevib uylanishni istardi. Yevgeniy o‘zi to‘qnash kelgan qizlarni ko‘z ostiga olar, ular o‘zining tengimi-yo‘qmi chamalar, ammo bu borada hali toleyi kulmay turar edi. Shu orada, o‘ziyam kutmagan holda, Stepanida bilan pinhona uchrashuvlari davom etar, hatto barqarorlashib borardi. Yevgeniy buzuqlikdan yiroq edi, shuning uchun yashiriqcha ish qilayotganidan azoblanar, bu qilmishi chakkiligini his etar va hatto ilk uchrashuvdan keyinoq Stepanidani boshqa ko‘rmaslikka umid bog‘lagan edi. Ammo biroz vaqt o‘tgach, yigit yana betoqat bo‘la boshladi va o‘z ahvolini yana o‘sha "eski dard"dan deb bildi. Bu gal endi unga kim bo‘lsa ham baribir emasdi. U aynan o‘sha porlab turuvchi qora ko‘zlarni, o‘sha past, mayin ovozdagi "Yo‘g‘-yey, ko‘p emas!" degan so‘zlarni, o‘sha badandan taralayotgan shirin, o‘tkir hidni, o‘sha peshbandni turtib turgan durkun ko‘krakni, yana bularning barini o‘sha quyosh charaqlab turgan mahal yong‘oq va zarang butalari orasida ko‘rishni xohlardi. Har qancha xijolatli bo‘lmasin, u yana Danila cholga murojaat qildi. Uchrashuv bu gal ham tush paytiga, o‘rmonga tayin etildi. Endigi uchrashuvda Yevgeniy juvonga tikilibroq qaradi, juvon uning ko‘ziga jozibali ko‘rindi. Yevgeniy uni gapga solib, eri haqida so‘radi. Chindan ham, eri – Mixayla cholning o‘g‘li ekan, hozir Moskvada izvoshchilik qilarkan.

– Har qalay, sen nega bunday… – Yevgeniy, eringga xiyonat qilib yuribsan, deb so‘ramoqchi bo‘ldi.

– Xo‘sh, qanday qilib ekan? – deb so‘radi juvon. U o‘ziga yetkancha aqlli va farosatli edi.

– Men bilan uchrashib yuribsan deyman-da?

– Obbo, – quvnoq ohangda so‘z qotdi juvon.– Erim o‘sha yoqlardan birortasini allaqachon topib olgandir. Men ham bu yerdan birortasini topib olgan bo‘lsam, nima qipti?"

Yozuvchi "Iblis" qissasida turli-tuman xarakterlarni badiiy tasvirlar ekan, kompozitsion muvofiqlilik hamisha batartib joylashuvga diqqat qaratadi. Yevgeniy – bu ikkilanishlar, iztiroblar orasida qolgan qahramon. Bu yozuvchining – o‘zi. U bunday batartib hayotni tanlar ekan, o‘z

xatolarini iqrorlarini, tavbalari-yu, taskinlari bilan uyg‘unlashtirib yuboradi. Shu boisdan ham, hayotning mukammal formulasi chizib beriladi. Yevgeniy Stemanidani jonidan ortiq yaxshi ko‘radi. Ammo, uning eri bor. Shunday bo‘lsa-da, hayot haqiqatini teran idroklashga katta umid bag‘ishlaydi. Inson hamisha shu metamorfoza bilan og‘rinib yashashini u oldindan biladi. Buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset e’tiroficha: “Har qanday san’atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo‘lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san’atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san’at kamalakning yengil o‘qi kabi shu chiziq bo‘ylab zamon qa’riga o‘z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san’atning yo‘nalishini, mohiyatini va ma’nosini ko‘rsatib turadi”. Lev Tolstoy “”Iblis” qissasida mana shu konsepsiyani to‘laqonli ochib bera olgan. Negaki, insoniyat xatolar, adashishlar, yolg‘onlar orasida qolib ketgani, ulardan tozarish, poklanish maziliga yetish muhimligini Lev Tolstoy qahramonlari tilidan shun qadar chuqur va ma’noli idroklaydiki, bularning zamirida hayot hamisha silliq kechmasligini tushunib yetadi kitobxon. Aristotelning “Axloqi kabir” asarida L.Tolstoyning nima istayotganiga munosib bir javob borligini ko‘rishimiz mumkin. Aristotel bu haqda shunday yozadi: “Qadrli ne’matlar deb men ruh, aql, javhari asl, tabiiy, tug‘ma iste’dod kabilarni aytaman. Bular doimo qadrlanadigan, barcha uchun sharafli bo‘lgan (aziz va sharif) ne’matlardir. Fazl, fazilatlar ham qadrlidir, chunki inson ular tufayli munosib, yetuk bo‘ladi. Inson fazilatlari tufayli go‘zal (ma’naviy) qiyofaga ega bo‘ladi. Maqtovli ne’matlar ham o‘sha fazilatlarning maqtovga sazovorlaridir. Imkoniyat beruvchi ne’matlar – hokimiyat, boylik, kuch-quvvat, go‘zallik va boshqalardir. Fozil inson bu ne’matlardan yaxshilik, ezgu ishlar uchun foydalanadi, nodon odam esa ulardan yomonlik, yovuzlik qilish uchun foydalanadi. Bunday ne’matlar yaxshilik qilishga ham imkon beradi”. Lev Tolstoy o‘z qahramonlarini ham shunday mukammal fazilatli kishilar bo‘lib yetishishiga diqqat qaratgan. U qaysi mavzuga qo‘l urmasin, barchasida hayot hikmatlari ufurib turar, mantiq va falsafa, universallik, gumanizm g‘oyalari bilan obdon to‘yintirilgandi. Quyidagi lavhada yozuvchi ikki jihatga urg‘u bermoqda:

“Hech qaysi erkak nega boshqa bir ayol emas, aynan shu ayolni tanlaganini hech qachon izohlab berolmaganidek, Yevgeniy ham nega aynan Liza Annenskayani tanlaganini izohlab berolmas edi. Sabablar, xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, juda ko‘p edi. Uning Marya Pavlovna ko‘z ostiga olgan qizlardek boy kelin emasligi, o‘z onasi – Varvara Alekseyevnaga taqqoslaganda juda oddiy va xoksorligi, odam ko‘z uzolmay qolar darajada go‘zal ham emas-u, biroq ko‘hlikkina ekanligi ana shunday sabablardan edi. Eng asosiy sabab esa, u bilan yaqinlashuv Yevgeniy uylanish uchun ayni yetilgan pallada boshlangani edi. Yigit endi uylanmasam bo‘lmaydi, degan qarorga kelgani uchun ham sevib qolgandi. Liza Annenskaya avval-boshda Yevgeniyga faqat yoqqandi, xolos. Ammo yigit shu qiz xotinim bo‘ladi, degan qarorga kelgach, unga nisbatan ancha kuchli tuyg‘uni his qila boshladi. U sevib qolganini fahmlab turardi. Liza bo‘ychan, ozg‘in qiz edi. Uning yuzi ham, burni ham, barmoqlari ham, oyoq kaftlari ham uzunchoqdan kelgan edi. Yuz terisi juda yupqa, oq-sariq tusda bo‘lib, yanog‘iga sezilar-sezilmas qizil rang yugurgandi. Uzun malla sochlari mayin bo‘lib, quyilib turar edi. Chaqnoq go‘zal ko‘zlari odamga beozor va inonib boqardi. Yevgeniyni, ayniqsa, shu ko‘zlar maftun etgandi. U qachon Liza haqida o‘ylab ketsa, har gal shu sof, yuvosh va inonuvchan ko‘zlar xayolida gavdalanardi. Liza tashqi jihatdan ana shunday edi. Uning ichki olami haqida esa yigit hech nima bilmas, ana shu ko‘zlardan boshqasi uni qiziqtirmas ham edi. Bu ko‘zlar o‘zi bilishi kerak bo‘lgan hamma gapni go‘yo aytib turgandek edi Yevgeniyga. Lizaning ko‘zlariga ana shunday ma’no joylangan edi”.

“Iblis”da bosh qahramon Stepanidaga garchi faqat ko‘ngil uchun qarab, o‘zini ovutib. Sevib yashagan bo‘lsa, Liza bilan shunchaki yashash uchun uylangandi. Biroq Stepanidadan ko‘ngil uzolmagan Yevgeniy hayot haqida chuqur mulohaza yurita boshlagandi. Mana shu masalalar yozuvchining insoniy fazilatlari naqadar rang-barangligini taqozo etadi. Ayni chog‘da, hayotda nimaiki ro‘y bersa, uni faqat taqdirdan ekanligiga o‘zini ishontirib yashardi. Bu Lev Tolstoyning qahramonlari tabiatini tushunishga sari yetaklaydi. Qayd etish lozimki, hayotda har xil vaziyat bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda qahramon ruhiyatin ishg‘ol qilgan murakkab masalalarga yechim topish amrimaholdir. Deylik, Yevgeniy shaytonni yo‘rig‘idan yurmay, pokiza yashashga odatlanganida Lev Tolstoy o‘zi umri poyonida qilgan xatolarni ochiq-oshkor sanab bergan bo‘larmidi? Albatta yo‘q.

Chunki u tavba va tazarru qilib, o‘z o‘quvchilariga baribir yuragining tubidagi haqiqatlar yuzaga chiqishidan cho‘chib yashaganligi ayonlashadi. U qanday bo‘lmasin, haqiqat bo‘lishi, bilishi mumkin bo‘lgan narsani boshqalar ham bilish lozim deb o‘ylaganida qabarib ko‘rinadi. Shuni qayd etish joizki, Lev Tolstoy hayotda juda katta mantiqni anglatish borasida tinimsiz mehnat qilgan adiblardan biridir. “Hojimurod” qissasidagi urush va tinchlik haqidagi g‘oyat dolzarb falsafa “Urush va tinchlik” xususidagi epopeyasida katta bir masalani kengroq turda ifodalash imkonini berdi. Mazkur asarlar har bir davrning boshidan kechirayotgan og‘riqlariga javob bo‘lgulik mantiqiy bolg‘amni hosil qilish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotel. Axloqi kabir. –T.: “O‘zbekiston milliy endsiklopetsiyasi”. 2018. –B.112.
2. Jahon adiblari adabiyot haqida. Toshkent: Ma’naviyat, 2010. –B.307.
3. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari – T.: Fan, 2004.
4. Timofeyev L.I Osnovi teoriya literaturi. – M.: Prosvesheniye, 1971;
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslika kirish. – T.: Sharq, 2008;
6. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/lev-tolstoy/lev-tolstoy-iblis-qissa/

UDC: 81’373.46:502

A COMPARATIVE STUDY OF ECOLOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

L.N.Esanova, Master's student, Termez University of Economics and Service, Termez
P.U.Bakirov, PhD, prof., Termez University of Economics and Service, Termez

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ekologik terminlarning qiyosiy-lingvistik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tildagi ekologik terminlarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ekologik terminlar zamonaviy ilmiy diskursning muhim va dinamik qismi sifatida global ekologik muammolar hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini aks ettiradi. Tadqiqotda iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillik, atrof-muhit ifloslanishi, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik muhofaza kabi asosiy tushunchalar terminologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, terminlarning yasalishi, o‘zlashuvi va tarjima xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tilining o‘zbek ekologik terminologiyasiga kuchli ta’siri mavjudligini, shu bilan birga o‘zbek tilida milliy til xususiyatlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Mazkur ish ekologik tilshunoslik va terminologiya sohalarida muhim ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, ekologik terminlar, qiyosiy tilshunoslik, ingliz va o‘zbek tillari, ekologik diskurs, terminologiya.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительно-лингвистический анализ экологических терминов в английском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении семантических, структурных и функциональных особенностей экологической терминологии в двух языках. Экологические термины рассматриваются как важная составляющая современного научного дискурса, отражающая глобальные экологические проблемы и идеи устойчивого развития. В работе анализируются такие ключевые понятия, как изменение климата, биоразнообразие, загрязнение окружающей среды, возобновляемые источники энергии и охрана природы. Особое внимание уделяется процессам заимствования, калькирования и перевода экологических терминов. Результаты исследования показывают, что английская экологическая терминология оказывает значительное влияние на формирование узбекской терминологической системы, при этом узбекский язык сохраняет свои национальные языковые особенности. Материалы статьи могут быть полезны для лингвистов, переводчиков и исследователей экологического дискурса.*

Ключевые слова: *экология, экологическая терминология, сравнительная лингвистика, английский и узбекский языки, экологический дискурс, терминоведение.*

Abstract. *This article presents a comparative linguistic analysis of ecological terms in English and Uzbek. The study aims to identify semantic, structural, and functional similarities and differences between ecological terminology in the two languages. Ecological terms are examined as a dynamic part of modern scientific discourse, reflecting global environmental challenges and sustainable*

development concepts. The research analyzes key ecological notions such as climate change, biodiversity, pollution, renewable energy, and environmental protection, focusing on their lexical formation, borrowing processes, and translation features. Special attention is paid to the influence of globalization and scientific progress on the development of ecological vocabulary in both languages. The study employs comparative, descriptive, and semantic analysis methods. The findings reveal that English ecological terminology significantly influences Uzbek ecological lexicon through loanwords and calques, while Uzbek preserves national linguistic features in term adaptation. The results of the research contribute to ecolinguistics, terminology studies, and translation theory, and can be useful for linguists, translators, and students studying environmental discourse.

Key words: *ecology, ecological terms, comparative linguistics, English and Uzbek, ecolinguistics, terminology.*

Introduction. In the context of globalization and rapid scientific and technological development, environmental issues have become a central concern not only in natural sciences but also in linguistic research. Problems such as climate change, environmental pollution, loss of biodiversity, and sustainable development have led to the active formation and expansion of ecological terminology. As a result, the study of ecological terms from a linguistic perspective, particularly through comparative analysis across languages, has gained increasing academic importance. English, as the dominant language of international science and environmental discourse, plays a crucial role in the creation and global dissemination of ecological terminology. Many ecological terms used worldwide originate in English or enter other languages through English-mediated scientific communication. In Uzbek, ecological terminology has developed relatively recently and has been significantly enriched through borrowings from English and, to some extent, Russian. However, the process of adopting foreign ecological terms raises important issues related to semantic accuracy, structural adaptation, and conformity with national linguistic norms. The relevance of this study lies in the growing role of ecological terminology as an essential component of environmental discourse. Ecological terms function not only as nominative units but also as tools for shaping environmental awareness and conveying scientific knowledge to society. From a linguistic standpoint, the comparative study of ecological terms in English and Uzbek makes it possible to identify universal and language-specific features, as well as to examine the influence of globalization on national terminological systems. The main objective of the present research is to conduct a comparative analysis of ecological terms in English and Uzbek from semantic, structural, and functional perspectives. The study focuses on key ecological concepts such as climate change, biodiversity, pollution, renewable energy, and environmental protection. To achieve this objective, comparative, descriptive, and semantic analysis methods are employed. The findings of the research are expected to contribute to ecolinguistics, comparative linguistics, terminology studies, and translation theory, and may be useful for linguists, translators, and students working with environmental texts.

Main Body. Ecological terminology represents a specialized layer of vocabulary that reflects scientific knowledge about the interaction between humans and the natural environment. In both English and Uzbek, ecological terms function as key linguistic tools for describing environmental processes, problems, and solutions. However, the formation, structure, and usage of these terms reveal both universal tendencies and language-specific features. From a semantic perspective, ecological terms in English and Uzbek often correspond to the same conceptual content but differ in their degree of lexical transparency. English ecological terms such as climate change, biodiversity, greenhouse effect, and sustainable development are typically concise and metaphorically motivated, which facilitates their international spread. In Uzbek, these concepts are expressed either through direct borrowings (biodiversity – biodiversitet) or through descriptive translations and calques (climate change – iqlim o‘zgarishi, sustainable development – barqaror rivojlanish). While borrowed terms ensure terminological uniformity at the international level, descriptive equivalents contribute to semantic clarity for native speakers. Structurally, English ecological terminology is characterized by

a high frequency of compound words and multi-word terms, such as ecosystem services, renewable energy sources, and environmental degradation.

The process of borrowing plays a significant role in the development of Uzbek ecological terminology. Due to the dominance of English in global scientific discourse, many new ecological terms enter Uzbek either directly or indirectly. Terms such as recycling, carbon footprint, and global warming illustrate this tendency. However, the adaptation of borrowed terms often involves phonetic, morphological, and semantic adjustments to align them with Uzbek linguistic norms. This process reflects the balance between globalization and the preservation of national language identity. From a functional point of view, ecological terms in both languages serve similar communicative purposes within scientific, educational, and public discourse. They are widely used in academic articles, environmental policies, media texts, and educational materials. Nevertheless, differences arise in stylistic usage: English ecological terms tend to maintain a high level of standardization, while Uzbek equivalents may coexist in several variants, including borrowed forms and native descriptive expressions. This variation can create challenges in translation and terminology standardization. Translation issues constitute another important aspect of the comparative analysis. Translating ecological terms from English into Uzbek requires not only lexical equivalence but also conceptual accuracy. Some English terms possess culturally and scientifically embedded meanings that are not always fully reflected in direct translations. As a result, translators often rely on explanatory strategies or hybrid forms to ensure precise communication. This highlights the need for systematic terminological research and the development of standardized ecological glossaries in Uzbek. Overall, the comparative analysis of ecological terms in English and Uzbek demonstrates that while English serves as a primary source of international ecological terminology, Uzbek actively adapts and reshapes these terms in accordance with its linguistic structure and cultural context. This interaction contributes to the continuous evolution of ecological vocabulary in both languages and reflects broader trends in modern scientific communication.

Conclusion. The present study has demonstrated that ecological terminology in English and Uzbek reflects both universal scientific concepts and language-specific characteristics. Through comparative semantic, structural, and functional analysis, it has been established that while the core ecological notions in both languages are conceptually similar, their linguistic representation differs due to typological and cultural factors. English ecological terms tend to be concise, standardized, and globally influential, whereas Uzbek ecological terminology shows a greater degree of adaptation through descriptive translations and morphological adjustments.

The findings indicate that borrowing from English plays a crucial role in the expansion of ecological vocabulary in Uzbek, particularly in the context of globalization and international scientific communication. At the same time, the Uzbek language actively preserves its national linguistic identity by integrating borrowed terms into its own grammatical and lexical system. This process results in the coexistence of borrowed and native equivalents, which may enrich the language but also create challenges for terminological consistency and translation accuracy.

Furthermore, the study highlights the importance of ecological terminology as a functional component of environmental discourse. Ecological terms serve not only as scientific labels but also as instruments for raising environmental awareness and shaping public understanding of ecological issues. From a linguistic perspective, the comparative study of ecological terms contributes to the development of ecolinguistics, comparative linguistics, and translation studies.

In conclusion, a systematic and standardized approach to the formation and translation of ecological terminology in Uzbek is essential for ensuring clarity and effectiveness in scientific and educational communication. Future research may focus on expanding the corpus of ecological terms, analyzing their pragmatic usage in different types of discourse, and developing bilingual ecological glossaries to support linguistic and environmental studies.

REFERENCES:

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Fill, A., & Mühlhäusler, P. (2001). The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment. London: Continuum.

3. Haugen, E. (1972). The Ecology of Language. Stanford: Stanford University Press.

4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
5. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
6. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins.
7. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. Toshkent: Fan.

UO'K 808.3

TILSHUNOSLIKDA SUD DISKURSINING O`RGANILISHI

Z.I.Esanova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *So`nggi yillarda dunyo tilshunosligida antroposentrik tilshunoslik doirasida diskurs nazariyasi va diskursiv tahlil, xususan, sud muloqotining diskursiv tahlili kabi masalalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sud diskursining jahon va o`zbek tilshunosligida o`rganilishi borasidagi qator tadqiqot ishlari haqida so`z borgan. Sud diskursining o`ziga xos jihatlari, qolaversa, pragmatic xususiyatlari yuzasidan munosabat bildirilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *huquqiy muloqot, sud diskursi, sudya nutqi, himoya nutqi, ayblov nutqi, da`vogar.*

Аннотация. *В последние годы в рамках антропоцентрической парадигмы мирового языкознания особую значимость приобрели теория дискурса и дискурсивный анализ, в частности дискурсивный анализ судебной коммуникации. В данной статье рассматривается ряд научных исследований, посвящённых изучению судебного дискурса в мировой и узбекской лингвистике. Освещаются специфические особенности судебного дискурса, а также его прагматические характеристики.*

Ключевые слова: *Юридическая коммуникация, судебный дискурс, речь судьи, защитительная речь, обвинительная речь, истец.*

Abstract. *In recent years, within the framework of anthropocentric linguistics in global linguistic studies, discourse theory and discourse analysis, particularly the discursive analysis of courtroom communicationhave gained special significance. This article examines a number of research studies devoted to the investigation of judicial discourse in both world and Uzbek linguistics. It also discusses the specific features of judicial discourse, as well as its pragmatic characteristics.*

Key words: *Legal communication, judicial discourse, judge's speech, defense speech, prosecution speech, plaintiff.*

Huquqiy muloqot turlarida sud diskursi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu diskurs jinoyat ishlari yuzasidan sud majlisi, muhokamasida amalga oshiriladigan muloqot turidir va sud diskursining kommunikativ ifodasi jarayonga tegishli bo`lgan sud bayonnomasi, sud hukmi yoki sud ajrimi kabi hujjatlarda o`zining yozma shakldagi aksini topadi. Sud nutqi sud qatnashchilari(kommunikativ tarkibi): sudya, prokuror, advokat, ayblanuvchi, jabrlanuvchi hamda guvohlar o`rtasidagi ma`lum jinoiy, ma`muriy yoki fuqorolik masalasiga adolatli yechim topish maqsadidagi muloqot turi hisoblanadi. Ushbu nutq ma`lum bir shaxs yoki umumiy tashkilotga qo`yilgan ayblov ustidan sud majlisida normativ hujjatlar hamda ishda ko`rib chiqilayotgan boshqa dalillar asosida hukm chiqarish yoki ajrim qilish jarayonidagi barcha kommunikatsiyalarni o`z ichiga oladi. Ya`ni, sud diskursi sotsial munosabatlarni tartibga solish va huquqiy ziddiyatli muammolarni yechishga qaratilgan nutqiy faoliyatdir. Bu jarayonda huquqiy masalalar bilan bir qatorda jarayon ishtirokchilarining o`rinli nutqi sudning yuridik va notiqlik jihatdan ahamiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida sud diskursi va lingvistik jihatlari bir qator olimlar tomonidan o`rganilgan. Jumladan, E.A.Matviyenko, E.I.Kalyashina, B. Krik-Kastovskiy T.V.Dubrovskaya, E.A.Dmitriyeva, S.Aleksandrov [1,2,3,4,5,6] kabi tilshunoslar tomonidan sud nutqining diskursiv, kommunikativ, pragmatic, sotsiologik hamda protsessual-dramatic tomonlari yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan.

Polshalik olim B.Krik-Kastovskiy sud diskursining pragmatik jihatlariga e`tibor qaratgan.U jarayon qatnashchilari muloqotidagi nutqiy maqsadlarga erishishni sud muhokama nutqining asosiy

xususiyatlaridan biri deb hisoblaydi. Shuningdek, olim sud qatnashchilari tomonidan bajarilgan ijtimoiy funksiyalarning farqiga bog`liq holda muloqotning assimetrik xususiyatlariga e`tibor qaratadi[3]. Sud qatnashchilarining jarayondagi ijtimoiy mavqeyi hamda komunikativ rollari bevosita ularning nutqiy maqsadlari, nutqiy strategiyalari, ifoda ohanglari, sud protsessida foydalanayotgan til birliklar va ular ifodalayotgan ma`nolarning turlicha bo`lishiga sabab bo`ladi. Bu holat, ayniqsa, sudya va ayblanuvchi o`rtasidagi o`zaro savol-javoblarda yaqqol namoyon bo`ladi.

Rus tilshunosligida T.V.Dubrovskaya murakkab nutqiy faoliyat shakli bo`lgan sud diskursini institutsional diskursning bir turi sifatida keltirib o`tadi. Muloqot ishtirokchisi, nutq subyekti sifatida sudyaning til tuzilmasini ijtimoiy, madaniy jihatdan o`rgansa, sud majlisi hakami sifatida sudyaning nutqiy faoliyati hamda undagi verbal va noverbal komponentlarning muloqot ijtimoiy funksiyasidagi o`rnini tahlil qiladi [4]. Sud diskursida sudyaning nutqi alohida o`ringa va muayyan ijtimoiy-pragmatik vazifaga ega. Chunki, u sud jarayonining ham huquqiy, ham axloqiy, ham nutqiy tomonlama boshqaruvchisi hisoblanadi. Shuningdek, u o`zaro interaktiv aloqa va muloqot strategiyasida o`ziga xos kommunikativ ustunlikka ega. Sudyaning kommunikativ yetakchiligi qatnashchilarning kommunikativ ijrosini(himoya nutqi, ayblov nutqi, guvohlik nutqi) belgilashi, dalillarni tanlash strategiyalari, sud vakolatining chegaralari va shu kabilar bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, sudya nutqi talab, ta`kid, ogohlantirish, so`roq kabi muloqotga ustunlik beruvchi nutqiy aktlarga xoslanganligini ham fikrimizning isboti deyish mumkin. Biroq, garchi sudyaning kommunikativ vazifasi qat`iy belgilangan bo`lsa-da, sud boshqaruvchisi jamiyatning umumiy huquqiy saviyasi, millatning madaniy hamda axloqiy normalarini ham inobatga olgan holda nutqiy faoliyat yuritadi. Chunki muloqotda nutqiy aktlarning tabiati sud diskursining institutlashgan normalarini tashkil etadi.

E.A.Dmitriyeva sud nutqining lingvistik xususiyatlarini AQSh va Kanada Oliy sud majlislari misolida o`rganadi. AQSh va Kanada sud majlislari o`zining tuzilishi, maqsadi hamda majlis tartibi jihatdan farqlanishini solishtiradi. Bu ikki davlat sud diskursining sotsial, madaniy va institutsional holatiga qarab farqlanishini tushuntiradi [5]. Diskursiv tahlillar antroposentrik tilshunoslikning asosiy yondashuvlaridan biri ekan, unda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy-individual xususiyatlari, milliy-madaniy saviyasi, aytish joiz bo`lsa, lisoniy qobiliyati va pragmatic idroki muloqotdagi kommunikativ sifatlarni belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Har bir nutq pragmatic jihatdan o`ziga xos tuzilmaga ega, birgina sudyaga murojaat shakllarining o`zi ham muloqotdagi muayyan institutsional maqom, qolaversa, boshqa kommunikantlarning pragmatic idrok imkoniyatlarini ham kontekstga bog`liq holda ko`rsatib beradi.

O`zbekistonda sud nutqi dastlab huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan yuridik muloqot, nutq madaniyati, notiqlik san`ati kabi yo`nalishlar tarkibida tadqiq etilgan. Xususan, S.Inomxo`jayev, A.Saidov, G.Sarkisyans K.Nazarov, D.Usmonov, S.Usmonov, A.Aripova, Sh.Ko`chimov [7,8,9,10,11,12] kabi tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqot ishlarida sud muloqoti, nutq uslubi va soha terminologiyasiga oid ma`lumotlar notiqlik san`ati va tadqiqot yo`nalishidan kelib chiqib turli darajada yoritib berilgan.

Shuningdek, tilshunoslikda olim Q.Muydinov sud nutqi leksikasi, leksik birliklarning yaxlit tizimlashtirilishi borasidagi muammolar ustida tadqiqot olib boradi [13]. Ishda sud diskursidagi terminlar va ularning leksik-semantik guruhlari haqida so`z boradi, til birliklari orasidagi o`zaro lisoniy munosabatlar tahlil qilinadi. So`nggi yillarda sud muloqotida qo`llaniluvchi yuridik terminologiya sohasida ham qator izlanishlar olib borilgani soha terminologiyasi va lingvistikasi taraqqiyoti uchun amaliy ahamiyat kasb etadi [14,15]. Bundan tashqari sud nutqiga antroposentrik nuqtayi nazaridan yondashila boshlandi va bu borada ham ilmiy tadqiqotlar maydonga keldi.[16,17] X.Ismoilov o`zining "Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoyat ishlari bo`yicha sud majlisi misolida)"[16] nomli ilmiy ishida sud majlisidagi muloqot jarayonida bevosita foydalanilgan til birliklarining ifodasiga nutqiy vaziyatdan kelib chiqib ta`sir etuvchi ijtimoiy omillar, sud nutqining sotsial xoslanishi, tarkibiy qismlari va muloqotning psixolingvistik jihatlarini sud majlisi kuzatuvchisi sifatida o`rgangan, nazariy fikrlar ilmiy taqdiqotning kerakli o`rinlarida yuridik va lingvistik jihatdan dalillangan. Ammo, zamonaviy tilshunosligimizda sud muloqoti diskurs sifatida pragmalingvistik jihatdan tadqiq etilmaganligi jarayonning lisoniy

xususiyatlarini o`rganishda to`liq qamrovga ega emasligini ko`rsatadi.

Sud diskursidagi asosiy institutsional jihatdan belgilangan ijtimoiy-kommunikativ maqsad bu sud majlisida muhokamaga qo`yilgan huquqiy masalaga yechim topishdir. Sud jarayonini yuridik jihatdan yuritayotgan qatnashchilar nutqida qo`llangan nutqiy aktlar mana shu pragmatic maydonda belgilangan kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishiga, so`zlovchiga o`zining huquqiy manfaatlarini ro`yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu yuridik jihatdan ahamiyatli bo`lgan kommunikativ harakatlar sud nutqining asosiy kommunikativ struktur birligi hisoblanadi. Zamonaviy sud diskursida majlis ssenariysi, yuridik harakatlar tuzilmasi turli nutqiy hodisalarning uyg`unlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Diskursning ushbu turida samarali muloqot tamoyillarining aniqlik va muqobillik qoidalariga amal qilinishi, nutqiy aktlar qo`llanilishining xoslanganligi, qo`llanilgan til birliklarining nutqiy jarayondagi aniq ifodasi hamda adabiy tilda rasmiy uslubdan foydalanilishi jarayon qatnashchilari tomonidan ta`minlanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biroq, qatnashchilarning, xususan, tomonlar (da'vogar hamda ayblanuvchi) ning turli ijtimoiy qatlam vakillari ekanligi, idrok imkoniyatlarining farqli assimetrik jihatlaridan kelib chiqib sud boshqaruvchisi (sudya) o`z kommunikativ intensiyasini ifodalashda o`ziga xos kommunikativ strategiya qo`llashini ahamiyatli jihat sifatida e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, sud majlisida nutqiy faoliyat jarayonining asosiy me`yorlaridan hisoblangan miqdor tamoyilidan chetga chiqish kuzatiladi. Bunga asosiy sabab muhokamaga qo`yilgan ishga shaffoflik asosida adolatli yechim topish maqsadida sudning har bir ishtirokchisidan o`sha ishga aloqador bir xil holat yuzasidan nutq tinglanadi. Sud protsessida yuqoridagi kabi holatlar, tilning to`g`ri ishlatishi jarayonning qonuniyligi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, sud muloqoti qonunchilikda belgilangan normalar asosida olib borilishi (O'zR JPK., 11-m 1-q.), chiqarilgan qarorlarning qonuniylik talablariga javob berishi, asosliligi (O`zR JPK., 478-m.), qo`yilgan masalaning yechimiga erishish uchun odillik prinsipiga amal qilish (O`zR JK., 8-m.), oshkoralik, xolislik va dalillarga asoslanganlikning ta`minlanishi bu muloqotning o`ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Diskursning boshqa turlari kabi sud muloqotida ham ijtimoiy-kommunikativ maqsadning muayyan ekanligi, jarayonning belgilangan qolipga ega bo`lishi unga rasmiy tus beradi. Avval ta'kidlanganidek, sud jarayoni o'ziga xos bir munozara maydoni bo'lib, unda umuminsoniy axloq me'yorlariga mos ravishda davlat va jamiyat, ayni paytda, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaati himoya qilinadi, adolat va haqiqat tushunchalarining hukmron bo'lishi talab etiladi. Bu jarayondagi barcha vositalar, shu jumladan, nutq ham ana shu adolat va haqiqatning tantanasiga qaratilgandir[16:82]. Sud majlisida nutq, til nafaqat axborot tashuvchi, balki haqiqatga erishishda qatnashchilararo institutsional vosita hamda huquqiy madaniyatni baholashda asos bo`luvchi omildir.

Anglashiladiki, muloqotning tuzilishi, mazmuni va ijtimoiy tomonlari bilan birgalikda uning kommunikativ maqsadi, ifodalarda til birliklarining imkoniyatlari hamda muloqot natijasi kabilarni sud diskursi misolida o`rganish shu yo`nalishdagi tahlil jarayoni uchun qimmatli ma`lumotlar olish uchun yetarli asos bo`ladi. Bundan tashqari, sud diskursining pragmatic jihatiga ko`ra yondashuv tilning lisoniy xususiyatlarini bir vaqtning o`zida turli institutsional pozitsiyalarda kuzatish imkonini beradi, yuridik muloqotda tilning qanday ishlashini, sud diskursida kommunikativ strategiyalarni tanlash normalari va ekstralingvistik omillar ta`sirini o`rganish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Матвиенко Е.А. Судебная речь. – Минск, 1972

2. Каляшина Е.И. Методологические основы судебногоречеведения: Автореф.дис..докт.филол.наук. – М., 2003Т

3. Крык-Кастовский Б. Правовая прагматика //Энциклопедия языка и лингвистики. - Лондон, Амстердам: Эльзевир, 2006.

4. В.Дубровская. Судебный дискурс: речевое поведение судьи (на материале русского и английского языков). Москва 2010.

5. Е.А.Дмитриева. Лингвистические особенности судебного дискурса сша и канады(на материале заседаний верховного суда канады). Автореф.диссертатции на соискание ученой степени канд.филол.наук. Воронеж-2024.

6. Александров А.С. Язык и судебная истина // Юрислингвистика - 9 : Истина в языке и праве : межвуз . сб . науч . тр . / под ред . Н.Д. Голева. - Барнаул :Изд - во Алт . ун - та , 2008.

7. Inomxo`jayev S. Notiqlik san`ati asoslari. Toshkent-1982.

8. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: 1994.

9. Nazarov K., Usmonov D. Yuristning nutq madaniyati. Dastur. T.: 2002.
10. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. Toshkent-2007.
11. Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. – Тошкент: ЖИДУ, 2007.
12. Ko`chimov Sh. Yuridik til nazariyasiva amaliyoti. Toshkent-2013.
13. Muydinov.Q. O`zbek tili sud nutqi leksikasi. Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori avtoref. Toshkent 2019.
14. Po`latova U. O`zbek va ingliz tillarida yuridik terminlarining chog`ishtirma tadqiqi. Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori avtoref. Andijon 2023.
15. Otajonova D. Protsessual huquqiy atamalar va muloqot vositalarining lingvistik ekspertizasi(ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari materialida) Filologiya fanlari doktori (DSc) dissert.avtoref. Buxoro – 2025
16. Ismoilov X. Sudlingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari. Monografiya. Toshkent – 2024.
17. Nizomova T. Sud diskursida interaktivlik va institutlararo muloqot. Zamonaviy tilshunoslik istiqbollari: muammo va yutuqlar 20-21-22 may, 2025.

UO'K 811.512.13:81'42: 659.1

O'ZBEK TILI REKLAMA DISKURSIDA DEYKTIK BIRLIKLAR TAHLILI

D.Yu.Esonturdiyeva, tayanch doktorant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
ORCID: 0009-0001-5302-8408

Annotatsiya. *Maqolada pragmalingvistikaning asosiy tadqiq predmeti bo'lgan deyksis tushunchasi va ularning turlari haqida so'z yuritiladi. Deyktik birliklarning uslubiy xoslanishi ta'kidlanib, xususan reklama diskursida deyksisning barcha turlari uchrashi misollar bilan tahlil qilinadi. Shunga qaramay, bu diskurs turi emotsional deyksislarning eng ko'p ishlatilishi bilan boshqa diskurslardan farq qilishi va adresatga emotsional ta'sir ko'rsatib, uni ma'lum bir faoliyatni bajarishga undashi reklama diskursining o'ziga xos xususiyati ekanligi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *pragmalingvistika, deyksis, reklama diskursi, deyksis turlari, emotsional deyksis.*

Аннотация. *В статье рассматривается понятие дейксиса, являющегося основным предметом изучения прагмалингвистики, и его типы. Подчеркиваются стилистические характеристики дейктических единиц, и в частности, на примерах анализируется встречаемость всех типов дейксиса в рекламном дискурсе. Тем не менее, выявляется, что этот тип дискурса отличается от других дискурсов наиболее частым использованием эмоционального дейксиса, и что специфической особенностью рекламного дискурса является оказание эмоционального воздействия на адресата и побуждение его к совершению определенной деятельности.*

Ключевые слова: *прагмалингвистика, дейксис, рекламный дискурс, типы дейксиса, эмоциональный дейксис.*

Abstract. *The article discusses the concept of deixis, which is the main subject of study of pragmalinguistics, and its types. The stylistic characteristics of deictic units are emphasized, and in particular, the occurrence of all types of deixis in advertising discourse is analyzed with examples. Nevertheless, it is revealed that this type of discourse differs from other discourses in the most frequent use of emotional deixis, and that it is a specific feature of advertising discourse to have an emotional impact on the addressee and encourage him to perform a certain activity.*

Keywords: *pragmalinguistics, deixis, advertising discourse, types of deixis, emotional deixis.*

Kirish. Tilshunoslikda, xususan, pragmalingvistikada deyksis tushunchasi va deyktik birliklarning ahamiyati judayam katta. Chunki "nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqyelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug'iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deyktik vositalar zimmasidadir. «Deyksis» so'zining asl yunoncha ma'nosi «ko'rsatish», «ishora» bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida «voqyelikka ishora, ko'rsatish» mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi".[4:168] Deyktik birliklar esa o'z o'rnida bir nechta guruhlarga ajratib tasniflanadi. Tilshunoslar asosan deyktik birliklarning shaxs deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, diskurs deyksisi, sotsial(ijtimoiy) deyksis va emotsional deyksis kabi turlarini farqlashadi. Deyktik birliklarning bu turlari nutq uslubi va maqsadidan kelib chiqib turli diskurslarda turlicha faollikda namoyon bo'ladi. Masalan, muayyan diskursda shaxs deyksisi ancha faol ishlatilsa, boshqa bir

diskursda zamon va makon deyksislarining ko‘p uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Shundan kelib chiqib bu galgi tadqiqotimizda reklama matnlarida uchragan deyktik birliklarni qiyosiy, statistik va ilmiy tahlil qilib, xulosalar bilan bo‘lishishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tadqiqotga manba sifatida O‘zbekiston televideniyasida va teleradiokompaniyasida namoyish etilgan mahsulotlar va xizmatlar reklamalarining matnlari, hamda internet va turli ijtimoiy tarmoqlardagi reklama matnlari olindi. O‘rganish reklama matnlarini lingvistik va pragmatik tahlil qilish, ularda uchragan deyktik birliklarni tasniflash va to‘plangan ma’lumotlarni statistik tahlil qilish hamda xulosalar berish orqali olib borildi.

Natija va muhokamalar. Kishilik jamiyatida insonlar bir-biri bilan o‘zaro ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy aloqadorlikda hamda muayyan qonuniyatlar asosida hayot kechiradi. Iqtisodiyotdagi talab va taklif qonuniyati esa mana shu qonuniyatlarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Bugungidek insoniyat har tomonlama rivojlangan bir asrda inson ehtiyojlaridan ularni qondiruvchi takliflar (mahsulotlar va xizmatlar)ning son jihatidan ko‘p va xilma-xilligi, sifatli va ta’sirchan reklamalarga bo‘lgan ehtiyojning yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Reklamaning asosiy maqsadi mahsulotni sotish ekan, reklamada «sotish» so‘zi adresatni «sotib olishga ko‘ndirish» demakdir. Reklamada har bir so‘z mahsulotni sotish uchun xizmat qiladi, shunday ekan, ular ustida badiiy, iqtisodiy tomondan yuksak talablar asosida ish olib borish zarur bo‘ladi. Bu mas’ulyatli vazifa reklama matnini tuzuvchi zimmasiga yuklatiladi. Reklama tarixi shuni ko‘rsatadiki, reklama matni yaratuvchisi – kopireyter (ingl. copy writer - copy nusxa, qo‘lyozma; writer – muallif) o‘zining fikrini qog‘ozga tushira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak, ammo bu qobiliyat mijozning muammolarini yechishi mumkinligini aytish qobiliyatidan keyin turadi [1:52]. Shu sababli reklama matnlarida tinglovchiga ta’sir etish, uni ishontirish va qiziqtirish orqali sotib olishga ko‘ndirishdan iborat pragmatik maqsad birlamchi o‘rinda turadi.

Maqolamizning kirish qismida deyksis pragmalingvistikaning asosiy tadqiq predmeti ekanligi ham bejiz ta’kidlanmadi. Chunki reklamalardagi pragmatik maqsadning ro‘yobga chiqishi deyktik birliklarsiz, ayniqsa emotsional deyksislarsiz bo‘lmaydi. “Emotsional deyksis-kontekstda nafaqat referentni ko‘rsatish, balki muallif yoki so‘zlovchining xarakterini, his-tuyg‘ulari va munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan deyksis turi hisoblanadi. Ya’ni deyksisning bu turi boshqa odatdagi deyksislar kabi makonga, zamonga yoki shaxsga ishora qilmasdan, nutq egasining xohish-irodasini, nutqdan ko‘zlangan pragmatik maqsadini ifoda etadi”[2:521]. *Yorqin ta’m, yorqin ichimliklar. Fanta bilan yorqinroq bo‘l!* Fanta nomli yaxna ichimlikning ushbu reklamasida *yorqin* so‘zining uch bora takrorlanishi orqali chiroyli qofiya hosil qilinib, tinglovchini jalb qilishga erishilsa, *Fanta bilan yorqinroq bo‘l* gapi orqali muallif tinglovchini uni ichib ko‘rishga da’vat etadi. Shu bilan birga uni ichish yorqin lazzat baxsh etishiga ishontiradi.

Sizning yuragingiz nafaqat siz uchun uradi (Trombopol dori vositasining reklamasi), *Muza bilan siz betakror pazandasiz* (Muza kompaniyasining tayyor mahsulotlari reklamasi) kabi reklama matnlarida *siz* kishilik olmoshi va *pazanda* shaxs otlari shaxslarga ishora bo‘lib reklamalarda shaxs deyksisining ham qo‘llanishiga yorqin misoldir.

Beeline. Hayotning yorqin tarafida bo‘l. Beeline aloqa kompaniyasining bu reklamasida *hayotning yorqin tarafi* makonga ishora qiluvchi deyksis bo‘lish bilan birga, ayni paytda bu aloqa kompaniyasi bilan hayot yorqin va zavqli bo‘lishiga ishontirishdan iborat pragmatik maqsad ham bor, shu sababli u bir vaqtning o‘zida emotsional deyksisga ham misol bo‘la oladi. Yoki bo‘lmasam, “Planet Earth” sayyohlik agentligining reklamasidagi *Butun sayyora sizning ixtiyoringizda!* matnidagi *butun sayyora* birligi ham makonga ham kompaniyaning nomiga ishora qiladi, shuningdek bu sayyohlik agentligi bilan sayyoramizning istalgan nuqtasiga sayohat qilish mumkinligi bilan tinglovchilarda qiziqish uyg‘ota olishdek asosiy pragmatik maqsadni ro‘yobga chiqaradi.

Bir lahzani to‘xtatish juda oson (Kodak fotoapparati reklamasi), *Eng yaxshi xotiralar, eng yaxshi smartfon bilan* (Iphone 14 pro max telefon qurilmasi reklamasi), *Eng yaxshi damlarni yo‘tal sabab qo‘ldan chiqarmang, Lozalvan – yo‘talga qarshi uch tomonlama ta’sir: balg‘amni suyultiradi, nafas yo‘llarini tozalaydi va o‘pkani himoya qiladi. Lazolvan–eng yaxshi damlar siz bilan* (dori vositasi reklamasi), *Endi senga mumkin emas* (Magniy B6 dorisining reklamasi), *Rolfi. Quvnoq*

lahzalarni kutib ol (shirinlik reklamasi) kabi reklama matnlarida zamonga ishora qiluvchi deyktik birliklari uchraydi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak reklama diskursida deyksisning deyarli barcha turlari ancha faol qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik. Shaxs deyksisi, makon deyksisi, zamon deyksisiga namunalar ko‘rsatilib tahlil qilindi, ammo emotsional deyksis eng faol ishlatilishi bu diskursning o‘ziga xos xususiyati ekanligi aniq isbotlandi. Reklamalardan ko‘zlangan asosiy maqsad, xaridorlarning e’tiborini jalb etish, ularni ishontirish va sotib olishga ko‘ndirish ekanligini inobatga olib, tadqiqotdan kutilgan xulosa oldindan taxmin qilingan edi deb ishonch bilan ayta olamiz. Shuningdek reklama diskursida emotsional deyksis nafaqat so‘zlar, balki buyruq mayli shakllari hamda ohang bilan ham ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Botirova M. (2023). Jahon tilshunosligi va turkologiyada reklama tadqiqiga doir ishlar tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 51-57.

2. Esonturdiyeva D. Tilshunoslikda emotsional deyksis va uning ijtimoiy mass-media diskursi misolidagi tahlili. XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va xususiyatlari Denov, 10-oktabr 2025 yil, 5(9), 521-523.

3. Ganiyeva D. (2023). Ingliz va o‘zbek mediamatnlarining leksik-semantik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 126-131.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: 2008. – 320 b.

UDC 808.5

GOTHIC NOVELS IN ENGLISH LITERATURE

D.Fazliddinova, student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz yozuvchilari tomonidan yozilgan gotika uslubiga xos bo‘lgan turli romanlar va ularning xususiyatlari muhokama qilinadi. Gotik romanlar haqidagi fikr-mulohazalar ingliz nasriga oid bo‘lgan uchta roman misolida asoslanadi. Ular Horas Wolpolning “Otranto qal’asi”, Meri Shellining “Frankenshtein” romani hamda Oskar Uayldning “Dorian Grey portreti” romanlaridir.*

Kalit so’zlar: *Gotik roman, sir, dahshat, psixologik zo‘riqish, suspense, qorong’i muhit, qasrlar, g’ayritabiiy hodisalar, axloqiy ziddiyat,*

Аннотация. *В статье рассматриваются различные готические романы и их характеристики написанные английскими романистами. Данные о готических романах были подтверждены с помощью трёх английских готических романов: "Замок Отранто" Горация Уолпола, "Франкенштейн" Мэри Шелли и "Портрет Дориана Грея" Оскара Уайльда.*

Ключевые слова: *Готический роман, тайна, ужас, психологическое напряжение, саспенс, мрачные декорации, замки, сверхъестественные события, нравственный конфликт*

Abstract. *The article discusses different gothic novels and their characteristics written by English novelists. The data about gothic novels have been proved with the help of three English gothic novels, such as “The Castle of Otranto” by Horace Walpole, “Frankenstein” by Mary Shelley and “The picture of Dorian Grey” by Oscar Wilde.*

Key words: *Gothic novel, mystery, horror, psychological tension, suspense, dark settings, castles, supernatural events, moral conflict.*

A Gothic novel is a literary genre that combines elements of horror, mystery, the supernatural and romance. It originated in England at the end of the eighteenth century and became especially popular in the nineteenth century. The main aim of a Gothic novel is to create feelings of fear, anxiety and suspense, while also revealing the dark sides of human nature. The action of Gothic novels usually takes place in gloomy and mysterious settings such as ancient castles, abandoned monasteries, underground passages or remote estates. Supernatural elements are common in these works, including ghosts, monsters, curses or unexplained events. Great attention is paid to the inner emotions of the characters, such as fear, loneliness, madness and guilt. Gothic novels also raise important philosophical and moral questions, for example the conflict between science and nature, good and evil, or reason and emotion.

Gothic novels in English literature are works of fiction that combine mystery and psychological depth. English Gothic novels often explore themes such as sin, guilt, ambition, identity and the consequences of forbidden knowledge using dark settings and dramatic plots.

Horace Walpole's *The Castle of Otranto* is widely considered the first Gothic novel. Walpole himself described it as an attempt to blend "the ancient and the modern romance." The novel introduces many conventions that would define the genre: supernatural events, family curses, tyrannical rulers and mysterious prophecies. The story revolves around Prince Manfred, whose family is haunted by a prophecy predicting the fall of his lineage. When his son is crushed by a gigantic helmet that mysteriously falls from the sky, the narrative immediately establishes a tone of supernatural terror. Walpole writes: "The helmet was found to be an hundred times more large than any casque ever made for human being" (Walpole 17). This exaggerated image creates shock and emphasizes the intrusion of the irrational into ordinary life. Beyond its dramatic events, *The Castle of Otranto* reflects anxieties about power and tyranny. Manfred represents authoritarian rule and moral corruption. His obsessive desire to maintain power leads him to cruelty and injustice. As David Punter notes, early Gothic fiction frequently portrays "the return of the repressed past" (Punter 8). In Walpole's novel, the past literally returns through supernatural intervention, restoring justice. Thus, Walpole established the Gothic tradition by combining medievalism, emotional intensity and moral conflict.

Oscar Wilde's *The Picture of Dorian Gray* represents a later evolution of Gothic fiction in which psychological horror replaces medieval settings. Instead of castles and ghosts, Wilde presents moral corruption and aesthetic obsession.

At the beginning of the novel, Dorian expresses his fatal wish: "If it were I who was to be always young, and the picture that was to grow old! … I would give my soul for that!" (Wilde 29). This moment introduces the supernatural element that drives the narrative. The portrait becomes a visual representation of Dorian's conscience.

As Dorian pursues pleasure without moral restraint, the portrait gradually transforms into a hideous image of corruption. Wilde writes, "Each sin that he committed carved a new line of ugliness upon it" (Wilde 114). The painting functions as a symbol of inner decay. Unlike earlier Gothic works, the horror here is entirely psychological.

The novel explores the duality of human nature. Dorian maintains an appearance of innocence while concealing moral degradation. This theme reflects broader Victorian anxieties about hypocrisy and hidden vice. According to Botting, Gothic literature often reveals "the instability of identity" (Botting 10). Dorian embodies this instability, living a divided existence. Ultimately, Dorian's attempt to destroy the portrait results in his own death. The novel reinforces the moral principle that actions have consequences, even if they are temporarily concealed.

Mary Shelley's *Frankenstein* marks a crucial transformation of the Gothic novel. While retaining elements of horror and isolation, Shelley moves the genre into the realm of scientific experimentation and philosophical inquiry. The novel reflects early nineteenth-century debates about scientific progress and ethical responsibility. Victor Frankenstein's ambition to create life reveals the dangers of excessive pride. He declares, "Life and death appeared to me ideal bounds, which I should first break through" (Shelley 37). This statement demonstrates his desire to transcend natural limits. However, his success leads to tragedy rather than glory.

The creature in *Frankenstein* is one of the most complex figures in Gothic literature. Although he appears monstrous, he is deeply sensitive and articulate. He laments, "I was benevolent and good; misery made me a fiend" (Shelley 84). This confession shifts the focus from physical horror to emotional suffering. The true tragedy lies not in the creature's existence but in society's rejection of him.

Shelley's novel explores themes of isolation, alienation and moral responsibility. Victor's refusal to accept responsibility for his creation results in destruction. As critic Anne K. Mellor argues, *Frankenstein* is "a critique of irresponsible scientific ambition" (Mellor 56). The novel warns that science without ethical consideration can become dangerous. Through psychological depth and philosophical questioning, Shelley elevated the Gothic novel to a new intellectual level. Gothic novels

frequently express social fears and cultural tensions. The eighteenth and nineteenth centuries were marked by industrialization, political revolution and scientific advancement. These changes generated uncertainty and anxiety.

Frankenstein reflects fears about uncontrolled technological progress. *The Castle of Otranto* expresses concerns about illegitimate authority. *The Picture of Dorian Gray* critiques moral decadence and aesthetic extremism. As Punter suggests, Gothic fiction often serves as "a symbolic exploration of cultural fears" (Punter 14). Through supernatural narratives and dramatic conflicts, Gothic writers address real social and moral dilemmas. The influence of Gothic fiction extends far beyond the nineteenth century. It laid the foundation for modern horror literature, science fiction and psychological novels. Contemporary writers continue to use Gothic motifs such as isolation, dual identity and moral conflict.

Modern cinema also reflects Gothic traditions in its use of dark atmosphere, suspense and psychological terror. The enduring popularity of Gothic themes demonstrates their universal relevance. Fear, ambition, guilt and identity remain central concerns in human experience. Gothic novels are important because they changed the direction of literature and introduced new themes, emotions and narrative techniques that expanded the possibilities of fictional storytelling. Emerging in the late eighteenth century, Gothic literature shifted attention away from the strict rationalism of the Enlightenment and toward imagination, emotion and the mysterious dimensions of human experience. By focusing on fear, suspense and the supernatural, Gothic writers created a powerful emotional intensity that had rarely been explored so deeply before. Dark castles, ruined buildings, violent storms and isolated landscapes were not merely decorative settings; they functioned as symbolic representations of hidden fears, suppressed desires and inner psychological conflicts. Through these atmospheric elements, Gothic fiction transformed external space into a reflection of the human mind.

One of the greatest achievements of Gothic novels lies in their profound exploration of human psychology. Authors used dramatic events and supernatural motifs to reveal complex emotional states such as guilt, obsession, ambition, alienation and madness. The Gothic hero is often a deeply flawed character whose internal struggles become central to the narrative. In this way, Gothic literature moved beyond simple tales of terror and became a medium for examining moral responsibility and the consequences of individual choices. These works frequently warned readers about the dangers of uncontrolled passion, the abuse of authority and excessive intellectual pride. The tragic outcomes in many Gothic stories demonstrate that when human beings attempt to surpass natural or ethical limits, they often face destruction. Furthermore, Gothic novels played a decisive role in shaping later literary movements and genres. Ultimately, Gothic novels remain relevant because they address universal human concerns that transcend historical periods. Fear of the unknown, anxiety about progress, the struggle between good and evil, and the search for identity are themes that continue to resonate with modern audiences. By combining imaginative storytelling with deep moral and psychological insight, Gothic literature secured a lasting place in the history of English literature and continues to influence artistic expression in various cultural forms.

REFERENCES:

1. Walpole, H. (1764). The Castle of Otranto. London: Thomas Lownds.

2. Shelley, M. (1818). Frankenstein or The Modern Prometheus. London: Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones.

3. Wilde, O. (1890). The Picture of Dorian Gray. London: Lippincott's Monthly Magazine.

UO'K: 811.111'37+811.512.133'37

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "KO'NGIL" MAYDONIGA OID FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TADQIQI

S.M.Goipova, o'qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Zamonaviy tilshunoslik sohasida ham so'nggi yillarda "maydon" bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "ko'ngil" maydoniga oid leksik birliklarning frazeologizmlarda qo'llanilishi va ularning*

semantikasi tushuntirib berilgan va misollar bilan yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu frazeologizmlarning ushbu ikki til o'rtasidagi madaniy o'xshashlik va farqlik jihatlari ham qiyoslab berilgan va bu orqali ikki til o'rtasidagi linvokulturologik jihatlari ma'lum bir darajada ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ko'ngil maydoni, frazeologizm, yurak, qalb, dil, bag'r, ich, madaniyat***.**

Аннотация. *В современной лингвистике в последние годы проводятся многочисленные научные исследования, посвящённые понятию «поле». В этом контексте в данной статье рассматривается употребление лексических единиц, относящихся к полю «душа», в английских и узбекских фразеологизмах, а также объясняется их семантика и приводятся соответствующие примеры. Кроме того, сопоставляются культурные сходства и различия данных фразеологизмов в двух языках, что позволяет в определённой степени выявить их лингвокультурологические особенности.*

Ключевые слова: *поле душа, фразеологизм, сердце, душа, духовный мир, внутренний мир, культура.*

Abstract. *In recent years, a number of scientific studies have been conducted in modern linguistics concerning the concept of "field." From this perspective, this article examines the use of lexical units belonging to the "ko'ngil" field in English and Uzbek phraseological expressions, explains their semantic features, and illustrates them with relevant examples. Furthermore, the cultural similarities and differences reflected in these phraseologisms across the two languages are comparatively analyzed, thereby revealing certain linguocultural aspects of English and Uzbek.*

Key words: *ko'ngil field, phraseologism, heart, soul, inner world, feelings, emotion, culture.*

Til birliklarining mazmuniy tuzilish asoslarini o'rganishda semantik maydon nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va ruhiy holatini ifodalovchi birliklar esa tilning eng murakkab hamda eng boy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Til tizimida "ko'ngil" maydoni keng qamrovli ma'no maydoniga ega bo'lib, u frazeologik birliklar, maqollar, aforizmlar, badiiy matnlar va kundalik nutqda turlicha semantik yuklamada ishlatiladi. Shu jihatdan, **"ko'ngil" leksik-semantik maydoni**ning o'rganilishi ikki yo'nalishda ahamiyatlidir. Birinchidan, u tilning ichki ma'no tizimini, semantik munosabatlar tarmog'ini ochib beradi. Ikkinchidan, u xalqning milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi.

Mirzayeva D. va Rahimova Y. "Maydon tushunchasi va turli tizimli tillarda "ko'ngil" leksik-semantik maydoni tadqiqi"[1] nomli maqolasida til tizimi tushunchasi va leksik-semantik maydon haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada ko'ngil so'zining izohli lug'ati bilan tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta ma'noviy birliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, turli tizimli tillardagi "ko'ngil" maydonining leksik-semantik jihatlarini yoritib o'tadi va bu bo'yicha turli tizimli tillardan turli namunalar keltiriladi: *ko'ngli yorishmoq, xursand bo'lmoq, kayfiyati ko'tarilmoq, ko'ngli chog' bo'lmoq, ko'ngli tog'day ko'tarilmoq[2]* kabilar.

O'zbek tilidagi *ko'ngil* ma'no maydoni kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbai; *yurak, qalb, dil[3]* degan ma'nolarni anglatadi. Masalan: Ko'nglida yaxshi niyatlari ko'p. Ko'nglim quvonchlarga to'ldi.

Mirzayeva D. va Rahimova Y. turli tizimli tillarda *ko'ngil* ni o'xshash va farqli jihatlarini ham yoritib bergan. Bozorova N.P. esa o'zining Alisher Navoiy g'azallarida *ko'ngil* obrazi ("Badoe ul-bidoya" devoni asosida)[4] nomli tadqiqot ishida *ko'ngil* obrazining tarixiy ildizlari va tadrijiy takomili, Badoe ul-bidoya devonida *ko'ngil* obrazi va tasvir mahorati haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Zero *ko'ngil* Navoiy ilgari surgan g'oyalarning bosh ifodachisi, she'riyatning yetakchi an'anaviy obrazlaridan biridir. Bu obraz tarixi va g'oyaviy tadrijini tadqiq etish Navoiy she'riyatining mazmun mohiyatini keng mushohada qilish va muhim xulosalarga kelishga imkon yaratadi. Shu bilan bir qatorda, ulug' shoir shaxsiyati uning ruh va his-tuyg'u olamini haqqoniy anglashga yaqindan yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy tilshunoslikning kognitiv, qiyosiy-tipologik va lingvokulturologik yondashuvlari tashkil etadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida "ko'ngil" maydoniga oid frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning

madaniy-milliy mazmunini yoritish uchun *deskriptiv tahlil usuli, qiyosiy-tahliliy usul, semantik tahlil usuli, lingvokulturologik tahlil usullari* qo‘llanildi. Mazkur metodlar yordamida “ko‘ngil” maydoniga oid frazeologizmlarning semantik va madaniy xususiyatlari kompleks ravishda tahlil qilindi hamda ular ingliz va o‘zbek tillari doirasida qiyosiy yoritildi.

Ingliz tilida “ko‘ngil” maydoniga mazmunan teng keladigan yagona asosiy birlik yo‘q. Bu leksik-semantik maydon o‘zining atrofiga bir nechta leksik birliklarni shakllantiradi. “Ko‘ngil” semantik maydonining yadro qismida *heart,* periferiya qismida esa *soul, mind, spirit* kabi birliklar joy egallaydi. Har bir birlik ma’no jihatidan mikromaydonlarni qamrab oladi. Misol uchun, *heart* insonning his-tuyg‘ulari, mehr-shafqatiga tegishli bo‘lsa, *mind* ko‘proq fikrlash va aqlga aloqadordir. Bu holat ingliz madaniyatida hislar va aqlning keskin farq qilishini ko‘rsatadi. **O‘zbek tilida** “ko‘ngil” semantik maydonining y**adro qismida** *ko‘ngil* leksemasi, **periferiya qismida esa** *yurak, dil, qalb, bag‘r, ich* kabi leksik birliklar **o‘rin egallaydi.**

Ushbu yadro-periferiya strukturasi orqali “ko‘ngil” atrofida ma’naviy-ma’rifiy, his-tuyg‘u va estetik tushunchalarni mustahkamlanadi. Shuning uchun ham “ko‘ngil” maydoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, maqol va matallarda, she’riyatda, kundalik nutqda va frazeologik birliklarda asosiy vazifani o‘taydi.

O‘zbek xalqining dunyoqarashi, milliy o‘ziga xosligi hamda estetik-axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi muhim tushunchalardan biri – “ko‘ngil” leksik-semantik maydonidir. Ingliz tilida esa bu soha bir qancha semantik markazlar orqali namoyish etilib, turli aspektlarda inson ichki dunyosini tushuntiradi.

O‘zbek tilida “ko‘ngil” bilan bog‘liq bir qancha frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ular turli ma’nolarni anglatadi. Masalan:

1) ko‘ngil bermoq yoki ko‘ngil qo‘ymoq – a) *berilmoq, mehr qo‘ymoq* ma’nolarini ham ifodalaydi: *Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin, bevafo dunyoga ko‘ngil bermagin.* Ushbu misolda ham ko‘rinib turibdiki, *“ko‘ngil bermagin”* birikmasida - bu o‘tkinchi, hammadan qoluvchi dunyoga bor mehringizni bermang degan ma’noni anglatadi.

b) bundan tashqari *“ko‘ngil bermoq”* frazeologik birligi - *sevmoq* ma’nosini ham ifodalab keladi. *Men tunukasoz ustamning qiziga ko‘ngil bergan edim. Yigit shu qizga ko‘ngil qo‘ydi. Ko‘ngil berganimni, yaxshi ko‘rganimni o‘lganidan keyin yana ham aniq bildim.* Bu yerda “ko‘ngil bermoq” leksik birligi sevmoq, yoqtirib qolmoq ma’nosida kelgan va u tunukasoz ustozining qizini sevib, yoqtirib qolganini tushunamiz.

2) *Ko‘ngil so‘ramoq*[5] - kishi boshiga biror musibat yoki tashvish tushganda, undan hol-ahvol, kayfiyat va shular kabilar haqida so‘ramoq. Bu an’anaviy, odob-axloq me’yori sifatida qabul qilinadi va boshqalar bilan aloqani mustahkamlash vositasi hisoblanadi. *Ali meshkobchi keyinchalik Nizomiddinning hibs etilib, Ixtiyoriddinga tashlanganini eshitib, erta bilan kelib, Me’morning ko‘nglini so‘radi. Yodgorboyning nobud bo‘lganidan bular bexabar ekan, to‘g‘ri kelib, kampirdan ko‘ngil so‘rabdi.* Matnda odamlar qiyin vaziyatda — hibsga olinish, o‘lim kabi hodisalardan keyin bir-birining holini bilishga intilmoqda. Bu ko‘ngil so‘rash an’anasi orqali insoniy aloqalar, do‘stlik va hurmat ifodalanadi.

3) Ko‘ngli bor a) xohishi, mayli bor; moyil bo‘lish. Bu ma’no shaxsning ichki istagi, roziligi yoki biror ishga tayyorligini bildiradi. Masalan, *“Shu yerda qolib ishlashga ko‘ngli borligini birdan aytishga bo‘yni yor bermay o‘ylandi”* jumlasida qahramon shu ishni qilishga ichidan rozi bo‘lsa-da, birdan ochiq aytishga ikkilanyapti. Bu insonga xos ichki kurash, qaror qabul qilishdagi qiyinchilik va shu bilan birga ichki ko‘ngilning mavjudligini ko‘rsatadi. Qahramon ichida bu qarorni qabul qilgan bo‘lsa-da, tashqi tomondan uni aytishga hali tayyor emas. Bu orqali insondagi tabiiy hissiy holat – shubha, hayajon, noqulaylik ifoda topmoqda. Shuningdek, insonning qaror qabul qilish jarayonidagi ichki kurashi, ichki istak va tashqi ifoda o‘rtasidagi tafovut, hamda ularning ruhiy holatga ta’siri yoritiladi.

b) yaxshi ko‘radi, sevadi. Bu ma’no shaxsning kimnidir yoki nimanidir samimiy sevishini ifodalaydi. Masalan, *“Unday desa, Soliyaning pichingida ham jon bor. Axir ilgarilari ‘aka’ demas ediku? Ko‘ngli bormikin-a?”* jumlasida qahramonning mehr qo‘yishi, u haqida iliq fikrda ekanligi

ko‘rsatilmoqda. Bu misolda “ko‘ngli bor” degani — mehr qo‘ygan, sevadi degan ma’noni bildiradi. Bu ibora muhabbat, hissiy bog‘lanish, insonlar orasidagi ichki yaqinlikni ko‘rsatadi.

Bu jumlada qahramon boshqa insonning unga bo‘lgan munosabatini tushunishga urinmoqda. “Ko‘ngli bormikin-a?” degan savol — **umid, qiziqish, shubha** va **xavotir** aralashgan holatni ifodalaydi.

4) Ko‘ngli bo‘shamoq - G‘am-tashvishdan yengillanmoq, ko‘ngli yorishmoq. *Yig‘lab-yig‘lab, ko‘ngillari ancha bo‘shagandan keyin: -Hasanjon bularni qayerdan topdinglar dedi.*

5) Ko‘ngli joyiga (yoki o‘rniga) tushmoq - Xotirjam bo‘lmoq, tinchlanmoq; taskin topmoq. *G‘ulomjon hali qo‘shnisi terim boshlamaganini ko‘rib, ko‘ngli ancha joyiga tushdi* va h.k.

O‘zbek tilida frazeologizmlarda “ko‘ngil” leksik-semantik maydonining yadrosini *ko‘ngil,* periferiya qismini esa *yurak, dil, qalb* kabi birliklar tashkil etadi. Periferiya sifatida *yurak* leksik birligi bilan hosil qilinuvchi ba’zi frazeologik birliklar quyidagilar:

1. *Yuragini bo‘shatmoq* - ko‘nglini bo‘shatmoq, ichini bo‘shatmoq ma’nosini anglatadi: *Bu gaplarni shu vaqtgacha hech kimga aytolmay to‘lib-toshib yurgan edim. Yuragim bo‘shadi.* Periferiya vazifasida *dil* leksik birligi bilan hosil qilinuvchi frazeologik birliklar:. *Dili siyoh bo‘ldi*- ko‘ngli g‘ash bo‘ldi, xafa bo‘ldi ma’nosini bildiradi. Masalan, *Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keldi. (S.Anorboyev. Jasorat.)* Periferiya vazifasida *qalb* leksik birligi bilan hosil qilinuvchi frazeologik birliklar: *Qalbi pok*- ko‘ngli toza: *Bu dunyoda hammaning ham qalbi pok bo‘lmas ekanda. Dili siyoh bo‘moq, dili xufton bo‘lmoq, ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi, ich etini kemirmoq, jigaridan urmoq, mehr bermoq, me’dasiga tegmoq* kabi ko‘plab frazeologik birliklarni ko‘rishimiz mumkin.

Ingliz tilida *ko‘ngil* maydoni yadro qismida *soul,* periferiya qismlarida esa *heart, mind, spirit* frazeologik birliklari qo‘llaniladi va ular turlicha ma’nolarni anglatadi. *Take heart* – ko‘ngli ko‘tarilmoq, xursand bo‘lmoq ma’nosini ifodalab keladi. *Break someone’s heart* – ko‘nglini sindirmoq ma’nosini anglatadi.*Peace of mind*- ko‘ngil hotirjamligi, osoyishtaligi. *Speak your mind*- ko‘nglida borini aytmoq, *Bare your soul* – ko‘nglini ochmoq. *Search your soul*- ko‘nglidan o‘tkazmoq. *Free spirit*- erkin ko‘ngil, *spirits rise*- ko‘ngli ko‘tarilmoq.

Frazeologik birliklar milliy tafakkur, dunyoqarash va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi til vositalaridir. Har bir tilning frazeologizmlari o‘sha xalqning tarixiy, ijtimoiy hayoti, urf-odatlari va ma’naviy dunyosiga bevosita bog‘liq bo‘lib, madaniy asosga ega. Shu bois ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan frazeologik birliklarni madaniy jihatdan qiyosiy o‘rganish milliy mentalitet hamda xalqona obrazlarni aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirzayeva D. Rahimova Y. International Journal of Economy and Innovation. 2023. Volume 31. P.6-9

2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmonova Z, O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug’ati”. Toshkent. 2022. B.277

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

4. Bozorova N.P. Alisher Navoiy g‘azallarid ko‘ngil obrazi (“Badoe ul-bidoya” devoni asosida). Filol.fan.nom..diss.Toshkent., 2002.b.21-22

5. Умарходжаев М.И. Основы фразеографии – Ташкент: Фан, 1983. – С. 204

6. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyeva.

7. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. T.:- G‘afur G‘ulom. 2022. – b. 277

UO’K: 811.111

HARBIY TERMINOLOGIYANING RIVOJLANISHIDA INTRALINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK OMILLARNING O‘ZARO TA’SIRI

S.M.G‘ofurova, o‘qituvchi, Andijan davlat chet tillari instituti, Andijan

Annotatsiya*. Mazkur maqolada harbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishida intralingvistik hamda ekstralingvistik omillarning o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida harbiy terminlarning diaxronik va sinxronik rivojlanish bosqichlari, semantik kengayishi, strukturaviy va etimologik xususiyatlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, harbiy terminlar, intralingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, diaxroniya, sinxroniya, semantik kengayish, kiberurush.*

Аннотация. *В статье рассматриваются внутрязыковые и внеязыковые факторы развития военной терминологии в лингвистическом аспекте. Анализируются диахронические и синхронические особенности формирования военных терминов, их семантическое расширение, структурные и этимологические характеристики.*

Ключевые слова: *терминология, военные термины, внутрязыковые факторы, внеязыковые факторы, диахрония, синхрония, семантическое расширение, кибервойна.*

Abstract. *This article analyzes the intralinguistic and extralinguistic factors influencing the development of military terminology from a linguistic perspective. The study examines the diachronic and synchronic features of military term formation, their semantic expansion, as well as structural and etymological characteristics.*

Key words: *terminology, military terms, intralinguistic factors, extralinguistic factors, diachrony, synchrony, semantic expansion, cyber warfare.*

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u doimo rivojlanib, yangilanib boradi. Til taraqqiyoti ichki va tashqi omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Tilshunoslikda ushbu omillar intralingvistik va ekstralingvistik turlarga ajratiladi. Intralingvistik omillar tilning o‘z ichki qonuniyatlari, grammatik va leksik tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, ekstralingvistik omillar jamiyat hayoti, siyosiy vaziyat, texnologik taraqqiyot va madaniy jarayonlar bilan bevosita aloqadordir. Ayniqsa, terminologik tizimlar, xususan, harbiy terminologiya ushbu omillarning o‘zaro ta’sirini yaqqol namoyon etadi. Harbiy terminologiya davlat xavfsizligi, milliy mudofaa, harbiy strategiya va taktika bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan maxsus leksik qatlam hisoblanadi. Harbiy terminlar nafaqat tilshunoslik, balki siyosatshunoslik, tarixshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy tadqiqot obyekti sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. A.A. Reformatskiy tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib yangi birliklar yaratishga doimiy intilishini ta’kidlagan [1]. S.V. Grinev esa terminologik tizimlarning ijtimoiy ehtiyoj va texnologik taraqqiyot natijasida shakllanishini qayd etadi [3]. Intralingvistik omillar tilning ichki imkoniyatlari asosida terminlar yaratish va ularni tizimlashtirish jarayonini anglatadi. Harbiy terminologiyada bu jarayon fonetik, morfologik va semantik darajalarda namoyon bo‘ladi.

Fonetik o‘zgarishlar talaffuzdagi qisqarishlar va moslashuvlar orqali yuzaga keladi. Morfologik jarayonda esa qo‘shimchalar yordamida yangi terminlar hosil qilinadi. Masalan, *jangchi, qurolli, mudofaalovch*). Semantik jarayonda esa umumxalq so‘zlari terminlashib, maxsus ma’no kasb etadi. Masalan, *zarba, himoya, tahdid.* Intralingvistik omillar terminlarning ichki mantiqiy uyg‘unligini ta’minlaydi va ularning tilda barqaror qo‘llanishiga xizmat qiladi.

Ekstralingvistik omillar harbiy terminologiyaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy jarayonlar, texnologik taraqqiyot, globalizatsiya va xalqaro hamkorlik harbiy terminlarning yangilanishiga sabab bo‘ladi. Texnologik rivojlanish natijasida *dron, kiberhujum, sun’iy intellekt, kosmik razvedka* kabi terminlar paydo bo‘ldi. Globalizatsiya ta’siri ostida ingliz tilidan kirib kelgan terminlar *joint operation, command center, peacekeeping mission* [6] harbiy leksikada mustahkam o‘rin egallamoqda.

S.V. Grinev ta’kidlaganidek, terminologik tizimlar ijtimoiy zaruratga javoban shakllanadi va harbiy terminlar siyosiy hamda texnologik jarayonlarga eng sezgir qatlam hisoblanadi [3]. Ushbu fikrda ko‘rinib turibdiki, terminologiya ilmiy-texnik tafakkurning, sohalararo kommunikatsiyaning muhim asosi hisoblanadi. Xususan, harbiy terminologiya harbiy ishlar, strategiya, taktika, qurol-yarog‘, harbiy tayyorgarlik va boshqa shu soha bilan bog‘liq maxsus terminlarning yaxlit tizimidir. Harbiy terminlar doimo davlat xavfsizligi, milliy mustaqillik, va ijtimoiy barqarorlik kabi yuksak ahamiyatga ega yo‘nalishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib kelgan. Shu sababli, bu sohadagi terminlarni o‘rganish faqatgina tilshunoslik uchun emas, balki madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, tarixshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Harbiy terminologiyani o‘rganishda ham shu ikki asosiy yondashuv qo‘llaniladi. *Diaxronik* – ya’ni tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan o‘rganish, hamda *sinxronik* – zamonaviy holatda, mavjud tizimni bir vaqtda tahlil qilish [9].

Natija va muhokama. Tarixan ilk harbiy terminlar insoniyat jamiyati shakllanayotgan davrlarda, ibtidoiy jamiyatdan boshlab yuzaga kelgan. Misol uchun: Qadimgi Misr va Mesopotamiya: bu hududlarda harbiy ierarxiya va mudofaa tizimi bo‘yicha terminlar iyeroglif va mixxat yozuvlarida saqlangan. Yunon-Rim imperiyasi: *phalanx, legion, centurion* kabi harbiy tuzilmalarga oid terminlar yunoncha va lotincha ishlatilgan bo‘lib, ular bugungi terminologiyaga ham ta’sir qilgan. Xitoy va Hindiston: Sun Tsziyning “Urush san’ati” asarida uchraydigan tushunchalar – *strategiya, aldov orqali yengish, dushmanning ruhini buzish* kabi konseptsiyalar o‘sha davr harbiy tilining mahsulidir. Islom dunyosida harbiy ishlar bilan bog‘liq ko‘plab terminlar Qur’on, Hadis, hamda tarixiy manbalarda uchraydi. Misol uchun: *Jang, g‘azot, sarkarda, lashkar, ribot* kabi tushunchalar keng qo‘llanilgan. Yevropada *knight, armor, fortress* kabi terminlar O‘rta Asr harbiy amaliyotining aksidir.

XVIII–XIX asrlarda markazlashgan davlatlar shakllangach, harbiy sohalar milliy tillarda tasniflana boshlandi. Misol uchun: Fransiya va Angliyada harbiy akademiyalarning ochilishi bilan terminlar kodifikatsiya qilindi.

Rossiyada – Pyotr I davrida harbiy islohotlar natijasida ko‘plab g‘arb terminlari rus tiliga o‘zlashtirildi: артиллерия, марш, генерал kabilar.

O‘zbek tilida esa Sobiq Sovet davridan boshlab jangovar, qo‘mondonlik, zahira kuchlari kabi terminlar keng qo‘llanila boshladi.

Harbiy terminologiya harbiy ish, harbiy fan, qurolli kuchlar va milliy mudofaa sohalarida qo‘llaniladigan so‘z va iboralar tizimidir. Harbiy terminlar harbiy texnika, qurollanish, jangovar harakatlar, harbiy unvonlar, harbiy boshqaruv, taktik va strategik tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksik birliklardir. Zamonaviy davrda harbiy terminologiya zamonaviy texnologiyalar, siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, xalqaro harbiy hamkorlik va ilmiy taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Texnologik yangiliklarga bog‘liqlik ya’ni harbiy sohadagi texnik taraqqiyot, masalan, dronlar, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va kosmik harbiy vositalar kabi yangiliklar bilan bog‘liq yangi terminlar paydo bo‘lmoqda. Masalan: *dron zarbasi, kiberhujum, raqamli urush, kosmik razvedka* kabi terminlar bunga misol bo‘ladi.

Globalizatsiya ta’siri natijasida harbiy terminologiyada ingliz tilidan kirib kelgan terminlar soni ortib bormoqda. Masalan: *joint operation, command center, peacekeeping mission* kabi terminlar xalqaro harbiy hamkorlik sohasida keng qo‘llaniladi.

Harbiy terminlar tarixiy taraqqiyot jarayonida yangilanib, ba’zilari eskiradi, ba’zilari esa yangicha mazmun kasb etadi. Masalan, *front* yoki *diviziya* kabi klassik terminlar zamonaviy kontekstda yangicha talqin qilinmoqda [10].

Zamonaviy harbiy terminologiya ko‘p qatlamli va murakkab tizimga aylangan. “Front” termini bugungi kunda nafaqat fizik jang maydonini, balki kiberfront, axborot fronti, psixologik front kabi tushunchalarni ham anglatadi [7].

“Diviziya” termini ham zamonaviy harbiy doktrinalarda modulli va raqamli tuzilma sifatida qayta talqin qilinmoqda. D. Lonsdeyl fikricha, raqamli davrda harbiy birliklar axborot va texnologik boshqaruv markaziga aylanmoqda. Zamonaviy urushlar faqatgina quruqlik yoki havo kuchlari bilan emas, balki kibermakon, sun’iy yo‘ldoshlar, axborot urushi orqali ham olib boriladi. Bu esa harbiy terminologiyaning ko‘p qirrali bo‘lishini ta’minlaydi. Bugungi global xavfsizlik muhitida jangovar harakatlar nafaqat an’anaviy maydonlarda, balki virtual va texnologik fazolarda ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kiberurush (cyber warfare) sohasining rivojlanishi bilan davlatlar o‘z raqamli infratuzilmalarini himoya qilish, dushman tizimlariga zarar yetkazish va axborot oqimini nazorat qilish bo‘yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga majbur bo‘lishmoqda. Bu esa o‘z navbatida, *kiberxavfsizlik, raqamli josuslik, tarmoq hujumi, axborot blokadasi* kabi yangi harbiy terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, kosmik harbiylashtirish tendensiyasi ham jadal sur’atlarda kechmoqda. Bugungi kunda sun’iy yo‘ldoshlar nafaqat aloqa va navigatsiya, balki razvedka, raketa hujumlarini aniqlash va havoni kuzatish kabi harbiy maqsadlarda faol qo‘llanilmoqda. Shu sababli, *kosmik razvedka, orbital hujum tizimlari, yo‘ldoshga qarshi qurollar* kabi terminlar harbiy leksikon fondidan barqaror o‘rin egallamoqda. Bundan tashqari, zamonaviy urushlar ko‘pincha axborot urushi (information warfare) shaklida olib boriladi. Bu jarayonda yolg‘on

axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya qilish, ommaviy fikrga ta’sir ko‘rsatish va ruhiy bosim orqali dushmanning siyosiy, ijtimoiy barqarorligiga putur yetkazish maqsad qilinadi. Natijada, *psixologik operatsiyalar, dezinformatsiya kompaniyalari, axborot nazorati* kabi terminlar harbiy amaliyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak xato bo‘lmaydi.

Harbiy terminlar kelib chiqishiga ko‘ra mahalliy, o‘zlashma, xalqaro, gibrid va neologik guruhlarga bo‘linadi. Bu holat harbiy terminologiyaning tillararo va madaniy almashinuv mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, harbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat tilning ichki qonun-qoidalari (intralingvistik omillar), balki ijtimoiy, siyosiy, texnologik va madaniy jarayonlar (ekstralingvistik omillar) bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, harbiy terminlar bu ikki omil o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yaqqol ko‘rsatadigan til qatlamidir. Terminologiyaning rivojlanishida til tizimining o‘ziga xos ichki imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Intralingvistik omillar bu tilning ichki qonuniyatlari, grammatik va leksik vositalari orqali yangi terminlar yaratish, ularni ma’nodoshlik, strukturaviy moslik va ishlatilish doirasi bo‘yicha shakllantirish jarayonlaridir. Texnologik va siyosiy jarayonlar terminlarning semantik va strukturaviy yangilanishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 2005. -С. 34-49
2. Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: Наука, 2007. -С. 107.
3. Гринёв С.В. Введение в терминоведение. – М.: Академия, 2008. -С. 84-109.
4. Bowker L. Terminology and Translation. – London: Routledge, 2002.-P 128.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: URSS, 2010. -С. 71-99
6. NATO Glossary of Terms and Definitions (AAP-06). – Brussels, 2022.-P. 42.
7. Oxford Military Dictionary. – Oxford: OUP, 2021.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.-Б. 64
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 2009. -Б.127.
10. Мадвалиев А. Ҳозирги ўзбек тили терминологияси. – Тошкент, 2015. -Б. 89.

UO’K 821.112.2-13:81’38

“NIBULINGLAR QO‘SHIG‘I» QAHRAMONLIK EPOSINING TARIXI VA UNDA TIL VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

M.A.Hamrayeva, o‘qituvchi, Denov pedagogika va tadbirkorlik instituti, Denov

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Nibulinglar qo‘shig‘i” qahramonlik eposining tarixiy kelib chiqishi va undagi til vositalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot epik matndagi frazeologik birikmalar, ularning semantik qatlamlari va tarjimalardagi noto‘g‘ri soddalashtirishlar misollari orqali ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada o‘rta asr epik adabiyotida ijtimoiy mavqe, saroy hayoti va qahramonlar obrazining til vositalari orqali ifodalanishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning asl semantik mazmunini saqlab tarjima qilish epik matnning mohiyatini tushunishda muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Nibulinglar qo‘shig‘i, qahramonlik eposi, til vositalari, frazeologik birliklar, tarjima tahlili, o‘rta asr epik adabiyoti, semantik tahlil.*

Аннотация. *В данном исследовании представлен научный анализ исторического происхождения героического эпоса «Песнь о Нибелунгах» и языковых средств, используемых в этом произведении. В работе рассматриваются фразеологические единицы, их семантические слои, а также упрощения и неточности перевода на основе наглядных примеров. Особое внимание уделяется тому, каким образом социальный статус, придворная жизнь и героическая характеристика персонажей выражаются посредством языковых средств в средневековой эпической литературе. Результаты исследования показывают, что сохранение исходного семантического содержания фразеологических единиц имеет ключевое значение для адекватного понимания эпических текстов.*

Ключевые слова: *Песнь о Нибелунгах, героический эпос, языковые средства, фразеологические единицы, переводческий анализ, средневековая эпическая литература, семантический анализ.*

Abstract. *This study provides a scholarly analysis of the historical origin of the heroic epic "Nibelungenlied" and the linguistic devices employed within it. The research examines phraseological units, their semantic layers, and translation simplifications or inaccuracies through illustrative examples. The study also highlights how social status, court life, and heroic characterization are expressed via linguistic means in medieval epic literature. The findings indicate that preserving the original semantic content of phraseological units is essential for an accurate understanding of epic texts.*

Key words: *Nibelungenlied, heroic epic, linguistic devices, phraseological units, translation analysis, medieval epic literature, semantic analysis.*

Insoniyatni doim o‘ziga tortgan va tadqiqotchilar tilshunos adabiyotshunos va tarixchilar o‘rganishlariga sabab bo‘lgan ilk o‘rta asrlar qahramonlik eposlarini o‘rganish va ularda qo‘llanilgan til vositalarning o‘rnini o‘rganish hamda tadqiq qilish bugungi kunnning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Aynan o‘sha asarlar orqali xalq madaniyati tarixi, tili, dini va g‘oyalarini o‘rganish mumkin. Albatta bu jarayon hamma mamlakatlarda turli davrlarda shakllangan. Masalan, bunga ilk o‘rta asarlarga tegishli bo‘lgan yevropa adabiyotiga tegishli bo‘lgan xalq adabiyotining eng durdona qahramonlik eposlarinin misol qilib keltirish mumkin.

Xalq adabiyotining eng etnik namunalari Fransiya qahramonlik eposi “Roland haqida qo‘shiq”, Ispaniya qahramonlik eposi “Sid haqida qo‘shiq» Germaniya qahramonlik eposi “Nibelunglar qo‘shig‘i” dostonlaridir [6].

Nibulinglar qo‘shigi ilk o‘rta asrlarga tegishli bo‘lgan german qabilalari hayoti va madaniyatini o‘zida aks etttirgan qahramonlik eposi hisoblanadi. Ushbu qo‘shiqning kelib chiqish tarixida bunga bir necha tahminlar mavjud.

Nibulinglar qo‘shigi haqidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bu qo‘shiq 1200-yillarda Passuadagi Bishof hovlisida bir avstralik tomonidan yozilgan degan tahminlar bor ushbu qo‘shiqning muallifi noma’lum bo‘lib aktyor, balki sayyor qo‘shiqchi bo‘lmasa past tabaqaga mansub kishilardan bo‘lishi mumkin deb tahmin qilinadi [4]. Yana bir tahminlardan biri o‘sha davrlarda yozuvni bilganlar juda kam edi, shuning uchun afsona va rivoyatlar asosan og‘zaki shaklda avloddan avlodga yetkazilgan va hozirgi tadqiqotchilarning fikricha bu asarni bir kishi emas, balki bir necha shoirlar birga yozgan va bitta ustoz shoir bosh bo‘lgan. Yana bir tahminlarga ko‘ra yozuvchi ruhoniy bo‘lgan o‘sha davrda yozish vakolati faqat diniy tabaqa vakillariga tegishli bo‘lgan va shu bilan bir qatorda yozuvchi zodagon bo‘lgan degan tahmin ham mavjud, chunki asarda saroy hayoti, ayollar kiyimlari, zebu-ziynatlar ov marosimlari kabi tafsilotlar aniq va batafsil tasvirlangan [5]. Ushbu tahminlarga asoslangan holda o‘sha davr haqida bir necha faktlarni asos qilib ko‘rsatish mumkin va dostonlarning har bir qismida majoziy ko‘pirtirish hashamatni tasvirlash va jasurlikka alohida etibor qaratilgan va qahramonlar doim ko‘rkam yengilmas va hashamatga loyiq insonlar obrazida gavdalantirilgan.

O‘rta asrlarda, zamonaviy davrga qaraganda inson tashqi ko‘rinishi yanada kuchliroq tarzda belgi va ramz sifatida baholangan. Saroy kiyimi (ya’ni ritsar va saroy ahlining kiyimi) oddiygina libos bo‘lib qolmay, balki egasining ijtimoiy maqomining belgisi sifatida xizmat qilgan. Bu esa jamiyatdagi tabaqalanishni va zodagonlarning hukmronlik davosini ko‘rsatish vositasi bo‘lgan. Bunday kiyimlar “misli ko‘rilmagan dabdaba” bilan tavsiflanadi [1] qimmatbaho matolar, noyob mo‘yna, murakkab bezaklar va yorqin ranglar -bularning barchasi saroy kiyimiga xos xususiyatlar edi [2]. Eposlarning o‘ziga hos hususiyatlardan biri bu judayam kuchaytirib tasvirlash bo‘lgan va tasvirlanaoyotgan qahramonlar boshqalarga qaraganda ustunligi yaqqol ko‘zga tashlanadigan darajada bo‘lishi talab etilgan. Shunday qilib ushbu maqolada asardagi qo‘llanilgan frazeologizmlarni tahlil qilishga xarakat qilindi.

Masalan, asardagi “*Davon Weiss wahrlich Niemand euch volle Kunde zu geben”* gapidagi “*Kunde geben*” iborasini uchratish mumkin va tarjimasi “nimadandur habar berish” deb o‘zbek tiliga tarjima qilingan, ammo ushbu iborani asosan epik, diniy yoki tarixiy matnlarda ko‘rish mumkin. Bu

yerda "die Kunde" mijoz ma'nosida emas aksincha "die Nachrichten" ya'ni habar ma'nosida ishlatilgan.

Asardagi "*hier ist die Kunde König*" ushbu ibora esa hozir "*har doim mijoz xaq*" degan ma'noni beradi. Bu yerda *der Kunde* ya'ni mujskoy rodda erkak haridor mijoz manosida qo'llanilmoqda va asardagi die Kunde sifat turlanishidan otni jenskiy rodda ekanini bilish mumkin va bu yerda "die Kunde" – xabar ma'nosida ishlatilgan va tarjimada tarjimon buni "darak" deb biroz baddiylashtirgan.

Asardagi "*Inh wolle Gott behüten, sonst ist es bald ihn gethan*" jumlasi "Xudo uni asrasin" ma'nosida keltirilgan. Aslida bu ibora "*Gott behüt"* ma'nosida hozirgi zamonaviy nemis tilida "Abschiedsgruss" ma'nosida ko'proq qo'llaniladi. Masalan "*Ich muss jetzt gehen, buhüt dich Gott*" [5] va bu yerda "*Men ketishim kerak seni Hudo asrasin"* va Nibelunglar qo'shigida qo'llanilgan ushbu ibora Krimhildani onasi unga tushini aytib berganda bergan taskinida qo'llanilgan bo'lib ko'proq duoga o'xshab ketadi ya'ni "*Xudo Uni o'z panohida asrasin"- Gott schütze ihn.* Tarjimada esa o'sha jumlalarda biroz ma'nodan uzoqlashish kuzatilgan. Va jumla quydagidek tarjima qilingan, ya'nm "*Balki u seni ko'rar, aslida esa Xudo uni asrasin, aks holda uning yulduzi tez so'nadi*". Bu jumlada ikkita ibora ishlatilganini ko'rish mumkin. «*Es ist um jemanden geschehen oder getan. U halok bo'ldi, uning yulduzi so'ndi» ma'nosi jemand ist verloren, jemand ist dem Tod nahe.* Bu yerda *gethan* so'zi asosan M*ittelhochdeutsch yoki* klassik she'riyatda ishlatiladi. Zamonaviy nemis tilida getan shaklida foydalaniladi. Getan bu Tun fe'lining Partizip II shakli hisoblanadi tun, tat, getan. Nibulinglar qo'shig'idan olingan bir necha parcha va ulardan olingan tahlil natijalaridan shunday xulosaga kelish mumkin matnda bu iboralarning noto'g'ri yoki soddalashtirilgan tarzda tarjima qilingani yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "*Xudo uni asrasin, aks holda uning yulduzi tez so'nadi*" degan ibora "*Balki u seni ko'rar, kim qaysi zamon"* tarzida tarjima qilinib, frazeologik mazmunni yo'qotgan.

Shunday qilib, matnda bu iboralarning asl semantik qatlamini saqlab qolish, ularning frazeologik xususiyatlarini e'tiborga olish va tarjimada bunday birliklarni oddiy so'zlar bilan almashtirmaslik zarurligi ta'kidlangan. *Die Kunde geben* iborasi Nibelunglar qo'shig'ida shunchaki "xabar bermoq" degani emas, balki muhim, hatto taqdir hal qiluvchi darajadagi voqeani oldindan bildirish, ogohlantirish ma'nosida qo'llangan. Bu ibora zamonaviy tilda deyarli ishlatilmaydi, lekin qadimgi asarlarda, ayniqsa eposlarda, ko'proq bashorat yoki muqaddas darajadagi xabar sifatida qo'llaniladi. Bu iborani tushunishda asosiy xato shundaki, ko'pchilik uni *der Kunde* ya'ni *xaridor* tushunchasi bilan adashtiradi – aslida bu boshqa so'z, boshqa ma'no: u yerda mijoz haqida gap ketadi, bu yerda esa die Kunde– xabar haqida.

Tarjimon bu iborani "hech kim bundan bermaydi darak" deb tarjima qilgan, ya'ni "xabar bermaydi" o'rniga "darak" deyilgan va tarjimada badiiylikka erishgan, lekin aynan epik asar ohangini saqlab qolishga xizmat qiladi. Tarjimada asl ma'no yo'qolmagan, balki uni o'zbek tilida she'riy tarjimadagi singari badiiylikka yaqinlashtirgan.

«Nibulunglar qo'shig'i» qahramonlik eposi o'rta asr Yevropa madaniy-merosining muhim namunasi bo'lib, unda tarixiy voqealar, afsonaviy syujetlar va ritsarlik qadriyatlari o'zaro uyg'unlashgan. Asarda qo'llanilgan til vositalari, ayniqsa frazeologik birliklar va obrazli ifodalar qahramonlarning ijtimoiy mavqei, saroy hayoti hamda jasorat va sadoqat kabi tushunchalarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Epos tili orqali davr ruhiyati, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlari yorqin aks etadi. Shu bois, «Nibulunglar qo'shig'i» nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham qimmatli manba bo'lib, uni chuqur tahlil qilish o'rta asr epik tafakkurini to'g'ri anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bruggen E. Kleidung und Mode in der höfischen Epik des 12. und 13.Jahrhunderts. Heidelberg, 1989.

2. Baratova Nadja., Nine Midema. Indogermanische und ausserindogermanische Kontakte in Sprache, Literatur und Kultur. Taschkent, 2007, Seitye 123

3. Langenscheidt, Grösswörterbuch als Fremdsrache, Berlin und München2008. 660

4. Imyaminova Sh.S. Nibelunglar qo'shigi. Uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Nodirabegim" nashriyoti, 2021, 3-bet

5. Duden. Redewendungen. Band 11. Berlin, Dudenverlag, im Juli 2020, Seite 292

6.https://www.nibelungenmuseum.de/nibelungenmuseumwAssets/docs/ml_N_Nibelungenlied_Lehrmaterial

7.https://arxiv.uz

UO'K 82.091 + 82.0

VASILIY SHUKSHIN VA XAYRIDDIN SULTON ASARLARIDA KROSSOVER USULI HAMDA IJODKOR KONSEPSIYASI

Z.A.Haydarova, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Maqolada Xayriddin Sultonning "Ko'ngul ozodadur…" hamda Vasiliy Shukshinning "Xo'roz uch bor qichqirguncha" qissalari krossover usulida qiyosiy o'rganilgan. Har ikkala yozuvchining o'z davri uchun kerakli so'zni ayta olganligi muqoyasa qilingan.*

Kalit so'zlar: *krossover, fendom, internet matni, konseptual qarash, badiiy konsepsiya, adabiy sintez, maishiy illatlar, sarlavha.*

Аннотация. *В статье проводится сравнение рассказов Хайриддина Султана "Сердце чисто…" и Василия Шукшина "Пока петух не пропоёт три раза" с использованием метода кроссовера. Сравнивается способность обоих писателей выражать необходимые для своего времени слова.*

Ключевые слова: *кроссовер, фандом, интернет-текст, концептуальная точка зрения, художественная концепция, литературный синтез, повседневные пороки, название.*

Abstract. *The article compares the stories of Hayriddin Sultan's "The Heart is Clear..." and Vasily Shukshin's "Until the Rooster Crows Three Times" using the crossover method. The ability of both writers to express the necessary words for their time is compared.*

Keywords: *crossover, fandom, internet text, conceptual view, artistic concept, literary synthesis, everyday vices, title.*

"Xo'roz uch bor qichqirguncha" va "Ko'ngul ozodadur…"da har ikkala asar mualliflari krossover usulidan adabiy maqsadda foydalangan. Nisbatan yangi adabiy-nazariy tushuncha hisoblangan krossover ingliz tilidan kirib kelgan so'z bo'lib: kross – kesishmoq, o'tmoq, over – orqali, narigi tomonga ma'nolarini bildiradi. Krossover atamasining ma'nosi: kesishish, aralashish, bir sohadan ikkinchisiga o'tish degan tushunchani anglatadi.

Adabiyotshunos olima Zulfiya Pardayeva krossover atamasi ma'nosini soha lug'atida: "Krossover deb bir nechta original adabiy asarlar fendom (ma'lum bir yo'nalishning ashaddiy muxlislari, fanatlari – izoh bizniki Z.H)lariga oid personajlar qatnashadigan internet matni janriga aytiladi" [1;67], - deya izohlaydi. Soha mutaxassislari bu atama asosan media sohasida, internet tarmoqlarida ommalashganini e'tirof etishsa-da, badiiy asarlarda ham uchrashi kuzatiladi.

Adabiyotdagi birinchi mashhur krossover 1885-yilda Mark Tvenning "Geklberri Finning sarguzashtlari" romani bo'lib, unda Tom Soyer mehmon sifatida ishtirok etgan. [6]

Vasiliy Shukshin o'zining "Xo'roz uch bor qichqirguncha" ertak-qissasida bir necha asar qahramonlari bilan o'z badiiy niyati, maqsadini amalga oshirish uchun kutubxonada suhbat tashkil qiladiki, bu krossover usulining g'oyatda muvaffaqiyatli ko'rinishidir. Asarda Ivan tentak, Yalmog'iz kampir, uch boshli ajdar, Ilya Muromes, iblislar, kulmaydigan g'amgin malika kabi rus xalq ertaklari qahramonlari bilan birgalikda rus klassik adabiyoti qahramonlari Onegin ("Yevgeniy Onegin"), Chatskiy ("Aqllilik balosi"), Oblomov (Goncharovning "Oblomov"), Liza ("Bechora Liza"), Tortsov ("Kambag'allik ayb emas"), Akakiy Akakiyevich (Gogol "Shineli"), Ataman (Gogol "Taras Bulba") singari obrazlar muallif ijodiy konsepsiyasini yoritishga xizmat qilishadi. Shukshinning konseptual qarashlari uning o'ziga xos ana shunday badiiy kashfiyotida namoyon bo'ladi.

"Xo'roz uch bor qichqirguncha" qissasi sarlavhasi g'oyat muvaffaqiyatli tanlangan bo'lib u ramziy ma'noda inson o'z xatosini anglab yetguncha bo'lgan qisqa, ayni paytda o'ta muhim vaqtni anglatadi. Kutubxonada kitoblar bag'ridan chiqib kelib tentak Ivan bahona bahsga kirishgan rus mumtoz adabiyotining qahramonlari Onegin, Chatskiy, Oblomov, Bechora Liza, Akakiy Akakiyevichlar Shukshinning ijodiy konsepsiyasiga ko'ra o'zlari mansub bo'lgan muhitning ijtimoiy-axloqiy qiyofasini namoyon etadilar. "Xo'roz uch bor qichqirguncha" anglami aslida ularning har birisiga tegishli. Yozuvchi bu qahramonlar mansub hayotning badiiy modeli mohiyatidan kelib chiqib real hayotdagi o'z zamonasining qog'ozbozlik, majlisbozlik, loqaydlik, laganbardorlik, axloqan og'ish kabi ijtimoiy, axloqiy, maishiy illatlarini fosh etadi.

Xayriddin Sulton ham “Ko‘ngul ozodadur…” qissasida Shukshindan ta’sirlangan holda krossover usulidan ustalik bilan foydalanadi. Qissa pafosi bosh qahramon G‘ulom, Gulxaniy hamda uning “Zarbulmasal” asaridagi qushlarning o‘zaro suhbati asosiga qurilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Xayriddin Sulton ham qissada “tarixan cheklangan” Gulxaniyning etagidan tutgan, xuddi qushlar olamida yashovchi, zarofat bilan suhbatlashuvchi G‘ulom orqali davrning haqiqiy qiyofasini chizadi.

Ivan asarda hech qanday keragi bo‘lmagan ma’lumotnoma olish uchun yo‘lga chiqar ekan, yo‘lida uchragan to‘siqlar, qo‘rquvlardan bezib ketadi. Ana shu qo‘rquv va isyonning chegarasidan o‘tgach: “Nima “Vanka”, nima “Vanka!” – deb xitob qildi Ivan. – Namuncha vankalaysan? Doim kimdandir qo‘rqamiz, kimdandir cho‘chiymiz. Duch kelgan sirka o‘zini… bahaybat maxluq qilib ko‘rsatadi, sen esa qo‘rqib toshqotib turishing kerak. Qurbaqaniyam bossang “vaq” etadi! Bo‘ldi! Yetar endi! Jonga tegdi! – Ivan xarrakka bamaylixotir o‘tirdi-da, qamish surnayini olib, bir oz chaldi. – Ye, - dedi u labidan qamish surnayini uzib. – Yemoqchimisan? Ye. Gazanda”[4;124], - deya hayqiradi. Ivan soxta haybat, yolg‘on kuchlarning aslida juda mayda va keraksiz ekanligini anglaydi. Majburiyatlardan voz kechish istagi ortiq chidamasligiga ishora qiladi. Taslim bo‘lish yoqasida turgan Ivan tasviri orqali (u deyarli yalmog‘izning mo‘ylovli qiziga uylanishga rozilik bildirmoqchi bo‘ladi – ta’kid bizniki Z.H) to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotayotgan insonni uyg‘otishga harakat qilinadi.

“Xo‘roz uch marta qichqirguncha” - bu o‘ziga xos avtobiografiya. Taqdir taqozosi bilan, bu Shukshinning so‘nggi avtobiografik matni. Bu yerda u na jurnalistikasida, na “Ivan Popovning bolaligidan” avtobiografik siklida aytib bo‘lmaydigan narsalarni kodlagan bo‘lishi mumkin (aytgancha, u yerdagi avtobiografik qahramonning ismi ham Ivan). Ertakdagi Ivanning o‘zi, Shukshin. Ivan, ahmoq bo‘lib ko‘rinib, “shifrlamoqda” [5].

Rus adabiyotshunosligida ushbu asar ko‘plab o‘rganilgan bo‘lsa-da uning mohiyati, yozuvchi ijodiy konsepsiyasi to‘la yoritilmagan: “Vasiliy Belov uni “daho asar-vasiyatnoma”, Lev Anninskiy uni “g‘alati, allegorik tarzda yuklangan va chuqur falsafiy iztirobga to‘la, ajoyib ertak” deb atagan va Aleksey Varlamov uni “Shukshinning eng muhim va sirli asarlaridan bir”, “uning oxirgi vasiyatnomasi, gunohlarini tan olishi va vidolashuv vasiyatnomasi” [5], - deb ta’rif berishadi. Yozuvchi ko‘zlagan konseptual mohiyat uning o‘zligiga borib tutashadi.

Asarda go‘yoki Ivan, uning atrofida ro‘y berayotgan voqealar muallif shaxsiyatiga ishora qiladi. O‘rmon, monastir tasvirida haqiqiy dunyoda ro‘y berayotgan voqealarni ifodalaydi. Xayriddin Sulton esa Shodiyor va u bilan bog‘liq epizodlarda dunyoning aldamchi nayranglari suratini chizadi. Ilya Muromets Shukshinning, “Ko‘ngul ozodadur…” qissasida esa Gulxaniy G‘ulomning vijdoni sifatida tasvirlanadi.

“Ko‘ngul ozodadur…” qissasida G‘ulom Gulxaniyning Gogol va Andersen bilan birgalikda gulxan yoqib, atrofida suhbat qurishayotganligini ko‘radi. Bu tasvir asarda krossoverning eng kulminatsion nuqtasi bo‘la oladi. Boisi yuqorida nomlarini e’tirof etgan ijodkorlarning tasvir yo‘nalishi “kulgi orqali yig‘lash” nuqtasida tutashadi: “…Umuman, g‘aroyib manzara edi bu: tepada – yulduz to‘la osmon tevarak-atrofda – ufq qadar cho‘zilgan dala, o‘rtada – lovullab gulxan yonar, uning tegrasida olamning uch zukko donishmandi dunyoning ustidan kulib o‘ltirar edi”. [3;106]

“Xo‘roz uch bor qichqirguncha” asarida Yalmog‘iz Ivanga go‘laxlik qilishni taklif qiladi, ammo buni haqorat deb qabul qilgan Ivan uni olovga tashlashsayam kulgi orqali vaziyatdan chiqib ketadi. Demak, Ivan ham “dunyoning ustidan kulish” pozitsiyasidan boradi. Har ikkala asarda ham ijodkorlar Gogolning “ko‘z yoshlar orqali kulish” konsepsiyasini tanlagan. Qolaversa, “Ko‘ngul ozodadur…” qissasida yozuvchi “Mehrobdan chayon” romanidan adabiy sintez sifatida ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda foydalanadi. Asarda Gulxaniyga zamondosh shoirlar qumg‘on qaynatib, jiyda choy ichib o‘tirish sahnasini muallif “Mehrobdan chayon”dagi Anvarning Sultonali, Toyir qorovul bilan birga choyxo‘rligiga muqoyasa qiladi: “Men mana shuday gulxan yonida o‘ltirishni va shu holda choy ichishni juda yaxshi ko‘raman. Bu o‘ltirishning shoirona, darveshona bir ma’nosi bor. Shu gulxan hayoti hanuz mening esimdan chiqmaydi vas hu hayotga hamisha ko‘ngilda bir muhabbat saqlayman…” [3;79]

Gulxandan sachragan yog‘du o‘tmish va kelajakning yorug‘ kunlari emas, tolesiz qismat yog‘dusi ekanligi, Gulxaniy va Toyir qorovul (“Mehrobdan chayon”)ning yolg‘izlik bilan sirdoshligi ramzidir.

Ivanning Donishmanddan muhrni olib qaytishi kutubxonada oddiy holdek qabul qilinadi. Shukshin boshqalar uchun emas, o‘zligingni topish uchun yashashing kerak degan falsafiy konsepsiyani ilgari surganki, bunday qarash “Ko‘ngul ozodadur…” qissasida mantiqan davom etgan. G‘ulom ham soxta dunyo, soxta kishilar orasidan o‘zligini topa olmaydi, uning manzili gulxan yoqib, mayoq kabi chorlayotgan Gulxaniy, Gogol, Andersenlarning yonida.

“Xo‘roz uch bor qichqirguncha”da Ivan gunohga botib qaytganligini aytadi, qahramonlar Volgaga jo‘nashadi, ammo xo‘rozning uchinchi qichqirig‘i hammasini o‘zgartirib yuboradi. Farroshning xonaga kirishi, Ataman telpagining yerga tushib ketishi kutubxonadagi voqealar hali tugamaganligiga ishora qiladi. Qissa voqealarining tugallanmay qolishi go‘yoki asar qahramonlaridagi qusurlar, kamchiliklarning jamiyatda ham davrlar va zamonlar o‘tsa-da, yo‘qotib bo‘lmasligiga ishora qiladi.

“Ko‘ngil ozodadur…”da qismat qarshisida har bir inson ojiz ekanligi uqtiriladi. Ruhning dunyo tashvishlaridan chekinib, jism ustidan g‘alabasi nishonlanadi.

“Xo‘roz uch bor qichqirguncha”	**“Ko‘ngul ozodadur…”**
Rus xalq ertaklari va mumtoz asar qahramonlarining kutubxonadagi uchrashuvi	“Zarbulmasal”dagi qushlar va Gulxaniy bilan ma’naviy, xayoliy suhbatlar
Kitob qahramonlari Ivanga tentak laqabi borligini mudom eslatib turishadi. Dunyo kirdikorlarini sog‘lom pozitsiyada turib, muhokama qilish xavfli ekanligini Ivan yaxshi bilgan va tentaklikni o‘ziga niqob olgan.	G‘ulom ismining qul ma’nosi borligiga ishora beriladi. Insoniy va insofiy fazilatlarning chegarasidan chiqmaslik, itoatda bo‘lish, ularga nisbatan g‘ulomlik (qullik) maqomida bo‘lish, aslida, barcha qabihliklardan, vijdon azobidan xalos bo‘lish, ko‘ngil ozodligiga erishish ekanligini G‘ulom anglab yetgan.
Ilya Muromets obrazida insof, vijdon timsoli gavdalanadi	Jo‘lliboy aka qiyofasida samimiy, sofdil insonlar hisobiga hayot poydor ekanligi badiiy idrok etiladi
Shukshin o‘z asariga Karamzinning fojeiy qahramoni bechora Lizani aynan uning bechoraligiga urg‘u bergan holda shu sifat bilan o‘zgarishsiz olib kiradi. Ertak-qissada ham Liza o‘z his-tuyg‘ularining asirasi sifatida ko‘rsatiladi.	Hayot zarbalari oldida chorani o‘limdan topgan Qunduz ham fojeiy qahramon. Shodiyorlar dunyosi uni ham chorasizlikka uloqtirdiki, bu holatda Xayriddin Sulton qahramoni ham bechora Qunduz nomiga loyiq edi.

Xayriddin Sultonning Shukshin ijodiga bo‘lgan mehri, adib faoliyati bilan yaqindan tanish bo‘lganligini inobatga olsak, “Ko‘ngul ozodadur…” qissasini adabiy ta’sirlanish deya baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Пардаева З.Ж., Исаева Ю.П. Литературоведческий словарь-справочник новейших терминов и понятий (по Современному литературному процессу). – Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”. - 200 с.

2. Қосимов А. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: Академнашр. 2019.- 160 б.

3. Хайриддин Султон. Йўқчилик ва тўқчилик. Ҳикоялар, қисса, таржима. Тошкент. “Маънавият”. 2000.- 223 б.

4. Jahon adabiyoti. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal. 2021/1 (284). – 207 b.

5. Новый мир Журнал №5 2018 Сергей Горбушин, Евгений Обухов “До третьих петухов” как исповедьзавещание Василия Шукшина

6. https://en.wikipedia.org/wiki/Crossover_(fiction)

UO’K 811.512.1’374:82.09

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESOR ABDUQODIR HAYITMETOV TAVALLUDINING 100 YILLIGI OLDIDAN “DEVONU LUG‘OTIT TURK” USTOZ ABDUQODIR HAYITMETOV TALQINIDA

Sh.A.Hayitov, prof., f.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
M.B.Boymurodova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
ORCID 0000-0002-4290-6071

Annotatsiya. *Qadim turkiy she’riyat namunalarini ilmiy asosda chuqur o‘rganib, badiiy tasvir tamoyillarining rang-barang qirralarini ochib berish va shu asosda aniq nazariy xulosalar chiqarish*

professor Abduqodir Hayitmetov ilmiy tekshirish uslubiga xos xususiyat ekanligini dalillash ushbu maqolani yozishdan kuzatilan bosh maqsad hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'otit turk", VI-VII asrlar, XI asr, adabiy uslub, to'rtlik, yozma adabiyot, xalq og'zaki ijodi.*

Аннотация. *Главная цель написания данной статьи — доказать, что научный метод исследования профессора Абдукодира Хаитметова заключается в глубоком изучении образцов древнетюркской поэзии на научной основе, выявлении разнообразных аспектов принципов художественного изображения и формулировании на этой основе четких теоретических выводов.*

Ключевые слова: *Махмуд Кашгари, «Девону луғотит тюрк», VI-VII века, XI век, литературный стиль, четверостишия, письменная литература, народное устное искусство.*

Abstract. *The main goal of writing this article is to prove that the scientific method of research of Professor Abdukodir Hayitmetov is to deeply study the samples of ancient Turkic poetry on a scientific basis, to reveal the diverse aspects of the principles of artistic depiction, and to draw clear theoretical conclusions on this basis.*

Key words: *Mahmud Kashgari, "Devonu lug'otit turk", VI-VII centuries, XI century, literary style, quatrains, written literature, folk oral art.*

Kirish. Filologiya fanlari doktori, professor, ikki marta Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori ustoz Abduqodir Hayitmetovning tadqiqotlarida "Devonu lug'otit turk" XI asrning eng qimmatli yodgorligi, uning muallifi Mahmud Koshg'ariy esa "Turkiy xalqlarning atoqli bilimdoni" sifatida talqin qilinadi. Ustoz adabiyotshunos g'oyatda zukkolik bilan to'rt so'zdan tarkib topgan ifodada Mahmud Koshg'ariy fanning bir necha sohasida kamolot kasb etgan qomusiy olim ekanligini ilm ahliga uqtira olgan. Alloma ustoz "Mahmud Koshg'ariy o'sha davr yozma va og'zaki adabiyotini ham juda mukammal bilar edi" [3;138], – degan ta'rif bilan esa o'zining yuqoridagi fikrini yana-da kuchaytirgan. Folklorshunos va adabiyotshunos, geograf, botanik, zoolog, elshunos (etnograf), tarixchi olim (B.To'xliyev) Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad serqirra ilmiy faoliyatining muhim tarmoqlari ekanligiga o'quvchi e'tiborini tortgan. Ustozning "Qadim turkiy she'riyat haqida (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"i materiallari asosida)" nomli salmoqli maqolasida "Devon" muallifining she'rshunoslik, adabiyotshunoslik faoliyati chuqur asoslangan. Badiiy so'z, uning qonun-qoidalari, xos xususiyatlari va estetik vazifasiga doir tamoyillaridan mukammal xabardor bo'lgan atoqli olim, eng avvalo, "Devonu lug'otit turk"ning tarixiy va adabiy ahamiyatiga yuqori baho beradi: "Uning "Devon"i qadim turkiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy mazmunini o'rganish uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Bu yodgorlik turkiy xalqlar adabiyoti tarixining butun bir davri, butun bir bosqichiga yakun yasagan" [5;138].

Ustoz Abduqodir Hayitmetov o'zbek she'riyatidagi adabiy uslublar masalasi va ayni muammoni adabiyotshunoslik tarixi metodologiyasi nuqtayi nazaridan ilmiy tekshirib, nozik nazariy kashfiyotlar qilgan olim [4;3-10].

Atoqli olimning fikricha, "Devonu lug'otit turk"dagi to'rtliklar "professional shoirlar"ning she'riyatidan namuna bo'lib, "Mundarijasi va badiiy uslubiy xususiyatlarining rang-barangligi bilan bu she'rlar o'z ijodkorlarining yuksak badiiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lganlaridan dalolat beradi." [3;138]. "Devonu lug'otit turk"ning 1961–1963-yillarda Solih Mutallibov tomonidan amalga oshirilgan nashri va uning "Izoh"lar qismini sahifama-sahifa, so'zma-so'z, harfma-harf sinchiklab o'rgangan olim "Mahmud Koshg'ariy u yoki bu to'rtlikning ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilganini aniq ko'rsatadi. Lekin taassufki, bu she'r avtorlarining nomini hech qayerda aytmaydi" [3;138],- deb qayd qiladi. Ustoz Abduqodir Hayitmetovning „Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlar'', "Navoiy lirikasi", "Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari", "Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan", „Navoiy dahosi'', "Hayotbaxsh chashma", „Tabarruk izlar izidan'', „Meros va ixlos'', "Navoiyxonlik suhbatlari", "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti", „Adabiy merosimiz ufqlari'' kabi fundamental tadqiqotlarida o'zbek, fors-tojik, umuman, turkiy xalqlar va Sharq adabiyotining juda ko'p masalalari haqqoniy va halol, tarixiy jihatdan to'g'ri talqin qilingan. Xuddi shunday aniqlik va tiniqlik olimning Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga

munosabatida ham yorqin nazarga tashlanadi. "Devon" tarkibidagi to'rtliklar bilan chuqur tanishgan olim Mahmud Koshg'ariy u yoki bu shoir asarlarining qo'lyozma manbalaridan foydalanganmi yoki o'sha she'rlarning og'zaki holatda yetib kelgan namunalaridanmi?- degan savolga javob izlaydi. "Devon" muallifi ifodasidagi har bir so'z, har bir iborani nazardan o'tkazadi, g'oyatda ehtiyotkorlik va andisha bilan o'z mulohazasini o'quvchi bilan baham ko'radi: "Shunga qaramay, biz Mahmud Koshg'ariy o'z "Devoni"ni tuzishda IX – XI asrlarda turkiy xalqlar orasida tarqalgan va qo'llangan qadim runiy, uyg'ur va arab xatlaridagi yozma manbalardan foydalangan, deb taxmin qilamiz" [3;139].

Tadqiqot metodi. Zukko olimning qadim turkiy adabiyot obidalariga ixlosi va e'tibori xalqimiz ma'rifati va madaniyatining ildizi chuqurligi, qadim tarixining qudrati, mustahkamligi va hayotbaxshligiga komil ishonchi ramzidir. Shuning uchun ham "Qadim turkiy she'riyat haqida" sarlavhasi ostidagi maqolasi o'rin olgan turkum tadqiqotlari jamlangan kitobi "Hayotbaxsh chashma" nomi bilan atalgan. Undan o'qiymiz: "Ma'lumki, O'rta Osiyoda istiqomat qilgan turkiy xalqlarning kattagina qismi XI asrdayoq o'troq hayot kechira boshlagan edi. Bu esa ularning umumiy madaniy hayotga yaqinlashuviga, ular orasida ham ilm va madaniyatning rivojlanishiga qulay sharoit tug'dirgan. Turk qavmlarining o'z ziyolilari yuzaga kelib, ularning ilg'or tilaklarini ro'yobga chiqa boshladi, kishilari bilim cho'qqilarini egallashga intilar edilar. Bu hol she'riy ijodda ham o'z aksini topdi" [3;139]. Ustoz A.Hayitmetov o'z fikrlarini asoslash uchun "Devonu lug'otit turk"dan bir necha to'rtliklarni misol tariqasida keltiradi. Ahamiyatiga ko'ra, ulardan birini ko'chiramiz:

Kuchandi bilagim,
Yag'udi tilagim.
Telindi bilagim,
Tegrup angar yirtilur.
(Bilagimga kuch keldi
Tilaklarim ro'yobga chiqa boshladi,
Bilimlarim ko'paydi,
Biroq umr tugab qoldi).

"Devonu lug'otit turk"dan ko'chirilgan to'rtlik , professor A. Hayitmetov tomonidan quyidagicha tahlil qilingan: "Bu o'rinda gap o'sha davr odamlarining faqat aqlini emas, ko'p jismoniy kuch ham sarflab, mehnat-mashaqqat chekish hisobiga bilim olganlari, shunday bo'lsa-da, ularda ilm-ma'rifatga intilish kuchli bo'lgani ustida bormoqda" [3;140]. Ustoz talqinlari g'oyatda umrboqiy. Ular hech qachon eskirmaydi, dolzarbligini yo'qotmaydi. Ilm kishilari va ilmiy tadqiqotlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgan Istiqlol davrida har bir kunni qadriga yetish, yaratilayotgan imtiyozlardan samarali va tizimli foydalanishga rag'batlantiradi.

"Devonu lug'otit turk" tarkibidagi to'rtliklar nazm durdonalarini qadimiy ajdodlarning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli deb bilgan olim chuqur mushohada va mantiq kuchiga tayanib, "Devon"da berilgan ba'zi adabiy parchalar ildiz mohiyati bilan VI-VII asrlarga taalluqlidir, degan xulosaga keladi: "XI asrda turkiy xalqlar orasidan Mahmud Koshg'ariydek yuksak bilimdon olim yetishib chiqqanligining o'zi ham bu davrda ma'lum bir ziyolilar va olimlar doirasi bo'lganligidan dalolat beruvchi muhim bir faktdir. Bu esa bizga turkiy xalqlarda yozma adabiyot XI asrdan ancha oldin – VI-VII asrlardan boshlab bo'lgan deyish uchun asos beradi" [3;140]. "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan she'riyat namunalarini qiyosiy usulda sinchiklab o'rgangan olim badiiy ijodda tipologiya, xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiyotning o'zaro ta'siriga doir nazariy masalalarni sodda va samimiy til bilan o'quvchiga tushuntiradi: "Ayrim ijodkorlar tomonidan yozilgan va "Devon"dan o'rin olgan to'rtliklarning badiiy-she'riy xususiyatlarini xalq qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodiga oid deyish mumkin bo'lgan asarlarning shu xil xususiyatlari bilan qiyoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular deyarli bir xil badiiy-she'riy prinsiplar asosida yaratilgan. "Devon"dagi bu har ikki tip ijodga tegishli she'rlar, umuman, turkiy xalqlarning, shu jumladan, o'zbeklarning hozirgi vaqtda bizga ma'lum og'zaki ijodiga, xususan, qo'shiqlariga juda yaqin" [3;141].

Ustoz adabiyotshunosning chuqur ishonchiga ko'ra, aynan mana shu – badiiy ijodning ikki shakli o'rtasidagi uyg'unlik qadim turkiy she'riyatni xalq hayotiga yaqinlashtirgan. Turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan shoirlarni o'z qabilasi va xalqining his-tuyg'ularini, ma'naviy dunyosini

she'riy til bilan xalqchil va realistik uslubda tasvirlashga, inson ruhiyatidagi holatlarni aniq yoritishga, haqqoniy hayotiy lavhalar yaratishga asos bo'lgan: "Demak, bundan biz turkiy xalqlarning yozma adabiyoti qadimda xalq og'zaki ijodi bilan juda hamovoz bo'lib, uning an'analarini, o'ziga xos badiiy fikrlash xususiyatlarini o'zlashtirgach, xalqchillik va realistik tasvirning ko'zga yorqin tashlanib turgan belgilarini ifodalagan, deb xulosa chiqara olamiz" [3;141]. Har bir davr adabiyotini ilmiy asosda chuqur o'rganib, badiiy tasvir tamoyillarining rang-barang qirralarini ochib berish va shu asosda aniq nazariy xulosalar chiqarish ustoz Abduqodir Hayitmetov ilmiy tekshirish uslubiga xos xususiyat. Ustoz talqinicha, "Devon"dagi nazm namunalari o'rta asr she'riyatiga xos xayoliy kinoya va majozlardan, o'sha zamon ijodkorlari qasidalariga xos dabdabali, balandparvoz iboralardan mutlaqo xoli. Bunday she'rlar qadimgi ajdodlarimizning sinchkov nigohi, chuqur hayotiy kuzatishlari mahsuli bo'lib, kishilik jamiyatining eng haqqoniy, amaliy, hayotiy muammolari bilan mustahkam bog'liq. Ularda zakiy ajdodlarimizning turmush tarzi, urf-odatlari, hayot lavhalari, kundalik mashg'ulotlari, ishonch-e'tiqodlari samimiy va sodda talqinda ifodasini topgan.

Muhokama. Qadim turkiy she'riyat namunalarida kuzatilgan soddalik va aniqlik, fikr va tuyg'ular ifodasidagi samimiyat, ochiqko'ngillilik va rostgo'ylik har qanday o'quvchini hayratda qoldiradi. Ustoz olim tahlilga tortgan va ilmiy mushohadadan o'tkazgan "Devonu lug'otit turk"dagi she'rlarning mavzulari va ularning mohiyatida turgan g'oyaviy yo'nalishlarini alohida-alohida holda quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tabiat lavhalari tasviri;
2. Nozik ruhiy holatlar, insoniy his tuyg'ular madhi;
3. Dushmanlar bilan kurash, kindik qoni tomgan zamin sarhadlarining daxlsizligini ta'minlash;
4. Ijtimoiy ziddiyatlar tasviri;
5. Hayot mohiyati haqida o'ylar;
6. Oliyjanoblik va mardlikni ulug'lash;
7. Ochko'zlik va qo'rqoqlikni qoralash;
8. Pastkashlik va tubanlikdan nafratlanish.

"Devonu lug'otit turk" tarkibidagi ayrim to'rtliklar ijtimoiyligi, ularda ijtimoiy foydali mehnat mezon qilib olinganligi bilan e'tiborni tortadi. Xalqimizda "Yosh kelar ishga, qari kelar oshga" degan maqol bor. Ustoz A. Hayitmetov "Devon"dan tahlilga tortgan yozma adabiyot namunalaridan biri shu xalq hikmatiga ishora qilish bilan boshlangan. Yoshlik, yigitlik – umr gulshanining bahori (Navoiy). Yigitlar raiyat, fuqaro, ulus vujudiga qudrat, jamiyat tomirlariga quvvat bag'shlaydi. Vatan osmonining musaffoligi uchun mard yigitlarning jasorati qanchalik zarur bo'lsa, oddiy tirikchilik tarzida g'arq pishgan mevalarni to'kmay-sochmay, nobud qilmay yig'ishtirib olishda qo'l-oyog'i chaqqon yigitlarning xizmatiga hamisha ehtiyoj sezilib turadi. Olimlarning aniqlashlaricha, moddiyatning tadrijiy takomili qonuniyati natijasida bundan uch millard yil ilgari yerda hayot vujudga kelgan. Ibtidoiy inson faoliyati ov qilish, baliq tutish bilan boshlangan. Ovchilik qulon, kiyik ovlash qadim-ul ayyomdan turkiy xalqlarning turmush tarzidan keng o'rin olgan. Shundan bo'lsa kerak, xalqimizning qo'shiq va dostonlarida ov lavhalari tasviriga yo'naltirilgan badiiy parchalarga tez-tez duch kelamiz. Qadimgi ajdodlarimizdan qolgan eski qo'lyozmalarda ov va ov qilish san'ati haqida qimmatli fikrlar yozib qoldirilgan. Mahmud Koshg'riyning "Devonu lug'otit turk" asari shunday mo'tabar manbalardan biridir:

Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yemish irg'atu,
Kulan, keyik avlatu,
Bezram qilib avnalim.

(Yigitlarni ishlatamiz,
Daraxtlardan mevalarni terdiramiz,
Qulon, kiyiklarni ovlatamiz,
So'ng bayram qilib o'ynaymiz).

Ustoz Abduqodir Hayitmetov mazkur to‘rtlikni “kundalik hayot, mehnat shodligi haqida so‘z yurituvchi ajoyib to‘rtlik” sifatida talqin qiladi.

Bahor – fasllar kelinchagi, yashash va yasharish fasli. Bahor tufayli qir-adirlar, bepoyon yaylovlar, tog‘ cho‘qqilari, maysalar, chechaklar, ko‘katlar, giyohlar bilan bezanadi. Sabza rang bilan bezangan yashil poyandoz eski yildan qolgan quruq o‘t-o‘lanlarni, xas-xashaklarni, o‘z bag‘riga olib yashiradi. Bahor tufayli tabiat gullarga burkanadi. Yigit va qizlar qalbida ishrat gullari ochiladi. Bahor, Navro‘z, Gul – mohiyatan biri-biridan ajralmas, biri-birini taqozo qiladigan nafis uchlik. Shu go‘zal uchlik sharofatidan qorong‘u dillar yorug‘lik kasb etadi. Har bir yurak zavq-u sururga to‘ladi. Bahor ko‘ngillarga pokiza tuyg‘ularni olib kiradi. Qalbga keng ma’noda pok ishq tug‘yonini soladi. Bashar avlodi tomirlaridagi qonni yangilaydi. Inson vujudida go‘zallikka, ezgulikka moyillik paydo qiladi. Xuddi shunday holat butun borliqda, jumladan, hayvonot va nabotot olamida ham kuzatiladi. “Devonu lug‘otit turk”dan o‘qiymiz:

Alïn tÿbÿ jashardï
Urut otïn jashurdï
Könің suwin kÿshärdi
Sig‘ir buka mÿңrashÿr.

“Bahorni ta’riflab yozadi: tog‘ cho‘qqilari ko‘katlar bilan ko‘m-ko‘k bo‘lib yashardi, qurigan o‘tlarni yangi o‘tlar qoplab, yashirib yubordi, ko‘llar suvga to‘lib, hatto toshayozdi. Sigir, buqalar sevinishib ma’rashadi” [7;83].

O‘z uslubi va tasvir tamoyillariga ko‘ra, “Devonu lug‘otit turk”da bahor fasli qalamga olingan to‘rtliklar bir-biridan nozik farqlanadi. Bu holat “Devon”da keltirilgan bahor tavsifiga bag‘ishlangan she’rlar bir ijodkor adabiy me’rosidan emas, turk qavmlarining boshqa-boshqa shoirlari ijodidan tanlanib, “Devon”ga kiritilgan, degan xulosaga olib keladi. Har bir tadqiqotchi adabiy manbaga o‘z nuqtayi nazari, o‘z adabiy-estetik qarashlari tamoyilidan kelib chiqib yondashadi. Ustoz Abduqodir Hayitmetov “bahorning kelishi g‘oyatda jonli hamda chiroyli, rang-barang ko‘rinishlari bilan gavdalantirilgan”ligiga o‘quvchi e’tiborini qaratar ekanlar “Devonu lug‘otit turk”dan quyidagi to‘rtlikni kitobxon hukmiga havola qiladilar:

Yashin aytib yashnadi,
Tuman turub tushnadi.
Azg‘iz, qisir kishnadi,
O‘gur alib o‘qrashur.

(Chaqmoq otilib chaqnadi,
Bulutlar qo‘zg‘alib yura boshladi.
Ayg‘ir va biyalar kishnashib ketdi,
Hammasi davra olib o‘ynashardi) [3;142-143].

Akademik Aziz Qayumov bahor – yasharish, uyg‘onish, yangilanish fasli sifatida “Devon”dan joy berilgan qadimiyat obidalarida talqin qilinganligiga dalil qilib quyidagi to‘rtlikni keltiradilar:

Yag‘mur yag‘ub sachildi,
Turluk chechak suchuldi,
Yinju kabi achildi,
Chindan yipar yug‘rushur.
(Yomg‘ir yog‘ib sochildi,
Turli chechaklar kiyimlarini tashladilar.
Yomg‘irning yog‘ishi bilan inju qoplari ochilgan kabi bo‘ldi.
Tuproqlar chindan-da “yipor” (mushk) bilan yo‘g‘rilmoqda).

Jon tomirlari urug‘chilik tuzumiga borib taqaluvchi yil fasllari talqini turkiy she’riyatda asrlar osha sayqal topdi. Har bir fasl – bahor, yoz, kuz, qish – fazilat timsoliga aylandi. Qadimgi ajdodlarimiz almashinib turuvchi yil fasllarida ezgulik va yovuzlik qutblarini ham ko‘rdilar. Ular ruhiyatida paydo bo‘lgan yil fasllari bilan aloqador bir-biriga qarama-qarshi tuyg‘ular badiiy tafakkur olamida munozara janrining shakllanishiga asos bo‘ldi:

Qish yoy bila to‘qushti,

Qinir kuzunug‘ boqishti,
Tutushqali yaqishti,
Utg‘olimat o‘g‘rashur.

[Qish yoz bilan to‘qnashdi, bir-birlariga yomon ko‘z bilan qarashdi. Ular bir-birlarini yengishga, yutishga tirishar edilar].

Qish yoyg‘iru suvlanur,
Er at manin yavruyur.
Iklar yema savruyur,
At yin taki tagrishur.

[Qish yozga qarshi baqirib-chaqirib so‘zga boshladi: Odamlarni ham, ko‘ra mollarni ham menda etlari pishadi, badanlari mustahkamlanadi. Menda kasal kamayadi. Odamlarning go‘shtlari qotadi, o‘zlari quvvatlanadilar] [11;15-16].

“Devonu lug‘otit turk”ning sahifalarida muhrlangan yil fasllari talqini asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tib, badiiy ijod olamida sayqal topdi. Sharq faslnomasining muhtasham, mustahkam, qudratli obidasi qad ko‘tardi. “Devonu lug‘otit turk”dagi “g‘oyat jonli hamda chiroyli” (Abduqodir Hayitmetov), badiiy mushohadalarning mantiqiy davomi, yirik umumlashmasi sifatida Yusuf Xos Hojib (“Bahor qasidasi”), hazrat Alisher Navoiy kabi (“saraton”(Yoz), “Bahor” (“Ko‘klam”), “Xazon” (“Kuz”), “Day” (“Qish”) kabi yirik ijodkorlarning yil fasllari manzaralarining badiiy inkishofiga bag‘ishlangan asarlari dunyoga keldi…

Ishq-u oshiqlik – Odam Atodan meros. U qadimul - ayyomdan inson hayotining asosi, harakatlantiruvchi kuchi sifatida badiiy so‘z san’atiga doimiy hamrohlik qiladi. Inson kalomiga ilohiy, mo‘jizaviy qudrat bag‘ishlaydi. Badiiy so‘z ishq nuri bilan yoritilmasa, jonsiz tanaga, gul va rayhonsiz chamanga, nursiz shamga, boshliqsiz to‘daga o‘xshab qoladi: “Va koinot bozorining g‘avg‘osi va unsuriyot chorsusining alolosi bu takallum va tarannum biladur va munsiz inson kalomi tanedur jonsiz va bashar alfoz va iboroti chamanedur gul-u rayhonsiz. So‘zkim, dard choshnisidin harorati bo‘lmag‘ay, nursiz sham’ bil va sarvarsiz jam’ gumon qil” [10;63].

Ustoz Abduqodir Hayitmetov talqinicha, “Qadim turkiy she’riyatning realistik xususiyatlari ishqiy tuyg‘ular tasvirida” hammadan yorqinroq nazarga tashlanadi:

Yalvin aning ko‘zi,
Yelgin aning o‘zi,
To‘lun, ayin yuzi,
Yardi mening yurak.

(Uning ko‘zlari (naqadar) sehrli
(Lekin) uning o‘zi mehmon,
Yuzi to‘lin oyga o‘xshaydi,
(Ko‘rganimda) mening yuragimni yordi) [3;143-144].

“Devonu lug‘otit turk” tarkibidagi to‘rtliklarda badiiy tajassumini topgan hayotiy hodisalar, urf-odat, mavsum-marosimlar, purma’no hikmatlarni hofizada tutib, sinchiklab nazardan o‘tkazgan olim qadim turkiy she’riyatning janr nuqtayi nazardan g‘oyatda boy bo‘lganini va badiiy saviyasining yuksakligi bilan ajralib turganligini alohida qayd qiladi. “Devonu lug‘otit turk”dagi adabiy parchalarda o‘z aksini topgan ijtimoiy-hayotiy, falsafiy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy masalalar mohiyati, ulardagi mazmun, obraz va tasviriy detallarning imkon qadar real hayotdan olinganligi, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a kabi she’riy san’atlarning rang-barangligi, mantiqan asoslanishi, badiiy g‘oyani ochishdagi o‘rni va ahamiyati, misralarning lafziy nazokati va jozibasi tajribali olimni quyidagi xulosaga olib kelgan: “Yana shunisi diqqatga sazovorki, turkiy xalqlar (o‘zbek, uyg‘ur, ozarbayjon, turk, turkman)ning o‘rta asr she’riyati o‘z ildizlari bilan shu qadim turkiy adabiyotga borib taqalgan bo‘lib, uning eng yaxshi badiiy an’analarini o‘ziga qabul qilgan, ularni rivojlantirgan. «Devon»dagi lirik she’rlarni XV-XIX asr o‘zbek lirikasi bilan qiyoslaganda, bunga ishonch hosil qilish qiyin emas” [3;145].

Ustoz Abduqodir Hayitmetov Mahmud Koshg‘ariy “Devon”idagi quyidagi to‘rtliklar bilan o‘rta asr o‘zbek ishqiy she’riyati o‘rtasida hamovozlik, hamohanglik tuyadi:

Bulnar meni ulas kuz,
Qara mengiz, qizil yuz.
Andin tamar tukal tuz,
Bulnap yana ul qachar.

(Asir qildi meni yorning xumor ko'zi,
Qora xoli-yu qip-qizil yuzi.
Uning yonoqlaridan shirinlik tomib turganday
U (o'ziga) asir qilib, yana qochib ketadi).

Yig'lab uzu artadim,
Bag'rim boshin qartadim.
Qachmish qutug' irtadim,
Yag'mur kuni qan sachar.

(Yig'lab sevgilimni tinmay qidirdim,
Bag'rimning yarasini yangiladim.
Qochgan baxtimni istadim,
Ko'zimdan yomg'irday qon sochiladi).

Akturta ko'zum yo'laq,
Tushlanur o'rdak yug'aq.
(Ko'zimning yoshlari buloqday oqadi;
Unda o'rdak va suv qushlari sho'ng'ishadi.)

"Meng" so'zi va tushunchasi bilan bog'langan quyidagi to'rtlik ham juda xarakterli:

Bering menga so'z kiya,
Menglig qara tuz qiya.
Yalvin tutar kuz kiya;
Mungum mening bilinga.
(Menga bir martagina va'da ber,
Ey qora xol, yoqimli yuz,
Sehrli ko'zlari bilan ov tutadigan!
Mening (sevgidagi) alamlarimni tushungin) [3;145-146].

Ustoz olimning qat'iy xulosasiga ko'ra, "Devonu lug'otit turk"dagi bunday badiiy timsollar keyinchalik o'zbek adabiyotining salmoqli qismini tashkil qiluvchi o'rta asr ishqiy lirikasida an'anaviy (traditsion) obrazlarga aylanib qoldi. Zakiy ajdodlarning umr bo'yi qalbida ardoqlab yurgan hayot saboqlarini, pand-u hikmatlarini yig'ib, ma'naviy ehtiyoj yuzasidan avlodlarga yetkazish zarurati turkiy qavmlar hayotining barcha davrlarida kuzatilgan. Turkiy xalqlar adabiy merosida keng o'rin tutgan va bevosita jamiyat a'zolarining axloqiy kamoloti yo'lida xizmat qiladigan bunday o'gitnomalar turkiy xalqlar orasida qadimdan keng tarqalgan va sevib o'qilgan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlar izohi uchun keltirgan adabiy iqtiboslarning salmoqli qismini didaktik yo'nalishdagi she'rlar tashkil etadi. "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan didaktik mazmundagi nazm durdonalarining qadimgi ajdodlarimiz hayotiga dadil kirib kelishi va ularning ma'naviy hayotidan keng o'rin olishi atoqli olim Abduqodir Hayitmetov tomonidan teran asoslangan: "Bu hol esa, shubhasiz, jamoa yoki urug' boshlig'ining, kattalar va obro'li kishilarning so'zi boshqalar uchun qonun bo'lgan urug'chilik jamoasi hamda feodal-urug'chilik tuzumi xarakteri bilan ma'lum darajada aloqadordir" [3;144].

Ustoz Abduqodir Hayitmetov – umumlashtirish salohiyati g'oyatda baland olim. Atoqli olim tadqiqotidan ko'chirilgan yuqoridagi iqtibos o'zbek mumtoz adabiyotidagi pandnoma janri ildizi benihoya chuqur ekanligi haqida ham yetarli tassavur hosil qiladi. "Devonu lug'otit turk"dagi didaktik she'rlarning mundarijasi ulardagi ma'rifiy-tarbiyaviy,axloqiy-ta'limiy muammolar mohiyati

va ko‘lami ustoz adabiyotshunosning tadqiqotida ixcham hamda aniq yoritilgan: “Devon”dagi didaktik she’rlarning aksariyati gumanistik yo‘nalishda bo‘lib, ularda kishilardagi salbiy xususiyatlar qoralanadi, oliyjanoblik, yaqinlariga mehribonlik, mehmondo‘stlik, mehmonga nisbatan hurmat va saxiylik tashviq etiladi. Ularda bilim olishga, ongni o‘stira borishga bo‘lgan chaqiriq baralla yangrab turadi. Quyidagi kabi misollar bu fikrlarning isboti bo‘la oladi:

O‘ch, kek qamug‘ kishining yalinguq uza alim bil,
Ezgulugut ag‘ancha eliging bila telim qil.
(O‘ch, kek degan narsalar odamlarga qarz kabi bir narsadir,
Buni bil-da, kuching yetguncha qo‘ling bilan yaxshilik qil.)
Alg‘il o‘gut mendin, o‘g‘ul erdam tila,
Bo‘yda ulug‘ bilga bo‘lub, bilging ula.
(O‘g‘il, mendan o‘git ol, fazilat tila,
El-yurt orasida ulug‘ olim bo‘l, ilmingni yoy)” [3;144].

Ijodiy metod va u bilan aloqador tarixiy sharoit taqozosi bilan yuzaga kelgan voqelik hamda unga bo‘lgan g‘oyaviy - estetik munosabat, badiiy tasvir tamoyillari, vositalari va umumlashmalarini teran anglash salohiyatiga ega bo‘lgan olim “Devonu lug‘otit turk” tarkibidagi adabiy parchalarning chuqur hayotiy asosga ega ekanligi, xalqchilligi haqida yozadi: “… qadim turkiy she’riyat kundalik hayot bilan chambarchas bog‘langan. U odamlarni yomonlikni yengishga, mehnatga, aql asosiga qurilgan, oddiy insoniy shodliklar bilan to‘la tinch hayotga da’vat etar edi. “Devon”dagi ikkiliklardan birida o‘qiymiz:

Bo‘lsa kiming altun, kumush irla etar,
Anda bo‘lub Tengri bukuru tag‘in o‘tar.
(Kimning oltin, kumushi bo‘lsa, uy-joy quradi.
Joydan xotirjam bo‘lgach, u yerda Xudoga ibodat qiladi)” [3;147].

Zakovatli ajdodlarimizning ming yillar davomidagi hayot saboqlari zaminida dunyoga kelgan “Avesto” sahifalaridan o‘qiymiz: “ – Ey Mazda! Haqiqatda, yaxshilikdan ogohlar, so‘zsiz seningda fazlingdan ogoh bo‘lgaylar” [2;16]. Birinchi qo‘shiq (goh) Yasna 34-hotdagi mazkur hikmat g‘oyasi Ikkinchi qo‘shiq, Ushtavad goh, Yasna 43-hotda yana-da yorqinroq ifodasini topgan: “O‘zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi” [2;18]. Ustoz Abduqodir Hayitmetovning qat’iy xulosasiga ko‘ra, “Devonu lug‘otit turk”dagi ko‘pgina she’rlar o‘lmas ma’naviy yodgorlik “Avesto” “ruhi bilan sug‘orilgan” [3;144-145]. “Devon”dagi she’rlarning lirik qahramoni hamisha ezgulik tarafida turadi va yovuzlikka qarshi keskin kurash olib boradi. Hayotni, mehnatni sevadi, mehnatni ulug‘laydi, ma’rifatga intilib yashaydi. O‘z xalqining o‘y-fikri, g‘am tashvishi bilan yashash, el-yurtning insoniy shodliklarga to‘la tinch hayoti uchun kurashish qadim turkiy she’riyatning asl intilish nuqtasidir: “Qadim turkiy lirik poeziyaning ijtimoiy-siyosiy ideali shunday. Uning qahramoni o‘z xalqining o‘y-fikri, g‘am tashvishi bilan yashaydi. U hammaga tinchlik istaydi va shuning uchun ham nihoyatda mehmondo‘st” [3;147]. Yaxshilikni ulug‘lash, yaxshilikka da’vat, hatto “Suv icharmasga sut ber” kabi xalq maqollari orqali yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, kabi ma’no “Devonu lug‘otit turk” tarkibidagi she’riyat namunalarida qanchalik keng o‘rin tutsa, mehmondo‘stlik, mehmonning hurmatini yuksak darajada joyiga qo‘yish ham unda keng targ‘ib qilinadi. Mehmonga nisbatan beparvolik, unga yetarli e’tibor va hurmat ko‘rsatmaslik esa qattiq qoralanadi:

Bardi eran qo‘nuq, ko‘rub qutqa saqar,
Qaldi yavuz uyuq, ko‘rub evni yiqar.

Xulosa. Har qanday mehmondo‘stlikning zamirida saxiylik, bag‘rikenglik turadi. Hazrat Alisher Navoiyning “Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari” [10;79] satrlarini qayta-qayta o‘qib, ilmiy mushohadadan o‘tkazgan ustoz Abduqodir Hayitmetovga “Devon”da keltirilgan ajdodlarimizning “Anuq o‘tru tutsa, yo‘qqa sanmas”, “Uma (mehmon) kelsa qut kelar” kabi xalq maqollari, to‘rtliklarda talqin qilingan mehmondorchilik urf-odatlari, ana’nalariga doir ko‘rsatmalar g‘oyat ma’qul kelgan. O‘zi ham tabiatan saxovatpesha, bag‘rikeng, insonning “ko‘ngil Ka’basi”ni (Navoiy) hamma narsadan ustun qo‘yadigan ulug‘ ustoz

ajdodlarimizning mehmondo‘stlik madaniyati va bu oliy fazilatning qadim turkiy she’riyatdagi ifodasi haqida quyidagi quyma mulohazalarni bitadi: “ U har qanday mehmonni, kim va qayerdan bo‘lishiga qaramay yaxshi kutib oladi. Chunki bu she’rlarda mehmon baxt va farovonlikning ramzi sifatida talqin etiladi. Mehmonni sevmagan kishi jamiyatdagi asosiy xulq-axloq qoidalarini buzgan bo‘ladi. Bunday odam har qanday ta’naga loyiq” [3;147].

Uzoq yillar davomida mumtoz adabiyot muammolari bilan shug‘ullangan sharq she’riyatining ijodiy metodi masalalari, badiiy-tasviriy prinsiplari, poetikasi haqida fundamental tadqiqotlar yaratgan atoqli olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibidagi she’riyat namunalarining mavzu-mundarijasi, adabiy-ijtimoiy mavqeyi haqida muhim nazariy xulosani bayon qilish bilan o‘z bitiklariga nuqta qo‘yadi: “Qadim turkiy she’riyatning umumiy mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini turkiy xalqlarning ma’lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti asosida paydo bo‘lgan ijtimoiy va estetik ideallari belgilab beradi” [2;148].

Xullas, ustoz Abduqodir Hayitmetovning “Hayotbaxsh chashma” maqolalar to‘plamidan o‘rin olgan “Qadim turkiy she’riyat haqida” sarlavhasi ostidagi tadqiqoti zakiy olim tasavvuri va tafakkuri tuhfa etgan qimmatli ilmiy-ijodiy ishdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2010-2020-yillarga mo‘ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2010-yil 7- oktabrdagi 222-son Farmoni // www.lex.uz.

2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 450b.

3. Hayitmetov.A. Hayotbaxsh chashma. – Toshkent: Fan , 1974. – 360b.

4.Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1970. – 330 b.

5. Hayitmetov A. Qadim turkiy she’riyat haqida (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”i materiallari asosida. – Hayitmetov A. Hayotbaxsh chashma. Maqolalar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1974. – 300b.

6. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. 1-tom, -Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1960. – 500 b.

7. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. 2-tom,-Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti ,1961. – 428 b.

8. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. 3-tom,-Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti ,1963. – 467 b.

9. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Turkiy so‘zlar devoni. S.Mutallibov tarjimasi asosida qayta ishlangan, to‘ldirilgan, o‘zgartishlar kiritilgan mukammal nashri. Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.- 484 b.

10. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. –Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.

11. O‘zbek adabiyoti. To‘rt tomlik, birinchi tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. – 400b.

UO’K 800.1

METAFORA TARIXI. ARISTOTELNING METAFORA HAQIDAGI QARASHLARI

N.H.Hojiyeva, dots., Buxoro davlat pedagogika institute, Buxoro
X.I.Siradjidinova, magistrant, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya*. Ushbu maqolada metafora tarixi ,Aristotelning metafora haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Uning ‘’Poetika’’ va ‘’Ritorika ‘’asarlarida bayon etilgan fikrlar asosida metaforaning mohiyati, bilish jarayonidagi o‘rni hamda badiiy nutqdagi vazifasi yoritiladi. Maqolada Aristotelning metafora haqidagi klassik qarashlari hamda zamonaviy konseptual metafora nazariyasi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilinadi. Xususan, Poetika va Ritorika asarlaridagi metafora talqini bilan Metaphors We Live By kitobida ilgari surilgan g‘oyalar qiyosan o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *metafora, nom ko‘chirish, o‘xshashlik, poetika, ritorika, badiiy tafakkur, tilshunoslik , antik davr , kognitiv lingvistika, obrazlilik.*

Аннотация. *В данной статье анализируется история метафоры и теоретические взгляды Аристотеля на метафору. На основе идей, выраженных в его работах «Поэтика» и «Риторика», освещаются сущность метафоры, её роль в познавательном процессе и её функция в художественной речи. В статье анализируются сходства и различия между классическими взглядами Аристотеля на метафору и современной концептуальной теорией метафоры. В частности, изучается интерпретация метафоры в работах «Поэтика» и «Риторика» в сравнении с идеями, изложенными в книге «Метафоры, которыми мы живём».*

Ключевые слова: *метафора, ономатопея, аналогия, поэтика, риторика, художественная мысль, лингвистика, античность, когнитивная лингвистика, образность.*

Abstract. *This article analyzes the history of metaphor and Aristotle's theoretical views on metaphor. Based on the ideas expressed in his works "Poetics" and "Rhetoric", the essence of metaphor, its role in the cognitive process, and its function in artistic speech are highlighted. The article analyzes the similarities and differences between Aristotle's classical views on metaphor and the modern conceptual theory of metaphor. In particular, the interpretation of metaphor in the works of Poetics and Rhetoric is studied in comparison with the ideas put forward in the book Metaphors We Live By.*

Keywords: *metaphor, onomatopoeia, analogy, poetics, rhetoric, artistic thought, linguistics, antiquity, cognitive linguistics, imagery.*

Metafora tarixi. Tilshunoslikda metaforalarga bo‘lgan dastlabki qarashlar qadimgi davrlardan mavjud bo‘lib kelgan. Antik dunyo mutafakkirlari inson metaforani bilish uchun tabiat haqida yaxshi bilimga, keng dunyoqarashga ,qobilyatiga ega bo‘lishi kerak deb hisoblashgan. Masalan, Sitseronnig fikricha metaforlar bu qisqa o‘xshatishlardir va ular shunday hodisaki, nutqqa maxsus bezak beradi, boyitadi va darajasini oshiradi. Aristotelning fikriga ko‘ra esa metaforalar so‘zning shakl o‘zgarishlarida ifodaning boshqa badiiy vositalaridan farq qiladi, yani u ko‘proq ijodkorlikni talab qiladi. Kuantilin metaforani har qanday inson foydalanishi mumkin bo‘lgan tabiatning hadyasi deb aytgan.”Metafora tarixi antik davrga, xususan, Aristotelga borib taqaladi. Dastlab ritorika va poetika doirasida badiiy san'at (ko‘chim) sifatida o‘rganilgan. Vaqt o‘tishi bilan metafora shunchaki tasviriy vositadan kognitiv tilshunoslikda tafakkur va dunyoni idrok etishning asosiy usuli sifatida qayta baholandi, bu uni til va nutqdagi muhim ma'no ko‘chish mexanizmi sifatida belgiladi. Metaforaning tarixiy rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

Antik davr (Aristotel): Aristotel metaforani "boshqa narsaga tegishli nomni berish" deb ta'riflagan va uni nutqning go‘zalligi hamda tushunarliligini oshiruvchi vosita deb hisoblagan. Bu davrda u ko'proq ritorika (notiqlik san'ati) doirasida o'rganilgan.

Klassik tilshunoslik: Uzoq vaqt davomida metafora badiiy adabiyot, she'riyat va nutq bezagi (trop) sifatida qaralib, tildan tashqari, badiiy tafakkur mahsuli deb hisoblandi.

Kognitiv yondashuv (XX asr oxiri - XXI asr): J. Lakoff va M. Jonson kabi olimlar metaforani faqat badiiy vosita emas, balki konseptual tizim va inson tafakkurining asosi ekanligini isbotladilar. Metafora orqali mavhum tushunchalar (masalan, vaqt, sevgi, hayot) aniq va moddiy tushunchalar (masalan, yo‘l, jang, yuki) orqali tushuniladi.

Metafora o‘zbek tilshunosligida ham an’anaviy ritorik qarashlardan tortib, zamonaviy kognitiv tilshunoslik asosida, til va milliy mentalitet, dunyoqarash bilan bog‘liq holda faol o‘rganib kelinmoqda

"Poetika" asari metafora tushunchasining ilmiy asosini yaratgan ilk manbalardan biridir. U metaforani narsalarga mos bo'lmagan nom berish (o'xshashlik asosida ko'chirish) deb ta'riflagan va buni iste'dod belgisi, nutqni jonlantiruvchi vosita sifatida baholagan. Aristotelga ko'ra, yaxshi metafora narsalarning o'xshashligini ko'ra olish qobiliyatiga asoslanadi.

Darhaqiqat, metaforalardan o’rinli foydaanish so’zlovchi nutqining go’zalligini, uning so’z tanlay olishdagi qobilyati va ikki predmetning o’xshashligidagi bog’liqlikni anglay olishini ya’ni uning dunyoqarashini belgilaydi. Masalan: inson ko’zi joylashgan bo’shliq “ko’z kosasi” deyiladi, ammo bu tibbiy metaforaning yaqqol namunasidir, chunki ko’z joylashgan suyakli bo’shliq aslida (tibbiy –anotomik) tilda “Orbita” deyiladi

Orbita — ko‘z olmasi joylashgan suyakli bo‘shliq.

U bosh suyagining yuz qismida joylashgan.

Orbita ichida ko‘z olmasi, ko‘z mushaklari, qon tomirlari va nervlar mavjud.Lekin juda kam odam ko’z joylashgan suyak “orbita’” ekanligini biladi. “Orbita” va kosa o’rtasida esa o’xshashlik borligi uchun ham xalqqa tushunarli bo’lishi uchun shu nom berilgan.Bundan tashqari metaforalar odamlar orasida muloqotni sodda, ravon va tushunarli bo’lishiga yordam beradi Aristotel metaforani narsalar o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatuvchi badiiy tasvir vositasi (ko'chim)

sifatida ta'riflagan. Uning "Poetika" asarida aytilishicha, yaxshi metafora narsalarning yashirin aloqalarini ochib beradi va nutqqa yangilik, tiniqlik hamda joziba bag'ishlaydi. Metafora — o'z ma'nosidan ko'chib, o'xshashlik asosida nom ko'chishi deb hisoblangan.

Aristotelning metafora haqidagi qarashlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

O'xshashlik prinsipi: Aristotelga ko'ra, metafora ikki tushuncha o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanishi kerak.

"Poetika" asari: U metaforani birinchi bo'lib nazariy jihatdan o'rgangan antik olimlardan bo'lib, uni o'zining "Poetika" asarida asoslab bergan.

Nutq jozibasi: Metafora nutqni oddiy tushunarli bo'lishdan tashqari, badiiy va ta'sirchan qiladi.

Nom ko'chishi**:** Metafora — bu bir buyum yoki tushunchaning nomini o'xshashligi sababli boshqa buyumga ko'chirish (ko'chim) hisoblanadi.

Uning fikricha, metafora so'zning o'z ma'nosini boshqa narsaga ko'chirish orqali voqelikni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Aristotelning metafora haqidagi asosiy fikrlari:

1. Metafora — nom ko‘chirish san’ati

Aristotelga ko‘ra, metafora — bir narsaning nomini boshqa narsaga ko‘chirishdir. Bu ko‘chirish o‘xshashlik asosida amalga oshadi.U metaforani shunday izohlaydi:

“Metafora — bir predmetga tegishli nomni boshqa predmetga o‘tkazishdir.”

2. O‘xshashlik asosiy mezon

Metafora tasodifiy emas, balki narsalar o‘rtasidagi ichki o‘xshashlikka asoslanadi. Masalan, jasur odamni “sher” deb atash — jasoratdagi o‘xshashlik sababli.

3. Ijodkorlik belgisi

Aristotel fikricha, yaxshi metafora yaratish — iste’dod belgisi. Chunki bu yashirin o‘xshashlikni ko‘ra bilish qobiliyatini talab qiladi.

4. Nutqni bezash va ta’sir kuchini oshirish

U metaforani nafaqat bezak vositasi, balki fikrni aniqroq va ta’sirchanroq yetkazish usuli deb hisoblaydi.

Aristotel metaforani oddiy bezak emas, balki tafakkur mahsuli, bilish jarayoni bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Uning qarashlari keyingi asrlar poetika va stilistika nazariyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Metafora uzoq vaqt davomida asosan poetik bezak vositasi sifatida talqin etib kelindi. Aristotel bu hodisani ilk bor ilmiy jihatdan tizimlashtirdi. XX asrga kelib esa metafora til hodisasidan ko‘ra tafakkur mexanizmi sifatida talqin qilina boshlandi. Bu borada George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi muhim burilish yasadi.Demak, Aristotel uchun metafora — asosan stilistik va ritorik vosita. U til doirasida tahlil qilinadi.

*Konseptual metafora nazariyasi.*Lakoff va Johnson metaforani inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, metafora — bu bir konseptual sohani boshqa konseptual soha orqali tushunish jarayonidir.Masalan: “Vaqt — pul” ,“Bahs — urush” , “Hayot — yo‘l”. Bu misollar oddiy til bezagi emas, balki inson ongida mavjud konseptual modellarni aks ettiradi. Shunday qilib, metafora nafaqat badiiy nutqda, balki kundalik tafakkurda ham faol ishlaydi.

Qiyosiy tahlil:

Mezoni - Aristotel konseptual metafora nazariyasi.

Mohiyati- Nom ko‘chirish konseptual sohalar o‘rtasidagi mapping.

Asosi -O‘xshashlik Tajriba va idrok tizimi.

Vazifasi -Nutqni bezash, ta’sir kuchini oshirish, tafakkurni tashkil etish.

Qo‘llanish sohasi -Asosan badiiy va ritorik nutq, kundalik til va ong tizimi.

Xususiyati -Individual ijod mahsuli, umumiy kognitiv model.

Bundan ko‘rinadiki, Aristotel metaforani ko‘proq estetik hodisa sifatida talqin qilgan bo‘lsa, zamonaviy nazariya uni kognitiv hodisa sifatida tushuntiradi.

4. O‘xshash jihatlar

Har ikkala yondashuv ham metaforaning o‘xshashlikka asoslanishini tan oladi. Metafora inson tafakkuri bilan bevosita bog‘liq hodisa ekanligi e’tirof etiladi.

Obrazlilik va ma’no kengayishi asosiy mexanizm sifatida qaraladi.

5. Farqli jihatlar va ilmiy ahamiyat

Aristotel metaforani nutq doirasida tahlil qilgan bo‘lsa, Lakoff va Johnson uni ong va tajriba tizimiga bog‘laydi. Bu esa metaforani lingvistik hodisadan kognitiv-falsafiy kategoriya darajasiga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Aristotel metaforani badiiy tafakkurning muhim vositasi sifatida nazariy asoslab bergan bo‘lsa, zamonaviy konseptual metafora nazariyasi uni inson ongining fundamental mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Shunday qilib, Aristotel metafora nazariyasining tarixiy poydevorini yaratgan bo‘lsa, Lakoff va Johnson bu poydevor ustida metaforaning kognitiv tabiatini ilmiy jihatdan kengaytirdilar.

Metafora bugungi kunda nafaqat poetika va stilistika, balki kognitiv lingvistika, psixolingvistika hamda madaniyatshunoslikda ham markaziy tushunchalardan biri sifatida o‘rganilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aristotel. Poetika. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
2. Aristotel. Ritorika. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
3. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet, 2006.
5. Ibrohim Haqqul. Badiiy tafakkur va so‘z san’ati. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Yoqubjon Is'hoqov. So‘z san’ati so‘zligi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.

UO’K 81’36

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING DIFFERENSIAL BELGILARI VA ULARNI ERKIN BIRIKMALARDAN AJRATISH MUAMMOSI

A.J.Ibayev, PhD, dots., Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand
https://orcid.org/0009-0005-0737-1474

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan frazeologik birliklarni erkin so‘z birikmalaridan ajratish muammosiga bag‘ishlanadi. Tadqiqotning dolzarbligi frazeologik birliklarning til tizimidagi o‘rni, ularning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash hamda amaliy tahlilda yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etish zarurati bilan belgilanadi. Ishda frazeologizmlarni aniqlashda muhim hisoblangan differensial belgilar — tarkibiy barqarorlik, idiomatiklik darajasi, nutqda tayyor holda qayta qo‘llanishi, umumiy semantik yaxlitlik hamda komponentlarning erkin almashinmasligi masalalari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Frazeologik birliklarning kontekstda namoyon bo‘lishi, ularning ma’no ko‘chishi va obrazlilik xususiyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar frazeologik birliklarni belgilashda faqat grammatik tuzilish yetarli emasligini, balki semantik va pragmatik omillar asosiy mezon sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari frazeologiya nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik hamda tarjimashunoslik amaliyoti uchun muayyan ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, idiomatiklik, barqarorlik, semantik yaxlitlik, erkin birikma, qiyosiy tahlil, pragmatika, obrazlilik.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена проблеме разграничения фразеологических единиц и свободных словосочетаний в английском и узбекском языках. Актуальность исследования обусловлена необходимостью уточнения места фразеологизмов в системе языка, выявления их семантических и функциональных особенностей, а также устранения трудностей, возникающих при их практическом анализе. В работе сопоставительно рассматриваются дифференциальные признаки фразеологических единиц: структурная устойчивость, степень идиоматичности, воспроизводимость в речи в готовом виде, семантическая целостность и невозможность свободной замены компонентов. Особое внимание уделяется функционированию фразеологизмов в контексте, их переносному значению и образности. Полученные результаты показывают, что для идентификации фразеологических единиц недостаточно учитывать только грамматическую структуру,*

поскольку решающую роль играют семантические и прагматические факторы. Результаты исследования могут быть использованы в теории фразеологии, сопоставительном языкознании и практике перевода.

Ключевые слова: *фразеология, идиоматичность, устойчивость, семантическая целостность, свободное словосочетание, сопоставительный анализ, прагматика, образность.*

Abstract. *This article deals with the problem of distinguishing phraseological units from free word combinations in English and Uzbek. The relevance of the study is determined by the need to clarify the place of phraseological expressions in the language system, to identify their semantic and functional properties, and to eliminate difficulties that arise in practical linguistic analysis. The paper comparatively examines the differential features of phraseological units, including structural stability, degree of idiomaticity, reproducibility in ready-made form, semantic integrity, and restricted substitutability of components. Particular attention is paid to the contextual functioning of phraseological expressions, their figurative meaning, and imagery. The findings demonstrate that grammatical structure alone is insufficient for identifying phraseological units, since semantic and pragmatic factors play a decisive role. The results may be applied in phraseological theory, comparative linguistics, and translation practice.*

Keywords: *phraseology, idiomaticity, stability, semantic integrity, free word combination, comparative analysis, pragmatics, imagery.*

Kirish. Frazeologiya tilning leksik tizimida alohida qatlamni tashkil etib, unda tayyor shaklda qo‘llanadigan va nutq jarayonida qayta tuzilmaydigan turg‘un birikmalar o‘rganiladi. Bunday birliklar oddiy so‘z birikmalaridan farqli ravishda nafaqat nominativ ma’no bildiradi, balki nutqning baholovchanligi, emotsionalligi hamda ekspressivligini ham kuchaytiradi. Shu sababli frazeologik birliklar faqat leksik hodisa sifatida emas, balki kommunikativ-pragmatik vosita sifatida ham qaraladi.

Frazeologik birliklarni erkin so‘z birikmalaridan ajratish masalasi hanuzgacha tilshunoslikda to‘liq yechim topmagan muammolardan biridir. Ayrim birikmalar grammatik tuzilishiga ko‘ra erkin birikmaga mos keladi, biroq semantik jihatdan yaxlit va ko‘chma ma’noni ifodalaydi. Natijada ularning qaysi holatda frazeologik birlik, qaysi holatda erkin birikma ekanligini aniqlashda qiyinchilik yuzaga keladi.

Masalan, ingliz tilidagi *kick the bucket* birikmasi struktur jihatdan oddiy fe’lli birikma ko‘rinishida bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatni emas, balki “vafot etish” ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilidagi “ko‘z yumdi” birikmasi ham grammatik jihatdan oddiy fe’l birikmasiga o‘xshash bo‘lishiga qaramay, ko‘chma ma’no ifodalovchi turg‘un birlik sifatida qo‘llanadi. Grammatik tuzilish frazeologik birlikni aniqlash uchun yetarli mezon bo‘la olmaydi.

Frazeologik birliklarni aniqlashda ularning differensial belgilarini aniqlash va o‘zaro nisbatini belgilash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning nazariy asoslari. Frazeologiya tilshunoslikning nisbatan mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllandi. Ushbu sohaning rivojlanishida rus tilshunosligi vakillari muhim o‘rin tutadi. Xususan, frazeologik birliklar nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan olimlardan biri V.V. Vinogradov hisoblanadi. U frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik darajasiga ko‘ra tasniflab, frazeologik chatishmalar, frazeologik birikmalar va frazeologik qo‘shilmalar guruhlarini ajratadi [Vinogradov, 1977]. Mazkur tasnif frazeologik birliklarning erkin birikmalardan farqlanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Vinogradovga ko‘ra, frazeologizmning asosiy belgisi — komponentlar ma’nosining umumiy ma’no tarkibida erib ketishidir. Bunda butun birikma ma’nosi alohida so‘zlar ma’nosining oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Aynan shu holat frazeologik birlikni erkin so‘z birikmasidan ajratib turadi. Erkin birikmada komponentlar o‘z leksik mustaqilligini saqlab qoladi, frazeologik birlikda esa ular semantik jihatdan yaxlitlashadi [Vinogradov, 1977].

A.V. Kunin frazeologik birliklarning yana bir muhim xususiyati sifatida ularning nutqda tayyor holda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Olim frazeologizmlarni tilning qayta ishlab chiqariladigan birliklari sifatida talqin qiladi va ularni alohida lisoniy birlik maqomiga ega deb hisoblaydi [Kunin, 1996].

Uning fikricha, frazeologizm nutqda erkin hosil qilinmaydi, balki so‘zlovchi tomonidan xotirada tayyor shaklda qo‘llanadi. Bu jihat ham erkin birikmalardan farqlovchi muhim mezonlardan biridir.

N.N. Amosova esa frazeologik birliklarni kontekstologik yondashuv asosida o‘rganadi. U frazeologik birlikning mavjudligi ko‘pincha kontekst orqali aniqlanishini ta’kidlaydi. Ayrim birikmalar faqat muayyan nutqiy vaziyatda idiomatik ma’no kasb etadi va shu holatda frazeologizmga aylanadi [Amosova, 1963]. Demak, frazeologizmni aniqlashda faqat tuzilish emas, balki nutqiy muhit ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya masalasi yetarlicha o‘rganilgan. Sh. Rahmatullayev o‘zbek frazeologizmlarini turg‘un birikmalar sifatida talqin qilib, ularning asosiy belgilariga barqarorlik, ma’no ko‘chishi va obrazlilikni kiritadi [Rahmatullayev, 1992]. Olimning ta’kidlashicha, frazeologik birliklar milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiradi.

Frazeologik birliklarni erkin birikmalardan ajratishda idiomatiklik mezoni alohida ahamiyatga ega. Idiomatiklik deganda birikma umumiy ma’nosining komponentlar ma’nosidan bevosita kelib chiqmasligi tushuniladi. Masalan, ingliz tilidagi *kick the bucket* birikmasi grammatik jihatdan erkin birikmaga o‘xshasa-da, “vafot etmoq” ma’nosini bildiradi. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi “ko‘z yumdi” birikmasi ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatni emas, balki ko‘chma ma’noni anglatadi. Bu esa semantik yaxlitlik frazeologizmning asosiy belgilaridan biri ekanligini ko‘rsatadi [Kunin, 1996].

Frazeologik birliklarning tarkibiy barqarorligi ham muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Erkin birikmada komponentlar oson almashtiriladi: *yangi kitob, qiziqarli kitob, katta kitob*. Biroq frazeologik birlikda komponentlarni almashtirish odatda mumkin emas yoki ma’noni buzadi. Masalan, “bosh qotirmoq” birikmasidagi “bosh” komponentini boshqa so‘z bilan almashtirish birikmaning ma’nosini yo‘qotadi [Rahmatullayev, 1992].

Tilshunoslar tomonidan taklif qilingan nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarni erkin birikmalardan ajratish bitta mezon orqali emas, balki bir nechta belgilar majmui orqali amalga oshiriladi. Bunda semantik yaxlitlik, barqarorlik, qayta qo‘llanish, idiomatiklik va kontekstual shartlanganlik asosiy differensial belgilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklarni erkin so‘z birikmalaridan ajratish tilshunoslikdagi eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki tashqi grammatik tuzilishi jihatidan ayrim frazeologizmlar oddiy erkin birikmaga o‘xshab ketadi. Shuning uchun ularni aniqlashda birgina grammatik mezon yetarli emas. Tilshunoslar frazeologizmlarni ajratishda bir qator differensial belgilar majmuasiga tayanishni taklif etadilar [Kunin, 1996].

1. Semantik yaxlitlik (idiomatiklik). Frazeologik birlikning eng muhim belgisi — uning umumiy ma’nosi komponentlar ma’nosining yig‘indisidan kelib chiqmasligidir. Boshqacha aytganda, frazeologizm tarkibidagi so‘zlar alohida holda boshqa ma’noni bildirsa-da, birikma tarkibida yangi, ko‘chma ma’no hosil qiladi [Vinogradov, 1977].

Masalan:

- ingliz tilida: *kick the bucket* — “vafot etmoq”
- o‘zbek tilida: ko‘z yumdi — “vafot etdi”

Mazkur birikmalarda “kick”, “bucket”, “ko‘z”, “yumdi” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolari saqlanmaydi. Butun birikma yagona semantik birlik sifatida qabul qilinadi. Erkin birikmada esa bunday holat kuzatilmaydi: *open the door* / “eshikni ochdi” birikmasida har bir komponent o‘z ma’nosini saqlab qoladi.

Semantik yaxlitlik frazeologizmni erkin birikmadan ajratishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

2. Tarkibiy barqarorlik. Frazeologik birliklar odatda barqaror tarkibga ega bo‘ladi. Ularning komponentlari oson almashtirilmaydi yoki almashtirilsa ma’no buziladi [Rahmatullayev, 1992].

Masalan:

- bosh qotirmoq (o‘zbek)
- *spill the beans* (ingliz)

Agar "bosh qotirmoq" o‘rniga *miya qotirmoq* deyilsa, frazeologik ma'no yo‘qoladi. Xuddi shuningdek, *spill the beans* birikmasida *beans* o‘rniga boshqa so‘z qo‘yilsa, ibora o‘z idiomatik ma'nosini yo‘qotadi.

Erkin birikmalarda esa almashtirish erkin:

- katta uy
- chiroyli uy
- yangi uy

Komponentlar o‘zgarmasligi frazeologizmning muhim ko‘rsatkichidir.

3. Qayta qo‘llanish (reproduktivlik). Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda qo‘llanadi. So‘zlovchi ularni har safar grammatik jihatdan qayta tuzmaydi, balki xotiradan tayyor shaklda foydalanadi [Kunin, 1996].

Masalan:

- *once in a blue moon* — juda kam
- **tish-tirnog‘i bilan** — bor kuchi bilan

Bu birliklar nutq jarayonida erkin hosil qilinmaydi. Erkin birikma esa nutq jarayonida spontan ravishda tuziladi:

- yangi maqola yozdim
- kecha darsga bordim

Shuning uchun reproduktivlik ham frazeologizmni aniqlash mezoni hisoblanadi.

4. Komponentlarning almashinmasligi. Frazeologik birliklarda so‘z tartibi va komponentlar qat'iy bo‘ladi. Ularni o‘zgartirish ko‘pincha ma'noni yo‘qotadi yoki iborani buzadi [Amosova, 1963].

Masalan:

- *by heart* — yoddan
- **til uchida turmoq**

heart by yoki "uchida til turmoq" shakllari ishlatilmaydi.

Erkin birikmada esa tartib o‘zgarishi mumkin:

- bugun men keldim
- men bugun keldim

Struktur qat'iylik ham muhim differensial belgidir.

5. Obrazlilik va ekspressivlik. Frazeologik birliklar ko‘pincha obrazli va baholovchi ma'noni ifodalaydi. Ular nutqning ta'sirchanligini oshiradi va pragmatik vazifa bajaradi [Rahmatullayev, 1992].

Masalan:

- *break someone's heart* — qattiq ranjitmoq
- **yuragi orqaga tortdi** — qo‘rqdi

Erkin birikma esa odatda neytral bo‘ladi:

- u xafa bo‘ldi

Ekspressivlik ham frazeologizmlarga xos muhim xususiyatdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarni erkin birikmalardan ajratish bitta belgi orqali emas, balki belgilar majmui orqali amalga oshiriladi. Semantik yaxlitlik, barqarorlik, qayta qo‘llanish, komponentlar almashinmasligi va obrazlilik frazeologizmlarning asosiy differensial belgilarini tashkil etadi. Ayniqsa semantik va pragmatik omillar bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil frazeologik birliklarni erkin so‘z birikmalaridan ajratish masalasi ko‘p mezonli hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari frazeologizmlarni aniqlashda faqat grammatik tuzilishga tayanish yetarli emasligini, balki ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini tasdiqladi.

Aniqlandiki, frazeologik birliklar semantik yaxlitlikka ega bo‘lib, ularning umumiy ma'nosi komponentlar ma'nosining oddiy yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Erkin birikmalarda esa har bir komponent o‘z leksik mustaqilligini saqlaydi. Shuningdek, frazeologik birliklar tarkibiy barqarorlik

bilan tavsiflanadi va ularning komponentlarini erkin almashtirish mumkin emas. Bu xususiyat ularni oddiy so‘z birikmalaridan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biridir.

Tadqiqot davomida frazeologizmlarning nutqda tayyor holda qo‘llanishi ham muhim mezon ekanligi aniqlandi. So‘zlovchi frazeologik birliklarni har safar yangidan tuzmaydi, balki ularni xotirada mavjud tayyor birlik sifatida qo‘llaydi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar ko‘pincha obrazlilik va ekspressivlikni ifodalaydi hamda nutqning pragmatik ta’sirchanligini oshiradi.

Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning umumiy xususiyatlari mavjudligini, ammo ularning obrazlilik manbalari va semantik asoslari milliy-madaniy tafakkur bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shunday qilib, frazeologik birliklarni erkin birikmalardan ajratishda semantik yaxlitlik, barqarorlik, qayta qo‘llanish, komponentlar almashinmasligi va pragmatik funksionallik asosiy differensial belgilar sifatida e’tirof etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). — Москва: Высшая школа, 1977.
2. Кунин А.В. Курс английской фразеологии. — Москва: Высшая школа, 1996.
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. — Ленинград: Издательство ЛГУ, 1963.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. — Москва: Флинта, 2012.
6. Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis and Applications. — Oxford: Oxford University Press, 1998.
7 Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. — Oxford: Clarendon Press, 1998.
8. Ибаев А. Некоторые вопросы о деривации дубльоператорных придаточный предложений времени в узбекском языке //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 350-356.
9. Ибаев А. Некоторые суждения о синтаксисе и современных концепциях //Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 18-21.
10. Ибаев А. Сравнительно-синтаксические примеры как объект изучения языкознания //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 153-159.
11. https://archive.org/details/kunin-english-phraseology
12. https://archive.org/details/amosova-osnovy-angliyskoy-frazeologii
13. https://archive.org/details/phraseologytheor0000unse

UO’K: 811.512.133

KESATIQ VA KINOYA IRONIK MAZMUN IFODALASH USULLARI SIFATIDA

E.I.Ibragimova, f.f.n., prof.v.b., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilida salbiy subektiv munosabat ifodalash usullaridan kesatiq va kinoya haqida so‘z yuritiladi. Kinoyaning shakl va mazmun zidligi asosida yuzaga kelishi, kulgi qo‘zg‘atishga xizmat qilishi, kesatiqqa nisbatan bildirilgan munosabat kinoya yordamida ifoda etilishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kesatiq, kinoya, ironiya, subyektiv munosabat, salbiy munosabat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются такие способы выражения отрицательного субъективного отношения в узбекском языке, как сарказм и ирония. Освещается возникновение иронии на основе противоречия между формой и содержанием, её функция в создании комического эффекта, а также выражение отношения к сарказму посредством иронии.*

Ключевые слова: *сарказм, ирония, иронический смысл, субъективное отношение, отрицательное отношение.*

Abstract. *The article examines sarcasm and irony as means of expressing negative subjective attitude in the Uzbek language. It highlights the emergence of irony based on the contradiction between form and content, its function in generating a comic effect, and the expression of attitude toward sarcasm through irony.*

Keywords: *sarcasm, irony, ironic meaning, subjective attitude, negative attitude*

Kirish. Hayotdagi o‘zgarishlar fan taraqqiyotiga ham, albatta, o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Har bir fan o‘zining uzluksiz rivojlanib borish bosqichlariga egadir. Jumladan, o‘zbek tilshunosligi fani hozirgi kunda keskin rivojlanish bosqichidadir.

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunos olim Sossyur o‘z davrida butun tildagi elementlarning aynanlik va farqlanish atrofida aylanishidan iborat ekanligini ko‘rsatgan holda, tilshunoslik fani uchun ana shu o‘zgachalik — farqlanishlarni o‘rganish katta ahamiyatga ega ekanligini bayon qilgan edi.

Ma'lumki, ironiya bilib bilmaganga olish orqali salbiy munosabat bildirish demakdir. U shunday usulki, yuzaki qaraganda, so‘zlovchi jiddiy gapirayotganga o‘xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarama-qarshi bo‘lgan yashirin kulgi yotadi. Masalan,

Zulfiqorov eshitilar-eshitilmas:

— Ko‘ngil ekan, nima ham deb bo‘ladi... — dedi.

Saida kulib yubordi:

— Ha, o‘zidan o‘n olti yosh katta, xotini, olti bolasi bo‘lgan odamga ko‘ngil qo‘ymay iloji bormi! Sizni deb, har oh tortganida shiftdan chang yog‘ilgandir... Muhabbat bechorani jinoyatga oshno qilmasangiz-chi! (A.Qahhor).

Bu parchada muallif "*Ko‘ngil ekan, nima ham deb bo‘ladi", "Sizni deb, har oh tortganda shiftdan chang yog‘ilgandir"* jumlalarini qattiq sevib qolish ma'nosida qo‘llagan va ironik mazmun ritorik so‘roq gap yordamida ifoda etilgan.

Misollar tahlili ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida ironik mazmun ifodalash usullari salbiy munosabatning qay darajada yuzaga chiqishiga qarab, xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Ular quyidagilar: kesatiq, piching, qochirim, zaharxandalik, kinoya, kulish, masxaralash, mazaxlash, uchuruq, istehzo, ermak, kalaka, shama, luqma, mayna, ta'riz, tajohili orifona, ilmoq. Bu hodisalar bir-biridan subyektiv salbiy munosabatning qay darajada ifoda etilishi bilan farqlanadi. Maqolada faqat kesatiq va kinoya xususida to‘xtalamiz.

Ironik mazmun ifodalashning asosiy usullaridan biri kesatishdir. Unga quyidagicha ta'rif beriladi: "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da "qochirim bilan pardalab masxaralash, kulish yoki kamsitish; istehzo, piching".

A. Abdullayev "Kesatish mantiqiy ta'sirchanligi bilan adresatga nisbatan o‘ta "hukmronlik" ruhida bo‘ladi", deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ayrim o‘rinlarda g‘azab, qo‘rqitish, yoqtirmaslik, ogohlantirish, baland kelish kabi ma'nolar kesatiq orqali ifodalanadi. Masalan:

— Siz bizga yordam bergani emas, rahbarlik qilgani kelgansiz, rahbarsiz!.

*— Undoq emas, Arslonbek aka, ayol kishi rahbarlik qilsa, kalavangizning uchini yo‘qotib qo‘yasiz! — deydi. (*A.Qahhor).

Misolimizdagi "kalavaning uchini yo‘qotmoq" iborasi matn tarkibiga singdirilib, kuchli ekspressiya hosil qiladi. Natijada kesatiqqa pardali kesatish orqali javob aytish yo‘li bilan yashirin maqsad yuzaga chiqariladi. Yana bir misol:

...Nima, shashtingizdan qaytib qoldingizmi, kuyov bola? — dedi kesatib Akbarali. — Agar qasdimni olmasam, Normat otimni boshqa qo‘yaman, demaganmidingiz? Mayli, orqaga qayta qoling, otingiz bugundan boshlab Normat emas, Nomard bo‘la qolsin.

Bu gap Normatning nafsoniyatiga tegdi. Qarab turdi-da, kinoyali iljaydi:

— Shunaqa deng-a?! Mayli, ko‘ramiz, kim mardu, kim nomard ekan?! (S.Ahmad).

Mazkur nutq parchasida, kesatiqqa nisbatan bildirilgan munosabat kinoya yordamida ifoda etilgan. Demak, kinoyada so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan salbiy munosabati g‘azab, nafrat orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: "Kinoya arabcha so‘z bo‘lib, masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq" deb ta'rif beriladi.

Kinoya — deydi A.Hojiyev, til birligining haqiqiy ma'nosiga butunlay qarama-qarshi ma'nodagi kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat tropdir.

Kinoyada mavhum tushunchani aniq narsa yoki hodisaga xos belgilar yordami bilan tasavvur etish ko‘zda tutiladi.

So‘z ma'nosining o‘zgarishi fikrning ifoda maqsadi bilan bog‘liq ekan, demak, kinoya bevosita matn tarkibida hosil bo‘ladi. Kinoya zaminida, o‘z navbatida tanqidiy fikr yotadi. Masalan:

"...Otabek Toshkentga qaytib kelib, "endi araz bitgandir..." degan o'yda onasiga salom beradir. Araz bitish qayerda, O'zbek oyimning o'g'liga qarshi ginasi tag'in bir necha qat ortgan, ammo bu gal salom berguvchiga bir qaraydi-da, "O'g'lim menga salom berib nima qilasan, marg'ilonlik onangning duosini ol!" deb yuzini chetga buradir. U onasining bu kinoyasini kulib bir kechirib, yana eskicha arazda qola beradilar. (A.Qodiriy).

Kinoyaga ishora qiluvchi bir necha vositalar matn tarkibida birgalikda qo'llanib, murakkab shakldagi kinoya uslubini hosil qilishi mumkin. Bunda ham kinoya so'zlovchining subyektiv munosabatida ko'zga tashlanadi. Kinoya ma'nosiga ega bo'lgan leksik birliklar biri ikkinchisining ma'nosini to'ldirib, kulgi qo'zg'atishga xizmat qiladi. Masalan:

Oshni yirik oshamlayotgan Qoriga:

— Qori amaki, bu panshaxami, panshaxa?

— Panshaxa-da, — dedi boshqa birov, — Qori amakim mashoqchi bo'lganlaridan keyin, to'g'ri kelganda, xirmonni sovuradilar, shuning uchun panshaxa olib yuradilar. (S.Ayniy).

Bu vaziyatda qorining ochko'zligi "panshaxali" mashoqchiga o'xshatilib, qattiq tanqid ostiga olingan. Natijada kulgili kinoya hosil bo'lgan.

"Tojik tili lug'ati"da kinoyaning ikki ma'noda ifodalanishi ta'kidlanadi: 1) O'zining asl ma'nosidan tashqari, boshqa majoziy ma'noda qo'llanuvchi iboraviy gap; 2) ramz, ishora. Ushbu fikrning isboti sifatida quyidagi misolga murojaat qilamiz: *Bosh nervopotolog professor Mannopov bemor N. ga bir necha savol bilan murojaat qildi:*

— Uyingizda nima bilan shug'ullandingiz?

— K.Doniyorning "Shilta"sini o'qidim.

— O'sha jarayonda o'zingizni qanday sezdingiz?

— Uyqum kelaverdi. Tinmay igna tiqib, uyqumni qochirdim.

Nervopotologlar uzoq mulohazalardan keyin bemor N. igna bilan davolash usulidan beixtiyor foydalangan, o'zi sezmagan holda badiiy adabiyot yordamida kasallikdan mutlaqo qutulgan, degan xulosaga keldilar. Professor Mannopov vrachlarga xos "husnixat" bilan bloknotiga lotin alifbosida "Shilta" deb yozib qo'ydi. Yaqinda "Meditsina" nashriyoti "Shilta"ning har sahifasiga igna qadab bosmadan chiqardi. Roman qo'sh pechatli maxsus retsept bilan aptekalarda sotilmoqda. (S.Ahmad).

Parchadan salbiy-subektiv munosabat kinoyali kulgi sifatida namoyon bo'layotgani aniq ko'rinib turibdi. Parchadagi asarning nomi "Shilta" o'ziyoq o'quvchining kulgisini uyg'otadi. Aslida bu so'z ko'chma ma'noda "odam jirkanadigan", "iflos" degan salbiy ma'noga egadir. "Birovning shiltasiga toymoq" iborasi ham shundan kelib chiqqan. Bundan tashqari, "Tinmay igna tiqib uyqimni qochirdim", vrachlarga xos husnixat" bilan bloknotiga lotin alifbosida "Shilta" deb yozib qo'ydi, "qo'sh pechatli maxsus retsept bilan" kabi birikma va gaplar orqali ham kinoyali kulgi tarzida muallifning ichki yashirin maqsadi bayon qilingan.

Xulosa. Demak, kinoyada so'zlovchining subyektiv munosabati kulgi orqali ifodalanadi va mazkur munosabat zaminida salbiy fikr yotadi. Kinoya shakl va mazmun zidligi asosida yuzaga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida salbiy subyektiv munosabatni ifodalash usullari xilma-xil bo'lib, ularning ta'sirchan usullari kesatiq va kinoya hisoblanadi. Kesatiq va kinoya orqali salbiy munosabat ochiq tanqid shaklida emas, balki yashirin, ko'chma va implikativ mazmun orqali ifoda etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Соссюр де Фердинанд. Труды по языкознанию. -Москва, 1977, -С.141.
2. Бозоров О.Ўзбек тилида даражаланиш. Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. -Тошкент, 1997, -Б.3.
3. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1985, -Б.29.
4. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983, -Б.241.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Москва: Русский язык, 1981, -Б.381.
6. Абдуллаев А.Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули,- Тошкент:Фан, 1987,-Б80.
7. Фарҳанги забони точики. -Москва: Советская энциклопедия, 1969, -С.447.
8. Ҳомидий Х... Адабиётшунослик терминлар луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1970, -Б.75.

UO’K 82.09

XALQ OG‘ZAKI IJODI AN’ANALARINING ADABIY MUHITNI YUZAGA KELTIRISHDAGI O‘RNI

(Parkent tuman misolida)

J.I.Ibragimov, stajor o‘qituvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent
X.M.Kenjayev, magistrant, Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining adabiy muhitni shakllantirishdagi roli Parkent tumani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda folklorshunos olimlarning nazariyalari, Parkentlik ayollar ijrosi orqali saqlanib kelayotgan qo‘shiqlar, hikoyatlar va boshqa og‘zaki ijod namunalaridan misollar keltiriladi. Maqola natijalari xalq og‘zaki ijodining hududiy adabiy jarayonga ta’siri va mahalliy madaniy merosni uzluksiz saqlashdagi ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, folklor, adabiy muhit, Parkent tumani, mahalliy madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль устного народного творчества в формировании литературной среды на примере Паркентского района. В исследовании используются теории фольклористов-учёных, приводятся примеры песен, хикаятов и других образцов устного творчества, сохраняемых благодаря исполнению женщин Паркента. Результаты статьи освещают влияние народного устного творчества на региональный литературный процесс и его значение в непрерывном сохранении местного культурного наследия.*

Ключевые слова: *устное народное творчество, фольклор, литературная среда, Паркентский район, местная культур*

Abstract. *This article analyzes the role of folk oral creativity in shaping the literary environment, using the example of Parkent district. The study draws on theories of folklorist scholars and provides examples of songs, hikoyat (narratives), and other specimens of oral creativity preserved through the performances of women from Parkent. The article's findings highlight the influence of folk oral creativity on the regional literary process and its importance in the continuous preservation of local cultural heritage.*

Keywords: *folk oral creativity, folklore, literary environment, Parkent district, local culture.*

Har bir xalq o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi merosiga ega. Ushbu meros xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy-madaniy tajribasi, badiiy tafakkuri hamda an’anaviy qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Bu jihatdan o‘zbek xalqi boy folklor xazinasi, rang-barang poetik an’analari va barqaror adabiy-estetik qarashlari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. O‘zbek folklori milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida xalqning tarixiy xotirasini, ma’naviy qadriyatlarini hamda dunyoqarashini aks ettiradi. “Ma’naviyat zamonlardan inson dunyoqarashini xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rnini xalqqa, vatanga, atrofidagim odamlarga bo‘lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi”.[1:16]

“Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og‘zaki usulda amalga oshiriladi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining g‘oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo‘lgan ishonchini, tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi”[2:7] O‘zbekiston hududida shakllangan mintaqaviy folklor qatlamlari xalq og‘zaki ijodining hududiy rang-barangligini ko‘rsatadi. Har bir hududga xos folklor namunalari mahalliy tarixiy-etnografik sharoit, ijtimoiy muhit hamda xo‘jalik faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda rivojlangan. Xalq og‘zaki ijodi muayyan etnosning turmush tarzi, tabiiy-geografik sharoitga moslashuvi va ma’naviy qarashlari ta’sirida shakllanadi. Shu sababli folklor namunalari nafaqat badiiy-estetik qadriyat, balki xalqning ijtimoiy tajribasi va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim manba sifatida baholanadi.

“Parkent tarixi ham shu yerda yashab ijod etgan va ajdodlarining ezgu ishlarini davom ettirayotgan ulug‘ xalq tarixining uzviy bir qismidir.”[3:3] Parkent tumanida faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik jamoalar hamda tuman markazi va qishloq madaniyat uylari qoshida tashkil etilgan to‘garaklar hududning an’anaviy madaniy merosini saqlash va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, Parkent madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan folklor-etnografik guruh a’zolari 2006-yildan

buyon respublika miqyosida o‘tkazib kelinayotgan Navro‘z bayrami tadbirlarida muntazam ishtirok etib, milliy folklor an’analarini targ‘ib qilishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda..

Tumanning Boyqozon qo‘rg‘onida istiqomat qiluvchi 76 yoshli Risqibi opa Xaydarova mahalliy og‘zaki ijod an’analarini yaxshi biluvchi va ularni ijro etib kelayotgan ijodkor vakillardan biridir. U bilan o‘tkazilgan suhbatlar davomida ma’lum bo‘lishicha, Risqibi opa xalq og‘zaki ijodi namunalarini onasi hamda onasi bilan zamondosh bo‘lgan mahalla ayollaridan eshitish va o‘rganish orqali o‘zlashtirgan. Bu holat folklor merosining avloddan-avlodga og‘zaki an’ana orqali uzatilish jarayonini yaqqol namoyon etadi. Quyida Risqibi opadan yozib olingan ayrim xalq og‘zaki ijodi namunalari keltiriladi.

Lapar

Boshla-boshla deganda-yo,
Boshlab aytay.
Ota-ona ruhlarini,
Shodlab aytay.

Payg‘ambarning qizini
Kim ko‘ribdi.
Ota-ona mehriga,
Kim to‘yibdi.

Taxta-taxta ko‘prik,
Taxting bo‘lsin.
Payg‘ambarning qiziday,
Baxting bo‘lsin.

Lapar – xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri. Unda xalq hayotining ajralmas qismi, davrdagi yoshlarning – yigit va qizlarning sho‘x aytishuv va mazmunli fikrlari, bir-biriga savol-so‘roq va javoblari she’riy usulda keltiriladi. Unda yoshlarning ichki his-tuyg‘ulari, sevgi-muhabbat haqidagi qarashlari, muhabbatga bo‘lgan munosabati aks etadi. Lapar yengil kulgi, hajv va yumorga boy, qisqa hajmli, ko‘pincha, to‘rtlik ko‘rinishida bo‘ladi. Laparlar bayramlarda, xalq sayllarida va yosh yigit va qizlar to‘plangan vaqtlarga ijro etilgan.

Taniqli olim Ohunjon Safarov xalq qo‘shiqlarining ijro etilishi haqida ma’lumot berib, ularni turli hududlarda, turli musiqiylik bilan ijro etilishi haqida keltiradi. “Shuni ham aytish kerakki, xalq qo‘shiqlari turli joylarda turlicha ijro etiladi. Chunonchi, Farg‘ona vodiysidagi yor-yor ijrosi Buxorodagidan va o‘z navbatida, Xorazmdagi yor-yor bularning har ikkalasidan ham farq qiladi. Bu farq ohangidagina emas, hatto naqarotida ham seziladi. Farg‘onada va Toshkent vohasida “yor-yor” naqaroti (radifi) ommaviyroqdir. Katta qo‘shiq deyilguvchi jo‘rsiz ijro etiladigan qo‘shiq, asosan, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atrofida uchrasa-da, O‘zbekistonning boshqa joylari uchun xos emas…

To‘rtliklar yakka ijro etilsa, yor-yorlar jamoa (kollektiv) tarzida, yalla va laparlar raqs va kuy uyg‘unligida ijro etiladi” [4:75]

Toshkent viloyati Parkent tumani So‘qoq qishlog‘ida yashovchi 88 yoshli Tojibi ona Adirova ijodida ham folklor namunalarini uchratish mumkin. Tojibi ona o‘zlari ham ijodkor ayol bo‘lib, ko‘plab she’rlar yozgan. Afsuski, ijodkor ayolning ijod namunalari hech qayerda e’lon qilinmagan. Lekin Tojibi ona qishloqda to‘y va yig‘inlarda, bayramlarda juda faol bo‘lib, unda ayollar tomonidan aytiladigan qo‘shiq va yor-yorlarning mohir ijrochisi edi. Quyida ulardan yozib olingan ijod namunalari keltirildi:

Kelinlarga:

Qoshlaring bor qalamdan,
Yiroq yurma kalomdan.
Yaxshi kelin bo‘lay desang,
So‘z boshlagin salomdan.

Aqlli bo‘l, hushli bo‘l,
Hammadan ham kuchli bo‘l.
Yaxshi kelin bo‘lay desang,
Bekor turma ishli bo‘l.

Xalqimiz orasida xalq og‘zaki ijodining nasriy turlari ham alohida ahamiyatli. Zero har bir hududning joy nomlari, kelib chiqishi, o‘sha hududda yashab o‘tgan biror avliyo, biror karomatpesha kishi haqida rivoyatlar bor. Tojibi ona ham Parkent tumanida joylashgan So‘qoq qishlog‘idagi xalq tilida “Pochchaning boshi” deb aytiladigan joy nomi bilan bog‘liq rivoyatni keltirdi. Ular bu rivoyatni o‘zlaridan kata avlodlardan eshitganligini keltirdi.

Rivoyat: Avliyo Bahodir pochcha o‘limi haqida

So‘qoq qishlog‘ining Tallak degan mahallisi boshida Bahodir degan bir avliyo yashab o‘tgan bo‘lib, u insonni bu yerliklar pochcha deb hurmat qilishar ekan. Aytishlariga qaraganda, bu inson asli boshqa yerlik bo‘lib, shu yerlik qizga uylanib, shu joyda yashab qolganligi uchun hamma uni pochcha deb atar ekan. Avliyo Bahodir pochcha o‘ta ilmli va zakiy inson bo‘lgan.

Umri poyoniga yetgan bir vaqtda bir kuni o‘g‘illariga bugunning o‘zida uyi atrofiga ko‘plab otlarni bog‘lash uchun qoziqlar qoqishni buyuribdi. To‘satdan bunday topshiriqni olgan o‘g‘illari hayron bo‘lib buning sababini so‘rashsa, Avliyo Bahodir pochcha shunday javob bergan ekan: “Ertaga bu yerga atrofdagi qishloqlarda juda ko‘p mehmonlar kelishadi. Ular otlarini siz tayyorlab qo‘ygan shu qoziqlarga bog‘lashadi”. Bu gapning mag‘zini chaqmagan farzandlar hayron bo‘lib, uylarining atrofiga ot bog‘lash uchun qoziqlar tayyorlab qo‘yaverishibdi. Ertasi kuni, haqiqatdan ham, bu qoziqlarning birortasi bo‘sh qolmagan, atrofdagi qishloqlardan kelgan odamlarning otlari arqonlari bilan to‘lgan ekan. Og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan gaplarga ko‘ra, Avliyo Bahodir pochchaning janozasiga tevarak atrofdan juda ko‘p odamlar kelgan ekan.

Tojibi ona bu joyga juda ixlos qilganligini, hozirgi vaqtda ko‘zlari ojizlanib, ziyorat uchun borolmaganligini, butun bolaligi shu joy va uning atrofida o‘tganligini ta’kidladi. Bu joyni qo‘msab, quyidagi she’rni keltirdi:

“Pochchaning boshi” ziyoratgohiga:
Tallakning boshi Bahodir pochcha,
Ziyoratlarga borganman qancha-qancha.
Ko‘zlarim ko‘rmay qolib,
Bormaganimga bo‘lib qoldi ancha.

Xulosa, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi Parkent hududida adabiy muhitni shakllantirish va madaniy merosni uzluksiz saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Parkentlik ayollar ijrosi orqali saqlanib kelayotgan qo‘shiqlar, hikoyalar va boshqa folklor namunalari xalq og‘zaki ijodining tirik ijro muhiti mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot hududiy folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, folklorni mahalliy adabiy muhitni shakllantiruvchi asosiy manba sifatida baholash imkonini beradi. Folklorshunos olimlar ta’kidlaganidek, xalq og‘zaki ijodi milliy adabiyotning ildiz qatlamini tashkil etadi. Parkent hududi misolida kuzatilgan materiallar esa folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni amaliy dalillar asosida namoyon etadi. Bu jarayonda mahalliy ijrochilar, ayniqsa ayollar, an’anaviy bilim va badiiy tajribani saqlovchi muhim madaniy vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Parkent o‘lkasida saqlanib kelayotgan folklor merosini o‘rganish nafaqat hududiy madaniyat tarixini yoritish, balki xalq og‘zaki ijodining zamonaviy adabiy jarayonga ta’sirini aniqlashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari folklorni mahalliy adabiy muhitni shakllantiruvchi asosiy manbaalardan biri sifatida baholash imkonini beradi hamda kelgusida mintaqaviy folklor tadqiqotlarini yanada chuqurlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O. Madayev, T. Sobitova “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” o’quv-qo‘llanma. Mumtoz so‘z. Toshkent 2010-yil, 16-bet (234)

2. Sh. Sariyev Adabiyot fanidan yaxlit o‘quv-didaktik majmua. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiadorlik kompaniyasi, Toshkent 2014-yil 7-bet (350)

3. O. Odilxonov “Parkent” O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent 1989-yil, 3-bet (104)
4. O. Safarov, “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darslik, “Musiqa” nashriyoti, Toshkent, 2010-yil, 75-bet (370)

UO’K 811.512.1’373.6:81’276.3

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI VA NEOLOGIZMLARNING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI

Sh.N.Ibragimova, magistrant, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalasining nazariy asoslari, yasama so‘zlarning til va nutq tizimidagi o‘rni hamda leksik qatlamning boyish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida neologizmlar tilning leksik boyishini ta’minlovchi eng faol qatlam ekani, ular zamonaviy ijtimoiy, ilmiy-texnologik va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qilishi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, yasama so‘z, leksik boyish, neologizm, muallif neologizmi, okkazionalizm, affiksatsiya, kompozitsiya, o‘zlashma so‘zlar, semantik kengayish, leksik tizim, til va nutq munosabati, leksik innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы словообразования в узбекской лингвистике, место производных слов в системе языка и речи, а также механизмы обогащения лексического слоя. Результаты исследования показывают, что неологизмы являются наиболее активным слоем, обеспечивающим лексическое обогащение языка, и служат важным инструментом для отражения современных социальных, научно-технологических и культурных процессов.*

Ключевые слова: *словообразование, производное слово, лексическое обогащение, неологизм, авторский неологизм, окказионализм, аффиксация, композиция, заимствованные слова, семантическое расширение, лексическая система, соотношение языка и речи, лексическая инновация.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of word formation in Uzbek linguistics, the role of derived words within the systems of language and speech, and the mechanisms of lexical enrichment. The study demonstrates that neologisms constitute the most active layer contributing to the expansion of the lexicon and serve as an important means of reflecting contemporary social, scientific-technological, and cultural processes.*

Key words: *word formation, derived words, lexical enrichment, neologism, affixation, compounding, borrowing, semantic change, lexical innovation.*

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalasi, yasama so‘zning til va nutqdagi o‘rni, bu boradagi yechimtalab masalalar haqida so‘z boradiki, mazkur kuzatishlar muallif neologizmlarning struktur-semantik tadqiqiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘zning, jumladan, yasama so‘zning til va nutqqa munosabati borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.[28] Xususan, A.Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” asari o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalasini bir qadar yangi bosqichga olib chiqdi.[29] O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi haqidagi nazariy fikrlarni to‘ldirishga, bu boradagi qarashlarni yangilashga xizmat qila oladigan tadqiqotlar sirasiga Sh.Rahmatullayev va H.Ne’matovning izlanish natijalarini e’tirof etib o‘tish lozim.[30]

Individual, ya’ni muallif neologizmlarining tadqiqi bevosita va bilvosita o‘zbek tilida so‘z yasash ma’nosi, so‘z yasash usullari, sinxron va diaxron so‘z yasalishi, unumli va unumsiz so‘z yasash qoliplari, yasama so‘zning til va nutqqa munosabati, yasama hamda yasalgan so‘z, leksemalashish hodisani yuzaga chiqaruvchi omillar kabi bir qator masalalar tadqiqi bilan uyg‘un kechadi. Shu jihatdan individual, ya’ni muallif neologizmlari tilshunoslikda faqat badiiy uslub hodisasi sifatida emas, balki umumtil so‘z yasalish tizimining ijodiy imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim lingvistik material sifatida qaraladi. Chunki bunday birliklar tilning mavjud derivatsion modellari asosida yaratiladi, ammo muallifning estetik niyati, individual tafakkuri va obrazli dunyoqarashi bilan boyitilgan holda yangicha semantik va uslubiy qiymat kasb etadi.

Muallif neologizmlari so‘z yasashning affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish, semantik ko‘chish, analogiya kabi usullarining amaliy namunasini ko‘rsatib, til tizimida mavjud bo‘lgan unumli qoliplarning real nutqda qanday ishlashini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ular ba’zan unumsiz yoki kam faol modellarning ham faollashishiga sabab bo‘lib, derivatsion imkoniyatlarning kengayishiga turtki beradi. Demak, individual ijod mahsuli bo‘lgan so‘zlar til taraqqiyotida innovatsion omil vazifasini bajaradi.

Bunday neologizmlar dastlab muallif nutqiga xos, kontekstual birlik sifatida qo‘llansa-da, vaqt o‘tishi bilan umumxalq iste’moliga kirib borishi, leksemalashishi va lug‘at tarkibidan mustahkam o‘rin egallashi ham mumkin. Ya’ni nutqda yaratilgan birlikning til hodisasiga aylanish jarayoni sinxron va diaxron yondashuvlar asosida kuzatiladi. Bu esa “til – nutq – ijod” munosabatining uzviyligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so‘z yasalishi faol sanaladi. Biroq bu jarayonda ba’zan maromsiz yasalishlar – okkazional qo‘llanishlar ham uchrab turadi. Odatda, shoir va yozuvchilar ijod mahsuli sifatida yuzaga chiqadi.

O‘zbek tili leksik qatlamining boyish usullari – bu tilning so‘z boyligi qanday yo‘llar bilan kengayib, yangilanib borishini ifodalaydi. Quyida ushbu boyish usullari asosiy guruhlar shaklida keltiriladi:

1. Ichki usullar - bu usullar tilda mavjud bo‘lgan imkoniyatlar asosida yangi so‘zlar yasashni bildiradi.

a) So‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali - Yangi so‘zlar yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi:

- Ot yasovchi qo‘shimchalar: *bilim* → bilimdon, *yosh* → yoshlar
- Sifat yasovchi qo‘shimchalar: *quvvat* → quvvatli, *do‘st* → do‘stona
- Fe’l yasovchi qo‘shimchalar: *yo‘l* → yo‘llamoq, *suv* → suvlamoq

b) So‘z qo‘shish (kompozitsiya) - Ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilishi orqali yangi ma’no hosil qilinadi: uy-joy, ilm-fan, temiryo‘l, xalqaro

c) Qisqartmalar hosil qilish -So‘zlar yoki iboralarning qisqartirilgan shakllari:

- O‘zR – O‘zbekiston Respublikasi
- JShShIR – Jismoniy shaxslar shaxsiy identifikatsion raqami
- YO‘lHQ – Yo‘l harakati qoidalari

d) Fonetik variantlar va shevaga oid so‘zlar - Mahalliy shevalar va dialektlardan so‘zlar kirib keladi: *ayvon, pishqir-, girgitton, ko‘rpacha* kabilar

2. Tashqi (eksogen) usullar - Bu usullar boshqa tillardan o‘zlashgan (qarz olingan) so‘zlarni bildiradi.

a) O‘zlashma so‘zlar (zayom so‘zlar) - Turli tarixiy davrlarda boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar:

- Arab tili: *ilm, adab, maktab, vaqt, sabr*
- Fors-tojik tili: *dushanba, gul, devor, rang, daftar*
- Rus tili (va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan): *traktor, telefon, universitet, kompyuter, signal*

b) Hozirgi davr terminlari va xalqaro so‘zlar-Texnika, internet, siyosat, sport sohalaridan kirib kelgan so‘zlar: *market, biznes, menedjer, onlayn, server, webinar, bloger*

3. Semantik yo‘l bilan boyish - bu usulda mavjud so‘zlarga yangi ma’no yuklanadi (ma’no kengayishi yoki o‘zgarishi):

-Ma’no kengayishi: *tarmoq* – ilgari faqat daraxt uchun ishlatilgan bo‘lsa, endi *internet tarmog‘i, savdo tarmog‘i* kabi

- Ma’no torayishi: *qalam* – avval yozuv vositasi umumiy nomi, hozir asosan ruchkaga nisbatan ishlatiladi.

4. Neologizmlar (yangi so‘zlar)- Jamiyatdagi yangiliklar, ilm-fan taraqqiyoti, texnologiyalar sabab yangi so‘zlar paydo bo‘ladi: *mobilografiya, kriptoaktiv, onlayn dars, sitiquruvchi, bronopoyezd.*

5. Metaforik va metonimik kengayish - So‘zlarning obrazli yo‘lda boshqa ma’nolarga o‘tadi:

- *tashqi ko‘z* – kuzatuvchi

- *quloq solmoq* – tinglamoq
- *og'ir odam* – obro'li, vazmin kishi

O'zbek tili dinamik, ochiq tizimga ega bo'lib, leksik qatlamining boyish usullari turli ichki va tashqi omillar bilan bog'liq. So'z yasash, o'zlashmalar, semantik kengayish, metafora, neologizmlar kabi vositalar til rivoji uchun asosiy yo'ldir.

O'zbek tili leksik qatlamining boyishida neologizmlarning o'rni nihoyatda muhimdir. Neologizmlar — bu til tizimida yangidan paydo bo'lgan, ilgari mavjud bo'lmagan yoki mavjud bo'lsa-da, yangi ma'no kasb etgan so'zlardir. Ular tilning rivojlanishida, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, ilm-fan, texnologiya va madaniyat taraqqiyotini aks ettirishda muhim vositadir. Shu bois neologizmlar tilning dinamik xarakterini, ya'ni doimiy harakat va yangilanish jarayonida ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiy etgan sari yangi tushunchalar, predmetlar va munosabatlar yuzaga keladi, ularni nomlash esa til zimmasiga yuklanadi. Natijada til ichki imkoniyatlari — affiksatsiya, kompozitsiya, semantik kengayish, qisqartmalar, shuningdek, o'zlashmalar orqali yangi leksik birliklar shakllanadi. Bu jarayon o'zbek tili lug'at boyligining muntazam ravishda kengayib borishini ta'minlaydi.

1. Neologizmlar zamonaviy hayotni ifodalash vositasi hisoblanadi. Yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilga yangi so'zlar kirib keladi yoki yaratiladi:*onlayn, selfi, bloger, kriptoaktiv, chatbot, mobilografiya.* Bu so'zlar ilgari mavjud bo'lmagan texnologiyalar, kasblar yoki ijtimoiy hodisalarni ifodalash uchun zarur bo'lgan.

2. Ilm-fan va texnika sohasida boyish neologizmlarning ahamiyati katta bo'lib, fan, ta'lim, tibbiyot, texnologiya sohalarida har yili minglab yangi tushunchalar paydo bo'ladi va ular til leksikasiga yangi so'zlar tarzida kiradi: *biotibbiyot, genomika, nanotexnologiya, virtual haqiqat, robototexnika* O'zbek tilida bu atamalar tarjima qilinadi yoki fonetik-adaptiv usulda o'zlashtiriladi.

3. Neologizmlar ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ijtimoiy-siyosiy sohadagi yangiliklar tilga yangicha so'zlar olib kiradi: *ochiq budjet, elektron hukumat, gender tenglik, xalq bilan muloqot, ombudsman*. Bu so'zlar tilning ijtimoiy faollikni ifodalovchi vositasiga aylangan.

4. Neologizmlar tilning yangilanishi va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Neologizmlar tilni jonlantiradi, uning moslashuvchanligini oshiradi, yangi avlod tafakkuriga mos keladigan ifoda vositalarini yaratadi. Masalan: *qurilmachilar* (IT sohasidagi mutaxassislar), *ijtimoiy tarmoqchi*, *ko'ngilli bloger*.

Shuningdek, neologizmlar jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalardagi yangiliklar bilan bog'liq holda paydo bo'lib, tilning nominativ ehtiyojlarini qondiradi. Yangi predmet, tushuncha yoki hodisani ifodalash uchun mavjud lug'at birliklari yetarli bo'lmagan holatda, til ichki imkoniyatlari — so'z yasash affikslari, semantik kengayish, kalkalash va o'zlashmalar orqali yangi birliklarni yaratadi. Natijada til nafaqat boyiydi, balki funksional jihatdan ham faolroq va ta'sirchanroq tus oladi. Masalan, *raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, onlayn savdo, mediafaol, kontent yaratuvchi* kabi birliklar zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarning bevosita mahsuli hisoblanadi. Shu tariqa neologizmlar tilning dinamik tabiatini namoyon etib, uni davr talablari bilan hamnafas rivojlantiradi.

Bundan tashqari, neologizmlar ijtimoiy guruhlar, kasbiy qatlamlar va submadaniyatlarning tilini ham shakllantiradi. Xususan, IT, marketing, blogerlik, startap muhitida yuzaga kelayotgan yangi atamalar nafaqat kasbiy terminologiyani kengaytiradi, balki umumxalq leksikasiga ham kirib boradi. Bu jarayon tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, fikrni aniq, ixcham va zamonaviy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili leksik qatlamining eng faol va muhim boyish manbalaridan biridir. U jamiyatdagi yangiliklarni aks ettiradi, tafakkur va madaniyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni ifodalaydi va tilni zamonaviy, moslashuvchan, raqobatbardosh va jonli holatda saqlab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri....diss. avtoref. –T., 2009. – B. 34.

2. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari misolida):Filol. fan. nomz. ....diss. avtoref. – T.: 2027. – 135 b.;

3. Isakova N. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili ("Xalq so'zi" gazetasi materiallari asosida): Filol. fan. bo'yicha fals. dokt.(PhD) ...diss. – Samarqand, 2021. – B. 75.

4. Tursunov U. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. –T.: O‘zbekiston, 1992. – B. 153.

UO'K 808.5

"OYPARCHA" VA "KELINOY" DOSTONLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LUG‘AVIY-MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

M.Sh.Irisov, magistrant, Xalqaro innovatsion universiteti, Qarshi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada "Oyparcha" va "Kelinoy" dostonlari materiallari asosida antroponimlarning lug‘aviy-ma'noviy hamda lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda doston matnida uchraydigan tarixiy shaxs nomlari, laqablar, patronimlar, taxalluslar va eponimlarning semantik vazifalari yoritiladi. Antroponimlarning personajni individuallashtirish, voqealarni tarixiy-madaniy makon bilan bog‘lash, qahramon xarakterini ochib berish hamda badiiy ifodaning ta'sirchanligini kuchaytirishdagi roli ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: antroponim, xalq dostoni, laqab, tarixiy shaxs nomlari, onomastika.*

Аннотация*. В статье на материале дастанов Oyparcha и Kelinoy рассматриваются лексико-семантические и лингвопоэтические особенности антропонимов. Анализируются семантические функции исторических имён, прозвищ, патронимов, псевдонимов и эпонимов.*

Ключевые слова*: антропоним, народный эпос, прозвища, исторические имена, ономастика.*

Abstract. *This article analyzes the lexical-semantic and linguopoetic features of anthroponyms based on the epics Oyparcha and Kelinoy. The study examines the semantic functions of historical personal names, nicknames, patronymics, pseudonyms, and eponyms.*

Keywords*: anthroponym, folk epic, nickname, historical personal names, onomastics.*

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqning ko‘p asrlik tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti, ma'naviy qadriyatlari hamda til boyligini o‘zida mujassamlashtirgan noyob manba hisoblanadi. Xalq dostonlari esa folklor janrlarining eng yirik va mukammal shakllaridan biri bo‘lib, ularda voqea-hodisalar bilan bir qatorda badiiy obrazlar tizimi, til birliklarining o‘ziga xos qatlamlari ham aks etadi.

Dostonlar tilidagi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar badiiy matnning semantik tuzilishida muhim o‘rin tutadi. Antroponimlar shunchaki shaxsni atash vositasi bo‘lib qolmay, balki voqealar rivojini ishonarli ko‘rsatish, tarixiy-madaniy kontekstni ifodalash, personaj xarakterini ochib berish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Mazkur maqolada Umir shoir Safarov repertuariga mansub "Oyparcha" va "Kelinoy" dostonlarida uchraydigan antroponimlarning lug‘aviy-ma'noviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy shaxs nomlari, laqablar hamda badiiy obrazlarni ifodalovchi nomlarning semantik va stilistik vazifalari ochib beriladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, doston matnidagi antroponimlar xalqning tarixiy tafakkuri, diniy tasavvurlari va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishda muhim lingvistik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Xalq dostonlarida qo‘llangan antroponimlar muayyan davrning tarixiy-madaniy manzarasini aks ettiradi. Antroponimlar orqali doston qahramonlarining jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy mavqei, kasb-hunari, hatto xarakter xususiyatlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Antroponimlarning dostonlardagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Shaxsni individuallashtirish. Dostonlarda uchraydigan antroponimlar, eng avvalo, qahramonlarni bir-biridan ajratib ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Har bir personajga alohida ism yoki laqab berilishi orqali u boshqa qahramonlardan farqlanadi. Bu badiiy matnda voqealar ishtirokchilarini aniq tanib olishga, ularning har birini mustaqil obraz sifatida qabul qilishga yordam beradi. Masalan, bir xil ijtimoiy qatlamga mansub bo‘lgan qahramonlar turli ismlar va laqablar orqali individuallashtiriladi va ularning badiiy qiyofasi o‘ziga xoslashadi.

Voqealarni tarixiy makon va zamon bilan bog‘lash. Antroponimlar doston voqealarini muayyan tarixiy davr va madaniy muhit bilan bog‘lashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan,

tarixiy shaxslar nomlarining keltirilishi orqali voqealar o‘tmish bilan bog‘lanadi, doston syujetiga tarixiylik ruhi singdiriladi. Masalan, Bahoviddin Naqshband yoki Mansur Hallaj kabi tarixiy shaxs nomlari tilga olinganda, asar voqealari muayyan diniy-tarixiy muhit bilan bog‘langan holda idrok etiladi. Bu esa dostonning badiiy ishonarliligini oshiradi.

Personaj xarakterini ochib berish. Ko‘plab antroponimlar, ayniqsa laqablar, personajning ichki dunyosi, xarakteri, kasbi yoki jamiyatdagi mavqeini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, “mergan”, “cho‘pon”, “boy” kabi laqablar qahramonning ijtimoiy holati va faoliyat doirasini anglatadi. Natijada o‘quvchi personaj haqida qo‘shimcha tavsif berilmasdan turib ham uning qanday shaxs ekanini taxmin qila oladi. Shu jihatdan, antroponimlar badiiy xarakter yaratishning muhim lingvopoetik vositasi hisoblanadi.

Badiiy ifodaning ta’sirchanligini kuchaytirish. Antroponimlar doston matnining emotsional va estetik ta’sirini oshirishga ham xizmat qiladi. Ayrim tarixiy yoki ramziy yuklama kasb etgan nomlar personaj taqdirini yanada dramatik, fojeaviy yoki ulug‘vor ko‘rsatishga yordam beradi. Masalan, fojeaviy qahramon taqdiri Mansur Hallaj nomi bilan qiyoslanganda, obrazning kechinmalari yanada kuchli hissiy ta’sir bilan qabul qilinadi. Bu esa dostonning badiiy-estetik qiymatini oshiradi.

Dostonlarda ko‘pincha oddiy ism bilan bir qatorda laqab, taxallus, patronim kabi birliklar ham uchraydi. Bu esa antroponimik tizimning murakkab va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, qahramon ismi bilan birga uning kasbi yoki jamiyatdagi o‘rni ifodalangan laqablarning qo‘llanishi obrazni yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qiladi.

“Oyparcha” va “Kelinoy” dostonlarida tarixiy shaxs nomlari ko‘p uchramasa-da, ularning badiiy vazifasi muhimdir. Tarixiy antroponimlar asosan qahramon taqdirini umumxalq tarixiy xotirasi bilan bog‘lash, voqealarning ma’naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish maqsadida qo‘llanadi.

Masalan, doston matnida Bahoviddin Naqshband nomiga murojaat qilinishi diniy-ruhiy ma’noni kuchaytiradi. Bu nom orqali xalq orasida e’zozlangan avliyo siymosi bilan qahramonning holati qiyoslanadi.

Shuningdek, Mansur Hallaj nomi fojeaviy taqdir timsoli sifatida keltirilib, begunoh qurbonlik g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi. Qahramonning dorga olib ketilishi Mansur Halloj taqdiri bilan qiyoslanib, voqeaga chuqur dramatik mazmun yuklanadi. Tarixiy shaxs nomlari dostonlarda:

Diniy-ma’rifiy fon yaratish. Doston matnida tarixiy-diniy shaxslar nomining tilga olinishi asarga muayyan ruhiy-ma’naviy muhit bag‘ishlaydi. Bunday antroponimlar orqali voqealar faqat badiiy tasvir doirasida emas, balki xalq ongida muqaddas, e’zozli bo‘lgan tarixiy-diniy an’analar bilan bog‘lanadi. Masalan, Bahoviddin Naqshband nomining tilga olinishi doston syujetiga tasavvufiy-axloqiy rang berib, qahramonning holati Xudo yo‘lidagi tavakkal, sabr va imon g‘oyalari bilan mushtarak holda talqin qilinishiga imkon yaratadi. Natijada asarda diniy-ma’rifiy fon shakllanib, voqealar chuqurroq ma’naviy mazmun kasb etadi.

Fojeaviy holatni kuchaytirish. Tarixiy shaxslar orasida fojeaviy taqdir sohibi bo‘lgan siymolar nomining keltirilishi doston qahramonining boshiga tushgan kulfatni yanada ta’sirchan ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bunday o‘xshatishlar orqali personajning begunohligi, adolatsiz jazoga duchor bo‘layotgani kuchliroq his etiladi. Masalan, doston qahramonining dorga olib borilishi Mansur Hallaj taqdiri bilan qiyoslanganda, fojeaviy holat umumlashma darajasiga ko‘tarilib, o‘quvchida kuchli hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Shu tariqa tarixiy shaxs nomi badiiy ifodaning emotsional ta’sirchanligini sezilarli darajada oshiradi.

Dostonlarda shaxs nomlari ko‘pincha laqab bilan birga qo‘llanadi. Laqablar qahramonning kasbi, ijtimoiy mavqei, jismoniy belgisi yoki xarakterini ifodalovchi nominativ birlikdir.

Laqablarning asosiy semantik guruhlari:

Kasb-hunar bilan bog‘liq laqablar. Bu turdagi laqablar personajning kundalik faoliyati, mehnat turi yoki jamiyatdagi vazifasini ifodalaydi. Doston matnida qahramon ismi bilan birga uning kasbini bildiruvchi laqabning qo‘llanishi obrazni ijtimoiy muhitda aniq joylashtiradi. Masalan, “cho‘pon” laqabi qahramonning chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi oddiy mehnatkash ekanini, “mergan” laqabi uning mohir otuvchi yoki jangovar mahorat sohibi ekanini bildiradi. “Baxshi” laqabi

esa qahramonning og‘zaki ijod an’anasiga mansubligini, ya’ni doston aytuvchi, san’atkor shaxs ekanini anglatadi. Shu tariqa kasb-hunar laqablar personajning ijtimoiy qatlamini belgilab, badiiy obrazni real hayotga yaqinlashtiradi.

Ijtimoiy mavqe bildiruvchi laqablar. Bu turdagi laqablar shaxsning jamiyatdagi mavqei, boylik darajasi yoki mansabini ko‘rsatadi. “Boy” laqabi qahramonning mulkdor, badavlat qatlamga mansub ekanini ifodalasa, “vazir” laqabi uning hokimiyat tizimidagi mansabdor shaxs sifatida tasvirlanishini anglatadi. “Eshon” laqabi esa diniy-ruhoniy maqomni bildiradi va personajning xalq orasida hurmat-e’tibor qozongan, diniy yetakchi sifatida idrok etilishiga xizmat qiladi. Bunday laqablar dostonlardagi ijtimoiy tabaqalanishni ochib berib, personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Jismoniy yoki xarakterga doir. laqablar Bu turdagi laqablar qahramonning tashqi ko‘rinishi, jismoniy holati yoki fe’l-atvori bilan bog‘liq xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, “chaqqon” laqabi personajning epchil, tezkor va faol xarakterga ega ekanini bildirsa, “maston” laqabi uning dag‘al, qo‘pol yoki o‘zboshimcha fe’l-atvorini anglatishi mumkin. Bunday laqablar qahramon xarakterini qisqa va lo‘nda tarzda ifodalab, o‘quvchida personaj haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli ular badiiy xarakter yaratishda muhim stilistik vosita hisoblanadi.

O‘xshatma asosidagi laqablar. O‘xshatma asosidagi laqablar personajni ma’lum bir hayvon yoki timsolga qiyoslash orqali uning xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalaydi. Masalan, “sher” laqabi qahramonning jasoratli, dovyurak va kuchli shaxs ekanini anglatadi. “Kalxat” laqabi esa ayrim hollarda qahramonning ayyorligi, yirtqichona fe’li yoki salbiy obrazga yaqin jihatlarini ifodalashi mumkin. Bunday o‘xshatma laqablar xalqona tafakkur mahsuli bo‘lib, doston matnining obrazliligini va badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Bunday laqablar personajning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini aniq ko‘rsatadi va badiiy tasvirni jonlantiradi. Masalan, “cho‘pon” laqabi oddiy mehnatkash qatlamni ifodalasa, “boy” laqabi mulkdor, badavlat shaxs timsolini yaratadi.

Dostonlarda uchraydigan antroponimlar faqat ismlar bilangina cheklanmaydi. Ular laqab, taxallus, patronim, genonim kabi shakllarda ham namoyon bo‘ladi.

Antroponimik birliklarning mikroko‘lam tarkibi quyidagi turlardan iborat:

Ismlar. Ism – shaxsga tug‘ilgan paytida yoki bolalik davrida beriladigan asosiy atoqli ot bo‘lib, antroponimik tizimning eng muhim va markaziy unsuri hisoblanadi. Dostonlarda ismlar personajni boshqalardan ajratib ko‘rsatish, uni alohida obraz sifatida tanitish vazifasini bajaradi. Ismlar ko‘pincha milliy an’ana, diniy e’tiqod yoki ota-onaning farzandga bo‘lgan niyat-istaklari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli dostonlarda uchraydigan ismlar orqali xalqning ism qo‘yish an’analari va madaniy qadriyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Laqablar. Laqab – shaxsga atrofidagilar tomonidan uning muayyan belgi-xususiyati, kasbi, ijtimoiy mavqei yoki xarakteriga ko‘ra beriladigan norasmiy nomdir. Dostonlarda laqablar personajning individual qiyofasini yanada aniqlashtiradi, badiiy obrazni jonlantiradi. Laqablar ko‘pincha personaj ismi bilan birga qo‘llanib, uning jamiyatdagi o‘rni yoki fe’l-atvori haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi. Shu jihatdan laqablar dostonlarda lingvopoetik vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ota ismi (patronim). Patronim shaxsning otasi (yoki bobosi) ismi asosida yasaladigan antroponimik birlik bo‘lib, “falonchining o‘g‘li/qizi” shaklida ifodalanadi. Dostonlarda patronimlar personajning nasl-nasabini ko‘rsatish, uni muayyan urug‘ yoki avlodga mansub shaxs sifatida tanitish vazifasini bajaradi. Bu orqali qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy rishtalari badiiy matnda aniqroq ifodalanadi. Patronimlar, ayniqsa, qadimgi ijtimoiy munosabatlar va nasabga e’tibor kuchli bo‘lgan muhitni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taxalluslar. Taxallus – shaxsning ijodiy yoki ijtimoiy faoliyati jarayonida o‘zi tanlagan yoki unga nisbatan qo‘llanilgan ikkilamchi nom bo‘lib, ko‘pincha shoir, baxshi, san’atkorlar nomi bilan bog‘liq holda ishlatiladi. Dostonlarda taxalluslar personajning ijodkorlik qiyofasini, ma’naviy dunyosini ifodalashga xizmat qiladi. Taxallus orqali shaxsning badiiy mavqei, jamiyatdagi nufuzi yoki ijodiy an’anaga mansubligi ta’kidlanadi.

Eponimlar. Eponimlar mashhur tarixiy yoki afsonaviy shaxs nomi asosida yuzaga kelgan atoqli nomlar bo‘lib, muayyan joy, buyum, hodisa yoki tushunchani nomlashda qo‘llanadi. Dostonlarda eponimlar tarixiy xotirani saqlash, mashhur shaxslar nomini ramziy ma’noda davom ettirish vazifasini bajaradi. Bunday birliklar orqali badiiy matnda tarixiy shaxslar siymosi umumlashma ramz darajasiga ko‘tariladi va voqealarning madaniy-tarixiy konteksti boyitiladi.

Bu birliklar personajni aniqlash bilan birga, uning ijtimoiy kelib chiqishi va nasl-nasabini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Natijada doston matnida personajlar tizimi yanada mukammal shakllanadi.

Xulosa. “Oyparcha” va “Kelinoy” dostonlarida qo‘llangan antroponimlar badiiy matnning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy shaxs nomlari doston syujetiga diniy va tarixiy kontekst bag‘ishlab, voqealarning semantik qatlamini chuqurlashtiradi. Laqablar esa personajlarning individual xususiyatlarini ochib berib, obraz yaratishda muhim lingvopoetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, dostonlardagi antroponimlar xalqning ijtimoiy hayoti, tarixiy tafakkuri va ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan onomastik tizim ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abatov D. Qashqadaryo xalq dostonlari onomastikasi (Qora baxshi Umirov, Umir shoir Safarov, Qodir baxshi Rahimov dostonlari misolida): filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Qarshi, 2024.
2. Umir shoir Safarov. Oyparcha. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
3. Umir shoir Safarov. Kelinoy. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. – Toshkent, 2016.
4. Qodirov A. Onomastika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent, 2020.

UO’K 81’342.9:811.111:811.512.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA “FLORA” KONSEPTIGA OID TEZ AYTISHLARNING FONO-STILISTIK XUSUSIYATLARI

E.D.Isaqova, tadqiqotchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “flora” konseptiga oid tez aytishlarning (tongue twisters) fono-stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘simlik nomlari, gullar, daraxtlar, mevalar bilan bog‘liq tez aytishlarning fonetik qurilishi, alliteratsiya, assonans, konsonans, ritm, urg‘u va takror kabi stilistik vositalari qiyosiy o‘rganiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida flora konseptining lingvokulturologik ifodasi ham ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda flora konsepti tez aytishlarda tovush o‘yinlari orqali estetik va didaktik vazifani bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *flora konsepti, tez aytish, alliteratsiya, assonans, konsonans, fonostilistika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ фоностилистических особенностей скороговорок, связанных с концептом «флора» в английском и узбекском языках. В ходе исследования скороговорки с названиями растений, цветов, деревьев и фруктов рассматриваются с точки зрения фонетической структуры, аллитерации, ассонанса, консонанса, ритма, ударения и морфологического параллелизма. Также анализируются лингвокультурологические аспекты и национально-культурные особенности концепта флоры. Результаты показывают, что в английском языке доминируют аллитерация и система ударения, тогда как в узбекском языке значительную роль играют аффиксация и сингармонизм. Делается вывод о том, что скороговорки выполняют не только дидактическую, но и культурно-эстетическую функцию.*

Ключевые слова: *концепт флоры, скороговорка, фоностилистика, аллитерация, ассонанс, консонанс, лингвокультурология, сопоставительный анализ, сингармонизм, морфологический параллелизм.*

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the phono-stylistic features of tongue twisters related to the concept of flora in English and Uzbek languages. The study examines tongue twisters containing plant names, flowers, trees, and fruits from the perspective of phonetic structure,*

alliteration, assonance, consonance, rhythm, stress patterns, and morphological parallelism. The linguocultural aspects and national-cultural representations of the flora concept are also analyzed. The findings reveal that alliteration and stress patterns dominate in English tongue twisters, whereas affixation and vowel harmony play a significant role in Uzbek examples. The research concludes that flora-related tongue twisters function not only as phonetic training tools but also as expressive linguistic units reflecting cultural identity and aesthetic values.

Key words: *flora concept, tongue twister, phono-stylistics, alliteration, assonance, consonance, linguoculturology, comparative analysis, vowel harmony, morphological parallelism.*

Kirish. Tilshunoslikda konsept tushunchasi inson tafakkurida shakllanadigan va til orqali ifodalanadigan madaniy-mental birlik sifatida talqin qilinadi. "Flora" konsepti tabiat, o'simlik dunyosi, gullar, daraxtlar, mevalar va umuman yashil olam bilan bog'liq tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Bu konsept xalq og'zaki ijodida, xususan tez aytishlarda ham o'z ifodasini topgan.

Tez aytishlar – fonetik murakkablikka ega bo'lgan, talaffuzni mashq qildirish, nutq ravonligini oshirish va estetik zavq uyg'otish maqsadida yaratilgan kichik folklor janridir. Ular tovush takrorlari, ritmik tuzilma va stilistik o'yinlarga boy bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida flora konseptiga oid tez aytishlarning fonetik va stilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Flora konseptining lingvokulturologik mohiyati. Flora konsepti har bir xalq madaniyatida o'ziga xos mazmunga ega. O'zbek madaniyatida lola, atirgul, bodom, terak, chinor kabi o'simliklar milliy ramziy ma'noga ega. Masalan, lola – go'zallik va bahor timsoli, chinor – barqarorlik va qudrat ramzi.

Ingliz madaniyatida esa rose (atirgul), lily (nilufar), oak (eman), ivy (pechak) kabi o'simliklar keng qo'llanadi. Masalan, "English rose" iborasi nafislik va go'zallikni anglatadi.

Demak, flora konsepti har ikki tilda ham estetik, ramziy va madaniy qatlamga ega bo'lib, tez aytishlarda bu birliklar fonetik o'yin orqali jonlantiriladi.

Ingliz tilida flora konseptiga oid tez aytishlar

Ingliz tilida o'simlik nomlari bilan bog'liq tez aytishlar ko'pincha alliteratsiya va assonans asosida quriladi.

Misollar:

1. *Freshly fried fresh flowers.*
2. *Lily loves lovely lilac leaves.*
3. *Green grass grows greatly in the garden.*
4. *Red roses really rarely wither rapidly.*

Fonostilistik xususiyatlar:

1. Alliteratsiya

Bir xil undosh tovushlarning takrori:

- *Green grass grows greatly* (g tovushi takrori)
- *Red roses really rarely* (r tovushi takrori)

Alliteratsiya talaffuzni murakkablashtiradi va musiqiylikni oshiradi.

2. Assonans

Unli tovushlarning takrori:

- *Lily loves lovely lilac leaves* (i tovushi takrori)

3. Ritm va urg'u

Ingliz tez aytishlarida urg'u tizimi muhim rol o'ynaydi. Stress-timed til bo'lgani sababli urg'uli bo'g'inlar o'rtasidagi masofa ritmik effekt hosil qiladi.

4. Konsonans

So'z oxirida yoki o'rtasida undosh takrori:

- *fresh flowers* (f tovushi)

O'zbek tilida flora konseptiga oid tez aytishlar

O'zbek tilida tez aytishlar ko'pincha undoshlarning ketma-ketligi va affiksal takrorlar asosida yaratiladi.

Misollar:

1. *Lola lolazor lola labida lolalar lol bo‘ldi.*
2. *Gulgun gulzor gullari gulday go‘zal.*
3. *Terak tagida terimchi ter to‘kdi.*
4. *Bodom bog‘ida bodomlar barq urdi.*

Fonostilistik xususiyatlar:

1. Alliteratsiya

- *Lola lolazor lola labida* (l tovushi)
- *Bodom bog‘ida bodomlar* (b tovushi)

2. Agglutinativlik ta’siri

O‘zbek tilining affiksal tuzilishi fonetik takrorni kuchaytiradi:

- *gul – gulzor – gullari – gulday*

Bu morfologik parallelizm fonostilistik effektni oshiradi.

3. Unli uyg‘unligi

O‘zbek tilida singarmonizm muhim rol o‘ynaydi:

- *Bodom bog‘ida bodomlar* (o unlisi ustun)

4. Ritmik parallelizm

O‘zbek tez aytishlarida bo‘g‘inlar tengligi va takroriy sintaktik qurilish muhim ahamiyatga ega.

Qiyosiy tahlil

Mezoni	**Ingliz tili**	**O‘zbek tili**
Fonetik asos	Alliteratsiya, stress	Alliteratsiya, singarmonizm
Morfologiya	Analitik	Agglutinativ
Ritm	Stress-timed	Bo‘g‘in-timed
Stilistik vosita	Assonans kuchli	Morfologik parallelizm kuchli

O‘xshashliklar:

- Har ikki tilda undosh takrori asosiy vosita.
- Flora konsepti estetik ma’no yuklaydi.
- Talaffuz mashqi vazifasini bajaradi.

Farqlar:

- Ingliz tilida urg‘u tizimi muhim.
- O‘zbek tilida qo‘shimchalar fonetik o‘yinni kuchaytiradi.
- O‘zbek tilida unli uyg‘unligi sezilarli.

Flora konseptining stilistik funksiyalar

1. **Estetik funksiya** – go‘zallik va musiqiylik yaratadi.
2. **Didaktik funksiya** – talaffuzni o‘rgatadi.
3. **Madaniy funksiya** – milliy o‘simlik ramzlarini mustahkamlaydi.
4. **Ekspressiv funksiya** – obrazlilikni kuchaytiradi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida flora konseptiga oid tez aytishlar fonostilistik jihatdan boy va rang-barangdir. Ingliz tilida alliteratsiya va urg‘u tizimi ustunlik qilsa, o‘zbek tilida affiksal takror va singarmonizm muhim rol o‘ynaydi. Har ikki tilda ham flora konsepti estetik, madaniy va didaktik ahamiyat kasb etadi.

Tez aytishlar nafaqat fonetik mashq vositasi, balki milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi lingvokulturologik hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Askoldov, S. A. (1997). Konsept i slovo. Moskva: Progress.
2. Vorkachev, S. G. (2001). Lingvokulturniy konsept: tipologiya va strukturasi. *Filologicheskie nauki*, №5, 45–52.
3. Karasik, V. I. (2002). Yazikovoy krug: lichnost, kontsepti, diskurs. Volgograd: Peremena.
4. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya.
5. Stepanov, Yu. S. (2004). Konstanty: Slovar russkoy kultury. Moskva: Akademicheskiy proekt.
6. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell.
8. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology (4th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

9. Gimson, A. C. (2014). Gimson's Pronunciation of English (8th ed.). London: Routledge.

UO'K 821.512.133.09

ABDULLA QODIRIY IJODIDA IJTIMOIY MUAMMOLARNINNG BADIIY TALQINI

S.Ismatullayeva, talaba, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri – Abdulla Qodiriyning hayoti, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati hamda badiiy ijodi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, adib asarlarida va obrazlar tizimida shakllangan ijtimoiy, ma'rifiy, axloqiy hamda milliy ongni uyg'otishga qaratilgan mavzular atroflicha muhokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *Milliy uyg'onish, jadidchilik, ma'rifat va jaholat, o'zbek romanchiligi, prototip, qodiriyshunos olimlar.*

Аннотация. *В данной статье представлен научный анализ жизни, социальной и образовательной деятельности, а также художественного творчества Абдуллы Кодирия, одной из важных фигур движения Джадидов, сформировавшегося в конце XIX и начале XX веков. Также будут всесторонне рассмотрены темы, направленные на пробуждение социального, образовательного, нравственного и национального самосознания, сформированного в творчестве писателя и его системе образов.*

Ключевые слова: *Национальное пробуждение, джадидизм, просвещение и невежество, Узбекская романистика, прототип, учёные-кадыриеведы.*

Abstract. *This article analyzes the life, social and educational activities, and artistic creativity of Abdulla Qodiriy, one of the major figures of the Jadid movement that formed in the late 19th and early 20th centuries, on a scientific basis. Also, topics aimed at awakening social, educational, moral, and national consciousness, formed in the writer's works and system of images, will be discussed in a comprehensive manner.*

Key words: *National Awakening, jadidism, enlightenment and ignorance, Uzbek novelistics, the prototype, Qodiriy scholars.*

Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida XIX hamda XX asr adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon olami va turkistonliklar tafakkurida chuqur iz qoldirdi. XX asr boshlarida maydonga chiqqan Fitrat, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy singari zabardast ijodkorlar og'ir siyosiy-ijtimoiy sharoitga qaramay, o'z iste'dod va salohiyatlarini millat ravnaqi yo'lida safarbar etdilar.

Ana shunday serqirra ijodkorlardan biri, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriydir. Adib hayoti davomida ko'plab mashaqqatlarni boshidan kechirgan. U o'z tarjimayi holida shunday yozadi: "Men qaysi yilda va qaysi oyda tug'ilganimni bilmayman. Har holda bemavrid bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug'ilib, yaqinlarimning so'zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o'tirganda tug'ilganman". Ushbu satrlar Qodiriy hayotining og'ir ijtimoiy sharoitda kechganini ko'rsatadi. Adibning o'tkir qalam sohibi bo'lib yetishishida otasi Qodir boboning tarixiy voqealar haqidagi hikoyalari muhim rol o'ynagan. Qodir bobo Turkiston tarixida yashagan hukmdorlar haqida boy ma'lumotga ega bo'lgan. Shu bois Qodiriy asarlarida tarixiy voqealar va real hayot manzaralari jonli va ishonarli tasvirlanadi. Adib o'z ijodida otasiga bo'lgan ehtiromini yuksak qadrlaydi, onasi Josiyat bibi obrazidan esa ayrim prototip xususiyatlarini mahorat bilan foydalanadi [1].

Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki bosqichi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Uning ijodida xalq qalbini uyg'otish, mudragan millatni sergaklantirish, ilm-ma'rifatni targ'ib qilish hamda Vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, "Fikr aylagil" she'rida adib xalqiga murojaat qilib, millat ichidagi jaholat, nifoq va isrofgarchilik illatlarini keskin tanqid qiladi:

Oqilo, fikr aylag'il, ki na ishlayur ahli vatan,
Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chapan?

Qildilar bir-birig'a dushmanlikni har vaqt beibo,
Bir-birini aybin ochmoqg'a kirishdilar bajan.
Yer sotarlar elda necha to'y bajo etmak uchun,
Chunki bid'atin yo'lida ham fidodur jonu tan [4].

She'r satrlarida millat taqdiriga befarq bo'lmaslik, o'zaro adovatni tark etish hamda ma'rifat sari yuz tutish zarurligi ta'kidlanadi. Qodiriy qarashlarida ma'rifat jaholatni davolovchi qudratli kuch sifatida talqin etiladi. Uning she'riyatida xalqni ilmga chorlash bilan birga, ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikni qoralash ham asosiy motivlardan biridir. Bu g'oya Behbudiy yaratgan "Padarkush" dramasi ta'sirida yozilgan "Baxtsiz kuyov" dramasida yanada teranroq ifoda topadi. To'rt pardali ushbu fojiali dramada Turkistonning maishiy hayoti, ayniqsa, ortiqcha sarf-xarajatlar va hashamatparastlikning fojiaviy oqibatlari ochib beriladi. Fayziboy obrazi orqali molparastlik, riyokorlik va shariat nomidan noto'g'ri foydalanish illatlari fosh etiladi. Domla obrazi esa diniy e'tiqodi sust, manfaatparast imomlar timsolida tasvirlanadi. Imomning "Xalqqa kulgi bo'lasiz, olig`-solig` qilinmasa bo'lmaydur" mazmunidagi maslahati shariat niqobi ostidagi riyokorlikni ochib beradi. Fayziboyning qizi uchun haddan tashqari qalin puli va ko'plab moddiy talablar qo'yishi oddiy xizmatkor yigitning sha'nini yerga uradi va natijada ikki yoshning fojiali o'limi bilan yakun topadi. Shu tariqa drama orqali millat hayotidagi zararli an'analarning achchiq oqibatlari ko'rsatiladi [3].

Mazkur g'oya Qodiriyning "To'y" she'rida ham davom ettiriladi:

Qildi bu vaqt bizda javlon to'y,
Oqchasi yo'qni etdi hayron to'y.
Bir-biridin oshurdilar to'yni,
Topdi ravnaq g'ayratila boyon to'y.
Besh kun o'tmay to'yni so'ngidin,
Ketibon mulklar bois fig'on to'y.
Boyon to'yig'a yerlilar qarab,
Etdi sarf toki tandagi jon to'y.
Ey g'aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etubdurmu bizg'a Qur'on to'y.
Mundayin ishlar shar'imizda yo'q,
Kori ma'jus, kori shayton to'y [2].

She'rda ortiqcha dabdaba, molparastlik va soxta obro' ortidan quvish keskin tanqid qilinadi. Adib bu illatni "kori ma'jus", "kori shayton" deya atab, uni diniy va ma'naviy qadriyatlarga zid holat sifatida baholaydi. Demak, drama va she'r o'zaro g'oyaviy jihatdan bog'liq bo'lib, milliy uyg'onish va ma'naviy poklanish g'oyasini ilgari suradi.

Qodiriy o'z zamonasidagi siyosiy o'zgarishlarga ham befarq bo'lib qola olmadi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uning "Shodmarg" hikoyasida o'z ifodasini topdi. Hikoyaning markaziy obrazi – Mulla Karim. Adib o'z dardini mazkur obraz orqali ifodalaydi. Chor Rossiyasi davrida poraxo'rlik va mansabparastlik keng tarqalgan edi. Qozilik kabi mansablar pul evaziga sotilar, adolat tamoyillari buzilar edi. Mulla Karim obrazi orqali adib zolim tuzumni va uning ma'murlarini keskin qoralaydi. Asar fojiali yakun topishiga qaramay, qahramon o'z orzu-umidlariga ishonch bilan yashaydi va ruhiy qanoat bilan hayotdan ko'z yumadi. Mulla Karim timsolida biz shunchaki hayot bilan vidolashayotgan insonni emas, balki uzoq kutilgan ijtimoiy ozodlikka, o'z haq-huquqlarini anglash darajasiga yetgan shaxsni ko'ramiz. Erksevarlik kishilardan kuchli iroda talab etadi va bunday fazilat xalq orasida kulgi yoki kinoya bilan emas, hurmat bilan qarshi olinishi lozim. Qodiriyning bunday qahramonlari o'limdan qo'rqmaydigan, haq so'zni baralla aytadigan, yuksak maqsad sari sobitqadam boradigan obrazlardir [1].

Adib ijodining eng katta yutuqlaridan biri – o'zbek romanchilik maktabiga asos solganidir. Uning "O'tkan kunlar" hamda "Mehrobdan chayon" romanlarida umidsizlik va tushkunlik emas, aksincha, fojiaviy voqealar zamirida inson ruhiyatining g'alabasi va ma'naviy uyg'onish g'oyasi mujassamdir. Ayniqsa, "O'tkan kunlar" romanining yaratilishi adibga katta muvaffaqiyat olib keldi. Asardagi voqealar bir mavzu doirasida cheklanib qolmaydi. Shu bois kitobxon har gal asarni mutolaa qilganida undan yangi ma'no topadi. Adib roman orqali millat ongini uyg'otish, dunyoqarashini

kengaytirish hamda siyosiy tuzumning illatlarini fosh etishni maqsad qiladi. Asardagi bosh qahramonlar – Otabek va Yusufbek hoji – o‘z xalqining ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qiladigan, hatto bu yo‘lda jonini tikishga tayyor obrazlar sifatida gavdalanadi. Qodiriy nazarida jamiyat tanazzulining asosiy sababi jaholat, madaniy qoloqlik va ma’rifatning sustligidadir. Darhaqiqat, XIX asr oxirlarida o‘lkada rus tilini biladigan ziyolilar soni nihoyatda kam bo‘lgan. Bu esa ilm-ma’rifatning tor doirada qolishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir. Abdulla Qodiriyning badiiy mahorati shundaki, u xalq ruhiyatini, uning dardini ich-ichidan his etib tasvirlay oladi. Shu boisdan ham real hayot manzaralari, ijtimoiy-siyosiy muammolar badiiy talqin orqali xalqning milliy tili va urf-odatlari asosida ta’sirchan ifodalanadi [5].

Adibning voqelikka nisbatan real munosabatini ifoda etuvchi “Uloqda” hikoyasi ham shu ruhda yaratilgan. Hikoya o‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzini, jumladan, ko‘pkari singari milliy o‘yinlar vositasida davrning ijtimoiy-maishiy muhitini ochib beradi. Voqealar uloqqa ishtiyoqi baland bo‘lgan 12 yoshli Turg‘un ismli bola tilidan bayon qilinadi. Asarning markaziy g‘oyasi – uloq voqealari jarayonida insoniy qadriyatlarning sinovdan o‘tishidir. Hikoya so‘ngida Esonning uloq paytida halok bo‘lishi va ertasi kuni janoza manzarasining tasvirlanishi orqali fojiaviy yakun beriladi. Qodiriy tasvirida bu o‘lim tasodifiy hodisa emas, balki jamiyatdagi beparvolik va ehtiyotsizlik oqibatida yuzaga kelgan achchiq haqiqatning badiiy ifodasidir. Adib quvonchli bayram manzarasi bilan fojiaviy holatni yonma-yon tasvirlab, hayotning murakkab va ziddiyatli tabiatini ochib beradi. Shu orqali u xalqni vaqtni behuda musobaqalarga emas, ilm-ma’rifat va ongli faoliyatga sarflashga da’vat etadi [2].

Qodiriy asarlarida tarixga murojaat qilishdan ko‘zlangan maqsad – undan saboq chiqarishdir. Uning ijodida voqelikka tanqidiy yondashuv ustuvor bo‘lib, u tarixiy va zamonaviy hodisalarga teran nigoh bilan qaraydi. Shuning uchun ham adib asarlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda.

Qodiriy va boshqa jadid ziyolilarining faoliyati Turkiston millatining ma’naviy uyg‘onishida muhim o‘rin tutdi. Ularning sa’y-harakatlari natijasida xalq tafakkuri yangilanish sari yuz tutdi. Bugungi kunda adibning tarixiy xizmatlari yuksak e’tirof va hurmat bilan tilga olinayotgani bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jabrdiyda yozuvchilar adabiy merosi mustaqillik xizmatida. To‘plam. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Jadidchilik: O‘zgarish va taraqqiyot”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti. 2025-yil 31-may. – B. 11-84.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2022. – 160 b.
4. Qodiriy A. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 472 b.
5. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 16 b.

UO’K 81`1

ZAMONAVIY LINGVOPRAGMATIK TAHLIL TAMOYILLARI

N.M.Ismatullayeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy lingvopragmatik tahlilning asosiy tamoyillari va metodologik yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Lingvopragmatika tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi sifatida nutqiy faoliyatda til birliklarining qo'llanilishi, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar va kontekstual omillarning til birliklariga ta'sirini o'rganadi. Maqolada lingvopragmatik tadqiqotlarning nazariy asoslari, tahlil metodlari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari lingvopragmatik tahlilning zamonaviy tilshunoslik, diskurs tahlili va kommunikativ lingvistika uchun metodologik ahamiyatini ko'rsatib beradi.*

Kalit so'zlar: *lingvopragmatika, pragmatik tahlil, nutqiy faoliyat, kommunikativ strategiya, kontekst, implikatura, diskurs tahlili, til birliklari*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные принципы и методологические направления современного лингвопрагматического анализа. Лингвопрагматика как относительно новая область языкознания изучает использование языковых единиц в речевой*

деятельности, коммуникативные отношения между участниками общения и влияние контекстуальных факторов на языковые единицы. В статье анализируются теоретические основы лингвопрагматических исследований, методы анализа, а также их значение в современной лингвистике.

Ключевые слова: *лингвопрагматика, прагматический анализ, речевая деятельность, коммуникативная стратегия, контекст, импликатура, дискурс-анализ, языковые единицы*

Abstract, *The article examines the main principles and methodological directions of modern linguopragmatic analysis. Linguopragmatics as a relatively new field of linguistics studies the use of linguistic units in speech activity, communicative relations between participants of communication, and the influence of contextual factors on linguistic units. The article analyzes the theoretical foundations of linguopragmatic research, methods of analysis, as well as their significance in modern linguistics.*

Keywords: *linguopragmatics, pragmatic analysis, speech activity, communicative strategy, context, implicature, discourse analysis, linguistic units*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishi lingvistik tadqiqotlarda paradigma o'zgarishiga olib keldi – statik til tizimini o'rganishdan dinamik nutqiy faoliyat va kommunikativ jarayonlarni tahlil qilishga o'tish amalga oshdi. Lingvopragmatika XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida shakllandi va bugungi kunda til hodisalarini kommunikativ-funksional jihatdan tadqiq etishning eng samarali yo'nalishlaridan biriga aylandi. Lingvopragmatik tahlil til birliklarining nafaqat semantik, balki funksional xususiyatlarini, ularning muloqot jarayonida qanday ishlatilishini va muloqot ishtirokchilariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish imkonini beradi [1]. Lingvopragmatikaning predmeti – bu til birliklarining konkret kommunikativ vaziyatlarda qo'llanilishi, nutq aktlarining amalga oshirilishi, muloqot ishtirokchilarining kommunikativ maqsadlari va niyatlari, kontekstual omillarning nutqiy faoliyatga ta'siri hamda til vositalarining yordam bilan ma'no yaratish jarayonidir [2]. Pragmatik yondashuv tilni faqat ifodalash vositasi sifatidagina emas, balki ijtimoiy harakatning muhim komponenti va muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sir instrumenti sifatida ko'rib chiqadi. Shu jihatdan lingvopragmatik tahlil metodologiyasi zamonaviy tilshunoslikda diskurs tahlili, sosiolingvistika, psixolingvistika va kommunikativ lingvistika uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dolzarbligi lingvopragmatik tahlil tamoyillarining zamonaviy til ta'limi, tarjimashunoslik, diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida tobora keng qo'llanilishi bilan belgilanadi. Lingvopragmatik yondashuv tilni o'rganishda nafaqat leksik-grammatik tuzilmalarni, balki ularning real muloqot sharoitida qanday ishlatilishini tushunish imkonini beradi, bu esa til ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi [3]. Bundan tashqari, lingvopragmatik tahlil turli madaniyatlarga mansub so'zlashuvchilarning kommunikativ strategiyalari va xulq-atvor modellarini taqqoslash, madaniyatlararo muloqot bariyerlarini aniqlash va bartaraf etishda ham muhim rol o'ynaydi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Lingvopragmatik tahlilning metodologik asoslari bir qator nazariyalar va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda, J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi (Speech Act Theory) lingvopragmatikaning fundamental nazariy bazasi hisoblanadi [4]. Nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, har qanday nutq akti uch komponentdan iborat: lokutiv akt (gapning literal ma'nosi), illokutiv akt (so'zlashuvchining niyati va kommunikativ maqsadi) va perlokutiv akt (tinglovchiga ko'rsatiladigan ta'sir). Bu nazariya lingvistik tadqiqotlarda paradigma o'zgarishini belgiladi – tilni faqat ma'lumot uzatish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy harakatni amalga oshirish instrumenti sifatida ko'rib chiqish boshlanadi.

H. P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan kooperatsiya prinsipi (Cooperative Principle) va konversatsion implikatura nazariyasi lingvopragmatik tahlilning yana bir muhim metodologik asosi hisoblanadi [5]. Grice to'rt asosiy maksimani (miqdor, sifat, munosabat va tarz maksimalari) taklif qildi, ular samarali muloqot uchun zarur bo'lgan qoidalar to'plamini tashkil etadi.

Deixis va referensiya muammolari lingvopragmatik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biridir. Deixis – bu nutqiy vaziyatning elementlariga ishora qiluvchi til birliklari bo'lib, shaxs, joy, vaqt va

ijtimoiy deixis turlariga bo'linadi [6]. Deiktik birliklar kontekstga bog'liq ravishda o'z ma'nosini o'zgartiradi va ularning to'g'ri talqin etilishi muloqot vaziyatini bilishni talab qiladi. Masalan, "men", "sen", "bu yerda", "endi" kabi so'zlarning ma'nosi faqat konkret kommunikativ kontekstda aniqlanadi. Deixisning lingvopragmatik tahlili madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega, chunki turli tillarda deiktik tizimlar sezilarli farqlarga ega bo'lishi mumkin.

Xushmuomalalik nazariyasi (Politeness Theory) P. Brown va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muloqot ishtirokchilarining "yuz" (face) tushunchasini saqlash strategiyalarini tahlil qiladi [7]. Muallif larning fikricha, har bir inson ijtimoiy muloqotda o'zining ijobiy "yuzi" (boshqalar tomonidan qabul qilinish, hurmat ko'rilish istagi) va salbiy "yuzi" (harakatlar erkinligi, mustaqillik istagi) ni saqlashga intiladi.

Diskurs tahlili va pragmatika o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlarda alohida e'tiborni talab etadi. Diskurs pragmatik tahlili nafaqat alohida nutq aktlarini, balki keng kontekstdagi kommunikativ jarayonlarni, diskurs strategiyalari va diskurs markerlarining funksiyalarini o'rganadi [8]. Diskurs-pragmatik yondashuv nutqiy voqelikning dinamik tabiati, muloqot ishtirokchilarining rollar va munosabatlari, diskurs tuzilishi va koherentsiyasini ta'minlovchi vositalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Kognitiv lingvopragmatika yo'nalishi pragmatik hodisalarni kognitiv jarayonlar bilan bog'laydi va muloqot ishtirokchilarining mental operatsiyalarini, konseptual strukturalarini va ma'no yaratish mexanizmlarini o'rganadi [9]. Relevance Theory (Munosablik nazariyasi) D. Sperber va D. Wilson tomonidan taklif qilingan bo'lib, insonlarning muloqotda qanday qilib eng kam kuch bilan eng katta kognitiv samara olishga intilishini tushuntiradi. Bu nazariya Grice ning kooperatsiya prinsipiga alternativa sifatida ishlab chiqilgan va pragmatik jarayonlarning kognitiv tabiati haqida chuqurroq tushuncha beradi.

Madaniyatlararo pragmatika sohasida so'nggi yillarda katta yutuqlarga erishildi. Turli madaniyatlardagi nutq aktlarining amalga oshirilishi, xushmuomalalik strategiyalari va kommunikativ normalarning taqqoslanishi zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir [10]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir xil kommunikativ maqsadga erishish uchun turli madaniyatlar vakillari turlicha til vositalari va strategiyalardan foydalanadilar. Masalan, rad etish, iltimos qilish, rozi bo'lish kabi nutq aktlari turli lingvomadaniy muhitlarda sezilarli o'ziga xosliklarni namoyon qiladi. Madaniyatlararo pragmatik kompetensiya zamonaviy globallashgan dunyoda samarali muloqot uchun zarurdir.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy lingvopragmatik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, kontekstuallik prinsipi – til birliklarining ma'nosi va funksiyasi faqat konkret kommunikativ kontekstda aniqlanadi. Kontekst tushunchasi keng ma'noda vaziyat konteksti (muloqot sharoiti, ishtirokchilar, vaqt va joy), lingvistik kontekst (oldingi va keyingi nutq birliklari) hamda madaniy-ijtimoiy kontekstni (ijtimoiy normalar, madaniy qadriyatlar, institutlashgan munosabatlar) o'z ichiga oladi. Pragmatik tahlil doimo kontekstual omillarni hisobga olishni talab etadi, chunki bir xil lingvistik forma turli kontekstlarda turlicha ma'no va funksiyaga ega bo'lishi mumkin [11].

Ikkinchidan, intensionallik prinsipi – pragmatik tahlilning markazida so'zlashuvchining kommunikativ niyati va maqsadi turadi. So'zlashuvchi nutq akti orqali nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki muayyan harakatni amalga oshiradi, tinglovchiga ta'sir ko'rsatadi, munosabatlar o'rnatadi yoki o'zgartiradi. Pragmatik tahlil so'zlashuvchining niyatini aniqlash va u qanday til vositalari bilan ifodalanishini o'rganishni nazarda tutadi. Intensionallik prinsipi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ifodalangan bo'lishi mumkin – implikaturalar, implikatsiyalar va prepositsiyalar orqali. Uchinchidan, inferensiya (xulosalar chiqarish) prinsipi – tinglovchi aytilgan so'zlardan tashqari qo'shimcha ma'nolarni kontekst, umumiy bilimlar va pragmatik qoidalar asosida chiqaradi [12].

To'rtinchidan, interaktivlik prinsipi – muloqot ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir jarayonidir. Pragmatik tahlil muloqotning dialogik tabiatini, navbatma-navbat gapirish (turn-taking) qoidalarini, muloqotni boshqarish strategiyalarini va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning lingvistik ifodasini o'rganadi

Beshinchidan, funksionallik prinsipi – til birliklari nafaqat formal-struktural xususiyatlar bilan, balki ularning kommunikativ funksiyalari bilan tavsiflanadi. Pragmatik tahlil til birliklarining muloqotda qanday maqsadlarga xizmat qilishini, qanday kommunikativ vazifalarni bajarishini o'rganadi. Bir xil til birligi turli kontekstlarda turli funksiyalarni bajarishi mumkin va aksincha, turli til birliklari bir xil funksiyani amalga oshirishi mumkin.

Oltinchidan, madaniy mushtaraklik prinsipi – samarali muloqot uchun ishtirokchilar o'rtasida umumiy bilimlar, tajriba va madaniy-lingvistik fond mavjud bo'lishi zarur. Pragmatik kompetensiya nafaqat til bilimini, balki ijtimoiy-madaniy normalar, xushmuomalalik qoidalari va kommunikativ strategiyalarni bilishni ham o'z ichiga oladi. Madaniyatlararo muloqotda pragmatik noto'g'ri tushunishlar ko'pincha madaniy farqlar bilan bog'liq bo'ladi.

1-jadval.

Lingvopragmatik tahlilning asosiy tamoyillari

№	Tamoyil	Xususiyati	Amaliy ahamiyati
1	Kontekstuallik	Til birliklarining ma'nosi kommunikativ vaziyatga bog'liq	Diskurs tahlili, tarjimashunoslik
2	Intensionallik	So'zlashuvchining kommunikativ niyati markazda	Nutq aktlarini tahlil qilish
3	Inferensiya	Tinglovchi yashirin ma'nolarni xulosalar orqali anglaydi	Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish
4	Interaktivlik	Muloqotning dialogik va dinamik tabiati	Kommunikativ strategiyalarni o'rganish
5	Funksionallik	Til birliklarining kommunikativ funksiyalari muhim	Funksional stilistika tahlili
6	Madaniy mushtaraklik	Muloqot uchun umumiy bilimlar zarur	Madaniyatlararo pragmatika

Jadvalda ko'rsatilgan tamoyillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning majmuasi lingvopragmatik tahlilning metodologik asosini tashkil etadi. Kontekstuallik va intensionallik tamoyillari pragmatik tahlilning fundamental qoidalari hisoblanadi, chunki har qanday nutq akti konkret vaziyatda amalga oshiriladi va so'zlashuvchining muayyan niyatini ifodalaydi. Inferensiya va interaktivlik tamoyillari esa muloqotning kognitiv va ijtimoiy jihatlarini ochib beradi, tinglovchining faol ishtirokini va muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini ta'kidlaydi. Funksionallik prinsipi tilni statik tizim sifatida emas, balki dinamik kommunikativ jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Madaniy mushtaraklik tamoyili esa pragmatik kompetensiyaning madaniy-ijtimoiy asoslarini belgilaydi va madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyillarning to'liq qo'llanilishi zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini yaratadi.

Zamonaviy lingvopragmatik tahlilning amaliy ahamiyati juda kengdir. Til ta'limida pragmatik yondashuv o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, turli kommunikativ vaziyatlarda mos til vositalarini tanlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tarjimashunoslikda pragmatik tahlil manbaa matnning kommunikativ maqsadi va pragmatik ta'sirini maqsad matnda saqlash imkonini beradi. Diskurs tahlilida pragmatik yondashuv matbuot, siyosiy, reklama va boshqa diskurs turlarining manipulyativ potentsialini ochib berishga, yashirin ma'nolarni va ideologik yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy lingvopragmatik tahlil tamoyillari tilshunoslikda funksional-kommunikativ paradigmaning muhim qismi hisoblanadi. Lingvopragmatik yondashuv til birliklarini nafaqat formal-struktural, balki funksional jihatdan ham tahlil qilish imkonini beradi va tilning real muloqot jarayonida qanday ishlashini tushunishga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, lingvopragmatika mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida boy nazariy bazaga va samarali tahlil metodlariga ega. Nutq aktlari nazariyasi, kooperatsiya prinsipi va konversatsion implikatura, xushmuomalalik nazariyasi, kognitiv pragmatika va madaniyatlararo pragmatika konsepsiyalari lingvopragmatik tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Kelajakda lingvopragmatik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari multimodal pragmatika (verbal va noverbal kommunikatsiyaning o'zaro ta'siri), raqamli diskurs pragmatikasi (onlayn muloqot va ijtimoiy tarmoqlarda pragmatik hodisalar), korpus-pragmatika (katta til korpuslari asosida pragmatik tadqiqotlar) va madaniyatlararo pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Zamonaviy lingvopragmatik tahlil tamoyillarining yanada takomillashtirilishi va kengaytirilishi tilshunoslikning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арутюнова Н.Д. Прагматика // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. С. 389-390.
2. Levinson S.C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. 420 p.
3. Юсупов У.К. Контрастивная лингвистика и лингвистическая прагматика. Ташкент: Фан, 2007. 168 с.
4. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
5. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics 3: Speech Acts / Ed. by P. Cole, J.L. Morgan. New York: Academic Press, 1975. P. 41-58.
6. Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесённость с действительностью. М.: Наука, 1985. 271 с.
7. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
8. Dijk T.A. van. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. London: SAGE Publications, 2011. 440 p.
9. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. Oxford: Blackwell, 1995. 326 p.
10. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. 502 p.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. 318 b.
12. Nurmonov A., Mahmudov N., Solixo'jayev B. O'zbek tili nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2020. 352 b.

UO'K: 81.25.42

ISLOMIY TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK, ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK KLASSIFIKATSIYASI

F.A.Ismoilova, tayanch doktorant, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Toshkent
ORCID ID: 0000-0002-3824-9886

Annotatsiya. *Mazkur maqolada islomiy terminlarning leksik-semantik, etimologik va morfologik xususiyatlari o'zbek va ingliz tillari bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi islomiy terminologiyani lingvistik mezonlar asosida tizimli klassifikatsiya qilish hamda uning turli tillarda ifodalanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik va etimologik metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islomiy terminlar semantik maydonlarga asoslangan tizimni tashkil etadi, etimologik jihatdan esa asosan arab tiliga borib taqaladi. Bundan tashqari, tadqiqotda islomiy terminlarning morfologik jihatdan esa arab tilining ildiz-vazn modeli bilan shakllanishi, biroq o'zbek va ingliz tillarida strukturaviy moslashuv turlicha namoyon bo'lishi ham tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *islomiy termin, leksik-semantik tasnif, etimologiya, morfologiya, qiyosiy tahlil, terminologiya*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лексико-семантические, этимологические и морфологические особенности исламских терминов на основе сравнительного анализа узбекского и английского языков. Цель исследования — систематически классифицировать исламскую терминологию по лингвистическим критериям и выявить механизмы её выражения в разных языках. В работе применены описательно-аналитический, сравнительно-типологический и этимологический методы. Результаты показывают, что исламские термины образуют систему, структурированную по семантическим полям, и этимологически преимущественно восходят к арабскому языку. Кроме того, в исследовании анализируется морфологическое формирование исламской терминологии на основе арабской корнево-модельной системы, при этом демонстрируется, что её структурная адаптация в узбекском и английском языках проявляется по-разному.*

Ключевые слова: *исламский термин, лексико-семантическая классификация, этимология, морфология, сравнительный анализ, терминология.*

Abstract. *This article examines the lexical-semantic, etymological, and morphological features of Islamic terms based on a comparative analysis of the Uzbek and English languages. The aim of the study is to systematically classify Islamic terminology according to linguistic criteria and to identify the mechanisms of its expression in different languages. Descriptive-analytical, comparative-typological, and etymological methods were employed in the research. The findings indicate that Islamic terms form a system structured around semantic fields and are predominantly derived*

etymologically from the Arabic language. Furthermore, the study analyzes the morphological formation of Islamic terminology based on the root-and-pattern model of Arabic, while demonstrating that its structural adaptation in Uzbek and English manifests differently.

Keywords: *Islamic term, lexical-semantic classification, etymology, morphology, comparative analysis, terminology.*

Kirish. Islom dini VII asrda Arab yarim oroli hududida shakllanib, qisqa vaqt ichida keng hududlarga yoyildi. Ushbu jarayon natijasida boy diniy-ilmiy terminologiya shakllandi. Islomiy terminlar dastlab Qur'on matnida konseptual asos topib, keyinchalik hadis, tafsir, kalom va fiqh ilmlarida termin sifatida mustahkamlandi. Terminologiya nazariyasiga ko‘ra, terminlar muayyan sohaning tushunchalar tizimini ifodalovchi maxsus birliklardir (Cabré, 1999). Shavkat Rahmatullayev esa o‘zbek leksikologiyasida o‘zlashma qatlam va terminlarning semantik moslashuvi masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Abdulhamid Nurmonov esa til tizimida morfologik moslashuv va derivatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilgan.

Jahon miqyosida Joseph Schacht (1964) va Wael Hallaq (2009) islomiy huquqiy terminlarning shakllanishini o‘rganib, ularning tarixiy evolyutsiyasini ochib bergan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi islomiy terminlarning leksik-semantik, etimologik va morfologik klassifikatsiyasini ishlab chiqish hamda ularni o‘zbek va ingliz tillari bilan qiyosiy tahlil qilishdir.

Metodologiya

Qiyosiy-tipologik metod – tadqiqot davomida ingliz va o’zbek tillarida islomiy terminlarning kalassifikatsiyasi qiyosiy tahlil qilinishi uchun mazkur metoddan foydalanildi.

Differensial metod- ikki tilda mavjud so’zlarning o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida ushbu metod samarali yordam berdi.

Nazariy asos sifatida Cabré (1999) terminologiya modeli, Hallaq (2009) islomiy huquq konsepsiyasi, Rahman (1979) Qur’on tahlili hamda Rahmatullayev va Nurmonovning o‘zbek tilshunosligiga oid qarashlari qo‘llanildi.

Natijalar. Leksik-semantik klassifikatsiya uchun islomiy terminlar quyidagi 3xil farqli konseptual guruxlarga ajratiladi:

- **Aqidaviy terminlar** – diniy-aqidaviy mazmunga ega ushbu guruxdagi so’zlar o’zbek tilida arabcha shakl saqlangan holatda uchrasada, ingliz tilida odatda to’liq tarjima qilingan holatda ishlatiladi. Masalan, *tavhid-monotheism, risolat -prophethood, qiyomat -day of judgment, vahiy – revelation* kabi.
- **Ibodat terminlari**-islomiy ibodat amallarini ifodalovchi so’zlar ushbu gurux sirasiga kiritiladi. Aynan shu tarkibdagi leksik birliklar o’zbek tiliga asosan forsiy tildan o’zlashgan hisoblanib, ingliz tilida esa transliteratsiya emas to’liq tarjima qilingan variantda uchraydi. Masalan, *namoz-prayer, ro‘za-fasting, zakot-almsgiving, haj-pilgrimage* kabi.
- **Fiqhiy terminlar**- ushbu guruxga fiqhiy (musulmonlar uchun qonun-qoida masalalarini ifodalovchi) so’zlar kiritiladi va yuqoridagi turlardan farqli ravishda ingliz tilida transliteratsiya ko’rinishida ham uchrashi ommalashgan. Masalan, *farz-obligatory (fard), harom-forbidden (haram), halol-lawful(halal), makruh-reprehensible(makrooh)* kabi.
- **Axloqiy terminlar**- Rahman (1979) Qur’on axloqiy kategoriyalarining markaziy o‘rinda ekanini ta’kidlaydi. Masalan, *taqvo -piety, sabr-patience, shukr-gratitude.* Rahman (1979) Qur’on axloqiy kategoriyalarining markaziy o‘rinda ekanini ta’kidlaydi.

Etimologik klassifikatsiya. Tabiiyki, islom arab diyorida paydo bo’lib rivojlanganligi sababidan islomiy terminlarning asosiy qismi arab tiliga mansub. Biroq o‘zbek tilida bunan tashqari fors va turkiy elementlar ham mavjud. Bunga sabab arablar istilosidan so’ng II asr o’tib, Xuroson va Movarounnahr xududida fors-tojik tilining adabiyot va ilm tili sifatida ommalashganligi bo’lsa, keyinroq yurtimizda turkiy tilning mazkur vazifani o’taganligi har uchala tildan ham o’zlashgan qatlam tarkibida meros qolganligini belgilaydi. Quyidagi misollar bunga yaqqol dalil bo’lishi mumkin.

O’ZBEK TILIGA O‘ZLASHGAN ISLOMIY TERMINLAR NAMUNALARI		
Arab	**Fors-tojik**	**Turkiy**
Halol	Namoz	Savob

Shariat	Ro‘za	Yassaviya
Hadis	Gunoh	Rizq
Fiqh	Payg‘ambar	tangri
Kufr	Do‘zax	Shayx
Aqida	Xudo	ziyorat

Morfologik klassifikatsiyada o’zbek tilidagi islomiy terminlar tarkibiga va yasalishiga ko’ra uch kichik guruxlarga ajratiladi.

1. Sodda islomiy terminlar. Sodda islomiy terminlar bir morfemadan tashkil topgan bo‘lib, asosan arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar shular sirasiga kiradi. Tahlillarga ko‘ra, bunday so‘zlar ingliz va o‘zbek tillariga ham sodda shaklda tub o‘zakdan iborat ko‘rinishda tarjima qilinishi kuzatiladi.

2. Yasama islomiy terminlar.

Yasama islomiy terminlar affiksatsiya orqali hosil bo‘ladi.Asosan bunda ot so‘z turkumidagi leksik birliklarda sifat yasalishida ushbu jarayon sodir bo‘ladi. Bu holat o‘zbek tilida ayniqsa faol. Qayd etish joizki, o‘zbek tilida affiksatsiya ustun (islom → islomiy → islomshunoslik) bo’lsa, ingliz tilida derivatsiya va kompozitsiya keng qo‘llanadi (Islam → Islamic → Islamization).

3. Qo‘shma islomiy terminlar. Qo‘shma terminlar ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topadi. Bunda asosan ot+ot=qo‘shma ot yoki sifat+ot=qo‘shma ot yasalishi kuzatiladi. Masalan, **Islamic law** termini ingliz tilida analitik birlik bo‘lsa, o‘zbek tilida ***islom huquqi*** shaklida sintetik birlik sifatida qo‘llaniladi. Ushbu vaziyatda tarjimada semantik ma’no ham, morfologik tarkibiga ham putur yetmay tarjima jarayoni osonlashadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari islomiy terminlarning uch asosiy yo‘nalishda klassifikatsiya qilinishini ko‘rsatdi:

1. Leksik-semantik – konseptual maydonlar asosida;
2. Etimologik – arabcha, forscha va boshqa manbalar asosida;
3. Morfologik – arab tilida ildiz-vazn modeli, o‘zbek va ingliz tillarida affiksatsiya va derivatsiya asosida.

Qiyosiy tahlil terminologiyaning lingvistik adaptatsiya jarayonini yoritdi. Mazkur klassifikatsiya ilmiy tadqiqotlar, tarjima va lug‘atshunoslik uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins, p.56

2.Hallaq, W. B. (2009). *Shari'a: Theory, practice, transformations*. Cambridge: Cambridge University Press, p.127

3.Nurmonov, A. (2012). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili morfologiyasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 78 b.

4.Rahman, F. (1979). *Islam*. Chicago: University of Chicago Press, p.24

5.Rahmatullayev, Sh. (2010). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati va leksikologiya masalalari*. Toshkent: Fan, 149-150-bb.

6.Schacht, J. (1964). *An introduction to Islamic law*. Oxford: Clarendon Press, p.8

UO’K 81’42

INGLIZ OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA PRETSEDENT AYTIMLAR

B.T.Jalilov, o’qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tili ommaviy axborot vositalarida pretsedent aytimlarning roli va qo‘llanilish xususiyatlariga bag’ishlangan. Maqolada pretsedentlik hodisaning nazariy asoslari ko‘rib chiqilib, xususan, pretsedent aytimlar mutlaq (o‘zgartirilmasdan) va transformatsiya qilingan (o‘zgartirilgan) shakllarda bo‘lishi, turli misollar orqali frazeologik birliklarning ommaviy axborot vositalari sarlavha va matnlarida qanday qayta faollashishi va yangi kontekstlarda qo‘llanilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *pretsedent fenomenlar. pretsedent aytimlar, ommaviy axborot vositalari, ingliz va o‘zbek tillari, nazariy asoslar.*

Аннотация. *Данная статья посвящена роли и особенностям использования прецедентных высказываний в англоязычных средствах массовой информации. В статье рассматриваются теоретические основы феномена прецедентности, в частности, то, что*

прецедентные высказывания могут существовать в абсолютной (неизменной) и трансформированной (изменённой) формах. На различных примерах анализируется, как фразеологические единицы реанимируются в заголовках и текстах СМИ и используются в новых контекстах.

Ключевые слова: *прецедентные феномены, прецедентные высказывания, средства массовой информации, английский и узбекский языки, теоретические основы.*

Abstract. *This article focuses on the role and specific features of using precedent sayings in English-language mass media. The article examines the theoretical foundations of the phenomenon of precedent, particularly how precedent sayings can exist in absolute (unchanged) and transformed forms. Using various examples, the article analyzes how phraseological units are revived in media headlines and texts and are employed in new contexts.*

Key words: *precedent phenomena, precedent sayings, mass media, English and Uzbek languages, theoretical foundations.*

Til va madaniyatni bir biridan ajratib bo'lmaydi. Fon Humbold, "Har bir millatning o'z madaniyati mavjud, madaniyatning muhim elementlaridan biri esa til hisoblanadi."[2.43] deb ta'kidlagan edi. Hozirgi kunda ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida chet tillariga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yigirma birinchi asrga kelib ingliz tili dunyo tiliga aylandi va global muloqot tili sifatida foydanilmoqda. Bu esa o'z navbatida so'zlovchining nutqida tilning ichki tartib qoidalari grammatik, fonetik, leksik, semantik kabi qoidalarini ham to'g'ri o'zlashtirishi muhim ekanligini taqozo etadi.

Ingliz tilida so'zlovchi nutqida pretsedent fenomenlar orqali ifodalangan til birliklari keng foydalaniladi. Ular matndagi nutqning jozibadorligini, emotsional-ekspressiv va leksik-semantik jihatlarini boyitishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Bunda ayniqsa, pretsedent aytimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pretsedent fenomen va uning tarkibiy qismlarini tilshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida olinishiga rus tilshunoslari roli juda katta. Xususan, pretsedent terminini pretsedent matn doirasida rus tilshunosi Yu. N. Karaulov asos solgan bo'lsa, keyinroq uning izdoshlari V. V. Krasnyx, D. B. Gudkov, G.G. Slyshkin, P. I. Kostomarov kabi boshqa olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida "prtsedenet matni"ni kengaytirib "pretsedenet fenomen" va uning tarkibiy qismlari darajasiga ilmiy izlanishlar olib bordilar.[5.635]

Pretsedent hodisalarning mohiyatini tadqiq etgan olimlar ularning qo'llanilishi doirasiga ko'ra jamoaviy, milliy-etnik va umumbashariy xususiyatlarga egaligini ko'rsatib, struktural-kompozitsion jihatlariga ko'ra quyidagicha tasniflaganlar: Pretsedent nom, Pretsedent aytim, Pretsedent vaziyat va Pretsedent matn.

Pretsedent fenomenlar ichida pretsedent aytim va uni ifodalovchi til birliklari strukrtur-semantik jihatdan boshqalarilan alohida ajralib turadi.

Pretsedent aytim (Прецедентное высказывание) termini V.G.Kostomarov va N.D.Burvikovalar tomonidan taklif qilinib, ularning talqiniga ko'ra, matniy reduksiya natijasida olingan til birliklardan tashkil topgan. Yani, iboralar, maqollar, matallar, qanotli so'zlar, hikmati so'zlar, undalmalar, iqtiboslar, gazeta va jurnallardagi shiorlar, sloganlar, asar nomlari, badiiy va ilmiy maqolalarning sarlavhalari, badiiy va ilmiy asarlarning nomlari, oyatlar, suralar va yaxlit matnlar (sher, sonneta, ballada va h.k.lar yoki ularning misralari) pretsedent aytim sifatida qo'llanilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday pretsedent aytimning negizida matn yoki vaziyat turadi.

V.G.Kostomarov va N.D.Burvikovalarning fikriga ko'ra "agar pretsedent aytim matn bilan strukturaviy bog'liq bo'lsa, o'zini yaratgan matnga nisbatan anaforikdir, ilk marotaba paydo bo'lgan kontekstdagi vaziyatga nisbatan deyktikdir."[3.34] Yani, pretsedent aytim manba matn bilan faqat mano jihatidan bog'liq, strukturaviy jihatdan esa avtosemantik hisoblanadi.

V.V.Krasnix pretsedent aytimga quyidagicha tarif beradi: Pretsedent aytim – nutqiy tafakkur faoliyatining qayta murojaat qilinadigan mahsuloti; predikativ bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan, tugallangan mustaqil birlik; komponentlari mazmunlarining miqdori manosiga mos

kelmaydigan murakkab belgi; manosi har doim mazmun miqdoridan ko‘ra “kengroq”. Uning kognitiv bazasiga pretsedent aytim fikr, mulohaza sifatida o‘zi kiradi.[4.52]

Olimlarning takidlashicha, pretsedent aytimning ifodalanishi asosiga ixchamlashtirish mezoni, matndan ajratib olingan so‘z, so‘z birikmasi yoki fraza olingan bo‘lib, ushbu matning pretsedentligini jamlaydi.

Pretsedent aytimlarning qo‘llanilishini turlarini (ustki, tub, sistemaviy) tahlil qilishda, ikki qismdan iborat, yana bir tasnifni qo‘llash zarurligini aytib o‘tadi: Mutlaq pretsedent aytimlar va Transformatsiya qilingan pretsedent aytimlar.

Mutlaq pretsedent aytimlar – hech qanday o‘zgarishlarga uchramagan, turg‘un iqtiboslar shaklida ajralib turadigan pretsedent aytimlar.

Transformatsiya qilingan pretsedent aytimlar – muayyan o‘zgartirishlarga uchragan, oson taniladigan va qayta tiklanadigan pretsedent aytimlar.

Ushbu ikki turdagi aytimlarning qo‘llanilishidagi farqi shundaki, transformatsiya qilingan pretsedent aytimlar dastlab mutlaq pretsedent aytimlar bilan taqqoslanadi, so‘ngra keyingi mexanizm ishga tushadi.

Ingliz lingvomadaniyati vakllari kognitiv bazasida keng foydalaniladigan “***Let’s Make Great America Again***”, “***God Save the King/Qeen***”, “***To be or not to be***” frazeologik birliklari shular jumlasidandir.

“*Let’s Make Great America Again*” frazeologik birligi mutlaq pretsedent aytim sifatida siyosiy diskursda Amerika Qo’shma Shtatlari prezidenti Donald Trampning 2016, 2020 va 2024 yillar saylovoldi chiqish nutqlarida shior sifatida keng qo’llanilib, ommaviy axborot vositalarida, gazeta-jurnallarda yoritildi.

“President Donald Trump: … For the good of our nation? Let’s work together and *Let’s truly make America great again*.”[6]

Ushbu mutlaq pretsedent aytimga manba vazifasini sifatida dastlab AQSh prezidenti Ronald Reygnning prezidentlik saylovoldi chiqish nutqlarida shior sifatida keng qo’llanildi.

Ushbu frazeologik birlik keyinchalik mutlaq pretsedent aytim va transformatsiya qilingan pretsedent aytim sifatida ingliz tilida so’zlovchilarning nutqida keng qo’llanilmoqda.

“*Let’s Make Great America Again*” frazeologik birligi transformatsiya qilingan pretsedent aytim sifatida ham tez-tez qo’llaniladi.

If this offer is not accepted no one can ever say that I did not try to help my club. ***Let's make Manchester City great again***.[11] Making the EU competitive means making it green and clean, and robust evidence-based policymaking is key to making the right choices. ***Make Impact Assessments Great (Again?***).[11]

Ushbu misollarda “*Let’s make great America again*” frazeologik birligi transformatsiya qilingan pretsedent aytim sifatida qo’llanilganda, uning strukturaviy jihatidan komponentlarini o’zgarganligini, almshtirilganligini, kuzatishmiz mumkin.

“**God Save the King/Qeen**” frazeologik birligi ham pretsedent aytim sifatida inglizzabon sotsium vakillari nutqida faol qo’llaniladi.

“*God Save the King/Qeen*” frazeologik birligi Buyuk Britaniya davlatining davlat madhiyasi hisoblanadi. Ushbu frazeologik birlik ikki, “God Save the King” yoki “God Save the Qeen” shaklga ega. Kop hollarda “God Save the King/Qeen” frazeologik birligi turli inglizzabon sotsium vakillari nutqida pretsedent aytim sifatida qayta faollashganda, transformatsiya qilingan pretsedent aytim, sifatida qo’llanillib, konnotativ mano ifodalaydi. Strukturaviy jihatdan ushbu frazeologik birlik komponentlaridan biri almashtirilishi yoki ozgartirilishi mumkin.

“***God Save Justin Trudeau***: film uses boxing as metaphor for Canada's election”[13]

“The Guardian” gazetasidagi maqolaning sarlavhasida Justin Tryudoning Kanada premier minister lavozimiga kelishi haqida bolib, undagi “God Save Justin Trudeau” transformatsiya qilingan pretsedent aytim sifatida qo’llanilgan. Frazeologik birligikning “*the King*” komponenti “*Justin Trudeau*” komponenti, antroponimi, bilan almashtirilgan.

“**To be or not to be**” pretsedent aytimga aylangan frazeologik birliklardan biri. Uning pretsedent aytimiga manba vazifasini mashhur ingliz adibi Uillam Shekspirning “The Tragedy of

Hamlet, Prince of Denmark" nomli asari III aktdagi Hamletning monoglogiyadagi frazeologik birlik hisoblanadi: ***To be, or not to be***: that is the question: Whether 'tis nobler in the mind to suffer…[8]

Quyidagi misolda "To be or not to be" frazeologik birligi mutlaq pretsedent aytim sifaitida qayta faollashtiriladi:

To Be or Not to Be: That Is the Question Filmmakers Cant Resist.[14]

Ingliz tilida nashr qilinadigan The Sunday Telegraph gazetasi, The Forbes jurnallarida nashr qilingan maqolalarning sarlavhalarida "To be or not to be" frazeologik birligi transformatsiya qilingan pretsedent aytim sifaitida qayta faollashtiriladi: Masalan, ***To treat or not to treat***. [14], ***To test or NOD-2 test***: what is the question? [11]

Ingliz tilidagi maqollar juda ko'p gazeta va jurnallarning sarlavhalarida shior sifatida qo'llanilib, pretsedent aytimning yaratilishiga asos bo'ladi.

Masalan, ingliz tilidagi "**Live and Learn**" maqoli Florida Tayms Yunion jurnalining "Read all about it: Rabbit and Owl: Live and Learn" sarlahali maqolasida ishlatilib, "Rabbit and Owl: Live and Learn" shiorining paydo bolishiga asos boldi. Ushu shior tarkibida ingliz tilidagi "Live and Learn" maqoli mutlaq pretsedent aytim sifatida shiorning komponentiga aylangan.

Demak, nutq jarayonida pretsedent aytimlarning qo'llanilishi butun kontekstning mazmunini aks ettirishda asosiy rol o'ynaydi va retsepiyentlar tafakkurida voqelikka mos tasavvur uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqqan holda pretsedent aytimlar malum vaziyatlarga yoki matnlarga havola qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 134.

2. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Как тексты становятся прецедентными. Русский язык зарубужом. 1999. № 1\94. – С. 73.

3. Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? – М.: Гнозис, 2003. – С. 173.

4. Jalilov B.T. "Turizm sohasida sotsial media,mahalliy madaniyatlar va gid hamrohlik munosabatlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Andijon 29-30-oktabr, 2024 yil. B-634-637

5. President Trump speech to Congress: "Golden Age of America has only just begun". March 5, 2025. Washington. USA.

6. William Shakespeare. The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark. CartonHall. London. P-276

UO'K 81'1:81'22

TIL VA NUTQNING UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK TOMONLARI TAHLILI BOBIDA AYRIM MULOHAZALAR

A.Jumaniyazov, f.f.d., prof., Urganch davlat universiteti, Urganch
N.Polvanova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch
F.Allaberganova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch
D.Toshnazarova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch
D.Jumaniyazova, f.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "til" va "nutq" tushunchalarining umumiy va xususiy tomonlari o'rganilib, farqlari ochiqlanadi, ularga berilgan ta'riflar ilmiy tahlil qilinadi va til birliklari hamda nutq birliklari o'rtasidagi farqlarga aniqlik kiritiladi, o'xshash tomonlari ko'rsatiladi va o'zaro dahldor tomonlari qayd qilinadi.*

Kalit so'zlar: *til, nutq, til birliklari, nutq birliklari, abstrakt, konkret, assotsiativ, uyg'unlashuv, mushtaraklashuv.*

Аннотация. *В данной статье изучаются общие и специфические аспекты понятий «язык» и «речь», объясняются их различия, проводится научный анализ данных им определений, уточняются различия между языковыми и речевыми единицами, выявляются сходства и отмечаются взаимосвязи.*

Ключевые слова: *язык, речь, языковые единицы, речевые единицы, абстрактный, конкретный, ассоциативный, гармонизация, общность.*

Abstract. *This article studies the general and specific aspects of the concepts of "language" and "speech", explains their differences, scientifically analyzes the definitions given to them, clarifies*

the differences between language units and speech units, shows similarities, and notes mutual interrelations.

Key words: *language, speech, language units, speech units, abstract, concrete, associative, harmonization, commonality.*

Ma'lumki, til *(insonlararo muloqot vositasi)* va nutq *(tilning amalda qo'llanilishi)* bobida dunyo tilshunosligi, uning tarkibiy qismi sifatida o'zbek tilshunosligida ham ko'p va ho'b ilmiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Tilning mavhum *(abstrakt)* va nutqning aniq *(konkret)* hodisa ekanligini eslatish bilan bir qatorda, ularning mushtarakligi *(o'zaro uzviy bog'liqligi)* va daxlsizligi *(alohida-alohida ekanligi)* ta'kidlanilgan. Ular tildagi antinomiya*(o'zaro bog'liqlikning chegarasi yo'qligi yoki borligi, biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmasligi)*ning ko'rinishi ekanligini tasdiqlash uchun yirik tadqiqotlar olib borilgan va tahlillar qilingan. Ularning tabiatan va mohiyatan o'xshash *(ikkalasi ham muloqot vositasi, fikr almashuvi quroli)* tomonlari va o'zaro farqli *(30 dan ortiq) [1]* xususiyatlari ochiqlangan.

Biroq qilingan tadqiqotlar ilmiy tanqidiy o'rganilsa, ularning tabiati *(kishilik jamiyati hayotida yaralishi, paydo bo'lishi)* va mohiyati *(ijtimoiy munosabatlardagi o'rni va nima uchun kerakligi)* haqida bildirilgan fikrlarning aksariyat qismida teranlikning kamligi, ayrim mulohazalarda mantiqsizlik holatlari va ta'riflarning to'laqonli chiqmaganligi ko'zga tashlanib qoladi.

Biz dunyo *(ingliz, nemis, rus)* tilshunosligi, asosan, o'zbek tilshunosligida tildagi fenomenal hodisa hisoblanib kelinayotgan til va nutq, ularni ifodalash uchun berilgan ta'rif va misollar hamda ular bobida qilingan katta-kichik ilmiy tadqiqotlarni astoydil o'rgandik va quyida bu borada muayyan ilmiy tanqidiy (shaxsiy) fikr-mulohazalarni bildirishga harakat qilamiz. Bunda til va nutq borasida asosan o'zbek tilshunosligida qilingan eng so'nggi tahlillar, ta'riflar, tadqiqotlarga tayanamiz va ularga nisbatan ayrim *(bahstalab)* mushohadalarimizni bayon qilamiz.

Mulohazalarimiz dastavval "til" borasida bo'ladi. Jumladan, o'zbek tilshunosligining buyuk namoyondalari (M. Irisqulov, A.Sadikov, A.Abduazizov, O.Bozorov, H.Ne'matov, R.Rasulov va b.) [2] tomonidan ta'kidlanilib, milliy qomuslarda, maktab va oliy o'quv yurti darsliklarda e'tirof qilinib kelinayotgan "Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli, muloqot vositasi" ta'rifi bugungi kunda ramzga aylangan bo'lib, tilning tabiati va mohiyatini anglashda aynan shu ta'rifga tayanilayapti. Xos o'quvchi *(tushunchasi va bilimi bor)* bu ta'rif bilan tanishib, *til insonlararo gaplashish, fikr almashish vositasi ekanda* – degan fikrga kelsa, xassos o'quvchi *(ilmli, mustaqil fikrga ega)* esa mazkur ta'rifdan "aloqa" va "muloqot" so'zlari arab tilining lug'at tarkibiy qismi mahsuli ekanligi, ularning *(arabchada biror kimsaga duch kelish va unga biror narsa haqida aytib berish, so'rash, undash)* ma'nosi borligini biladi va ta'rifni yanada to'laqonli anglaydi. Yoxud insonlar tildan foydalanib, bir-biriga ko'rgan, eshitgan va bilganlarini aytishlarini fahmlagan bo'ladi. Ta'rifning to'g'ri berilganligi va u orqali tushunilayotgan voqelikning aniqligiga shubha qilmaydi.

Endi ta'rifga tanqidiyroq yondashamiz. "Til" tabiatan mavhum *(abstrakt)*, tilning "qurol", "vosita" ekanligi esa aniq *(konkret)* narsadir. Chunki, til(*mavhum*)dan muloqot vositasi sifatida (*aniq*) foydalanayotganlik moyana ko'rilib va eshtilib turadi. Yoxud, mavhum hisoblanuvchi til aniq muloqot quroliga aylanadi, abstrakt va konkret uyg'unlashadi. Mazkur jarayon mushohadasi qiziquvchida savol uyg'otadi: Qanday qilib "abstrakt" "konkret"ga aylanadi? Savolga javob izlab, nazdimizdagi ta'rif mazmunida ishtirok qilgan so'zlarning o'zaro sintaktik-semantik ma'no munosabatlariga chuqurroq nazar tashlaymiz. Natijada *vosita* yoki *qurol* so'zlari ma'nan "til" ga emas, balki "nutq" qa aloqador ekanligi yaqqol anglashiladi. Yoxud insonlararo kechayotgan muloqot jarayoni mavhum til orqali emas, *bevosita* aniq "nutq" orqali amalga oshayotgani ravshanlashadi. "Til" esa o'z navbatida *bilvosita* hodisa sifatida mavhumligicha qoladi. Shu ma'noda yuqorida keltirilgan ta'rif yanada to'laqonli chiqishi va pirovard mushohadada aynan "nutq" ta'kidlanilib turishi maqsadida, bizningcha, ta'rifga "nutqiy" so'zini ham qo'shgan ma'qul. Shu zaylda ta'rif "Til kishilik jamiyatida eng muhim *nutqiy* muloqot vositasidir" deb sharhlanilgan bo'ladi va u mantiqan yanada mukammal chiqadi. Ikkinchi tomondan, "til"ning "nutq" bilan tabiatan va mohiyatan mushtarakligi, birining ikkinchisisiz amalga oshmasligi yana bir bora dalillaniladi. Bundan tashqari, qo'shimcha qilib aytish mumkinki, mazkur ta'rif insonlar o'rtasidagi boshqa xabar berish va fikr

almashish (imo-ishora, signallar, noverbal usullar, simvollar, ramzlar v.b.) usullarini inkor qilmaydi, bu usullar orqali yuzaga kelgan muloqot ham kundalik hayotimizda bekam-u ko‘st o‘z holicha kechaverishini ijtimoiy hayotning o‘zi taqozo qiladi. Ta’rifga yana chuqurroq nazar tashlansa, sifatlovchi (nutqiy) va sifatlanmish (muloqot) o‘z-o‘zidan yaxlit bir narsa – tilning ijtimoiy turmushdagi funksiyasiga, muqaddas vazifasi(o‘zaro so‘zlasish, gaplashish)ga ishora qiladi. Boz ustiga til so‘zi ostida uning ko‘p ma’noliligi, avvalo, muloqotda inson a’zosi qatnashishi – **til**, bevosita uning harakati ostida shakllanayotgan hodisa – **til** va, albatta, nutq apparati tovushlari hosilasi – **til** ham birga (qo‘shib, ruhan) mushohada qilinadi va til uchun tavsiya qilingan ta’rifda bu uch narsa inobati ham qayd qilingan bo‘ladi [8]. Fikrimizni yanada quvvatlash maqsadida nutq tilning tug‘ilishi, yashashi va rivojlanishi uchun asosiy omil ekanligi, tilning paydo bo‘lishida nutq tovushlari asosiy funksiyani bajarishlari, til va nutq o‘zaro bir-biriga qancha yaqin bog‘liq bo‘lmasin, nutqning muloqotda, gap orqali inobatda tutilgan maqsadga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlash mumkin. Darvoqe, til azalan va abadan nutq tovushlari yordamida yaraladi va asta-sekin u nutqning qudratli quroliga aylanadi. Til, o‘z navbatida, nutq orqali voqelik kashf etadi.

Yuqorida bildirilgan (umumiy va shaxsiy) fikrlar muloqotda nutqning ro‘lini *alohida* ta’kidlanayotganligini taqozo qiladi. Buning sababini sharhlash uchun aynan “nutq”ning “til”ni reallashuvidagi ro‘li mavzusiga bafurjaroq to‘xtalamiz va ayrim mulohazalarimizni o‘rtoqlashamiz. Eslatib o‘tamizki, “nutq” so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lib, uning sharhi izohli lug‘atimizda quyidagicha qayd qilingan: “Nutq [*a.* – so‘zlash, nutq; gapirish qobiliyati] **1.** Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. **2.** Amaldagi, so‘zlashuv jarayonidagi til. **3.** Tilning aloqa-aralashuv maqsadi va sharoitiga qarab lisoniy vositalardan muvofig‘ini tanlab ishlatish bilan farqlanuvchi turi, uslub. **4.** Jamoat oldida aytiladigan, o‘qiladigan gap, va’z” [9]. Uning tilshunoslikda keng foydalaniluvchi ta’rifi esa “Nutq tilning amalda qo‘llanilishidir”, deb izohlaniladi. Mazkur ta’rif va yuqoridagi lug‘at qaydlari orqali olamda faqat kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan “nutq” hodisasi to‘g‘ri va ismi jismiga monand sharhlanilgan. Tilga qiziquvchi, tilni o‘rganuvchi har bir odam, hatto buyuk tilshunoslar ham, mazkur ta’rifga e’tiroz (hozirgacha) bildirishgani yo‘q, unga hayrixoh qaraydilar va uni to‘la e’tirof etadilar. Biroq, ta’rifning asl ma’nosi va u orqali berilayotgan fikr bayoni bilan chuqurroq qiziqiladigan bo‘lsa, shu narsani qo‘shimcha anglash mumkinki, “nutq” tilning amaliy mahsuli o‘laroq, tilning sistema tarzidagi barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalanadi, hamma qonunlari, qoidalari va tartibiga bo‘ysunadi. Tilning muloqot butunligini ta’minlovchi barcha birliklarini fikr almashishda yagona qurol sifatida qo‘llaydi. Ikki fenomenal hodisa (*til va nutq*) o‘rtasida bir maqsad (*insonlararo muloqotni ta’minlash*)ga yo‘naltirilgan mo‘jizaviy (*til abstrakt narsa, nutq konkret narsa mushtarakligi asosida*) uyg‘unlik, hamjihatlik yuzaga keladi. Aytish mumkinki, hatto til birliklari nutq birliklari deb nomlana boshlaydi. Binobarin, “nutq” tilning barcha (tovush, morfema, so‘z, gap, matn kabi) birliklarini o‘zlashtiradi va ulardan yagona vosita sifatida to‘liq foydalanadi. Eng qizig‘i shundaki, mazkur jarayon tilshunoslar tomonidan turli xil tushuniladi, turfa yo‘llar bilan talqin qilinadi. Darvoqe, “Til” va “nutq” tabiatan ikki alohida hodisa sifatida (*to‘g‘ri*) anglashiladi, har biriga alohida butunlik deb qaraladi. Ularning har birini o‘zlarining alohida birliklari mavjudligi yoki bor bo‘lishi ta’kidlaniladi. Chunonchi, tovushlar, so‘zlar, gaplar, matnlar haqli ravishda, til birliklari deb qayd qilinadi. Ammo, “nutq” ham tabiiy ravishda tovushsiz, so‘zsiz, gapsiz, matnsiz amalga oshmasligi (assotsiativ) inobatga olinib, aynan shu birliklar nutq birliklari qatoriga (ilojsiz) kiritiladi. Bunday munosabat mazkur birliklar “til” nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, ular *til birliklari,* ular borasidagi munozara, fikr-mulohazalar “nutq” mavzusiga bag‘ishlansa, ular *nutq birliklari* deb atalishida kuzatiladi. Natijada, ularning ilmiy-amaliy tahlili ham shu nomlanishlar asosida kechadi. Masalaga bunday yondashuv yoxud til birliklarini nutq birliklari deb qabul qilinishi, ular o‘rtasidan farq izlab o‘tirilmasligi, muammoning eng oson yechimidir. Zero, milliy tilshunosligimizda ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish uchun qilingan ayrim ilmiy tadqiqotlarda (aslida oddiy) masalani o‘ta murakkablashtirib yuborilganligini kuzatish mumkin. Taniqli o‘zbek tilshunosi Sh.Rahmatullayev til va nutq o‘rtasidagi farqlar tahlilida e’tiborga loyiq g‘oyalarni ilgari suradi: “Til”ning uchta (1.tana a’zosi; 2. nutq tovushlari hosilasi; 3. nutqiy muloqot vositasi) *aniq* va ko‘plagan (olov tili, asbob-mexanizmlar tili, hayvon tili va b.) *ko‘chma* va umumqo‘llaniluvchi (ona tili, chet tili, rus tili)

mavhum ma'nolari bor… Ularni nutqdan farqlashda "Tilshunos oldida turgan eng birinchi masala til so'zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhim aloqa-aralashuv quroli deyiladi. Bu ta'rif lingvistik ta'rif emas, falsafiy ta'rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, til so'zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko'rinadi: 1) ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi; 2) ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holatigina tushuniladi. Demak, til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. Til so'zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan, til so'zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani lison deb atash mumkin" [9]. Olimning yuqorida keltirilgan til va nutq borasida fikr-mulohazalarini mazkur ikki fenomenal til hodisasining differensatsiyasi uchun qilingan navbatdagi dadil urinishlardan biri desak bo'ladi. Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur xulosalarda ham ayrim g'alizliklar bor. Chunonchi, *til kishilar orasidagi eng muhim aloqa-aralashuv quroli* deyishda qo'llanilgan "aralashuv" so'zi, kishi fikrini chalg'itadi. Zero, *aralashuv*ning leksik ma'nosi kishi ongida, tasavvurida qo'shilish, qorishish, quralashish kabi mushohadani taqozo qiladi. "Aloqa" so'zi ham ko'p ma'noli bo'lib, mazkur so'z *(aloqa-aralashuv)* birikmasida aynan *muloqot* ma'nosini bildirmaydi. Til va nutq bobida aytilgan ta'riflarni lingvistik va falsafiy turlarga bo'linishi ham maqsadga muvofiq emasday. Falsafa barcha fanlarning otasi, shu ma'noda, lingvistikaning ham. Aslida, har qanday ta'rif "falsafiy" hisoblanadi. Qolaversa, til mavhum hodisa sifatida butunga va qismga bo'linmaydi, til sathlarga bo'lib o'rganiladi. Shu ma'noda, til nutqni qamrab olsa - butun, nutqni qamrab olmasa – qism, deb tushunilishi til va nutqni (ikki butunlikni) yaxlitlab qo'yadi. Olimning navbatdagi mulohazasi "til" so'zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani *lison* deb atash mumkin degan izohi masalani yechishda yana bir variant, shaxsiy fikr deb qabul qilinishi mumkin, biroq u ham mantiqan teran chiqmaydi. Nainki, "lison" bizning "til" leksemamizning arabcha muqobilidir. "Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar (til xotirasidagi boylik) va ularni *ishlatish qoidalari*" degan ta'rif ham olimning shaxsiy ilmiy tavsiyalari deb tushunilmog'i lozim. "Nutq – miyada til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (Nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi)" ta'rifida ham, oddiy va sodda narsalar murakkablashtirilganligi yaqqol ko'rinadi. Zero, *nutq tilning amalda ifodalanishi* degan lo'nda sharh orqali masala bobida nomlanilgan barcha tavsifiy va ta'rifiy murakkabliklarni bartaraf qilish mumkin. O'z navbatida, aytilgan fikr-mulohazalarga yana shuni ham qo'shib o'tishni joiz deb bilardikki, nutq, aslida, olim ta'kidlaganidek, *miya*da yoki *xotira*da yuzaga kelmaydi, balki inson *qalbi*da shakllanadi, keyin miya va nutq apparati vositachiligida, qalb mahsuli sifatida muloqotga aylanadi. Darvoqe, nutqni kishi miyadan qilmaydi, *qalbdan, yurakdan* qiladi. Miya qalb va nutq o'rtasidagi vositadir, xolos. Zero, miyani ishlatamiz, qalbdan gapiramiz. Chin miyadan yaxshi ko'rmaymiz, chin qalbdan yaxshi ko'ramiz. Chin miyadan tabriklamaymiz, chin qalbdan tabriklaymiz.

Asrlar davomida dunyo tilshunoslari tomonidan "til bilan nutq *o'zaro* dixotomiya, oppozitsiya hosil etuvchi hodisalar" deb xayrixoh qaralib kelinayotgan fikr ham Sh.Rahmatullayev tomonidan ma'qullanilmaydi, e'tirozlar esa quyidagicha talqin qilinadi, u(iqtibos)larni aynan keltiramiz: "Ayrim adabiyotlarda til bilan nutq o'zaro dixotomiya, oppozitsiya hosil etuvchi hodisalar deb qaralib, *til* ↔ *nutq* tarzida baholanadi. Aslida, til bilan nutq dixotomiyasi haqida, oppozitsiyasi haqida gapirish to'g'ri emas (*dixotomiya* yunoncha *dicha* – 'ikki qismga' + *tome* 'ajratish'; *oppozitsiya* lot. *oppositio* – qarama-qarshi holatda bo'lish), chunki til bilan nutq butun bilan qism munosabatidagi hodisalar. Nutqqa muqobil holda ajratiladigan hodisa deb til emas, balki lison ta'kidlanishi lozim. Bu munosabatni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Til	
Lison	nutq

Lison bilan nutq o'zaro dixotomiya hosil etadi, lekin zidlanuvchi (oppozitiv) hodisalar emas, balki asos va hosila munosabatidagi hodisalar. Bunday munosabatni lisondagi boylikdan foydalanish jarayonini ham hisobga olgan holda quyidagicha chizma bilan ko'rsatish mumkin:

Til		
Lison	Lisondagi boylikdan foydalanish jarayoni	Nutq

Til hodisasi, dastlab, nutqda paydo bo‘ladi, takror-takror ishlatilishi natijasida miyaning til xotirasi qismida bu hodisaning ramzi shakllanadi, keyinchalik, ana shu ramzdan nusxa olib, nutqiy birlik hosil qilinadi. Demak, asli, til hodisalari nutqdan lisonga ko‘chadi va keyingina lisondan nutqqa olib chiqiladi. Bunday ikki tomonlama munosabatni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:

Til		
lison	Lisonning nutq asosida shakllanish va boyish jarayoni Lisondagi boylikdan foydalanish jarayoni	nutq

Lisonda bor imkoniyatlargina nutqda voqelanadi, lisonning imkoniyatlari boy bo‘lib, nutqda uning ma’lum bir qismigina namoyon bo‘ladi deyishdan lison go‘yo azaliy, tug‘ma, mukammal degan fikr tushuniladi. Vaholanki, hali tili chiqmagan go‘dakning miyasidagi til xotirasi qismida hech qanday ramz bo‘lmaydi, go‘dak nutqni egallay boshlaganidan keyingina, miyasida ramzlar paydo bo‘ladi. Demak, lison azaliy (zot) emas, balki nutq asosida shakllanadigan, to‘ldiriladigan boylik. Tilning taraqqiyoti nutq yordamida voqe bo‘ladi. Har qanday yangilik, masalan, yangi leksema yasash, boshqa tildan leksema olish, avvalo, nutqda voqe bo‘ladi, bu yangilik til taraqqiyoti qonunlariga zid bo‘lmasa, lisonda ramz sifatida muhrlanadi, ana shundan keyin lisondagi bu ramzdan nusxa olib nutq hosil qilinadi” [7].

Talqinlardan ko‘rinib turibdiki, tilshunos Sh.Rahmatullayev til va nutqqa falsafiy yondashishni ma’qul ko‘rmay, masalani lingvistik nuqtayi nazardan yechish mumkinligi borasida bildirgan xulosalari oson narsani qiyinlashtirishdan boshqa narsa emas. Binobarin, dunyo tilshunosligida til va nutqning qanday hodisa ekanligi hanuzgacha to‘laqonli topilmagan va bu borada olimlar o‘rtasida qizg‘in bahslar davom etayotgan bir paytda, “til va nutq” tushuncha(ikki)lari orasiga uchinchi bir tushuncha “lison”ni qo‘shib o‘rganishni tavsiya qilish, boz ustiga, “til va lison”ni tabiatan va mohiyatan bir-biridan farqlamaslik, bizning yuqoridagi fikrimizni quvvatlasa kerak.

“Til va nutq”ni o‘rganish jarayonida mazkur hodisalar orasiga uchinchi bir qonuniyatni qo‘shishni tavsiya qiluvchilar orasida yosh olima Z.Xolmonova ham bor. U o‘zining “Tilshunoslik nazaryasi” darsligida quyidagi fikrlarni bildiradi, iqtibosni aynan keltiramiz: “…til va nutq, Sossyur ta’riflaganidek, bir-biriga zid tushuncha bo‘lgani holda (Sossyur bu o‘rinda bir-birini taqozo qiluvchi zidlikni nazarda tutgan), bir-biriga bog‘liq ravishda bir-birini talab qiladi, to‘ldiradi. Hozirgi davr sistem tilshunosligida til va nutq oppozitsiyasidan kelib chiqib, nutq faoliyati quyidagi uch tarkibiy qismdan iborat, deb hisoblanadi.

1.Til. 2.So‘zlash qobiliyati (tildan foydalanish ko‘nikmasi va malakasi). 3.Nutq. *Til* deganda ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilgan, hamma uchun umumiy, qabul qilinishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar va shu birliklarning o‘zaro birikishi, bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisi tushuniladi. *So‘zlash qobiliyati* tushunchasi ostida ma’lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tilni bilishi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmasi va darajasi anglashiladi. *Nutq* esa yuqorida ta’riflangan til imkoniyatlari asosida ayrim shaxs tomonidan so‘zlash qobiliyati ko‘magida ma’lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo‘llanish natijasidir” [10]. Keltirilgan iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, olima Z.Xolmonova til va nutq ta’rifi borasida e’tiborga loyiq mustaqil fikrlar bildirgan. Kengaytirilgan ma’noda til va nutq shunday izohlanishi mumkin, ammo til va nutq aloqasini *shaxs qobiliyatiga* bog‘lab o‘rganish nafaqat falsafiy, balki lingvistik qonuniyatlar chegarasidan chiqadi. Nainki, til muloqot vositasi sifatida va nutq tilning amalda qo‘llanilishi qabilida bu ikki fenomenal til hodisasiga ayrim olingan shaxslarning qobiliyati, ko‘nikmasi va malakasining hal qiluvchi daxli yo‘q. To‘g‘ri, muloqot qiluvchi har bir shaxs uchun til va nutq eng muhim hisoblanadi, shaxs til va nutq mukammalligi uchun muayyan (ijobiy-salbiy) rol ham o‘ynashi mumkin, lekin shaxs (yoki uning qobiliyati) hech qachon til va nutqning *orasiga* tusholmaydi. Yoxud, ketma-ketlik (til va nutq)ning tarkibiy tartibiga “shaxs” tushunchasini qo‘shish tabiatan va mohiyatan to‘g‘ri kelmaydi. Zero, tildagi bu lingvistik hodisani *til, shaxs, nutq* tasavvurida o‘rganish alohida sotsiolingvistik tahlilni talab qiladi. Shaxs (uning qobiliyati) nutq va til oralig‘i(o‘rtasi)da *zohiran* turishi shart emas, chunki u *ruhan* anglashilib turiladi. “Shaxs”ning tilga

ham nutqqa ham yaqin bog‘liqligi bor, hatto shaxs ularning egasi deb hisoblaniladi. “Shaxs” *nutq sohibi* sifatida - o‘z, *til sohibi* sifatida - ko‘chma ma’noda tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan, tilning barcha qonuniyatlari falsafasiz yechilmaydi. Mazkur ma’noda, “til va nutq” bog‘liqligi va farqlarini to‘laqonli tushunishda ham, albatta, falsafa darkorligini tilshunoslarimizdan H.Ne’matov va O.Bozorov o‘z vaqtida to‘g‘ri va mantiqan asosli ta’kidlashgan edi. Iqtibosni aynan keltiramiz: “Til bilan nutq orasidagi munosabatga dialektik nuqtayi nazardan yondashilgandagina, u haqda tasavvur, bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi, mukammalashadi. Haqiqatdan ham, til va nutq dixotomiyasiga dialektik materializmning umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va natija kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashsak, tilga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi bevosita ko‘rib-bilib bo‘lmaydigan tomonlarning, nutqqa esa xususiylik, hodisa, voqelik, natija kabi tomonlarning aloqador ekanligini ko‘ramiz. Shuning uchun ham biz til va nutq hodisalarini dialektik materializmning yuqorida eslatilgan kategoriyalari asosida o‘rganmog‘imiz lozim” [5]. Mazkur fikr Sh.Rahmatullayev tomonidan davom ettiriladi va quyidagi xulosaga kelinadi. U aytadiki: “Demak, til hodisalariga ikki nuqtayi nazardan – lison nuqtayi nazaridan va nutq nuqtayi nazaridan baho beriladi, shu asosda til birliklari va nutqiy birliklar deb farqlanadi” [6]. Mazkur olimlar, hatto til birliklari va nutq birliklarini farqlab ko‘rsatuvchi sxema ham tavsiya qilishadi.

Til birliklari	Nutq birliklari
fonema	tovush, fon (harf)
morfema	bo‘g‘in
leksema	affiks (qo‘shimcha), morf, so‘z (leks)
konstruksiya (model)	so‘z forma; so‘z birikmasi; gap; mikrotekst; makrotekst

Morfemalar va bo‘g‘inlar farqlanishi kerakligini ta’kidlash maqsadi va mazkur sxemani yanada oddiylashtirish uchun olima Z. Xolmanova [10] quyidagi sxemani taklif qiladi:

Til birliklari	**Nutq birliklari**
fonema	fon
morfema	morf
leksema	leks
konstruksiya (model)	so‘z shakli; so‘z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst.

Sxemalardan ko‘rinib turibdiki, til va nutq birliklari deb ajratib nomlangan elementlar tilshunoslikda shu paytgacha til birliklari sifatida o‘rganilar edi va ularni farqlashga ham zaruriyat yo‘q edi. Ularni til birliklari sifatida tushunish ham oson edi, zero, fonema – tilning eng kichik ma’no farqlovchi birligi, morfema – tilning eng kichik ma’no tashuvchi (mustaqil qo‘llanilmovchi) birligi, leksema – ma’no va mazmunga ega til birligi, so‘z – tilning eng kichik mustaqil qo‘llanuvchi, mustaqil ma’noga ega birligi sifatida barcha tilshunoslar tomonidan xayrixoh o‘rganib kelingan. Endi ularni birini tilga, birini nutqqa qarashli deb ajratish, bizning fikrimizcha, yuqorida ta’kidlaganimizdek ma’qul emas. Yuqoridagi birliklar nazariy jihatdan va amaliy jihatdan boshqacha nomlanishini tavsiya qilish yoki, so‘z formasi, so‘z birikmasi, gap, mikrotekst, makrotekst kabi birliklarni “nutq birliklari” mavzusi ostida o‘rganish ham masalani ancha chigallashtirishdan boshqa narsa emas. Bundan tashqari, Sh. Rahmatullayev “til qurilishining asosiy birliklari tavsifida eng asosiy birlik *til tovushlari* deb ta’kidlaydi va til tovushining ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi, deydi” [6]. Bu fikr ham e’tirozli, zero, til tovushlari deganda ramzan muayyan tillarga oid muayyan tovushlar, masalan: *bu tovush faqat ingliz tilida bor, o‘zbek tilida unga o‘xshash tovush yoq, bu tovush esa o‘zbek tilimizda bor ingliz tilida uning muqobili yo‘q* deb aytganimizda, mazkur tovushlar biror tilga xos o‘sha til tovushi sifatida tushunilardi. Bundan tashqari, nutq tovushlari hosil bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra bo‘g‘iz (bo‘g‘izda hosil bo‘lgan), lab (lab ishtirok qilgan) va til (hosil bo‘lishida tilimiz (a’zo) ishtirok qilgan) tovushlariga bo‘lib o‘rganiladi-ku! Yuqoridagi tavsiyaga ko‘ra, *til tovushlari* deganda ishora nimaga qaratilayotgani noma’lum bo‘lib qolayapti. Har qanday tilga xos tovushlar, soni va sifatidan qat’iy nazar, nutqqa chiqmaguncha oddiy tovush (garchi ayrim tovushlarning ma’nosi bo‘lsa ham) bo‘lib qolaveradi. Ma’no anglatuvchi tovush nutqqa chiqishi kerak, nutqda uning bildirib kelayotgan ma’nosi aniq bo‘ladi. Shu sabab tillarga xos tovushlarni til tovushlari va nutq tovushlariga bo‘lib emas, hozirgacha hamma maqbul qaragan va

xayrixoh bo‘lgan *nutq tovushlari* termini ostida o‘rgangan ma’qul. Ze’ro, mavhum narsadan tovush chiqmaydi. Buni dialektika allaqachon tasdiqlagan va o‘z-o‘zidan ham tushunarli.

Yuqorida til va nutqning o‘ta yaqin hodisa ekanligi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmasligi ta’kidlanildi. Ayrim holatlarda ularning muloqotda ma’nodosh qo‘llanilishi yoxud biri o‘rnida ikkinchisini farqlanmay (til tovushi – nutq tovushi, til birligi – nutq birligi qabilida) talqin qilinishi, bu ikki hodisani tafovutini ilmiy tahlil qilinishini taqozo etadi. Birinchi tafovut shundan iboratki, til sathlarga (fonetik, grammatik, leksik va b.) bo‘lib o‘rganiladi. Nutq sathlari esa yo‘q. Sathlarni aniqlab kelayotgan so‘zlardagi *-tik, -ik* suffikslari grek tiliga xos bo‘lib, *ta’lim, oid* ma’nosini bildiradi yoxud *fonetik* – (so‘zga oid) nutq tovushlari haqida, *grammatik* - so‘z shakllarini o‘zgarishi (turlanish, tuslanish, darajalanish) haqida, *leksik* – so‘z ma’no (o‘z, ko‘chma)lari haqida gap borayotganini mantiqan bildiradi. *Fonema, morfema* va *leksema* so‘zlaridagi *-ema [12]* qo‘shimchasi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, bu suffiks ham grek tilidan olingan bo‘lib, u o‘zi qo‘shilib kelayotgan *fon-, morf-, leks-* larning amalda (funksional) qo‘llanilayotganligini ta’kidlashga xizmat qiladi, ya’ni *fon-, morf-, leks-* nutqda ruhan ishtirok etayotganligini bildiradi. Tilning abstrakt, nutqning konkret ekanligi ruhan uyg‘unlashadi. Ularning fonema – til, fon – nutq, morfema – til, morf – nutq, leksema – til, leks – nutq birliklaridir deb ta’kidlab, tavsiya qilib o‘tirilishiga hojat qolmaydi.

Hamonki, falsafaning umumiylik va xususiylik qonuniyati nuqtai nazaridan til va nutq o‘zaro farqlanadigan bo‘lsa, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Til	**Nutq**
1.abstrakt	*konkret*
2.umumiy	*xususiy*
3.ijtimoiy	*shaxsiy*
4.borliq	*hodisa*
5.shakl	*mazmun*
6.nazariy	*amaliy*
7.sabab	*oqibat*
8.imkoniyat	*voqelik*
9.zaruriyat	*tasodif*
10.rema	*tema*
11.butunlik	*nobutunlik*
12.invariant	*variant*
13.tanlov	*did*
14.sotsial	*psixik*
15.maqsad	*samara*
16.holat	*harakat*
17.sistema	*struktura*
18.noreal	*real*
19.o‘zgarmas	*o‘zgaruvchan*
20.tizim	*qonun, qoida, tartib*
21.hadsiz	*hadli*
22.axronik(vaqtsiz)	*xronik(vaqtli)*
23.uzual	*okkazional*
24.langue	*parole*
25.regulyar	*noregulyar*
26.stabil	*dinamik*
27.barqaror	*beqaror*
28.paradigmatik	*sintagmatik*
29.noaniqlik	*aniqlik*
30.bir xillik	*har xillik [8]*

Til va nutqni farqli o‘rganishilishi buyuk rus tilshunoslaridan G.V.Kolshanskiy, V.A.Zveginsevlarning[11] ilmiy izlanishlarida uchraydi. Ularning davomchilari sifatida o‘zbek tilshunoslaridan M.Irisqulov, A.Sodiqov, S.Saidaliyev va R.Rasulov [4] va boshqalarni nomlash

mumkin. Til va nutq farqlarini belgilashdagi yuqoridagi mulohazalarimizda biz aynan ularning fikrlariga tayanib ish tutdik, farqlar soni va miqdorini baholi qudrat o‘zlarimizcha oshirdik. Bunda til va nutqning o‘zaro juz’iy ma’no munosabatlari til va falsafiy tomondan e’tiborga olindi. Mazkur fasl nihoyasida muloqotda nutqning amaliy mohiyatiga to‘xtalib o‘tishni ham joiz deb o‘ylaymiz. Ma’lumki, nutq insonlar o‘rtasidagi muloqot sifatida yozma va og‘zaki xususiyatga ega. Og‘zaki nutqda uning aytilishi – urg‘u, intonatsiya, ohang, ton, temp, tembr, ritm va intensiv bo‘lishi, yozma jihatdan imlo punktuatsion va orfografik to‘g‘ri bo‘lishi va u o‘qilganda pauzalarning ham muhim rol o‘ynashi bilan bir qatorda, nutq yuksak darajada ma’naviy va madaniy, estetik ta’sirchan bo‘lishi kerak. Nutqning ma’naviyligi insonning pok ruhidan dalolat bersa yoxud uning pok yeyishi, pok ichishi, pok kiyinishi va pok turmush tarzini ifodalasa, uning madaniy tomoni joizligini ham talab qiladi. Ya’ni notiqning suhbatdosh (zamondash)ini aziz (*ulug‘*) tutib, o‘z nutqini to‘g‘ri (*aldamay*), aniq (*ko‘rib, bilib*), sof (*chet so‘zlarsiz*), mantiqiy (*ismi jismiga monand*), badiiy (*kayfiyatni ko‘taruvchi*), boy (*ma’no-mazmunli*) va jo‘yali (*tartibli*) qo‘llashi joizligini taqazo qiladi. Shunda nutqning emotsional (hissiy ta’sir) va ekspressiv (hissiy ta’sirning amalda ko‘rinishi) kuchi oshadi.

Maqolaga xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, insonlararo eng muhim nutqiy muloqot vositasi – til o‘zining birliklariga ega. Ular nutq tovushi, harf (tovushning yozma belgisi), morfema, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, juft so‘z, takror so‘z, frazema (frazeologizmlar), gap va matndan iborat bo‘ladi. Nutq esa tilning amalda qo‘llanilishi bo‘lib, u ham yuqoridagi til birliklari asosida shakllanadi. U yozmami, og‘zakimi yoki ruhiymi aynan shu yuqorida zikr qilingan birliklardan foydalanadi va ularning deyarli hammasi dunyo tilshunosligida nutq birliklari deb ham o‘rganilib kelinmoqda. Nimagadir, nutq tilning amalda (to‘liq) qo‘llanilishi ta’rifiga har tomonlama hayrixoh olimlar, *xuddi shu til birliklari*ni nutqda to‘liq qo‘llanilishini ko‘rib-eshtib bilib, ularni endi *nutq birliklari* deb ataydilar?! Nutq tilning amalda qo‘llanilishi ekanini anglagan tilshunos, nutq til birliklarini ham amalda qo‘llanilishi ekanligini assotsiativ (*bilvosita tomonlarini hissiy idrok orqali*) sezib turishi hech qanday e’tiroz talab qilmaydi. Zero, mazkur voqelik o‘z-o‘zidan tushunarli va ko‘rinib turgan hol. Binobarin, nutq xuddi shu til birliklaridan foydalanadi. Ulardan nutqda foydalandik, ular endi nutqniki bo‘ldi, shu bois ular (til birliklari)ni nutq birliklari deb atalishi til va nutq hodisasini tushunishda murakkablik keltirib chiqaradi, oson qiyinlashtirilgan bo‘ladi. Vaholanki, masala mohiyati *nutqda til birliklaridan foydalaniladi* deyish bilan tugal yechiladi. Hozirgi kundagi muloqot birliklarini fon - nutq, fonema – til, morf – nutq, morfema – til, leks – nutq, leksema – til, so‘z shakli (словоформа) – nutq, so‘z (словолексема) – til, aniq tekst (replika) – nutq, matn (tekst turi) – til qabilida (ortiqcha) izohlanib va sharhlanib o‘tirilmas edi. Mulohazalarga yakun qilib, yana shuni aytishni istardikki, muloqotda til birliklari atamasini saqlab, nutq birliklari atamasini muloqotdan olib tashlash kerak degan niyatimiz yo‘q. Zero, ular shunday ham ma’nodosh, variantdor atamalar hisoblanilib, tahlilda nutq birliklari deganda doimo til birliklari nazarda tutiladi. Mazkur birliklar *umumiylik nisbati*ga asosan o‘rganilgani ma’qul. Binobarin, ularning muloqotdagi vazifasi va o‘rni uyg‘unlashadi, yaxlitlashadi, yakka voqelik ko‘rinishini kasb etadi. Qizig‘i shundaki, ular orasidagi *xususiylik nisbati* esa til va nutq farqlarini hayolan inobatga olgan holda ruhan anglashiladi. Bu esa tilning xossatan abstrakt va nutqning konkret hodisa ekanliklari, muloqotda umumiylik kasb etishi bilan ochiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Allaberganova F. O‘zbek va ingliz tillarida so‘z birikmalarining qo‘shma so‘zlarga aylanish xususiyatlari. PhD dissertatsiyasi. Urganch – 2026. – B. 41-42.

2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1981. – B. 15-41.;

3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – B. 231-250.;

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Darslik. – Toshkent – 2010. – B. 180-191.;

5. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, O‘zbekiston. 1993. – B. 10.;

6. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. Toshkent. Universitet. 2002. – B. 3-4.

7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent. Universitet, 2006. – B.4–5.

8. Jumaniyazov A., Jumaniyazova D. Til va nutq haqida ayrim mulohazalar. Til va tarjima muammolari. mavzusidagi ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. Namangan, 2019. – B. 7.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti. 2020. – B. 67-68.

10. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazaryasi: darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B.65.

11. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – Москва, 1976. – С.10.

12. Ladumod Bußmann. Lexikon der Sprachwissenscharf. Deutschland: Alfred Kröner Verlag Stuttgart, 2002. – S.187.

UO’K 811.112.2+811.512.133’373.7:81’44

NEMIS VA O‘ZBEK MAQOLLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

D.A.Jumaniyazova, PhD, dots., Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

K.Nurjanova, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis va o‘zbek maqollarining funksional semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nemis va o‘zbek maqollarining funksionalsemantik qiyosi misollar orqali ko’rsatib beriladi, mavjud farqlar va o’xshashliklarga izohlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, funksional-semantik xususiyat, ma’no, mazmun, vazifa, mentalitet, madaniyat, turmush tarzi*

Аннотация. *В данной статье анализируются функционально-семантические особенности немецких и узбекских пословиц. Функционально-семантическое сопоставление немецких и узбекских пословиц демонстрируется на примерах, даются пояснения к существующим сходствам и различиям.*

Ключевые слова: *пословица, функционально-семантическая особенность, значение, содержание, функция, менталитет, культура, образ жизни.*

Abstract. *This article analyzes the functional-semantic features of German and Uzbek proverbs. The functional-semantic comparison of German and Uzbek proverbs is illustrated through examples, and explanations are provided for the existing similarities and differences.*

Key words: *proverb, functional-semantic feature, meaning, content, function, mentality, culture, lifestyle.*

Ma'lumlki, har bir xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va hayotiy tajribasi uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Til esa o‘z navbatida xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Shu ma’noda maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sermazmun janrlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ular nafaqat so‘z boyligini, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari, qadriyatlari hamda madaniy merosini ifodalaydi. Maqollar ko‘p hollarda xalqning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan donishmandlik mahsuli bo‘lib, ular nutqda qisqa, ammo chuqur ma’noli shaklda fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Nemis va o‘zbek xalqlari uzoq tarixiy jarayonlarda o‘z madaniyatini shakllantirgan, turli ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda o‘ziga xos mentalitetni yaratgan xalqlar bo'lganligi sababli ham ularning maqollari o‘sha xalqning turmush tarzi, axloqiy qarashlari va qadriyatlarini chuqur ifodalaydi. Shu boisdan nemis va o'zbek maqollarining funksional-semantik xususiyatlarini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda maqollar funksional-semantik xususiyatlarining birgalikda o’rganilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqollar semantik tomondan xalq hayotidagi ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, diniy e’tiqod va hayotiy tajribalarni mujassam ettirsa, funksional jihatdan esa ular nasihat berish, ogohlantirish, baholash, kinoya yoki rag‘batlantirish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Shuningdek, nemis va o‘zbek maqollarida umumiy insoniy qadriyatlar — vaqtning qadri, so‘zning kuchi, halollik, donolik, va sabr kabi tushunchalar o‘xshash semantik maydonni tashkil etadi. Shu bilan birga, har bir xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligi sababli ayrim farqlar ham kuzatiladi: o‘zbek maqollarida diniy ruh, axloqiy pand-nasihat ohangi kuchli bo‘lsa, nemis maqollarida hayotiy tajriba va falsafiy mushohada ustuvor hisoblanadi. Maqollarni tasnif qilishda mazmun yetakchi o'rin hisoblanadi. Bunga ko'ra Vatan, mehnat, oila, do'stlik, sabr, bilim kabi mavzular yetakchi hisoblanadi. Nemis maqollarida individuallik, intizom, tartib va iqtisodiy tejamkorlik haqidagi mushohadalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan: «Ordnung ist das halbe Leben» (Tartib – hayotning yarmi.) [2.438]. Ushbu maqolda nemis jamiyatida tartib intizom, rejalilik va mas’uliyatni ifodalaydigan qadriyatlar juda muhumligi ko'rsatilgan. Ularning fikricha, inson hayotida muvaffaqiyat va osoyishtalik ko‘p jihatdan ishni to‘g‘ri tashkil qilishga, vaqtni rejalashga va vazifalarni tartib bilan bajarishga bog‘liq. Tartibli ish yuritish, hujjatlar va

buyumlarning joyida bo‘lishi, vaqtga amal qilish, gigiyena va shaxsiy mas’uliyat jamiyatda yuqori baholanadi. Bundan tashqari, hayotning har bir sohasida – o‘qishda, ishda, oilaviy hayotda va hatto shaxsiy fazilatlarda ham tartibning muhimligini ko‘rsatadi. Tartibsizlik esa vaqt va imkoniyatlarning isrof bo‘lishiga olib keladi, insonni stressga soladi. Shuning uchun ham nemis madaniyatida tartib faqat tashqi ko‘rinish emas, balki ichki madaniyat, o‘ziga hurmat va boshqalarga hurmatning belgisidir. Quyida bunga misol keltiramiz: «Jeder ist seines Glückes Schmied.» (Har kimning baxti o’z qo’lida) [1.74]. Ushbu maqol inson hayotidagi mas’uliyat va faoliyat muhimligini ta’kidlaydi. Ya’ni har kim o‘z kelajagi, muvaffaqiyati va baxtini o‘zi yaratadi. Baxt tasodifan kelmaydi, uni mehnat, qat’iyat, maqsad sari harakat va to‘g‘ri qarorlar orqali qo‘lga kiritish mumkin.

Maqol nemis jamiyatida mavjud bo‘lgan shaxsiy mas’uliyat, mustaqillik va mehnatsevarlik qadriyatlarining ifodasi ekanligi va baxt tashqaridan emas, balki ichki kuch va mehnatdan kelishini ta'kidlaydi.

«Eile mit Weile.» (Qimirlagan qiz oshar/ barakat) [1.44]. Bu maqol odamlarga ishni tez bajarishga intilish kerakligini, lekin buni o‘ylab, rejalashtirib va xatolarga yo‘l qo‘ymasdan amalga oshirish kerakligini eslatadi. Ko‘p hollarda insonlar shoshganida noto‘g‘ri qaror chiqarib qo‘yadi yoki natija sifatli bo‘lmaydi. Shu tufayli, vaqtni qadrlash bilan birga, vazminlik saqlash, bosqichma-bosqich ishlash va diqqatni jamlab harakat qilish tavsiya etiladi. Bu maqolning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida “Shoshgan qiz erga yolchimas” degan maqolni keltirish ham mumkin, chunki bu ibora ham shoshma-shosharlik oqibatida maqsadga

yetilmasligi, har bir ishning o‘z vaqti borligini bildiradi. Bu maqolning ekvivalenti o'zbek mentalitetiga mos ayollarga oid ko‘rinishda bo‘lsa-da, mazmuni umumiy: har qanday ishni o‘ylab, vaqtincha sekinroq, lekin to‘g‘ri yo‘l bilan bajarish kerak, bo‘lmasa shoshilgan odam oxirida kutilgan natijaga erisha olmaydi.

Nemischa «Übung macht den Meister.» (Takrorlash bilimning onasidir) [1.96] maqolni tahliga tortamiz. Bu maqolning ma’nosi — ko‘p mashq qilish, takrorlash orqali inson o‘z ishida mohir, ya’ni usta bo‘ladi. Hech kim biror narsani birinchi urinishdayoq mukammal bajara olmaydi; faqat sabr, mehnat va muntazam mashq orqali mukammallikka erishish mumkin. Nemis jamiyatida bu maqol mehnatsevarlik, qat’iyat va o‘z ustida ishlash qadriyatlarini aks ettiradi.

U shuni eslatadi: iste’dod muhim, lekin doimiy mashq undan ham muhimroq.

Yana bir ko’p qo’llaniladigan “Der Apfel fällt nicht weit von seinem Stamm.” (Olmaning tagiga olma tushadi) [1.35]. Bu maqolda bolalar ko‘p jihatdan ota-onalariga o‘xshash bo‘lishlarini bildiradi. Bu o‘xshashlik tashqi ko‘rinishda, xarakterda yoki hatto qiziqishlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bolalar ko‘pincha oilada kuzatgan xatti-harakatlarni ongli yoki ongsiz ravishda takrorlaydilar. Shu tariqa, maqol ota-ona tarbiyasi va shaxs shakllanishi o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikka urg‘u beradi. Nemis madaniyatida bu maqol ham ijobiy, ham kulgili ma’noda ishlatiladi — masalan, bola ota-onasidek iste’dodli yoki ular kabi injiq bo‘lsa. U inson tarbiyasida namunaviy ota-ona va oilaviy qadriyatlarning naqadar muhimligini eslatadi.

O’zbek maqollarida diniy, jamoaviy va dehqonchilik mavzulari hamda oilaviy qadriyatlar ustunligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Jumladan: “Baliq boshidan sasiydi.” [3.19]. Ushbu maqol o‘zbek xalqining ijtimoiy tartib, rahbarlik va mas’uliyat haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Ma’nosi shundan iboratki, jamiyat yoki jamoada yuzaga kelayotgan muammo avvalo rahbarning noto‘g‘ri boshqaruvi, loqaydligi yoki mas’uliyatsizligi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek mentalitetida “bosh” — tartibning asosiy timsoli. Shu bois jamoadagi intizom, tarbiya, madaniyat avvalo yetakchidan boshlanishi kerak, aks holda quyi pog‘onaga ham salbiy ta’sir o‘tadi.

“O‘zingni ehtiyot qil, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.” [4.467].

Bu maqol o‘zbek xalqining qo‘shnichilik munosabatlari, o‘zaro hurmat va ehtiyotkorlik haqidagi qadriyatini ifodalaydi. Ma’nosi shuki, inson avvalo o‘zining mulkini, ishini va mas’uliyatini o‘zi nazorat qilishi kerak. Agar ehtiyot bo‘lmasa, boshqalarga nohaq shubha qilish, begunohni ayblash kabi illatlar paydo bo‘lishi mumkin. O‘zbek mentalitetida qo‘shni — yaqin qarindoshdek qadrli shaxs. Shuning uchun bu maqol asossiz gumon qilishdan qaytaradi va halollik, adolat tuyg‘usini mustahkamlaydi.

“Ikki kemaning uchini tutgan g‘arq bo‘lur.” [4.154].

Bu maqol bir vaqtning o‘zida bir nechta maqsadga intilish, resurs va kuchning tarqoqlashuvi natijasida muvaffaqiyatsizlikka olib kelishini bildiradi. O‘zbek mentalitetida “bir ishga bel bog‘lash”, “diqqatni jamlash” juda muhim fazilat sanaladi. Maqol insonni kuchsizlanishga, chalg‘ishga, natijasizlikka olib keladigan holatlardan ogohlantiradi. Har bir ishni puxta va yakka maqsad bilan bajarish samaradorlikni oshirishini anglatadi.

“Yer haydasang — kuz hayda, kuz haydamasang — yuz hayda.” [3.204]. Bu maqol dehqonchilik tajribasiga tayangan bo‘lsa-da, umumiy hayot falsafasini ifodalaydi. Kuzda yerni haydash — serhosil hosilning kafolati; buning aksi esa ko‘p mehnat talab qiladi. Mazmun jihatdan: to‘g‘ri vaqtni tanlash, o‘ylangan ishni o‘z vaqtida bajarish keyinchalik ortiqcha mehnat va muammolarni oldini oladi. O‘zbek mentalitetida mehnat madaniyati, ayniqsa dehqonchilikka oid donolik, juda qadrlanadi. Mazkur maqol ham “o‘z vaqtida qilinmagan ishning qiyinchiligi ko‘p bo‘ladi” degan umumiy hayotiy xulosani beradi.

“Yugurganniki emas, buyurganniki.” [4.452]

Bu maqol o‘zbek xalqining taqdir, rizq, nasiba haqidagi diniy-ma’naviy qarashlaridan o‘sib chiqqan. Ma’nosi shuki, inson qancha harakat qilmasin, oxirgi natija Yaratganning irodasi bilan bo‘ladi. Biroq bu maqol mehnatni inkor qilmaydi; aksincha, odamni natija uchun haddan tashqari iztirobga tushmaslikka, qanoatli bo‘lishga undaydi. Rizq aslida juda go’zal. Allohdan kelgan nasibangga taslim bo'lishlikdir.

“Qars ikki qo‘ldan chiqar.” [4.483].

Bu maqol ijtimoiy munosabatlarda o‘zaro javobgarlik, ikki tomonlama muloqot va o‘zaro hurmat zarurligini bildiradi. Mojaro yoki kelishmovchilik kelib chiqsa, buning sababi odatda ikki tomonga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek mentalitetida jamoatchilik, totuvlik, murosa juda muhim bo‘lgani uchun ushbu maqol nizolarda bir tarafni ayblashdan oldin ikkala tomonning mas’uliyatini ko‘rib chiqishga chaqiradi.

“Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.” [3.180].

Bu maqol o‘zbek xalqining ijtimoiy muvofiqlik, o‘xshashlik, dunyoqarash yaqinligi haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Odamlar odatda o‘ziga monand, fikri yaqin, tarbiyaviy darajasi yaqin insonlar bilan til topishadi. Bu nafaqat ijtimoiy tabaqalanish, balki psixologik uyg‘unlik g‘oyasini ham o‘z ichiga oladi.

“Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas.”

Bu maqol jasorat, qat’iyat va riskga tayyorlik haqida. U shuni anglatadiki, agar inson har bir kichik to‘siqdan qo‘rqaversa, u hech qachon natijaga, muvaffaqiyatga erisha olmaydi. O’zbek mentalitetida mehnatkashlik, sabot-matonat, qo‘rqoqlikdan yiroq bo‘lish juda hurmat qilinadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun halokatdan emas, balki harakatdan qo‘rqmaslik zarurligi ta’kidlanadi.

O‘zbek maqollari, avvalo, jamoaviylik, o‘zaro hurmat, murosa, taqdirga ishonch va mehnat madaniyatiga asoslanadi. Muloqot jarayonida ular tarbiyaviy, nasihatkorlik va ogohlantiruvchanlik funksiyalarini bajaradi. Ularning semantik yadrosi ko‘pincha dehqonchilik, qo‘shnichilik, oilaviy hayot yoki diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasi bilan mustahkamlangan.

Nemis maqollari esa ko‘proq individual mas’uliyat, intizom, vaqtni rejalash, tartib, mehnatsevarlik va aniq natijaga yo‘naltirilganlikni ifodalaydi. Ularning semantikasi mantiqiylik, konkretlik va tahliliy fikrga asoslanadi. Nemis maqollarining funksional vazifasi ko‘proq ogohlantirish, mantiqiy xulosa chiqarish, harakatga undash va individning javobgarligini ta’kidlash orqali namoyon bo‘ladi.

Har ikkala til maqollarida mavjud umumiyliklar — insoniy qadriyatlarga bo‘lgan yondashuv birligi natijasidir. Masalan, tartibning boshdan boshlanishi, ikki ishni bir vaqtning o‘zida bajarmaslik, nizolarning ikki tomonlama xususiyati yoki vaqtni to‘g‘ri taqsimlash haqidagi g‘oyalar har ikki xalq tafakkurining mushtarak nuqtalarini tashkil etadi. Shu bilan birga, ularning ifoda vositalari turlicha: o‘zbek maqollarida obrazlilik, kinoya, badiiy timsollar kuchli bo‘lsa, nemis maqollarida mantiqiylik va lakoniklik ustunlik qiladi. Masalan:

„Ohne Fleiß kein Preis“ — Mehnatsiz rohat yo’q [2.438]

Nemis va o‘zbek madaniyatlarida mehnat qadriyat sifatida markaziy o‘rinda turadi. Har ikki xalq uchun muvaffaqiyatning asosi — mehnat, izlanish va tirishqoqlikdir. Nemis mentalitetida bu g‘oya ko‘proq individual muvaffaqiyat, rejalilik va intizom bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida mehnatning natijasi ko‘pincha baraka, halol rizq va jamoviy harakat tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Shu tariqa, bir xil semantik mazmun turli madaniy qatlamlar orqali turlicha talqin qilinadi.

„Geduld bringt Rosen“ — Sabrning tagi sariq oltin [2.435].

Sabr tushunchasi ham nemis, ham o‘zbek xalq donishmandligida muhim o‘rin egallaydi. Nemis madaniyatida sabr — vaziyatni aql bilan kutish, stressni boshqarish va natijaning pishib yetilishini kutish ko‘nikmasi sifatida qaraladi. O‘zbek madaniyatida esa sabrning ildizi ma’naviylik, taqdirga iymon, qanoat va ruhiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq. Har ikki madaniyat sabrning oxiroqibat yaxshi natija berishini e’tirof etsa-da, biri bu jarayonni rasionallikka, ikkinchisi esa ma’naviy qadriyatlarga tayanib izohlaydi.

„Einer ist keiner“ — Yolg‘iz otning changi chiqmas [2.433]

Mazmuni jihatidan, har ikki madaniyat odamning yakka holda samarali natijaga erishishi qiyinligini tan oladi. Nemislar bu fikrni ko‘proq hamkorlik, o‘zaro yordam va jamoaviy mas’uliyat doirasida ko‘rishadi. O‘zbeklar esa tarixan jamoa bo‘lib mehnat qilish, hasharga chiqish, tirikchilikni birgalikda yo‘lga qo‘yish an’analariga ega bo‘lgani uchun bu g‘oya yanada chuqurroq ijtimoiy ma’no kasb etadi. Demak, har ikki madaniyat birgalikda harakatning ustunligini tan oladi, ammo o‘zbeklarda bu g‘oya jamoaviylik ruhida, nemislarda esa funksional hamkorlik shaklida namoyon bo‘ladi.

„Aller Anfang ist schwer“ — Har ishning boshi qiyin [1.14]

Nemis va o‘zbek madaniyatlari muayyan ishni boshlashning og‘irligini umumiy hayot tajribasiga tayangan holda ta’kidlaydi. Nemislar bu prinsipi ko‘proq psixologik tayyorgarlik, reja tuzish va strategik yondashuv bilan bog‘laydi. O‘zbeklar esa boshidagi qiyinchilikni tabiiy sinov sifatida ko‘rib, odamni jasorat va sabr bilan ishni davom ettirishga undaydilar. Har ikkala madaniyatda boshlang‘ich bosqichning murakkabligi tan olinadi, biroq nemischa talqin rasionallikka, o‘zbekcha talqin esa ruhiy bardoshlilikka yaqinroq.

„Aus den Augen – aus dem Sinn“ — Ko‘zdan nari, qalbdan nari [1.22]

Har ikki madaniyat inson psixologiyasidagi tabiiy holatni tasdiqlaydi: odam ko‘rmay qolgan narsani yoki odamni asta-sekin unutadi. Nemis madaniyatida bu holat kundalik psixologik qonuniyat sifatida ko‘riladi — ko‘rinmaslik unutishga olib keladi. O‘zbek madaniyatida esa bu fikr odatda biroz achchiq, hissiy ma’no kasb etadi, ya’ni yaqinlik saqlanishi uchun aloqani uzmaslik kerakligi uqtiriladi. Umumiy mazmun bir xil bo‘lsa-da, nemislarda bu jarayon tabiiy-rasional, o‘zbeklarda esa munosabatga nisbatan hissiyroq yondashuvda namoyon bo‘ladi. „Geteilte Freude ist doppelte Freude“ — Yaxshi do‘st – yarim davlat [1.63] Nemis va o‘zbek madaniyatlari shodlikning bo‘lishilganda ortishi, do‘stlikning qadri va ijtimoiy aloqalarning ahamiyatini birdek e’tirof etadi. Nemis versiyasi ko‘proq shaxsiy baxtning boshqalar bilan ulashilganda kuchayishini, ijtimoiy emotsional yaqinlikning psixologik foydasini ta’kidlaydi. O‘zbek madaniyatida esa “yaxshi do‘st yarim davlat” degan maqol orqali do‘stlik nafaqat quvonch balki hayotdagi tayanch, yordam, sadoqat va moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash manbai sifatida talqin qilinadi. Har ikki madaniyat quvonchni bo‘lishish orqali kuchayishini tan oladi, ammo o‘zbek talqinida do‘stlikka nisbatan hissiy, ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyat ko‘lami kengroq.

Taqqoslash jarayonidan ayon bo‘ladiki, o‘zbek maqollarining asosiy pragmatik vazifasi — jamiyat ichidagi muvozanatni saqlash, axloqiy normalarni mustahkamlash va insonni jamoa manfaatiga moslashga undashdir. Nemis maqollarida esa shaxsiy intizom, aniqlik, reja asosida harakat qilish va individual mas’uliyat birlamchi ahamiyat kasb etadi. Biroq bu farqlar ular o‘rtasidagi semantik yaqinliklarni inkor etmaydi: ikkala xalq ham hayot tajribasidan kelib chiqib, donolikni qisqa va teran shaklda ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, nemis va o‘zbek maqollarining funksional-semantik qiyosi madaniy xususiyatlarni chuqurroq anglash, til birligining ichki strukturasi va obrazlar tizimini solishtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Nemischa-o’zbekcha maqol va matallar lug’ati” Toshkent. Mumtoz so’z, 2013. 128b.

2. "Nemis tili fanidan mukammal qo'llanma" Kuvanova Sh.O. – Toshkent: «Akademnashr», 2013.
3. "O'zbek xalq maqollari" Shomirza Turdimov, Yo'ldos Rahmatov. Toshkent: "Zabarjad Media", 2024. -272 b. [159, 136, 19, 250, 204, 180]
4. "Hikmatnoma" O'zbeksovet entsiklopediyasi bosh redaksiyasi. Toshkent – 1990.

UO'K 830.2

HAJM-O'LCHOV TUSHUNCHASINING O'XSHATISHLAR ORQALI VERBALLASHUVI

Ch.M.Jumaniyozova, doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilida hajm-o'lchov kategoriyasining o'xshatishlar orqali ifodalanishi tahlil qilindi. O'lchov bildiruvchi o'xshatishlar nafaqat obyektiv o'lchovni, balki mubolag'a, kichraytirish vositasida me'yordan ortiqlik yoki kamlik ma'nolarini yuzaga chiqarishi, shuningdek bunday birliklarning ijobiy va salbiy baholovchi munosabatni ifodalashdagi o'rni ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *o'lchov, hajm, o'xshatish, ijobiy baho, salbiy baho.*

Аннотация. *В данной статье анализируется выражение категории объема-измерения в узбекском языке посредством сравнений. Рассмотрен тот факт, что сравнения, выражающие измерение, передают не только объективное измерение, но и значение избытка или недостатка посредством преувеличения и уменьшения, а также роль таких единиц в выражении позитивных и негативных оценочных установок.*

Ключевые слова: *измерение, объем, сравнение, позитивная оценка, негативная оценка.*

Abstract. *This article analyzes the expression of the category of volume-measurement in the Uzbek language through similes. The fact that measurement similes express not only objective measurement, but also the meaning of excess or deficiency through exaggeration and diminution, as well as the role of such units in expressing positive and negative evaluative attitudes, was examined.*

Keywords: *measurement, volume, simile, positive assessment, negative assessment.*

O'lchov – biror narsa yoki hodisaning miqdori, hajmi, og'irligi, uzunligi yoki boshqa xususiyatini aniqlash va belgilash usuli hamda natijasi. "O'lchov - fizik miqdoriy darajani o'lchov vositalari yordamida empirik tarzda topish jarayonidir. O'lchov turlari va usullari metrologiya fanining o'rganish obyektidir. Metrologiya o'lchovlar, ularning birligini ta'minlash usullari, turlari va kerakli aniqlikka erishish haqidagi fan hisoblanadi. Bu eng muhim fanlardan biridir, chunki insoniyat mavjud bo'lganidan beri doimiy ravishda ba'zi o'lchovlarni amalga oshirib kelgan. Masalan, avval ular barmoqlar yoki toshlar yordamida o'lchagan bo'lsa, keyinroq o'lchov boshqa o'lchov vositalari orqali amalga oshirilgan".[3] O'lchov birliklarini yaratish, ularning aniq o'lchovini shakllantirish kabilar metrologiya fanining vazifalari bo'lsa, o'lchov bildiruvchi til birliklarini turli tomondan (semantik, sintaktik, pragmatik va hakoza) o'rganish esa bevosita tilshunoslik fanining vazifasidir. Shuni ham aytib o'tish lozimki, metrologiya fani ishlab chiqadigan o'lchovlar matematik aniqlikka, fizik asosga va xalqaro tan olingan mezonlarga ega bo'ladi. Bunda o'lchovlar sonli qiymatlar bilan qat'iy chegalangan bo'lib, ularning qo'llanishi normotiv hujjatlar orqali belgilab qo'yiladi. Bu o'lchov xalqaro tan olingan va xalqaro qo'llaniladigan o'lchov emas, balki narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirish, taqqoslash natijasida paydo bo'lgan, asrlar davomida qo'llanilib xalq onggiga singib ketgan o'lchov tushunchasi bo'lib, ular tilda o'xshatishlar orqali ifodalanadi.

O'xshatish ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan holda ma'noni kuchaytirib ko'rsatuvchi, obrazli til birligidir. Professor N.Mahmudov ta'kidlaganlaridek "…o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi". O'xshatishlarning paydo bo'lishi, xalq tomonidan qabul qilinib, barqarorlashishi va xalq milliy til tarkibidan o'rin olishi shu xalqning tafakkuri bilan bog'liq hodisadir.

O'xshatishlar orqali narsa-hodisaning rangi, holati, miqdori, kattaligi yoki boshqa sifati aniq shu belgi, o'lchovga ega bo'lgan boshqa bir obyekt yordamida tasvirlanadi. Belgi-xususiyat semantikasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hajm-o'lchov ma'nosini ifodalovchi o'xshatishlar esa tilimizdagi milliy o'lchovning o'ziga xos bir ko'rinishidir. Bu borada har bir xalq o'z

dunyoqarashi va milliy tafakkuriga asoslangan o‘xshatishlarni yaratadi. Ular o‘lchovni aniq raqamga bog‘lamay xalqona o‘lchov modeli orqali miqdor, hajm yoki masofani ifodalaydi.

Masalan, o‘zbek xalqi tafakkuridagi mushtdek, no‘xatdek, moshdek, tog‘day jimjiloqday, tirnoqday, danakdek, rapidaday, jimitdek, barkashday kabi o‘xshatishlar milliy o‘lchov bildiruvchi o‘xshatishlarga misol bo‘la oladi. Bunday o‘xshatishlarning asosi xalq turmush tarzi, kundalik hayotida muhim bo‘lgan va faol qo‘llanilgan, hamma uchun tushunarli hamda umumiy bo‘lgan narsa-hodisalar bo‘lib, aynan shuning uchun ham ular milliy til leksikasidan o‘rin olgan. “O‘xshatishlar uchun insonning o‘zi haqidagi va uni qurshab turgan olam haqidagi shakllangan konseptlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, o‘xshatishlarga obraz tanlashda ularning milliy-madaniy konnotatsiyasi belgilovchi ahamiyat kasb etadi”.[4] Ya’ni inson tafakkurida kechadigan o‘xshatish jarayonida tasodifan obraz tanlanmaydi, balki o‘z tafakkurida allaqachon shakllangan, xalq onggida ma’no yukiga va hissiy rangga ega bo‘lgan tushunchalarga (konseptlarga) tayanadi. Demak, narsa-hodisalarning hajm-o‘lchovini bildiruvchi o‘xshatishlarning asosi til egasining olam haqida orttirgan bilim va tajribasi negizida shakllangan.

“O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi”.[1]

“Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar , garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi”.[2] Xalq tilida milliy o‘lchovni ifodalashga xizmat qiladigan o‘xshatishlar ham turg‘unlashgan va umumxalq tili leksikasida o‘z o‘rnini egallab ulgurgan birliklardir.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar yordamida milliy o‘lchovning ifodalanishi xalqning kundalik hayoti, mehnati va dunyo haqidagi tasavvurlariga tayanadi. O‘xshatishlar orqali ifodalangan “mushtdek”, “danakdek”, “qulochday”, “zig‘irday”, “moshdek” kabi o‘lchovlar xalqning qadimiy antropometrik, maishiy yoki oziq-ovqat tushunchalariga asoslanadi. Bu o‘lchovlar subyektiv bo‘lsa-da, ular orqali narsa va hodisaning kattaligi, miqdori yoki hajmi nisbiy, ammo obrazli va tushunarli shaklda ifodalanganini ko‘ramiz. Masalan, *Keyin qo‘lidagi* ***mushtdek*** *piyozni qopga tashlab qo‘l siltadi (O‘. Hoshimov).* ***Danakdek*** *kartoshkani lippasiga qistirgan odamni tribunalga beraman (O‘Hoshimov).*

Misollarda narsa(sabzavotlar)ning kattaligi, o‘lchovini tushuntirish uchun *mushtdek* va *danakdek* o‘xshatishlaridan foydalanilgan. Bu o‘xshatishlar narsalarning obyektiv o‘lchovini ifodalashga xizmat qilgan.

Biroq xuddi shu *mushtdek* o‘xshatishini quyidagi misolda o‘lchovni boshqacha tarzda ifodalaganini ko‘ramiz: *O‘zi* ***mushtday*** *keladi-yu orqasida tandirdek qop (O‘. Hoshimov).* Ushbu misolda *mushtdek* o‘xshatishi real o‘lchovni anglatmaydi. Ya’ni mazkur ifodani qabul qiluvchi til egasi qahramonning jussasi musht hajmi bilan aynan teng deb tushunmaydi. Aksincha, bu o‘xshatish orqali qahramonning ko‘rinishi, jussasi o‘ta darajada kichikligi obrazli tarzda kuchaytirilib ifodalangan. Yoki *tog‘day* o‘xshatishini olaylik. Bu o‘xshatish ham o‘lchovni ifodalashga xizmat qiladi, biroq u anglatgan o‘lchov real o‘lchovdan farq qiladi. Unda tog‘ tushunchasi inson ongida shakllangan maksimal kattalik va og‘irlikni ifodalaydi. Quyidagi misollarda mavhum tushuncha - g‘am, kulfatning og‘irligi, yuki tog‘ga qiyos qilinganini, muallif qahramonning boshiga tushgan g‘am, tashvish qay darajada ulkan va og‘ir ekanligini boshqalarga tushuntirish, his qildirish maqsadida real mavjud bo‘lgan tog‘ tushunchasidan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin: *Bu qanday adolatsizlik! Haligina biznikida “ma’lum oshi” berib quvongan odamlar uyga kirishi bilan* ***tog‘dek*** *kulfat tushsa (O‘. Hoshimov)! Boshiga* ***tog‘dek*** *g‘am tushib turgan Potma-Zo‘ra kelinlarga shunaqa paytda yordam bermasa, qachon beradi (O‘. Hoshimov)!*

Yuqorida ta’kidlanganidek, bunday o‘xshatishlar xalqning umumiy tasavvuri va tajribasiga tayanadi. Shu bois ular xalq onggida barqaror tasvirga ega bo‘lgan o‘lchov modeli sifatida xizmat qiladi. O‘xshatish asosli bunday o‘lchovlarda ta’sirchanlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Ularda xalq uchun muhim bo‘lgan narsa yoki obraz asos qilib olinadi. Ular shunchaki o‘lchovni, miqdorni emas, xalqning tasavvuridagi “me’yor” ni ham ifodalaydi. Quyidagi barkashdek yoki jimjiloqday kabi

o‘xshatishlarning asosi bo‘lgan barkash va jimjiloq o‘zbek xalqi uchun qaysidir narsa-hodisaning hajm jihatdan me’yorini, boshqasini esa me’yordan kichik yoki katta ekanligini ifodalashga xizmat qiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Barkash – jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o‘rnida ishlatiladigan, doira yoki to‘rtburchak shaklidagi ro‘zg‘or buyumi”[6] deyilgan. Quyida badiiy asardan keltirilgan misolda muallif qahramonning kaftini barkashga qiyoslayapti: *Boyagi chol yarq etib menga qaradi. Barkashdek kaftini dadamnining iyagi oldiga paxsa qilib baqirdi (O‘. Hoshimov).* Bunda til egasi qahramon kaftining o‘lchovini barkash bilan baravar kattalikda deb tushunmaydi, bu aqlga sig‘maydi. Balki qahramon kafti me’yordan ko‘ra katta ekanligi tushuniladi va bundan tashqari bu o‘lchov ifodalayotgan o‘xshatish o‘zida o‘lchov bilan bir qatorda salbiy konnotatsiya ham ifodalagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan olingan boshqa bir misolga e’tibor beramiz: “Jimjiloqday , - dek – juda kichkina, kichik. *Muallim qo‘liga bo‘r olib, doskaga jimjiloqdaygina tikka tayoqcha chizdi. P.Tursin, O‘qituvchi. Bir muxbir o‘rtog‘im jimjiloqday keladigan yon daftarchasiga qarab, filday-filday gaplarni gapirib berdi. Mushtum*”.[5] Birinchi misolda *jimjiloqday* o‘shatishi doskaga chizilgan tayoqchaning obyektiv o‘lchovini ifodalagan bo‘lsa, ikkinchi misolda yon daftarchaga nisbatan qo‘llanilib, uning me’yordan ancha kichikligi va salbiy konnotatsiya ifodalaganini ko‘ramiz.

Demak, o‘zbek tilida hajm-o‘lchov o‘xshatishlar yordamida ham ifodalanadi. O‘lchovni bildiruvchi bunday o‘xshatishlar obyektiv o‘lchovni ifodalash bilan bir qatorda, subyektiv baholash, konnotativ ma’noni ham yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dadaboyeva M. “O‘lchov” tushunchasi va uning paremiologik birliklarda ifodalanishi Science and educatin jurnali 2024/volume 5issue 1.
2. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
3. Mahmudov N.,Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
4. Мукаррамов М.Узбек тилида ухшатиш.- Тошкент: Фан, 1976.
5. Usmanav F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.bo‘yicha falsafa d-ri(PhD) diss. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

UDC 808.5

LINGUOPRAGMATIC CHALLENGES AND STRATEGIES IN HUMOR TRANSLATION: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK

S.H.Jurayeva, master's student, Ferghana State University, Ferghana
N.X.Aliyeva, PhD, Ferghana State University, Ferghana

Annotatsiya. *Yumor madaniy va pragmatik jihatdan murakkab bo‘lib, uni tarjima qilish qiyin. U ko‘pincha so‘z o‘yinlari, madaniy ishoralar va kontekstga bog‘liq bo‘lgani uchun so‘zma-so‘z tarjima uning ta’sirini saqlab qolmaydi. Ushbu tadqiqot ingliz–o‘zbek tillari o‘rtasida yumorni tarjima qilishdagi lingvopragmatik muammolarni tahlil qiladi. Asosiy qiyinchiliklar: leksik, strukturaviy, madaniy va pragmatik farqlar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli tarjima madaniy moslashtirish, pragmatik kompensatsiya va ijodiy qayta ifodalashga tayanadi.*

Kalit so‘zlar: *yumor tarjimasi, lingvopragmatika, pragmatik ekvivalentlik, ingliz–o‘zbek tarjimasi, madaniy moslashuv, so‘z o‘yini, implikatura, tarjima strategiyalari.*

Аннотация. *Юмор является культурно и прагматически сложным явлением, поэтому его перевод затруднён. Поскольку юмор часто основан на игре слов, культурных отсылках и контексте, буквальный перевод редко сохраняет его эффект. В исследовании анализируются лингвопрагматические трудности перевода юмора между английским и узбекским языками. Основные проблемы: лексические, структурные, культурные и прагматические различия. Результаты показывают, что успешный перевод требует культурной адаптации, прагматической компенсации и творческой переработки.*

Ключевые слова: *перевод юмора, лингвопрагматика, прагматическая эквивалентность, англо-узбекский перевод, культурная адаптация, игра слов, импликатура, переводческие стратегии.*

Abstract. *Humor is culturally and pragmatically complex, making it difficult to translate. Since it often depends on wordplay, cultural references, and context, literal translation rarely preserves its effect. This study analyzes linguopragmatic challenges in English–Uzbek humor translation and identifies key difficulties: lexical, structural, cultural, and pragmatic differences. The findings show that successful translation requires cultural adaptation, pragmatic compensation, and creative reformulation rather than literal transfer.*

Keywords: *humor translation, linguopragmatics, pragmatic equivalence, English–Uzbek translation, cultural adaptation, wordplay, implicature, translation strategies.*

Introduction. Humor plays an important role in human interaction by strengthening social bonds, reducing tension, expressing criticism indirectly, and reflecting cultural identity. Although humor exists in all cultures, it differs across languages due to structural, cultural, and pragmatic variations (Attardo, 1994)[1]. Therefore, humor translation is considered one of the most complex areas in translation studies. Humor often relies on implicit meaning, wordplay, irony, cultural references, and context rather than direct expression. As a result, translating humor requires not only linguistic knowledge but also cultural awareness and pragmatic competence. English and Uzbek belong to different linguistic and cultural systems: English is an analytic language that frequently uses lexical ambiguity, while Uzbek is an agglutinative Turkic language that relies on suffixation and contextual structures. In addition, English humor commonly uses sarcasm and puns, whereas Uzbek humor often involves storytelling, proverbs, and situational irony. Despite increasing interest in humor translation, comparative studies on English–Uzbek linguopragmatic differences remain limited. This study examines the main challenges in translating humor between these languages and suggests strategies for preserving the humorous effect.

Methodology: This study uses a qualitative descriptive method based on comparative linguopragmatic analysis, as humor involves contextual meaning and cultural nuances that cannot be measured statistically.

Data Collection: The corpus includes 60 humorous texts: 30 English jokes/dialogues and 30 Uzbek jokes/narratives from literature, online humor platforms, conversations, and media. Examples were selected for their linguistic complexity and pragmatic features such as implicature, irony, and wordplay.

Analytical Framework: The analysis draws on semantic and pragmatic theories of humor, dynamic equivalence in translation, pragmatic equivalence, and cultural adaptation theory.

Procedure: The research followed three stages: identifying humor mechanisms in the source text, examining translation challenges, and evaluating strategies used to preserve humor. The difficulties were classified into linguistic, cultural, pragmatic, and stylistic challenges.

Results: The comparative analysis of 60 humorous texts (30 English, 30 Uzbek) shows that humor translation is shaped by interconnected linguistic, cultural, and pragmatic differences, rather than simple lexical problems.

Linguistic challenges: The most common difficulty is lexical ambiguity and wordplay. English humor often relies on homonyms and polysemy (e.g., *"I used to be a banker, but I lost interest"*), while Uzbek expresses these meanings with separate words. As a result, about 73% of pun-based jokes require creative reformulation rather than direct translation[2]. Idiomatic humor also poses problems because English uses compact idioms[3], whereas Uzbek often requires explanatory or equivalent expressions (81% functional substitution). In addition, jokes based on syntactic ambiguity often need structural reconstruction in Uzbek.

Cultural challenges: Culture-specific references and background knowledge frequently require adaptation or explanation (67% of cases). Differences in social hierarchy also influence humor: English humor often uses direct sarcasm toward authority figures, while Uzbek communication typically softens such expressions.

Pragmatic challenges: Many jokes depend on implicature and violations of conversational norms, where humor arises from unexpected meanings. If translators focus only on literal meaning, the humorous effect weakens. Humor also relies on cognitive incongruity, but English prefers brief punchlines, while Uzbek humor is often narrative-based. Consequently, Uzbek jokes translated into English required condensation or restructuring in 74% of examples to maintain the humorous effect.

Discussion: The findings show that humor translation between English and Uzbek is shaped by linguistic, cultural, and pragmatic differences, rather than simple lexical problems (Nida, 1964; House, 2015)[4]. Lexical non-equivalence confirms that pun-based humor is largely language-bound and often requires creative reformulation. Cultural adaptation is also essential, though excessive domestication may remove cultural identity (Newmark, 1988). Most importantly, pragmatic equivalence is more crucial than semantic similarity, since humor fails when the intended communicative effect is not preserved. Audience expectations also differ: English humor often uses direct sarcasm, while Uzbek humor tends to be more indirect. Therefore, translators act not only as linguistic mediators but also as cultural interpreters and creative co-authors.

Conclusion: This study analyzed linguopragmatic challenges in translating humor between English and Uzbek. The results show that humor translation requires lexical, structural, cultural, and pragmatic adaptation. Wordplay is highly language-specific, cultural references need adaptation, and pragmatic equivalence is key to preserving humor. Structural differences between analytic English and agglutinative Uzbek also influence translation strategies. The study proposes a linguopragmatic framework for humor translation and highlights the importance of linguistic, pragmatic, and cultural competence. In practice, translators should prioritize audience response, pragmatic reconstruction, balanced cultural adaptation, and creative reformulation. Ultimately, humor translation should be viewed as communicative re-creation rather than literal equivalence.

REFERENCES:

1. Attardo, S. (1994). Linguistic theories of humor. Mouton de Gruyter.
2. Attardo, S., & Raskin, V. (1991). Script theory revis(it)ed: Joke similarity and joke representation model. Humor: International Journal of Humor Research, 4(3–4), 293–347.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 41–58). Academic Press.
4. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. Brill.
5. Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge.
6. Hakimov, M. (2013). Pragmalingvistika asoslari. Tafakkur Bo'stoni.
7. House, J. (2015). Translation quality assessment: Past and present. Routledge.
8. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
9. Raskin, V. (1985). Semantic mechanisms of humor. D. Reidel Publishing Company.
10. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

UO'K 808.3

MAHALLIY TADQIQOTLARDA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING NAZARIY TALQINI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

D.K.Kamilova, katta o'qituvchi, O'zR Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari mahalliy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. O'zbek tilshunoslarining termin mohiyati, uning struktur-semantik va funksional xususiyatlari haqidagi qarashlari umumlashtirilib, terminologiyaning adabiy til tizimidagi o'rni ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, terminlarning tasnifi, tizimli xarakteri, ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek terminologiyasi, terminlar, adabiy til, ijtimoiy muhit.*

Аннотация. *В данной статье на основе отечественных исследований анализируются этапы формирования, теоретические основы и современные тенденции развития узбекской терминологии. Обобщены взгляды узбекских лингвистов на сущность термина, его структурно-семантические и функциональные особенности, освещена с научной точки зрения роль терминологии в системе литературного языка. Также раскрывается*

классификация терминов, их системный характер, неразрывная связь с социальным развитием.

Ключевые слова: *узбекская терминология, термины, литературный язык, социальная среда.*

Abstract. *This article analyzes the stages of formation, theoretical foundations, and modern development trends of Uzbek terminology based on local research. The views of Uzbek linguists on the essence of the term, its structural-semantic and functional features are summarized, and the place of terminology in the system of the literary language is highlighted from a scientific point of view. Also, the classification of terms, their systemic nature, and their inextricable connection with social development are revealed.*

Keywords: *Uzbek terminology, terms, literary language, social environment.*

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalarini o‘rganish XX asrning 60-70-yillaridan boshlab izchil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Shu davrdan boshlab terminlarning lingvistik tabiati, struktur-semantik xususiyatlari va funksional imkoniyatlari keng o‘rganila boshlandi. 1984-yilda Respublika idoralararo terminologiya komissiyasining tashkil etilishi, "Davlat tili haqida"gi Qonun asosida terminologiya siyosatining yo‘lga qo‘yilishi, so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar terminologiya sohasining davlat miqyosida muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi. Xususan, PF-5850-sonli Farmon terminologiya masalalariga e’tiborni yanada kuchaytiradi.

Nazariy jihatdan terminologiyaning til sistemasidagi o‘rni masalasida ikki xil qarash mavjud: birinchi yondashuv terminologiyani adabiy til leksikasining mustaqil qatlami sifatida talqin etsa, ikkinchi yondashuv uni umumtil sistemasidan ajratib olingan alohida obyekt sifatida baholaydi. Ilmiy mezonlarga ko‘ra terminlar aniqlik, rasmiylik, uslubiy betaraflik va tizimlilik kabi xususiyatlari bilan dialektal va jargon birliklardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham terminologiya adabiy tilning struktur va funksional jihatdan muhim qatlami sifatida e’tirof etiladi.

Hozirgi o‘zbek terminologiyasida terminlar kelib chiqishiga ko‘ra tarixiy-an’anaviy qatlam, yangi o‘zlashmalar va milliy so‘z yasash modellari asosida yasalgan birliklarga bo‘linadi. Bu holat terminologik tizimning dinamik xarakterga ega ekanligini, ya’ni ijtimoiy taraqqiyot va ilmiy-texnikaviy rivojlanish jarayonida yangilanib borishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, o‘zbek terminologiyasi bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan faol rivojlanayotgan davlat ahamiyatiga molik ilmiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba’zi hujjatlarda “termin” o‘rniga “atama” so‘zini qo‘llash ommalasha boshladi. Bir qarashda termin chetdan kirib o‘zlashgan so‘z, atama esa termin so‘zini o‘rnini bosuvchi yasama so‘z deb fikr bildirilishi mumkin. Aslida esa, amalga oshirilgan tadqiqotlar har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilshunoslari terminologiyaning bu muammosini ham e’tiborsiz qoldirmay, termin va atamaning farqli ta’riflarini keltirganlar. Masalan, A. Hojiyev “termin so‘zini atama yasamasi bilan almashtirish noto‘g‘ri ekanligi”, uning sabab va oqibatlari haqida jiddiy mulohaza yuritgan. Shularni hisobga olgan holda, “termin o‘zlashmasi ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo‘llanuvchi so‘z va so‘z birikmalari sifatida qabul qilinsa, atama so‘zini esa shartli ravishda qo‘yilgan nomlar (nomenklatura, nomlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar) uchun, arabcha istiloh o‘zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlarda ishlatish maqsadga muvofiq”. Chog‘ishtirma tilshunoslik sohasida terminologiya muammolari bilan maxsus shug‘ullangan o‘zbek tilshunoslaridan O.S.Axmedov o‘z tadqiqotida “termin va atama” tushunchalariga o‘zgacha yondashadi. Uning fikricha: “Keyingi yillarda “termin” tushunchasi o‘rniga “atama” so‘zi qo‘llanilmoqda. Bunday qo‘llash xato hisoblanadi. Chunki, atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng semantik diapazonga ega bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida (tarixiy va geografik obyektlar, atoqli nomlar) tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada aniqlik, konkretlik, bir ma’nolik, uslubiy bo‘yoqdorlikdan holi xususiyatiga ega bo‘lgan, muayyan darajada rasmiylashgan so‘zdir. Shu ma’noda, termin tushunchasi “atama” tushunchasining tarkibiga kiruvchi ilmiy-lug‘aviy birlikdir”. Olim o‘z so‘zini davom etar ekan, “...termin leksik birlik

sifatida e’tirof etilishi mumkin, ammo, barcha leksik birlik terminlik vazifasini bajara olmasligiga ishora” qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga muvofiq tarzda aytish mumkinki, termin - ma’lum bir soha, asosan iqtisodiyot, moliya, biznes, tadbirkorlik va ilm-fanga oid maxsus so‘z yoki so‘z birikmasi hisoblansa, atama esa nomenklatura o‘xshash leksik birlik hisoblanadi. Shu o‘rinda nomenklatura haqida ham to‘xtalib o‘tish joizdir: “Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi lisoniy kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarni o‘zida mujassam etadi. Ularning miqdori ortganda, maxsus strukturaviy tizim talab etiladi. Insoniyatning tabiatni bilish bosqichlarini aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan yaratiladigan texnik nomenklatura va savdo-sotiq nomenklaturasini o‘zaro farqlash lozim. Nomenklatura va terminologiya o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri - nomlar, odatda, terminologik lug‘atlarda qayd etilmaydi yoki cheklangan miqdorda lug‘atlardan o‘rin oladi. Masalan, rasmiy ilmiy nomga ega *atsetilsalitsil kislota* dorisi tijoratda *aspirin* nomi bilan keng ommalashgan”. Ko‘rinib turibdiki, termin atama yasamasiga nisbatan keng qamrovli o‘ziga xos tushunchadir. Nomenklatura esa terminologiyadan ba’zi xususiyatlari tufayli farq qiladi.

O‘zbek terminologiyasi hozirgi holatga kelgunga qadar bir necha tarixiy tadrijiy bosqichlardan o‘tgan. K.M. Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida muayyan bir shaharni barpo qilishga o‘xshatadi. Uning fikriga ko‘ra, “terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, birdaniga paydo bo‘lmaydi. U tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllanadi va turli avlodlarga mansub me’morlar, loyihachilar va kashfiyotchilar tomonidan yaratiladi. Ular har bir qismni yaxshilab o‘rganib, barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o‘ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi”. Haqiqatdan ham, bir tilda terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqtni talab etadi. O‘zbek tili tarmoqlar terminologiyasi bo‘yicha yuzaga kelgan dastlabki tadqiqot 1955-yilda himoya qilingan N.Mamatovning “O‘zbek paxtachilik terminologiyasi” nomli ishidir. Bu ishda paxtachilik bilan bog‘liq atamalar taraqqiyoti, ularning tasnifi, atamalarning so‘z va so‘z birikmalaridan farqli jihatlari, atamaning ta’rifi, O‘zbekistonda paxtachilik leksikasining rivojlanish tarixi va u bilan bog‘liq yangi atamalarning paydo bo‘lishi, o‘zbek paxtachiligi terminshunosligining boyishida ichki (intralingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) manbalarning hal qiluvchi roli atroflicha tahlil va tadqiq qilingan”. O‘zbek tilida terminologiya sohasi deyarli o‘n to‘rt asrlik boy tarixga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda terminologiyani o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligining ham dolzarb va muhim masalalaridan biriga aylangan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda bir qator muammolar mavjud.

Mahalliy tilshunos olimlar o‘zbek terminologiyasining turli jihatlarini o‘rganib, ruscha baynalmilal so‘zlarga sinonimlar, muqobillar topish, qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi terminlar yaratish, kimyo, fan-texnika, sanoat, ishlab chiqarish sohalaridagi terminlar va ularning shakllanishi, hozirgi o‘zbek terminologiyasining rivojlanish bosqichlari, xorijiy tillaridan kirib kelayotgan so‘zlarni o‘zlashtirishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishmoqda. Barcha olib borilgan tahlillar va natijalar bugungi kun terminologiyasi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek tili terminologisi milliy va xalqaro manbalar asosida shakllanib, uning rivojlanishi va me’yorlashuvi mahalliy tilshunos olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Sobiq ittifoq davrida asosan rus tili ta’sirida boyigan terminologik sistemalarni o‘rganish pirovardida istiqloldan keyingi davrda milliy terminologiyaga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Akobirov S. Terminologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Madrahimov N. Iqtisodiy terminologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2018.
6. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford: OUP, 2020.
7. Inglizcha–o‘zbekcha iqtisodiy atamalar lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2015.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
9. Longman Dictionary of Business English. – London: Pearson, 2019.

UO’K 830.1

NEMIS VA O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA MEHMONDO‘STLIK ETIKETI: QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLIL

Q.Sh.Kaxarov, f.f.d., dots., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis va o‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik etiketi masalalari qiyosiy-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mehmon kutish, mehmonni tanishtirish, stol atrofidagi muomala, uzr so‘rash, vaqtga munosabat kabi kommunikativ vaziyatlar lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Nemis va o‘zbek madaniyatlarida mehmondo‘stlik bilan bog‘liq nutqiy va noverbal etiket vositalari qiyosiy tarzda tahlil qilinib, ularning lingvomadaniy xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har ikki madaniyatda mehmondo‘stlik etiketi hurmat va ehtirom tamoyillariga asoslangan bo‘lsa-da, vaqtga munosabat, kommunikativ strategiyalar va nutqiy shakllar jihatidan muayyan farqlar mavjudligi aniqlanadi. Mazkur tadqiqot madaniyatlararo muloqot jarayonida nutqiy etiket qoidalarini anglash va samarali kommunikatsiyani ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *mehmondo‘stlik etiketi, nutqiy etiket, lingvopragmatika, qiyosiy tahlil, madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniyat*

Аннотация. *В данной статье представлен сопоставительно-прагматический анализ этикета гостеприимства в немецкой и узбекской лингвокультурах. В исследовании рассматриваются такие коммуникативные ситуации, как приём гостей, представление гостей, поведение за столом, извинения и отношение ко времени. Вербальные и невербальные формы этикета гостеприимства анализируются с лингвопрагматической точки зрения. Результаты исследования показывают, что несмотря на общие принципы уважения и вежливости в обеих культурах, существуют различия в коммуникативных стратегиях, языковых формулах и восприятии времени. Полученные результаты имеют важное значение для развития межкультурной коммуникации и исследований в области лингвокультурологии и прагматики.*

Ключевые слова: *этикет гостеприимства, речевой этикет, лингвопрагматика, сопоставительный анализ, межкультурная коммуникация*

Abstract. *This article presents a comparative pragmatic analysis of hospitality etiquette in German and Uzbek linguocultures. The study examines communicative situations such as receiving guests, introducing visitors, table etiquette, apologizing, and attitudes toward time. Verbal and nonverbal etiquette forms related to hospitality in German and Uzbek cultures are analyzed from a linguopragmatic perspective. The research demonstrates that while both cultures emphasize respect and politeness in hospitality traditions, they differ in their communicative strategies, linguistic expressions, and perceptions of time. The findings highlight the importance of understanding cultural etiquette norms in intercultural communication and contribute to the study of linguoculture and pragmatics.*

Keywords: *hospitality etiquette, speech etiquette, linguopragmatics, comparative analysis, intercultural communication*

Mehmondo‘stlik insoniyat tarixida muhim ijtimoiy va madaniy qadriyat sifatida shakllangan an’analardan biridir. Turli xalqlarda mehmon kutish, mehmon bilan muomala qilish va mehmonni kuzatish bilan bog‘liq qoidalar mavjud bo‘lib, ular nutqiy va noverbal etiket me’yorlari orqali ifodalanadi. Ushbu qoidalar jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va kommunikativ strategiyalarini aks ettiradi.

Tilshunoslikda mehmondo‘stlik bilan bog‘liq nutqiy xatti-harakatlar lingvopragmatika va lingvokulturologiya doirasida o‘rganiladi. Chunki mehmondo‘stlik etiketi muloqot jarayonida qo‘llaniladigan til birliklari, nutqiy shakllar va kommunikativ strategiyalar orqali ifodalanadi. Har bir madaniyatda mehmondo‘stlik bilan bog‘liq nutqiy etiket tizimi mavjud bo‘lib, u tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi.

Nemis va o‘zbek madaniyatlari mehmondo‘stlik an’analari bilan ajralib turadi. Biroq ushbu an’analarning kommunikativ ifodasi, nutqiy shakllari va pragmatik xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli ushbu maqolada nemis va o‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik etiketi qiyosiy-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi.

Mehmondo‘stlik etiketi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim madaniy mexanizm hisoblanadi. Mehmon kutish jarayonida qo‘llaniladigan nutqiy shakllar, imo-ishoralar va xatti-harakatlar muloqot jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi.

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan mehmondo‘stlik etiketi madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi. Chunki mehmon kutish bilan bog‘liq nutqiy birliklar har bir xalqning madaniy qadriyatlarini ifodalaydi.

Masalan, o‘zbek madaniyatida mehmon “aziz” va “ulug‘” sifatida qabul qilinadi. Shu sababli mehmon bilan muomala qilishda samimiylik va hurmat ustuvor ahamiyat kasb etadi. Nemis madaniyatida esa mehmondo‘stlik jarayonida tartib, aniqlik va vaqtga rioya qilish muhim hisoblanadi. [2]

Nemis madaniyatida mehmondo‘stlik etiketi muayyan tartib va qoidalarga asoslanadi. Ayniqsa, vaqtga rioya qilish nemis etiketining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mehmon tadbirga belgilangan vaqtda kelishi lozim, chunki kechikish mezbon uchun noqulay vaziyat yaratishi mumkin. Nemis madaniyatida mehmon kechiksa, uzr so‘rash muhim etiket qoidasi hisoblanadi. [3]

Masalan: *„Ich bitte Sie um Entschuldigung für meine Verspätung.“* Mazkur ifoda suhbatdoshga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalashga xizmat qiladi.

Nemis madaniyatida stol atrofidagi muomala ham muayyan qoidalarga asoslanadi. Ovqatlanish jarayonida pichoq va vilka aniq tartibda ishlatiladi, shuningdek, ovqatni ovoz chiqarib yeyish odobsizlik belgisi hisoblanadi.

Bundan tashqari, nemis madaniyatida tanishtirish jarayoni ham muayyan etiket qoidalariga ega. Masalan, yangi tanish bilan qo‘l berib salomlashish va quyidagi nutqiy shakldan foydalanish odatiy hol hisoblanadi: [3]

„Ich freue mich, Sie kennenzulernen.“

O‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik qadimiy an’analardan biri hisoblanadi. Mehmon kutish jarayoni o‘zbek jamiyatida alohida hurmat va ehtirom bilan amalga oshiriladi. [1] O‘zbek madaniyatida mehmon kelganda uni iliq kutib olish, samimiy muomala qilish va eng yaxshi taomlar bilan mehmon qilish odati mavjud. Mehmon bilan muloqot jarayonida hurmat ifodalovchi nutqiy shakllar keng qo‘llaniladi.

Masalan: *“Assalomu alaykum, xush kelibsiz.”*

Shuningdek, o‘zbek madaniyatida mehmonni kuzatish ham muhim etiket qoidalaridan biri hisoblanadi. Mezbon mehmonni eshik oldigacha yoki ko‘chagacha kuzatib qo‘yishi odob belgisi sifatida qabul qilinadi. [1]

Nemis va o‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik etiketi umumiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, ayrim pragmatik farqlar ham mavjud. Nemis madaniyatida mehmondo‘stlik jarayonida tartib va vaqtga rioya qilish muhim hisoblanadi. O‘zbek madaniyatida esa samimiylik va mehmonni hurmat qilish ustuvor ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, nemis madaniyatida stol atrofidagi muomala qoidalari aniq tartibga ega bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida bu jarayon ko‘proq samimiy muhitda amalga oshiriladi. Shuningdek, nutqiy shakllar ham farqlanadi. Nemis tilida muloqot qisqa va aniq nutqiy birliklar orqali amalga oshirilsa, o‘zbek madaniyatida samimiy tilaklar va duolar ko‘proq qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehmondo‘stlik etiketi har bir madaniyatning muhim lingvomadaniy komponentlaridan biridir. Nemis va o‘zbek madaniyatlarida mehmon kutish an’analari hurmat va ehtirom tamoyillariga asoslangan bo‘lsa-da, kommunikativ strategiyalar va nutqiy shakllar jihatidan muayyan farqlar mavjud.

Nemis madaniyatida aniqlik, tartib va vaqtga rioya qilish muhim o‘rin tutadi. O‘zbek madaniyatida esa samimiylik, mehmondo‘stlik va hurmat ustuvor qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida turli madaniyatlarning nutqiy etiket tizimini o‘rganish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2018. – B. 101.
2. Muhammadjonova L, Obidjanova F. Etiket. – Toshkent. O'zbekiston milliy universiteti, 2017. – B. 14.
3. Hartung W., Schönfeld H. Kommunikation und Sprachvariation. – Berlin, 1981. – S. 97.

UO'K 808.3

NEMIS TILIDA YOZMA VA OG'ZAKI TAKLIF SHAKLLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Q.Sh.Kaxarov, f.f.d., dots., Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tilida qo'llaniladigan yozma va og'zaki taklif shakllarining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda taklif nutqiy akt sifatida kommunikativ jarayonda qanday funksiyalarni bajarishi, uning rasmiy va norasmiy muloqotdagi o'rni hamda nutqiy etiket bilan bog'liqligi yoritiladi. Nemis madaniyatida yozma taklifnomalarning tuzilishi, undagi kommunikativ formulalar, qisqartmalar va ijtimoiy maqomni ifodalovchi til birliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, og'zaki taklif shakllarining kommunikativ xususiyatlari, samimiylik va ijtimoiy yaqinlikni ifodalovchi lingvopragmatik vositalar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yozma va og'zaki takliflar nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki madaniy qadriyatlar, kommunikativ strategiyalar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim nutqiy janr ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *yozma taklif, og'zaki taklif, nutqiy etiket, lingvopragmatika, kommunikativ strategiya, nutqiy akt, rasmiy muloqot*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности письменных и устных форм приглашения в немецком языке. В исследовании рассматриваются функции приглашения как речевого акта в процессе коммуникации, а также его роль в официальном и неофициальном общении. Особое внимание уделяется структуре письменных приглашений в немецкой культуре, используемым коммуникативным формулам, сокращениям и языковым средствам выражения социального статуса и вежливости. Также исследуются коммуникативные особенности устных приглашений и языковые средства выражения искренности и межличностной близости. В результате установлено, что приглашение выступает не только средством передачи информации, но и важным коммуникативным жанром, отражающим культурные ценности, социальные отношения и коммуникативные стратегии.*

Ключевые слова: *письменное приглашение, устное приглашение, речевой этикет, лингвопрагматика, коммуникативная стратегия, речевой акт*

Abstract. *This article analyzes the linguopragmatic features of written and oral invitation forms used in the German language. The study examines the functions of invitations as speech acts in communication and their role in both formal and informal interactions. Particular attention is given to the structure of written invitations in German culture, including communicative formulas, abbreviations, and linguistic markers reflecting social status and politeness strategies. The article also explores the communicative characteristics of oral invitations and the linguistic means used to express sincerity and interpersonal closeness. The results show that invitations function not only as a means of conveying information but also as an important communicative genre reflecting cultural values, social relations, and communicative strategies.*

Keywords: *written invitation, oral invitation, speech etiquette, linguopragmatics, communicative strategy, speech act*

Insonlar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar turli nutqiy janrlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu nutqiy janrlar orasida taklif qilish kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Taklif nutqiy akt sifatida muloqot jarayonida suhbatdoshlarni muayyan ijtimoiy faoliyatga jalb qilishga qaratilgan bo'lib, u kommunikativ niyat, ijtimoiy vaziyat va madaniy me'yorlarga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tilshunoslikda taklif nutqiy akt sifatida lingvopragmatika doirasida o‘rganiladi. Taklif nutqiy aktlari kommunikativ strategiyalar orqali amalga oshiriladi va ularning shakli ijtimoiy munosabatlar, madaniy an’analar hamda muloqot kontekstiga qarab farqlanadi. Shu sababli taklif shakllari turli tillarda va madaniyatlarda o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlarga ega.

Nemis madaniyatida taklif qilish jarayoni nutqiy etiketning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon rasmiy va norasmiy kommunikativ vaziyatlarda turlicha nutqiy formulalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, yozma taklifnomalar rasmiy muloqot jarayonida muhim kommunikativ vosita sifatida qo‘llaniladi.

Mazkur maqolaning maqsadi nemis tilida yozma va og‘zaki taklif shakllarining lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tilshunoslikda taklif qilish nutqiy akt nazariyasi doirasida o‘rganiladi. Nutqiy akt nazariyasi ingliz tilshunosi J.Austin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, [1] keyinchalik J.Searle tomonidan rivojlantirilgan. [2] Mazkur nazariyaga ko‘ra, har qanday nutqiy ifoda nafaqat axborot yetkazish vazifasini bajaradi, balki muayyan kommunikativ harakatni ham amalga oshiradi. Taklif nutqiy akti ham shunday kommunikativ harakatlardan biri hisoblanadi. Taklif nutqiy akti suhbatdoshni muayyan faoliyatga jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, u kommunikativ vaziyatga qarab turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, rasmiy muloqotda taklif aniq va tartibli shaklda ifodalansa, norasmiy muloqotda u samimiy va erkin nutqiy formulalar orqali ifodalanadi. Nemis madaniyatida yozma taklifnomalar muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ayniqsa, rasmiy tadbirlar, konferensiyalar, to‘ylar yoki boshqa ijtimoiy tadbirlarga mehmonlarni taklif qilishda yozma taklifnomalar keng qo‘llaniladi.

Yozma taklifnomalar muayyan tuzilishga ega bo‘lib, unda quyidagi elementlar mavjud bo‘ladi:

tadbirning nomi
tadbir sanasi
tadbir o‘tkaziladigan joy
tadbir boshlanish vaqti
mezbon nomi
javob berish talabi

Nemis tilida yozma taklifnomalarda ko‘pincha maxsus qisqartmalar qo‘llaniladi. Masalan:

u.A.w.g. (um Antwort wird gebeten) – javob berishingiz so‘raladi.

Mazkur qisqartma mehmonlardan tadbirda ishtirok etish yoki etmaslik haqida oldindan javob berishni so‘rash maqsadida qo‘llaniladi.

Yozma taklifnomalarda kommunikativ aniqlik va rasmiylik muhim o‘rin tutadi. Shu sababli taklifnomalarda til birliklari aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifodalanadi.

Og‘zaki takliflar ko‘pincha norasmiy muloqot jarayonida qo‘llaniladi. Bunday takliflar do‘stlar, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar o‘rtasida amalga oshiriladi. Og‘zaki takliflarning asosiy xususiyati ularning samimiyligi va erkin kommunikativ shaklga ega bo‘lishidir. Masalan:

„Ich lade dich herzlich zu meiner Geburtstagsfeier ein.“

Mazkur ifoda samimiy taklif nutqiy formulasi bo‘lib, unda suhbatdoshga nisbatan yaqinlik va samimiylik ifodalanadi.

Og‘zaki takliflar ko‘pincha ekspressiv nutqiy aktlar orqali ifodalanadi. Bu esa suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni kuchaytiradi.Nemis tilida taklif shakllari kommunikativ vaziyatga qarab farqlanadi. Rasmiy takliflar ko‘proq yozma shaklda ifodalanadi va ularda rasmiy nutqiy formulalar qo‘llaniladi.

Norasmiy takliflar esa og‘zaki muloqot orqali amalga oshiriladi va ularda samimiy nutqiy birliklar qo‘llaniladi. Masalan:

Rasmiy taklif:

„Hiermit laden wir Sie herzlich zu unserer Veranstaltung ein.“

Norasmiy taklif:

„Magst du morgen zu uns kommen?“

Mazkur misollar taklif nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, taklif nutqiy akti kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nemis tilida yozma va og‘zaki taklif shakllari lingvopragmatik jihatdan turli kommunikativ strategiyalar orqali ifodalanadi.

Yozma takliflar rasmiy muloqot jarayonida qo‘llanilib, aniqlik va tartiblilik bilan ajralib turadi. Og‘zaki takliflar esa samimiylik va ijtimoiy yaqinlikni ifodalovchi kommunikativ vosita hisoblanadi. Shu sababli yozma va og‘zaki taklif shakllarini o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: At the Clarendon press, 1962. – P. 166.

2. Searle J.R. Speech acts: an essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

UO'K 81-13

RASMIY NEMIS NUTQIDA PASSIV KONSTRUKSIYALAR VA DEPERSONALIZATSIYANING QO‘LLANILISHI

M.M.Kaxarova, prof., f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tilining rasmiy uslubiga xos morfosintaktik xususiyatlar tahlil qilinib, unda passiv konstruksiyalar hamda depersonalizatsiya hodisalari ko‘rib chiqiladi hamda ushbu grammatik vositalarning rasmiy matnlarda obyektivlik, betaraflik va institutsional ohangni ta'minlashdagi roli rasmiy hujjatlar, ma'muriy matnlar va ilmiy manbalardan olingan misollar asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Rasmiy uslub, morfosintaksis, nemis tili, passiv konstruksiyalar, depersonalizatsiya, nominal uslub, funksional fe'lli birikmalar, rasmiy diskurs.*

Аннотация. *В данной статье анализируются морфосинтаксические особенности официального стиля немецкого языка. Рассматриваются пассивные конструкции и явление деперсонализации, а также освещается роль этих грамматических средств в обеспечении объективности, нейтральности и институционального характера официальных текстов. Анализ проводится на основе примеров из официальных документов, административных текстов и научных источников.*

Ключевые слова: *Официальный стиль, морфосинтаксис, немецкий язык, пассивные конструкции, деперсонализация, номинальный стиль, функционально-глагольные сочетания, официальный дискурс.*

Abstract. *This article analyzes the morphosyntactic features characteristic of the formal style of the German language. It examines passive constructions and the phenomenon of depersonalization, highlighting the role of these grammatical means in ensuring objectivity, neutrality, and an institutional tone in official texts. The analysis is based on examples taken from official documents, administrative texts, and academic sources.*

Keywords: ***Formal style, morphosyntax, German language, passive constructions, depersonalization, nominal style, functional verb constructions, official discourse.***

Rasmiy uslubning yana bir muhim belgisi majhul nisbat, ya'ni passiv konstruksiyalarni qo‘llashdir. Passiv gaplarda harakat bajaruvchisi ko‘pincha ko‘rsatilmaydi yoki ikkinchi darajaga tushadi[1]. Bu uslubiy usul rasmiy matnlarga shaxsdan xoli, obyektiv ohang berib, go‘yoki harakat o‘z-o‘zidan, shaxsiy aralashuvsiz sodir bo‘layotgandek tasvirlanadi[2]. Rasmiy idoraviy uslubda bajaruvchini yashirish bir necha yo‘l bilan amalga oshiriladi.

An'anaviy passiv tobe zamon (werden + Partizip II) yordamida aytilmaydi. Masalan, “Die Frist wurde verlängert.” (“Muddat uzaytirildi”). Bunda kim tomonidan uzaytirildi, noaniq qoladi.

“Es”-li passiv: “es wird...” konstruktsiyasi bilan umumiy subyekt kiritilib, haqiqiy ega yashirinadi. Masalan, “Es wird darauf hingewiesen, dass ...” – “Shunga ishora qilinadi-ki,...”, “Shuni eslatib o‘tamizki,...”. Bu yerda “es” rasmiylik uchun kiritilgan subyekt bo‘lib, real bajaruvchini tilga olmaydi.

Modal passiv konstruktsiyalar “sein + zu + infinitiv” shakli bilan majburiyat ifodalanadi. Masalan, “Die Unterlagen sind einzureichen.” (“Hujjatlar topshirilishi lozim”) degani bo‘lib, bu ham egani ko‘rsatmaydi ya’ni, “Sie müssen die Unterlagen einreichen” kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat yo‘q.

Ba’zi rasmiy matnlarda noaniq shaxs olmoshi “man” (“odam”) ishlatilib, ega umumlashtiriladi. Masalan, “Man erwartet, dass die Vorschriften eingehalten werden.” “Ko‘rsatmalarga rioya qilinishi kutiladi”. (“odatda kutishadi-ki,...”). Bunda “man” jamiyat yoki tegishli idora nomidan umumiy subyektni ifodalaydi, biroq shaxs aniq emasligi kuzatiladi.

Rasmiy matn yozuvchilari ongli ravishda passiv va egani yashirish usullariga murojaat qilishadi, chunki bu obyektiv, rasmiy ohang yaratadi. Ayniqsa, farmoyish, buyruq kabi gaplarda buyruq beruvchi shaxsni ko‘rsatmasdan turib majburiyatni ifodalash muhim bo‘lib, bu bir tomondan, xushmuomalalik pragmatikasi bilan bog‘liq (buyruqning direktligi pasayadi), boshqa tomondan, muassasa nomidan gapirilayotgani ta’kidlanadi.

Quyidagi misolga e’tibor qaratamiz. „Es wird darauf hingewiesen, dass gemäß § 5 Abs. 2 die erforderlichen Unterlagen bis zum 1. März einzureichen sind.“

Bu birikma tipik idoraviy xabarnomadan olingan bo‘lib, unda biryo‘la bir necha passiv/depersonalizatsiya usuli qo‘llanganganligi ko‘rinib turadi. Gap “Es wird darauf hingewiesen” degan shakldan boshlanadi va ibora “Shuni ma’lum qilamizki” degan ma’noni beradi, lekin bunda an’anaviy “biz” subyekti yo‘q. “es” yordamida noaniq ega hosil qilingan shuningdek, majhul nisbatdagi fe’l wird hingewiesen ishlatilgan.

Gapning ikkinchi qismida esa “einzureichen sind” degan modal passiv konstruksiya mavjud bo‘lib, “sind einzureichen” “topshirilishi lozim” degani bo‘lib, bunda ham kim topshirishi lozimligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan. Garchi mazmunan hujjatlarni, albatta, murojaat etuvchi topshirishi kerak. Ko‘rinadiki, butun gap davomida hech bir shaxs yoki bajaruvchi aniq tilga olinmagan bo‘lib, bu to‘liq depersonalizatsiyaning namunasidir. Natijada bayon rasman, institutsional ohangda yangramoqda. Xuddi bu talabni idoraning o‘zi (shaxssiz idora) ilgari surayotgandek. Rasmiy ko‘rsatma va qonun moddalari shunday uslubda yoziladi va grammatik shakl ortida kuchli majburiy talab turadi[3].

Passiv va depersonalizatsiya rasmiy matnlarda bir necha maqsadga xizmat qiladi. Birinchidan, bu uslub javobgarlik subyektini chetda qoldiradi. Masalan, “Es wurde ein Fehler gemacht” (“Xato qilindi”). Kim tomonidan? noma’lum bo‘lib, aybdorni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmaydi. Bu byurokratik tilda tez-tez uchraydigan hodisa bo‘lib, mas’ulni yashirish yoki kamida diqqatni unda qaratmaslik uchun ishlatiladi. Ikkinchidan, passiv konstruksiyalar obyektivlik illüziyasini yaratib, go‘yoki faktlar o‘z-o‘zidan aytilmoqda, subyektiv munosabat yo‘q.

Rasmiy xatlar va hisobotlarda “Es wird festgestellt, dass...” (“Aniqlanadiki, ...”) kabi iboralar tez-tez uchrab turadi, bu esa “Biz aniqladik” deganidan ko‘ra rasmiyroq va xolisroq ko‘rinadi. Uchinchidan, bunday uslub o‘quvchiga bevosita qaratilmagan bo‘lib, rasmiy muomala doirasida xushmuomalalik va distantsiya saqlanishiga xizmat qiladi. Masalan, buyruq gapni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Sie müssen die Unterlagen einreichen” (“Siz hujjatlarni topshirishingiz shart”) shaklida aytish rasmiy uslubda qo‘pol hisoblanib, buning o‘rniga yuqoridagi misoldagi kabi “die Unterlagen sind einzureichen” shakli qo‘llanadi.

Passiv indikator sifatida rasmiy matnlarda passiv konstruksiyalar ulushi odatda yuqori bo‘ladi. Buni statistik ko‘rsatkichlar bilan ham isbotlash mumkin. Masalan, og‘zaki suhbatlarda gaplarning atigi kichik qismi passivda bo‘lsa, rasmiy hujjatlarda passiv gaplar ulushi sezilarli darajada katta ekani qayd etilgan. Shu sabab, matnda passivning qo‘llanish chastotasini aniqlash uslubi mavjuddir. Masalan, har 100 ta gapdan nechta passiv gap ekanini sanash orqali. Xuddi shuningdek, matndagi “man” olmoshi yoki “es wird” konstruksiyasining takrorlanish chastotasi ham rasmiylik indikatorlari bo‘lib xizmat qiladi. Qonun matnlari va idoraviy buyruqlarda passiv konstruksiyalar ko‘pincha matnning o‘zagini tashkil etadi.

Masalan, qonun moddalari odatda “Es ist ...qonun moddalari odatda “Es ist verboten, ...”, “Es ist zulässig, ...” kabi shaxsdan xoli jumlalar shaklida tuziladi. Rasmiy ko‘rsatmalarda buyruq fe’li (imperativ) deyarli uchramasdan uning o‘rniga passiv yoki modal konstruktsiyalar orqali

muloyimroq, lekin baribir majburiy ohang beriladi. Shuningdek, rasmiy-uslubiy matnlarda birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari (men, siz) deyarli qo‘llanmaydi bu ham depersonalizatsiyaning bir ko‘rinishi. Masalan, norasmiy tarzda “Biz quyidagi hujjatlarni ilova qilmoqdamiz” deyish mumkin bo‘lgan joyda rasmiy til “Es werden folgende Unterlagen beigefügt” (“Quyidagi hujjatlar ilova qilinmoqda”) shakli tanlanadi, bunda ham “biz” subyekti yashiringan bo‘ladi.

Passiv/depersonalizatsiya indikator sifatida rasmiy matnda passiv konstruksiyalar ulushi yuqori ekani ko‘rsatkich bo‘la oladi. Ayniqsa, huquqiy matnlar (qonun, kodeks) va idoraviy buyruqlar passiv uslubda yoziladi. Shunday matnlarda biror shaxsga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat yo‘qligi, egalik olmoshlari (mening, sizning) ishlatilmasligi ham e’tiborga molik. Korpus lingvistikasida matndagi passiv fe’llar sonini aniqlash yoki “man”, “es wird” kabi depersonalizatorlarning chastotasini hisoblash orqali rasmiy uslub darajasini aniqlash mumkin. Misol tariqasida, og‘zaki nutqda har 100 ta fe’lning atigi 2-3 tasi majhul nisbatda kelsa, rasmiy hujjatda bu ko‘rsatkich bir necha baravar yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Xuddi shuningdek, rasmiy matnda shaxs olmoshlari (men, sen, u) kam qo‘llanadi. Masalan, ilmiy maqolalarda “biz” o‘rniga noaniq “muallif” yoki passiv konstruksiya qo‘llash tavsiya etiladi. Shunday qilib, passiv va depersonalizatsiya darajasi ham rasmiylik indikatorlari sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Engel U. Deutsche Grammatik (2. Aufl.). – München: Iudicium, 2004.
2. Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. – Mannheim: Dudenverlag, 1993.
3. Hoffmann L. Deutsche Grammatik. Grundlagen für Lehrerausbildung und -Praxis. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2021.

UO’K 81-13

NEMIS NUTQIY ETIKETINING SHAKLLANISHI VA NAZARIY ASOSLARI

Q.Sh.Kaxarov, f.f.d., dots., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutqiy etiket tushunchasining shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda nemis nutqiy etiketining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy etiketning tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Knigge, Humboldt, Bierwisch, Shuls fon Tun kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida nutqiy etiketning tarixiy shakllanishi va ilmiy talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya, integratsiya va multikulturalizm jarayonlarining nutqiy etiketga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nutqiy etiket nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va kommunikativ strategiyalarni ifodalovchi muhim lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy etiket, lingvopragmatika, kommunikativ xulq, madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniyat, multikulturalizm, kommunikativ strategiyalar*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются формирование понятия речевого этикета, его теоретические основы и лингвокультурные особенности немецкого речевого этикета. В исследовании раскрывается взаимосвязь речевого этикета с такими науками, как лингвистика, социология и культурология. На основе научных взглядов Книгге, Гумбольдта, Бервиша и Шульца фон Туна анализируется историческое развитие и научное осмысление речевого этикета. Кроме того, рассматривается влияние межкультурной коммуникации, процессов интеграции и мультикультурализма на речевой этикет. В результате исследования обосновывается, что речевой этикет выступает не только средством коммуникации, но и важным лингвокультурным феноменом, отражающим социальные отношения, культурные ценности и коммуникативные стратегии общества.*

Ключевые слова: *речевой этикет, лингвопрагматика, коммуникативное поведение, межкультурная коммуникация, лингвокультура, мультикультурализм*

Abstract. *This article analyzes the formation of the concept of speech etiquette, its theoretical foundations, and the linguocultural features of German speech etiquette. The study highlights the relationship between speech etiquette and disciplines such as linguistics, sociology, and cultural studies. The historical development and scientific interpretations of speech etiquette are examined*

through the works of scholars such as Knigge, Humboldt, Bierwisch, and Schulz von Thun. In addition, the influence of intercultural communication, integration processes, and multiculturalism on speech etiquette is discussed. The results of the research demonstrate that speech etiquette is not only a communicative tool but also an important linguocultural phenomenon that reflects social relations, cultural values, and communicative strategies in society.

Keywords: *speech etiquette, linguopragmatics, communicative behavior, intercultural communication, linguoculture, multiculturalism*

Til insoniyat jamiyatida nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida til birliklari muayyan ijtimoiy, madaniy va axloqiy me’yorlar asosida qo‘llaniladi. Ana shunday me’yorlar tizimi nutqiy etiket tushunchasi bilan ifodalanadi. Nutqiy etiket muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘rtasidagi hurmat, ijtimoiy masofa va kommunikativ strategiyalarni tartibga soluvchi til vositalari majmuasini anglatadi.

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy etiket lingvopragmatika, sotsiolingvistika va lingvokulturologiya kabi ilmiy yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Nutqiy etiket orqali jamiyatdagi ijtimoiy rollar, madaniy qadriyatlar va kommunikativ xulq me’yorlari ifodalanadi. Shu sababli nutqiy etiketni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Nemis tilshunosligida nutqiy etiket masalasi uzoq tarixga ega bo‘lib, u XVIII asrdan boshlab ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida shakllana boshlagan. Ayniqsa, nemis madaniyatshunosi Adolf Freiherr von Kniggening “Über den Umgang mit Menschen” asari nutqiy etiket va muloqot madaniyatini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. [1] Mazkur asar jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, muloqot odobi va axloqiy me’yorlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur maqolaning maqsadi nemis nutqiy etiketining shakllanish jarayonini, uning nazariy asoslarini hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Nutqiy etiket tushunchasi til orqali ifodalanadigan muloqot madaniyati va axloqiy me’yorlar tizimini anglatadi. Bu tushuncha kommunikativ jarayonda suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi til vositalari majmuasini o‘z ichiga oladi. Nutqiy etiket birliklari insonlar o‘rtasidagi hurmat, ehtirom va ijtimoiy masofani ifodalashga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda nutqiy etiket ko‘pincha lingvopragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi. Chunki nutqiy etiket birliklari muloqot jarayonida kommunikativ niyat, ijtimoiy vaziyat va suhbatdoshlarning maqomiga qarab tanlanadi. Masalan, salomlashish, tanishtirish, taklif qilish, uzr so‘rash yoki minnatdorchilik bildirish kabi nutqiy formulalar kommunikativ vaziyatga mos ravishda qo‘llaniladi.

Nutqiy etiketning muhim jihatlaridan biri uning madaniy xususiyatidir. Har bir xalqning nutqiy etiket tizimi uning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli nutqiy etiketni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis nutqiy etiketining ilmiy o‘rganilishi XVIII asrga borib taqaladi. Bu davrda jamiyatda muloqot madaniyatiga bo‘lgan qiziqish ortib, odob-axloq qoidalarini tizimli tarzda o‘rganish zarurati yuzaga kelgan.

Adolf Freiherr von Kniggening “Über den Umgang mit Menschen” asari nutqiy etiketni o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. [1] Ushbu asarda insonlar o‘rtasidagi muloqot madaniyati, hurmat va axloqiy me’yorlar batafsil yoritilgan. Knigge jamiyatdagi muloqot jarayonini tartibga soluvchi axloqiy qoidalarni tizimli tarzda bayon qilgan. Mazkur asar nemis madaniyatida muloqot madaniyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Natijada “Knigge qoidalari” iborasi nemis jamiyatida odob-axloq va muloqot madaniyatining ramziga aylangan.

Nemis tilshunosligida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi Vilgelm fon Humboldt tomonidan chuqur tahlil qilingan. [2] Humboldt tilni xalqning dunyoqarashi va ruhiyatini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida talqin qiladi. Olimning fikriga ko‘ra, har bir til o‘ziga xos dunyoqarashni ifodalaydi. Til orqali xalqning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi va tafakkuri

namoyon bo‘ladi. Shu sababli nutqiy etiketni o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy etiket lingvopragmatik hodisa sifatida ham o‘rganiladi. Nemis tilshunosi Shuls fon Tun muloqot jarayonining bir nechta jihatlarini ajratib ko‘rsatadi. [3] Unga ko‘ra, har qanday kommunikativ jarayonda xabar yetkazish, o‘zini namoyon qilish va suhbatdosh bilan munosabat o‘rnatish kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

Nutqiy etiket birliklari aynan shu kommunikativ vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, uzr so‘rash yoki minnatdorchilik bildirish kabi nutqiy formulalar suhbatdoshga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalaydi.

Globalizatsiya jarayonlari natijasida madaniyatlararo muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta’minlashda nutqiy etiket muhim rol o‘ynaydi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida turli madaniyatlarning nutqiy etiket tizimlari o‘rtasidagi farqlar tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli nutqiy etiketni o‘rganish madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy etiket til orqali ifodalanadigan muhim ijtimoiy-madaniy hodisalardan biridir. U muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘rtasidagi hurmat, ijtimoiy masofa va kommunikativ strategiyalarni tartibga soladi.

Nemis nutqiy etiketining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, uning nazariy asoslari Knigge, Humboldt va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy etiket lingvopragmatika va lingvokulturologiya doirasida keng o‘rganilmoqda. Madaniyatlararo muloqot jarayonida nutqiy etiket qoidalarini bilish va ularga rioya qilish turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli nutqiy etiketni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Knigge A. Über den Umgang mit Menschen. – Hannover, 2018. – S.395.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – 400 с.
3. Friedemann Sch. Das Kommunikationsquadrat. URL: http://www.schulz-von-thun.de/index.php?article_id=71.

UDC 82-312.6

SEMANTIC AND NARRATIVE MODELING OF ALTERNATIVE REALITY IN FANTASTIC TEXTS: A COMPARATIVE STUDY OF KHOJAKBAR SHAYKHOV AND H. G. WELLS

L.Kenjayeva, Independent researcher, Samarkand State Institute of Foreing Languages, Samarkand

Annotatsiya. *Fantastik adabiyot an’anaviy voqelik tasavvurlarini qayta talqin etuvchi tasavvuriy olamlarni yaratadi. Mazkur maqolada fantastik matnlarda alternativ reallikni shakllantirishning semantik va narrativ mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Xojakbar Shayxov hamda H. G. Uells asarlarining qiyosiy tahliliga asoslanadi. Qiyosiy, diskursiv va lingvopoetik metodlar yordamida turli madaniy kontekstlarning badiiy olam qurilishiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Wells alternativ reallikni asosan ilmiy g‘oyalar orqali quradi, Shayxov ijodida esa falsafiy ramziylik va madaniy semantika ustunlik qiladi. Tadqiqot fantastik diskursni til, tasavvur va madaniy dunyoqarash o‘rtasidagi murakkab munosabat sifatida yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *fantastik diskurs, alternativ reallik, narrativ modellashtirish, lingvopoetika, ilmiy fantastika.*

Аннотация. *Фантастическая литература создаёт воображаемые миры, переосмысливающие традиционные представления о реальности. В статье анализируются семантические и нарративные механизмы формирования альтернативной реальности в фантастических текстах. Исследование основано на сравнительном анализе произведений Ходжакбара Шайхова и Герберта Джорджа Уэллса. С применением сравнительного, дискурсивного и лингвопоэтического методов рассматривается влияние культурного контекста на конструирование художественных миров. Результаты показывают, что Уэллс*

создаёт альтернативную реальность преимущественно через научные идеи, тогда как в творчестве Шайхова важную роль играют философская символика и культурно обусловленные значения. Работа раскрывает фантастический дискурс как взаимодействие языка, воображения и культурного мировоззрения.

Ключевые слова: *фантастический дискурс, альтернативная реальность, нарративное моделирование, лингвопоэтика, научная фантастика.*

Abstract. *Fantastic literature creates imaginative worlds that challenge traditional representations of reality. This article examines the semantic and narrative mechanisms used to construct alternative realities in fantastic texts. The study provides a comparative analysis of the works of the Uzbek writer Khojakbar Shaykhov and the British science fiction author H. G. Wells. Using comparative, discourse-analytical, and linguopoetic methods, the research explores how cultural contexts influence the construction of fictional worlds. The findings show that Wells mainly builds alternative realities through scientific concepts and speculative reasoning, while Shaykhov emphasizes philosophical symbolism and culturally embedded meanings. The study highlights fantastic discourse as a complex interaction between language, imagination, and cultural worldview.*

Keywords: *fantastic discourse, alternative reality, narrative modeling, linguopoetics, science fiction.*

Fantastic literature occupies a distinctive place within literary discourse because it enables authors to create fictional worlds that significantly diverge from empirical reality. Through imaginative narrative techniques and semantic transformations, writers construct hypothetical universes that extend the boundaries of human perception and cognition [Ryan, 2021]. In contemporary literary and linguistic studies, the concept of alternative reality has become an important analytical category for understanding the mechanisms of fictional world construction. The creation of fictional worlds in fantastic literature is not merely an act of imagination; it also involves complex linguistic and narrative strategies. Authors frequently employ semantic innovation, metaphorical structures, and narrative frameworks in order to produce believable yet extraordinary realities [Stockwell, 2020]. These mechanisms have attracted considerable scholarly attention in fields such as narratology, discourse analysis, and cognitive poetics [Herman, 2022]. Among the influential figures in the development of science fiction is the British writer H. G. Wells, whose works such as The Time Machine and The War of the Worlds integrate scientific speculation with narrative experimentation. Wells constructs fictional universes by extrapolating contemporary scientific ideas and presenting them within a coherent narrative structure [Luckhurst, 2023].

In Uzbek literature, Khojakbar Shaykhov represents an important contributor to the development of fantastic prose. His works combine imaginative storytelling with philosophical reflection and social commentary. Unlike the predominantly scientific orientation of Western science fiction, Shaykhov's narratives often emphasize cultural symbolism, ethical concerns, and existential questions.

Despite the growing scholarly interest in fantastic discourse, comparative studies examining the linguistic and narrative construction of alternative reality across different literary traditions remain relatively limited. Therefore, the present study aims to analyze the semantic and narrative modeling of alternative reality in the works of Khojakbar Shaykhov and H. G. Wells. By comparing these two authors, the research seeks to reveal how cultural context influences the strategies used to construct fictional worlds.

The theoretical foundations for analyzing fantastic discourse have developed within several interdisciplinary research traditions, including narratology, cognitive poetics, and science fiction studies. One influential approach to fictional world construction is Marie-Laure Ryan's theory of possible worlds and virtual narrative reality, which explains how readers cognitively construct fictional universes based on textual cues [Ryan, 2021].

Research in science fiction studies also offers important insights into the modeling of alternative realities. According to Luckhurst [2023], science fiction frequently employs speculative reasoning to explore hypothetical social, technological, and philosophical possibilities. In such narratives, fictional

worlds serve as experimental spaces for imagining possible futures and alternative forms of human existence.

Bould [2022] further notes that science fiction narratives reflect broader cultural and intellectual contexts. The construction of fictional realities is therefore influenced not only by narrative imagination but also by scientific discourse, ideological perspectives, and cultural traditions.

Despite the growing body of research on fantastic literature and science fiction, comparative studies focusing on Central Asian fantastic prose remain relatively limited. Therefore, the present study contributes to the analysis of fantastic discourse by examining the semantic and narrative mechanisms used in the works of Khojakbar Shaykhov and H. G. Wells.

This study adopts a qualitative comparative research design to investigate the mechanisms used to construct alternative realities in fantastic texts. The analysis is based on selected works by H. G. Wells and Khojakbar Shaykhov that exemplify their respective approaches to fantastic narrative.

Several analytical methods were employed in the research. First, the comparative method was used to identify similarities and differences in the representation of fictional worlds in the selected texts. This method allowed for the examination of how different narrative strategies shape alternative realities in each author's work.

Second, a linguopoetic analysis was conducted to examine the semantic structures of the texts. Linguopoetics focuses on the relationship between linguistic forms and artistic meaning in literary discourse [Stockwell, 2020]. Through this method, lexical choices, metaphorical constructions, and conceptual patterns were analyzed.

Third, discourse analysis was applied to investigate the narrative organization of the texts. This approach helped reveal how extraordinary events are presented within coherent narrative frameworks.vAdditionally, insights from cognitive poetics were incorporated into the analysis. Cognitive approaches emphasize the role of conceptual models and mental representations in interpreting fictional narratives [Gavins & Steen, 2021]. The empirical material of the study consists of selected passages from Wells's novels and Shaykhov's fantastic stories. These texts were analyzed with respect to their narrative structure, semantic organization, and conceptual representation of alternative realities.

The analysis revealed several mechanisms that contribute to the construction of alternative reality in fantastic texts. One of the most significant mechanisms is semantic transformation. In Wells's works, ordinary concepts such as time, space, and technological development are reinterpreted in innovative ways. For instance, in The Time Machine, the concept of time becomes a navigable dimension that can be explored through technological invention [Luckhurst, 2023]. The analysis also demonstrates that cultural context significantly influences the semantic structure of fantastic discourse. Wells's narratives reflect the intellectual environment of modern scientific thought, whereas Shaykhov's texts incorporate elements of Uzbek cultural tradition and philosophical reflection. Furthermore, both authors employ metaphorical structures that contribute to the construction of alternative realities. In Wells's narratives, metaphors frequently relate to technological progress and evolutionary change. In contrast, Shaykhov's metaphors often emphasize spiritual transformation and ethical values.

The findings of this study indicate that the construction of alternative reality in fantastic literature is closely connected to cultural and intellectual contexts. Although both Wells and Shaykhov work within the broader genre of fantastic fiction, their approaches to narrative modeling differ significantly. Wells's works illustrate the tradition of scientific romance, a genre that emerged in the late nineteenth century and emphasized speculative exploration of scientific ideas [Bould, 2022]. Through hypothetical technologies and futuristic scenarios, Wells invites readers to reconsider the relationship between science, society, and human progress. In contrast, Shaykhov's fantastic narratives emphasize philosophical and ethical questions. His stories often employ imaginative situations to explore issues related to human consciousness, morality, and cultural identity. The comparison of these two authors highlights the diversity of narrative strategies within fantastic discourse. While Wells relies heavily on scientific plausibility, Shaykhov emphasizes metaphorical

and cultural dimensions of imagination. Both approaches demonstrate the capacity of fantastic literature to explore complex ideas about reality and human experience.

From a broader perspective, the study confirms that fantastic discourse represents a dynamic interaction between language, narrative structure, and cultural worldview.

This study examined the semantic and narrative mechanisms used to model alternative reality in fantastic texts by Khojakbar Shaykhov and H. G. Wells. The findings indicate that the two authors employ different strategies in constructing fictional worlds, reflecting their respective cultural and intellectual backgrounds. Wells primarily builds alternative realities through scientific speculation and technological imagination, whereas Shaykhov emphasizes symbolic meaning and philosophical reflection. Despite these differences, both authors demonstrate the creative potential of fantastic discourse as a means of exploring the boundaries of human knowledge and imagination. Future research may expand this comparative approach by examining additional authors and cultural traditions within the genre of fantastic fiction.

REFERENCES:

1. Bould, M. [2022]. *The Routledge companion to science fiction*. Routledge.
2. Gavins, J., & Steen, G. [2021]. *Cognitive poetics in practice*. Routledge.
3. Herman, D. [2022]. *Storytelling and the sciences of mind*. MIT Press.
4. Luckhurst, R. [2023]. *Science fiction and the narrative imagination*. Oxford University Press.
5. Ryan, M. L. [2021]. *Narrative as virtual reality* [2nd ed.]. Johns Hopkins University Press.
6. Stockwell, P. [2020]. *Cognitive poetics: An introduction*. Routledge.

UO'K 821.111(410).09-31

BADIIY MATNDA YOVUZLIK FENOMENI: SHEKSPIR VA MILTON IJODIDA DEMONOLOGIK OBRAZLAR TAHLILI

M.A.Kuchiboyev, katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz adabiyotida demonologik va angelologik obrazlarning shakllanishi, taraqqiyoti hamda ularning badiiy-falsafiy talqini tarixiy-davrlar kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxaik mifologik tasavvurlardan boshlab xristianlik ta'sirida shakllangan diniy demonologiya, Uilyam Shekspir ijodidagi psixologik demonologiya va Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asarida yaratilgan murakkab demonologik hamda angelologik tizim izchil o'rganiladi. Asarda yovuzlik va ezgulik, gunoh va jazo, ilohiy adolat kabi tushunchalarning ontologik mohiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *demonologiya, angelologiya, ingliz adabiyoti,yovuzlik fenomini, mifologiya, Jon Milton, "Yo'qotilgan jannat", iblis obrazi, farishtalar tizimi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются формирование, развитие и художественно-философская интерпретация демонологических и ангелологических образов в английской литературе в историко-хронологическом аспекте. В исследовании последовательно анализируется эволюция демонологических представлений, начиная с архаических мифологических воззрений, религиозной демонологии, сформированной под влиянием христианства, психологической демонологии в творчестве Уильяма Шекспира, а также сложной демонологической и ангелологической системы, созданной Джоном Мильтоном в поэме «Потерянный рай». В статье раскрывается онтологическая сущность таких понятий, как добро и зло, грех и наказание, божественная справедливость.*

Ключевые слова: Демонология, ангелология, английская литература, феномен зла, мифология, Джон Мильтон, *«Потерянный рай»*, образ Сатаны, система ангелов.

Abstract. *This article analyzes the formation, development, and artistic-philosophical interpretation of demonological and angelological images in English literature from a historical perspective. The study examines the evolution of demonological concepts starting from archaic mythological representations, through religious demonology shaped under the influence of Christianity, to psychological demonology in the works of William Shakespeare, as well as the complex demonological and angelological system created in John Milton's* ***Paradise Lost****. The article*

reveals the ontological essence of such concepts as good and evil, sin and punishment, and divine justice.

Key words: *demonology, angelology, English literature, the phenomenon of evil, mythology, John Milton, Paradise Lost, the image of Satan, the system of angels.*

Kirish. Demonologik va angelologik obrazlar jahon adabiyotining eng qadimiy va barqaror motivlaridan biri hisoblanadi. Ular insoniyatning olam, yaxshilik va yovuzlik, hayot va o‘lim haqidagi tasavvurlarini badiiy ifodalashda muhim estetik va falsafiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz adabiyotida mazkur obrazlar dastlab mifologik tafakkur mahsuli sifatida shakllanib, keyinchalik diniy, axloqiy va falsafiy qarashlar ta’sirida murakkablashib borgan. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz adabiyotida demonologik va angelologik obrazlarning tarixiy rivojini tahlil qilish, ularning badiiy-falsafiy talqinini aniqlash hamda Jon Milton ijodining ushbu jarayondagi o‘rnini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Ingliz adabiyotidagi demonologik obrazlarning ildizlari anglosakson mifologiyasiga borib taqaladi. “Beovulf” dostoni arxaik mifologik qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan eng qadimiy ingliz epik yodgorliklardan biridir. Asarda Grendel obrazi ibtidoiy yovuzlik, insoniyat uchun noma’lum va xavfli kuchlarning badiiy timsoli sifatida tasvirlanadi. U inson va tabiat, inson va noma’lumlik o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi demonologik obrazdir. Xristianlik ta’siri ostida Grendel Kain avlodiga mansub yovuz mavjudot sifatida talqin qilinib, ma’naviy yovuzlik ramziga aylantiriladi.

Ingliz jamiyatida xristianlikning qaror topishi demonologik va angelologik obrazlar mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Kelt va sakson mifologiyasidagi ko‘p xudolik va tabiat ruhlari o‘rnini iblis, jinlar, vasvasachilar hamda farishtalar egalladi. Bu davr adabiyotida demonologik obrazlar asosan diniy-didaktik vazifani bajardi. Iblis va jinlar insonni gunohga yetaklovchi kuchlar sifatida, farishtalar esa ilohiy tartib va ezgulik ramzi sifatida tasvirlandi. Ushbu qarashlar adabiyotning axloqiy-ta’limiy funksiyasini kuchaytirib, insonni ma’naviy kamolotga undashga xizmat qildi.

XVI asrga kelib ingliz adabiyotida demonologik obrazlar talqinida muhim burilish yuz berdi. Uilyam Shekspir ijodida yovuzlik tashqi kuch sifatida emas, balki insonning ichki ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. “Hamlet” tragediyasidagi arvoh obrazi demonologik xususiyatga ega bo‘lsa-da, u qahramonning ruhiy iztiroblari va axloqiy ikkilanishlarini ochib beruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. “Makbet” tragediyasidagi uch sehrgar esa inson ongidagi hokimiyat ehtirosi va yovuzlikka moyillikni qo‘zg‘atuvchi metafizik kuchlar ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘rta asr adabiyotida yovuzlik ko‘pincha tashqi metafizik kuch — iblis, jin yoki yovuz ruhlar orqali ifodalangan bo‘lsa, Shekspir dramatik asarlarida yovuzlikning manbai insonning ichki psixologik olami**,** ehtiroslari va axloqiy tanlovlari bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Shu bois Shekspir ijodidagi demonologiya psixologik demonologiya sifatida talqin qilinadi.

Shekspir dramalarida demonologik unsurlar inson ruhiyatini ochib beruvchi badiiy vositaga aylanadi. Yovuz kuch tashqi mavjudot sifatida emas, balki inson ongidagi qo‘rquv, shubha, hirs va hokimiyatga intilish natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa demonologik obrazlarning ramziy va falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Natija va muhokamalar. “Hamlet” tragediyasida otaning arvohi demonologik xususiyatga ega bo‘lsa-da, u an’anaviy ma’nodagi iblis emas. Arvoh obrazi Hamletning ichki iztiroblari, axloqiy ikkilanishlari va intellektual shubhalarini faollashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

“The spirit that I have seen
May be a devil, and the devil hath power
T’assume a pleasing shape.”

Bu fikr Hamletning arvohni ham ilohiy, ham demonologik kuch sifatida shubha ostiga qo‘yishini ko‘rsatadi. Natijada yovuzlik tashqi kuchdan ko‘ra inson tafakkuridagi shubha va ishonchsizlik sifatida namoyon bo‘ladi. Arvoh Hamletni qotillikka undamaydi, balki uni axloqiy tanlov qarshisida qoldiradi. Shu tariqa demonologiya psixologik mohiyat kasb etadi.

Shekspir demonologiyasining eng yorqin namunasini “Makbet” tragediyasida ko‘rish mumkin. Asardagi uch sehrgar (Witchlar) tashqi demonologik obraz sifatida namoyon bo‘lsa-da, ular Makbet ongida allaqachon mavjud bo‘lgan hokimiyatga bo‘lgan ehtirosni yuzaga chiqaruvchi katalizator vazifasini bajaradi.

“Fair is foul, and foul is fair.”

Bu ibora axloqiy me’yorlarning buzilishi va yovuzlikning inson ongida oqlanish jarayonini ifodalaydi. Sehrgarlar Makbetni majburlamaydi, balki uning ichki istaklarini faollashtiradi. Natijada Makbetning fojiasi tashqi iblis ta’siri emas, balki ichki axloqiy yemirilish oqibati sifatida talqin qilinadi.

Makbetning quyidagi so‘zlari yovuzlikning ichkilashtirilganligini yaqqol ko‘rsatadi:

“Stars, hide your fires;
Let not light see my black and deep desires.”

Bu o‘rinda “qora istaklar” inson ruhiyatida yashirinib yotgan demonologik kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Shekspir demonologiyasi”ning eng murakkab namunasini Yago obrazida ko‘rish mumkin. Yago klassik iblisga o‘xshamagan holda, inson qiyofasidagi demon sifatida yaratilgan. U sehr, mistika yoki metafizik kuchlarga ega emas, biroq inson psixologiyasini mukammal bilishi orqali vayronkor ta’sir ko‘rsatadi.

“I am not what I am.”

Bu jumla Yagoning mohiyatini ochib beradi: u ikkiyuzlamachilik, makkorlik va ongli manipulyatsiya orqali yovuzlikni amalga oshiradi. Yovuzlik bu yerda demonologik mavjudot emas, balki insoniy ongning qorong‘i qatlamlari mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

XVII asr ingliz adabiyotida demonologik va angelologik obrazlarning eng mukammal badiiy-falsafiy talqini Jon Milton ijodida, xususan, “Yo‘qotilgan jannat” epik poemasida o‘z ifodasini topadi. Ushbu asarda iblis ingliz adabiyotidagi eng murakkab demonologik obrazlardan biri sifatida yaratilgan. U Yaratganga nisbatan norozilik, isyonkorlik, tobelikdan xalos bo‘lishga intilish va manmanlik kabi xususiyatlarni mujassamlashtirgan intellektual kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Iblisning ichki ruhiy kechinmalari va o‘y-fikrlari orqali uning asta-sekin ruhiy halokatga yuz tutishi badiiy jihatdan asoslab beriladi.

Milton davr adabiy muhitining ehtiyojlaridan kelib chiqib, iblis obrazini ma’lum darajada romantiklashtiradi. Bu esa keyingi davr ijodkorlari, xususan romantik adabiyot vakillari uchun muhim badiiy yo‘nalish ochib berdi. Farishtalar tizimi ham asarda yuksak intellektual salohiyatga ega, muayyan vazifa va imkoniyatlarga ega mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. “Yo‘qotilgan jannat” iblis va farishtalar o‘rtasidagi ziddiyat, o‘zaro kurash, gunoh va jazo, ilohiy adolat qonuniyatlariga asoslangan yirik falsafiy-badiiy tizim sifatida gavdalanadi. Asarda yovuzlikning ham ontologik zarurat ekanligi, aynan uning vositasida ezgulikning mohiyati ochilishi g‘oyasi ilgari suriladi. Milton iblisni oddiy yovuz kuch sifatida emas, balki fikrlovchi, tanlov qiluvchi va ongli mavjudot sifatida tasvirlaydi. Uning Yaratganga qarshi isyoni erkinlik g‘oyasi bilan bog‘lanadi:

“Better to reign in Hell, than serve in Heaven.”
(Book I)

Ushbu jumla iblisning asosiy falsafiy pozitsiyasini ifodalaydi, tobelikka asoslangan saodatdan ko‘ra, azobli bo‘lsa-da, erkinlikni afzal bilish**.** Bu jihat iblis obrazining romantiklashuviga sabab bo‘lib, uni sof yovuzlikdan ko‘ra murakkab ontologik fenomen sifatida namoyon etadi.

Milton iblisning fojiasini uning ichki monologlari orqali ochadi. U o‘z gunohini anglaydi, biroq undan voz kecha olmaydi:

“Which way I fly is Hell; myself am Hell.”
(Book IV)

Mazkur misol iblisning yovuzlik tashqi makon emas, balki ichki holat ekanligini anglashini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda yovuzlik ruhiy holat sifatida talqin qilinib, iblisning halokati ontologik va psixologik asosga ega ekanligi ochiladi. Asarda yovuzlik mutlaq mustaqil kuch emas, balki ilohiy reja doirasida mavjud bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rsatiladi. Milton bu g‘oyani Xudoning nutqi orqali ifodalaydi:

"Out of evil still to bring forth good."
(Book XII)

Ushbu fikr maqolada yovuzlikning ontologik zarurat sifatida mavjudligi va uning orqali ezgulikning mohiyati ochilishi haqidagi nazariy qarashni asoslashda muhim dalil bo'lib xizmat qiladi. Milton farishtalarni passiv, faqat buyruq bajaruvchi mavjudot sifatida emas, balki intellektual salohiyatga ega, ongli tanlov qiluvchi mavjudotlar sifatida tasvirlaydi. Masalan, Rafael farishtaning Odam Ato bilan suhbatlari bilim, erkin iroda va mas'uliyat g'oyalariga asoslanadi. Bu hol farishtalar tizimining ham axloqiy-falsafiy mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

"Yo'qotilgan jannat"da gunoh jazodan oldin ongli tanlov sifatida talqin qilinadi. Odam Ato va Momo Havoning qulash jarayoni majburiyat emas, balki erkin iroda natijasi sifatida beriladi. Shu orqali Milton ilohiy adolat tamoyilini asoslaydi, ya'ni jazodan oldin tanlov mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa. Ingliz adabiyotida demonologik va angelologik obrazlar mifologik tafakkurdan boshlab murakkab falsafiy-badiiy tizimgacha bo'lgan uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tgan. "Beovulf" dostonidagi arxaik demonologik tasavvurlar, Shekspir ijodidagi psixologik yovuzlik talqini va Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asaridagi intellektual demonologiya bu jarayonning muhim bosqichlarini tashkil etadi. Ayniqsa, Milton ijodi demonologik va angelologik obrazlarni inson erkinligi, ilohiy adolat va ontologik qarama-qarshiliklar nuqtai nazaridan talqin qilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uilyam Shekspir ijodida demonologiya, tashqi metafizik kuchdan inson ichki olamiga ko'chiriladi, yovuzlik ongli tanlov va ehtiroslar bilan bog'lanadi, demonologik obrazlar psixologik va axloqiy tahlil vositasi sifatida xizmat qiladi. Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asarida iblis obrazining intellektual, isyonkor va fojiali xarakterga ega ekanini, yovuzlikning ichki ruhiy va ontologik hodisa sifatida talqin qilinishini, farishtalar tizimining ongli va faol mavjudotlar sifatida shakllantirilganini yaqqol ko'rsatadi. Shu jihatdan Shekspir demonologiyasi Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asaridagi intellektual demonologiya uchun muhim estetik va falsafiy zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Milton, John.Paradise Lost. London: Samuel Simmons, 1667.
2. Milton, John. Paradise Lost. Edited by Alastair Fowler. London: Longman, 2007.
3. Пивоев В. М. Мифологическое сознание как способ освоения мира.-Петрозаводск: Карелия, 1991.
4. Shakespeare, William. Macbeth. London: Arden Shakespeare, 1606.
5. Shakespeare, William. *Othello.* London: Arden Shakespeare, 1604.
6. Anonymous. *Beowulf.* Translated by Seamus Heaney. New York: W. W. Norton, 2000.
7. Lewis, C. S. A Preface to Paradise Lost. Oxford: Oxford University Press, 1942.
8. Bloom, Harold. Shakespeare: The Invention of the Human. New York: Riverhead Books, 1998.
9. Bloom, Harold. The Western Canon. New York: Harcourt Brace, 1994.
10. Frye, Northrop. *Anatomy of Criticism.* Princeton: Princeton University Press, 1957.
11. Kermode, Frank. Shakespeare's Language. London: Penguin Books, 2000.
12. Ricks, Christopher. Milton's Grand Style. Oxford: Oxford University Press, 1963.
13. Lewalski, Barbara K. The Life of John Milton. Oxford: Blackwell Publishing, 2000.
14. Greenblatt, Stephen. *Renaissance Self-Fashioning.* Chicago: University of Chicago Press, 1980.
15. Greenblatt, Stephen. Will in the World: How Shakespeare Became Shakespeare. New York: W. W. Norton, 2004.

UO'K 82-3

QISQA BADIIY NASRNING ADABIY JANR SIFATIDAGI O'RNI VA XUSUSIYATLARI

L.A.Kulmuhamedova, stajiyor o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qisqa badiiy nasr janrining tarixiy shakllanishi, adabiy jarayondagi o'rni va uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor hikoya, novella, drabble kabi shakllarning janrga xos belgilari, mazmun va shakl uyg'unligi, emotsional ta'sir kuchi hamda zamonaviy adabiyotdagi funksiyalariga qaratilgan. Sharq va Yevropa adabiyoti misolida qisqa nasrning taraqqiyot bosqichlari yoritiladi, o'zbek adabiyotidagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *qisqa nasr, hikoya, novella, drabble, syujet ixchamligi, janr taraqqiyoti, adabiy jarayon, badiiy xususiyat, zamonaviy adabiyot.*

Аннотация. *В статье рассматривается становление короткой художественной прозы как литературного жанра, её роль в литературном процессе и основные художественные особенности. Особое внимание уделяется формам рассказа, новеллы и «драббла», их содержательно-композиционным характеристикам и эмоциональной насыщенности. Проанализированы этапы развития жанра в литературе Востока и Европы, а также тенденции в узбекской литературе XX–XXI веков.*

Ключевые слова: *короткая проза, рассказ, новелла, драббл, лаконичный сюжет, развитие жанра, литературный процесс, художественные особенности, современная литература.*

Abstract. *This article explores the formation and evolution of short prose as a literary genre, examining its role in literary history and key artistic characteristics. Special focus is given to the forms of the short story, novella, and drabble, analyzing their structural precision, emotional intensity, and thematic compactness. The study outlines the development stages of the genre in Eastern and Western literature and highlights its function and transformation within modern Uzbek literature.*

Keywords: *short prose, short story, novella, drabble, concise plot, genre development, literary process, artistic features, modern literature.*

Adabiy jarayon taraqqiyoti davomida nasrning shakl-shamoyili doimiy o‘zgarib, yangilanib kelgan. Uzoq hajmli roman va qissalarga nisbatan, qisqa badiiy nasr — xususan hikoya, novella, drabblar va flèsh-fiksiyalar — o‘zining ixchamligi, kontsentrlangan g‘oya yuki, va emotsional intensivligi bilan alohida mavqega ega bo‘lib bordi. Bu janr bugungi adabiyotning dinamik tabiatini, insoniy kechinmalarni qisqa, ammo kuchli badiiy vositalar orqali ifodalash imkonini beradi.

Qisqa badiiy nasr – inson tafakkurining hayotiy tajriba, ruhiy kechinma va voqelikni ixcham shaklda ifodalashga bo‘lgan ehtiyojidan tug‘ilgan eng qadimiy adabiy janrlardan biridir. Har bir xalqning og‘zaki ijodi, ertaklari, afsonalari, maqollar va hikmatli so‘zlarida qisqa nasr janrining tub ildizlarini ko‘rish mumkin. Bunday shakllar dastlab og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tgan, keyinchalik yozma adabiyotda mustahkam o‘rnashgan.

Sharq adabiyoti tarixiga nazar tashlansa, qisqa nasrning ilk belgilarini didaktik-axloqiy yo‘nalishdagi asarlarda ko‘rish mumkin. Masalan, “Kalila va Dimna” – hikmatli hikoyatlar to‘plami bo‘lib, hayvonlar obrazi orqali insoniy fazilatlar va illatlar yoritiladi. Har bir hikoya o‘ziga xos voqea ustida qurilgan bo‘lib, unda falsafiy g‘oya, axloqiy xulosa mujassam. Bu asarlar xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga ko‘chgan eng erta shakllaridan biri bo‘lib, qisqa nasrning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

“To‘tiyonoma”, “Qobusnoma”, “Sindbodnoma” kabi asarlarda ham qisqa syujetli, kuchli dramatizmga ega epizodlar ketma-ketligi mavjud. Ularning barchasi Sharqda hikoya shaklida ifodalangan axloqiy-estetik ta’limotlarni uzatishning asosiy vositasi bo‘lgan. Bu jihat qisqa nasrni didaktik vazifani bajaruvchi janr sifatida talqin etishga asos bo‘ladi.

Yevropada qisqa nasr shakllari ilk bor O‘rta asr novellistikasida rivojlandi. Jovanni Bokkachchoning “Dekameron”i (1349–1351) – o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalar va psixologik tasvirlar bilan boyitilgan 100 ta novelladan iborat majmua bo‘lib, har bir hikoyada inson tabiati, sevgi, aldov, donishmandlik kabi mavzular qisqa syujet asosida bayon etilgan. Choserning “Kenterberi hikoyalari” ham shunga o‘xshash tarzda qisqa voqealarning badiiy jamlanmasi bo‘lib, qisqa nasr janrining yevropacha shakllanishini aks ettiradi.

19-asrga kelib qisqa nasr mustaqil janr sifatida tan olinadi. Ayniqsa, Edgar Allan Poe qisqa hikoyaning nazariyasini ishlab chiqqan adib sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. U hikoyani kuchli g‘oya, psixologik portret va kutilmagan yakun bilan uyg‘unlashtirgan. Uning ta’sirida Mopassan (Fransiya) va Chexov (Rossiya) hikoyaning yangi uslublarini yaratdi. Chexovning hikoyalari hayotiy mayda hodisalar orqali katta falsafiy xulosalarga olib kelishi bilan ajralib turadi.

O‘zbek adabiyotida qisqa nasr shakli XX asr boshlarida jadid adiblari tomonidan faol qo‘llana boshlandi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanigacha bo‘lgan ijodida – masalan, “Juvonboz”, “Kalvak Mahzumning xotira daftari” kabi hikoyalarda qisqa nasrning tanqidiy-realistik

yo‘nalishi ko‘zga tashlanadi. Bu hikoyalar orqali yozuvchi xalq hayotidagi illatlar, ijtimoiy tengsizlik, johillik va xurofotni fosh etishga harakat qiladi. Shuningdek, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy singari adiblar hikoya orqali jamiyatdagi islohotlar, yangicha tafakkur, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Sovet davri o‘zbek adabiyotida qisqa hikoya ijtimoiy buyurtma doirasida ko‘proq mehnat, qahramonlik, fidoyilik mavzularida yaratilgan bo‘lsa-da, Tog‘ay Murod, Odil Yoqubov, Erkin A’zam singari yozuvchilar badiiy-estetik yondashuvni ustuvor qo‘yib, inson ruhiyatiga chuqur kirib borishga harakat qildilar. Erkin A’zamning hikoyalarida har bir voqea orqasida odamiylik, soddalik, ichki halovat kabi mavzular teran yoritiladi.

Qisqa badiiy nasr mustaqil adabiy janr sifatida shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida kechgan bo‘lib, uning poetikasi, tarkibiy unsurlari va funksional xususiyatlari asta-sekin aniq belgilana bordi. Qadimiy og‘zaki rivoyatlar, masallar, diniy hikoyatlar va folklor shakllari zamirida keyinchalik yozma adabiyotda o‘z joyini topgan hikoya va novellistik janrlarning ildizlari yotadi. Bu janr o‘z shakllanishi mobaynida turli adabiy maktablar, uslublar va davrlar ta’sirida takomillashib borgan.

Adabiy janr sifatida qisqa nasrni belgilovchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

Syujetning ixchamligi va aniq konflikt: Qisqa nasrda syujet bir necha sahifaga sig‘adigan darajada qisqa bo‘lib, asosan bitta asosiy hodisa, muammo yoki ziddiyat atrofida shakllanadi. Hodisa rivoji murakkab syujet chiziqlarisiz, ammo dinamik tarzda kechadi.

Cheklangan obrazlar tizimi: Ko‘pincha bir yoki ikki asosiy qahramon orqali butun dramatik vaziyat yoritiladi. Obrazlar ruhiyatiga chuqur kirishish, ularning ichki dunyosini tafsilotlar orqali ochib berish – qisqa nasrning asosiy uslubiy xususiyatidir.

Yakundagi emotsional yoki falsafiy zarba: Qisqa nasrda kutilmagan yakun yoki keskin burilish orqali o‘quvchida kuchli estetik taassurot qoldirish maqsad qilingan bo‘ladi. Ayniqsa, Chexov va Mopassan maktabi uchun bu xususiyat asosiy mezon hisoblanadi.

Detallar tejamkorligi: Har bir ifoda, tasvir yoki detal ma’noli bo‘lib, muallif har so‘zning yukini chuqur o‘ylaydi. Shu bois, qisqa nasrni “estetik siqilgan matn” deb ham atash mumkin.

Qisqa nasr janr doirasida bir nechta shakliy ko‘rinishlar mavjud bo‘lib, ular o‘z strukturasi, mazmuni va ta’sirchanlik uslubiga ko‘ra farqlanadi:

Hikoya: eng ommabop va keng tarqalgan shakldir. Bitta asosiy voqea atrofida qurilgan, sodda syujet, kuchli ichki dramatizm, emotsional yondashuv bilan ajralib turadi. Hikoya ko‘pincha jamiyatdagi muammolar, oddiy insonlar hayoti, kutilmagan holatlar orqali hayot haqiqatlarini ochib beradi.

Novella: hikoyaga nisbatan murakkabroq syujetga ega bo‘lib, ko‘pincha g‘oyaviy-falsafiy qatlamlar, obrazlararo ziddiyatlar kengroq yoritiladi. Novellada voqealar rivoji bir nechta fazaga ega bo‘lib, yakun kuchli emotsional yoki mantiqiy zarba bilan tugaydi. Klassik yevropa adabiyotida novellistik janr ancha rivoj topgan.

Miniatyura: juda qisqa hajmda yozilgan, ko‘proq lirik-falsafiy fikr yoki holat ifodasiga asoslangan asar. Asosan bir epizod, bir lahza, bir taassurot markazda bo‘ladi. Ushbu shakl estetik tahlil, ichki kechinma yoki nozik tafakkur mahsuli bo‘lib xizmat qiladi.

Drabble va flash-fiction: zamonaviy adabiyotda yuzaga kelgan mikrojanrlardir. Drabble — aynan 100 so‘zdan iborat qisqa hikoya; flash-fiction esa 300–1000 so‘z oralig‘ida bo‘ladi. Bu shakllar hozirgi axborot asrida qisqa vaqt ichida o‘quvchiga ta’sir qilish, jamiyat muammolarini ixcham aks ettirish vositasi sifatida keng ommalashmoqda. Har ikki shakl o‘zbek adabiyotida ham sekin-asta ko‘rinish bera boshlagan.

Satirik va absurd hikoyalar: yniqsa XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, qisqa nasrda satira, yumor, absurd janri elementlari bilan boyitilgan shakllar keng tarqaldi. Bu yo‘nalish ijtimoiy tanqid, muqobil dunyoqarash, postmodernistik ifoda vositalari orqali o‘ziga xos estetik qiymat kasb etadi.

Qisqa nasrning badiiy-estetik mohiyati, avvalo, uning ixcham tuzilishida, mazmunning estetik zichligida va emotsional ta’sirchanligida namoyon bo‘ladi. Ushbu janrda voqealar ko‘p hollarda cheklangan makon va vaqt doirasida yuz beradi, ammo bu qisqalik mazmunning sayozlashuviga emas, balki uning murakkabliksiz chuqurlashuviga olib keladi. Qisqa nasrning badiiy xususiyatlarini

o‘rganish — nafaqat uning ichki tuzilishini tahlil qilish, balki uning estetik qiymatini aniqlashga xizmat qiladi.

1. Syujetning ixchamligi va intensivligi: qisqa nasr uchun xarakterli eng muhim xususiyat bu — voqealar rivojining ixcham, ammo ta’sirli bo‘lishidir. Syujet ortiqcha tafsilotlarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri konflikt yoki dramatik vaziyat markaziga olib kiradi. Har bir epizod muallif uchun g‘oyaviy yuk tashuvchiga aylanadi. Voqealar murakkab emas, ammo muhim: ular ko‘pincha insonning ichki dunyosida, qarorlarida yoki ruhiy siljishlarida namoyon bo‘ladi.

2. Kuchli dramatizm va kutilmagan yakun :qisqa nasrda dramatik kuch odatda kutilmagan yakun orqali namoyon bo‘ladi. Bu uslub, ayniqsa, Mopassan, O’Genri, Chexov kabi yozuvchilar ijodida klassik darajaga ko‘tarilgan. Kutilmagan yakun — o‘quvchi kutgan yo‘ldan butunlay boshqa tomon burilish berib, unga kuchli emotsional zarba berish vositasi hisoblanadi. Bunday yakunlar o‘quvchini fikrlashga, qayta o‘qishga, yashirin ma’noni izlashga undaydi.

3. Obrazlar tizimining soddaligi va chuqurligi: qisqa nasrda obrazlar soni ko‘p bo‘lmaydi, ammo ular chuqur psixologik tahlil, nozik portret chizgilar va ruhiy dinamikasi orqali ochiladi. Har bir obraz o‘z g‘oya yoki mavzuning ifodachisidir. Ba’zida atigi bir necha jumla orqali muallif qahramonning butun ichki dunyosini ko‘rsatishga erishadi. Obrazlar tipik emas, balki individualdir, bu esa o‘quvchiga ularni his etish va tahlil qilish imkonini beradi.

4. Detallar va badiiy ramzlarning funksionalligi: qisqa nasrda har bir detal — ishora, predmet, rang, harakat — semantik yuk tashiydi. Har bir detal muallif uchun g‘oyani chuqurlashtirish vositasidir. Misol uchun, Erkin A’zam hikoyalarida atrof-muhit, tovush, rang yoki harakatlar orqasida qahramonning ichki dunyosi ochiladi. Ramziy detallardan foydalanish, qisqa matn ichida metaforik qatlamni yaratadi. Bu xususiyat zamonaviy postmodern adabiyotda yanada kuchliroq ifodalanadi.

5. Emotsional zichlik va ruhiy silkinish: qisqa nasrning badiiy kuchi uning ruhiy ta’sirchanligida yotadi. Kam so‘z bilan ko‘p narsa aytish, bir jumlada hayotning ma’nosini berish — bu janrda ustalik sanaladi. Hikoya o‘quvchiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, u bilan ruhiy hamnafaslik o‘rnatadi. Ayniqsa, zamonaviy qisqa nasr insonning ichki dunyosi, psixologik qarama-qarshiliklari, yolg‘izlik, tanlov, afsus, umid, qo‘rquv kabi holatlarni tahlil qilishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

6. Til soddaligi va badiiy ifoda zichligi: qisqa nasrning yana bir xos xususiyati — tilning sodda, ammo badiiy bo‘lishidadir. Bunda tasviriy vositalar, metaforalar, epitetlar, dialoglar iqtisodli qo‘llanadi, ammo bu iqtisod tildagi ifoda kuchining yo‘qolishiga emas, balki uning tiyinma-tiyin ishlatilishiga olib keladi. Chexov "san’atda har bir narsa aniq, lo‘nda va kuchli bo‘lishi kerak", degan edi — bu aynan qisqa nasrga taalluqli ta’rifdir.

Qisqa badiiy nasr o‘zining ildizlari bilan qadimiy og‘zaki ijod shakllariga borib taqaladi. Insoniyat madaniyatining dastlabki bosqichlaridayoq turli xalqlarning og‘zaki ijodida ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, latifalar va hikmatli so‘zlar shaklida qisqa nasr elementlari mavjud bo‘lgan. Jumladan, Sharq adabiyotida IX–X asrlarda yozilgan “Kalila va Dimna” asari yoki “Hazrat Nizomiy” dostonlari tarkibida joylashgan nasriy parchalar buni tasdiqlaydi.

Yevropa adabiyotida esa qisqa hikoya janrining ilk namunalari O‘rta asrlar xalq ertaklari, fabllar va diniy mo‘jizakor hikoyalar (miracle stories) ko‘rinishida vujudga kelgan. Masalan, Bokkachchoning “Dekameron” asaridagi har bir hikoya o‘ziga xos qisqa nasriy forma bilan ajralib turadi. Keyinchalik Edgar Allan Po qisqa hikoyaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan holda, uni mustaqil janr sifatida shakllantirdi. Unga ko‘ra, qisqa nasr – bu “bir o‘tirishda o‘qiladigan, bitta asosiy g‘oyani ifodalovchi ixcham asar”dir.

Shuningdek, turkiy xalqlar adabiyotida ham Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning “Munojot”lari va “Mahbub ul-qulub”dagi didaktik hikoyalar qisqa nasr elementlarini o‘zida mujassam etgan. XX asr boshlarida Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Hamza kabi ma’rifatparvar adiblar qisqa hikoya janrini yangicha mazmun va shaklda rivojlantirishgan.

Qisqa badiiy nasr janrining didaktik va estetik ahamiyati adabiy jarayondagi o‘ziga xos mavqei bilan bevosita bog‘liqdir. Bu janr nafaqat badiiy zavq bag‘ishlaydi, balki ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zining ixcham tuzilmasi, syujet

dinamikasi va obrazlar tizimidagi jo‘yali ifodasi orqali qisqa nasr o‘quvchiga hayotiy saboq, mulohaza, muayyan g‘oya yoki xulosa taqdim etishga intiladi.

Didaktik jihatdan, qisqa nasr insoniy fazilatlar, axloqiy tanlovlar, qadriyatlar va hayotiy sinovlar atrofida turgan muammolarni yoritadi. Hikoya, novellalar yoki miniatyuralarda kichik voqealar fonida yirik g‘oyalar ilgari suriladi. Bu asarlar o‘quvchini hayotiy vaziyatlar haqida o‘ylashga, ma’naviy o‘sishga chorlaydi. Masalan, O‘rta asr Sharq adabiyotidagi hikmatli hikoyatlar yoki XX asr o‘zbek adabiyotidagi pedagogik yo‘nalishdagi hikoyalar yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lgan.

Estetik nuqtayi nazardan qaralganda, qisqa nasr asarlari san’atkorona ifoda, badiiy til, ramziylik va metaforalarga boy bo‘lishi bilan o‘quvchining estetik didini shakllantiradi. Undagi obrazlar psixologik chuqurlik va ramziy tafakkur orqali hayotni badiiy talqin qilish imkonini beradi. O‘quvchi ushbu asarlar orqali nafaqat muayyan g‘oyani qabul qiladi, balki estetik zavq oladi, tasviriy vositalarning go‘zalligidan ruhiy oziqlanadi.

Shu bois qisqa nasr janri, didaktik va estetik komponentlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan holda, bugungi adabiy va madaniy taraqqiyotda ham dolzarbligini yo‘qotmayapti. U zamonaviy inson ongini shakllantirishda, tarbiyaviy va estetik dunyoqarashini boyitishda beqiyos imkoniyatlarga ega.

Qisqa badiiy nasr janri adabiyotda ixcham shaklda katta mazmun berish imkonini yaratadi. U jamiyat, inson, axloqiy qadriyatlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Ilmiy ish davomida bu janrning shakllanishi, badiiy xususiyatlari, zamonaviy adabiyotdagi o‘rni, didaktik va estetik ahamiyati tahlil qilindi. Natijada, qisqa nasr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, o‘quvchiga kuchli ta’sir o‘tkaza oladigan samarali adabiy shakl ekanligi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bahronov, Q. (2007). *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Berdiyorov, R. (2008). *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Chexov, A. (2019). *Hikoyalar*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa.
4. G‘ulomov, N. (1982). *Badiiy asarni tahlil qilish asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi.
5. Genette, G. (1980). *Narrative Discourse: An Essay in Method*. – Ithaca: Cornell University Press.
6. Jalolov, M. (2011). *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: Akademnashr.
7. O‘rinboyev, A. (2018). *O‘zbek nasrining taraqqiy yo‘li*. – Samarqand: Zarafshon.
8. Poe, E. A. (1846). *The Philosophy of Composition*. – Graham’s Magazine. (Reprint: Modern Library, 2001)
9. Qayumov, H. (1995). *Adabiy tanqid asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston.
10. Qodirov, M. (2019). *Qisqa hikoya janrining xususiyatlari*. // *O‘zbek tili va adabiyoti*, №4.
11. Akhtamovna M. K. Universal concepts and typological similarities in literary texts //Shokh Articles Library. – 2026. – T. 1. – №. 1.
12. Xoliyorova, M., & Mamatqulova, X. (2026, February). Yapon afsonalari va qadimgi epik matnlarining adabiyotga ta’siri. In Modern education development research conference (pp. 205-208).
13. Saidov, S. (2020). *Qisqa nasrda syujet va obraz dinamikasi*. // *Filologiya masalalari*, №2.
14. Tursunov, O. (1985). *O‘zbek hikoyachiligida syujet va kompozitsiya*. – Toshkent: Yozuvchi.
15. Forster, E. M. (2005). *Aspects of the Novel*. – London: Penguin Classics.
16. Xudoyberdiyeva, M. (2021). *Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkur*. – Toshkent: Ilm Ziyo.
17. Zohidov, M. (2023). *Adabiyotda janr masalalari*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

UDC 81’373.611:811.111:811.512

DERIVATIONAL PATTERNS OF EMOTIVE VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

M.I.Kurvonbekov, teacher, Uzbek State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi emotiv fe’llarning derivatsion modellari tahlil qilinadi. Emotiv fe’llar hissiy holat yoki reaksiyalarni ifodalaydi hamda har ikki tilda turli morfologik jarayonlar orqali yasaladi. Tadqiqot suffiksatsiya, prefiksatsiya, konversiya va affiksal derivatsiya jarayonlarini qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqadi hamda ingliz tilining analitik tuzilishi bilan o‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi o‘rtasidagi tipologik farqlarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: *emotiv fe’llar, derivatsiya, so‘z yasalishi, ingliz tili morfologiyasi, o‘zbek tili morfologiyasi, suffiksatsiya, agglutinatsiya.*

2. **Rivoj (2-katren):** Dastlabgi fikrning kengayishi va chuqurlashishi. Lisoniy jihatdan bu qismda antiteza (qarshilantirish) yoki metaforik ko‘chimlar ko‘payadi.
3. **Kulminatsiya va burilish:** Ikkinchi katren va birinchi terset (uchlik) orasida sodir bo‘ladi. Bu nuqtada lirik syujet kutilmagan tomonga buriladi yoki yangi ma’no qirrasi ochiladi.
4. **Yechim (2-terset):** Fikrlarning umumlashtirilishi va xulosa. 14-misra ko‘pincha butun she’rning ma’nosini ochuvchi “nuqta” vazifasini o‘taydi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ummat To‘ychiyev lirikada syujet masalasini tadqiq etar ekan, unga she’rda aks etayotgan ruhiy kechinmaning xronotopik (zamon va makon) xususiyatlari bilan bog‘liq lisoniy-estetik hodisa sifatida yondashadi: “Syujet masalasi lirik turda ham zamonaviy turda ham zamon va makon masalasi demakdir, zamon va makon masalasi esa tasvir joy-sharoiti, vaqt va hajm bilan aloqadordir”[1.27]. Shuningdek, olim syujetni lirik asarlarning ham mazmun, ham shakl xarakteriga ega bo‘lgan unsurlaridan biri sifatida ko‘rsatadi, chunki lirik syujetda mazmun kechinmaning xarakter-xususiyati uning zamon va makonga nisbatan obyektiv aloqadorligiga bog‘liq bo‘ladi. Yanayam aniqrog‘i, lirik qahramonning xayoli, o‘y-kechinmalari ruhiy harakati lirik asarning syujetini tashkil etadi.

Bundan kelib chiqib, syujet meditativ lirika uchun ham xos ekanligini e‘tirof etish zarur. “Sof lirika” ham deb yuritiladigan ushbu she‘r turlarida, asosan, kechinma mavjud bo‘lib, sharoiti aniqlashtirilmagan holat aks ettiriladi. Mana shu tur lirikada “fabula mavjud bo‘ladi. Bunday lirikadagi syujetni “psixologik syujet” deb ham yuritiladi” [1.29]. Olim lirikaning tavsifiy ko‘rinishida ham lirik syujet o‘zining asosiy syujet unsurlari izchilligida namoyon bo‘lishini tadqiq etadi.

Lirik asarda syujet rivojining tabiiy dinamikasiga amal qilinmasligi matnda redundantlik (ortiqcha bayonchilik) holatini yuzaga keltirib, she’rning estetik saviyasiga putur yetkazadi. Bunday matnda qo‘llaniladigan “tavsifiy lirika” tushunchasi o‘ziga xos konnotativ (salbiy) mazmun kasb etib, u badiiy kashfiyotdan yiroq, shunchaki obyektni tashqi tomondan rasm qilish yoki quruq xabar berish bilan cheklangan she’riyatga nisbatan qo‘llaniladi. Zero, haqiqiy lirika tasvirlamaydi, balki tasvirlanayotgan ob’ekt orqali lirik qahramonning ruhiy evrilishlarini ifoda etadi. “Hodisa o‘z mohiyati bilan poetik bo‘lishi, o‘zining tabiiy oqimi bilan shoir aytmoqchi g‘oyani “aytib turishi” shart. Aks holda, syujetli lirika o‘rniga tavsifiy lirika vujudga keladiki, bunday misollarni she‘riyatimizda goh-goh uchratib turamiz” [2.306].

Xullas, meditativ (sof) lirika janrlaridan biri sanalgan sonetda ham lirik syujet mavjud bo‘lib, mohiyatan undagi o‘ziga xos kompozitsion qurilish sabab bo‘lishi mumkin. Bunday qurilishni olim o‘ziga xos tadrij deb ataydi. Chunki sonet kompozitsiyasiga ko‘ra “tezis – rivojlanish – antitezis – sintez” shakli yoki ushbu qurilishning “tugun – kechinma rivoji – kuliminatsiya – yechim” shakli mavjud. Demak, sonet kompozitsion qurilishi ham lirik syujet unsurlariga mos kelar ekan, ular uyg‘unlikda tasvirlanar ekan, uning syujetining ham shakl, ham mazmun hodisasi ekanligiga yana bir bor amin bo‘lish mumkin.

B. Boyqobilovning “Favvora, bir lahza ruhimni yayrat” deb boshlanuvchi sonetining ilk katrenida lirik syujetning ekspozitsion asosi namoyon bo‘ladi. Bunda muallif favvora poetik obrazini lirik qahramonning ichki olami bilan muloqotga kirishuvchi subyekt darajasiga ko‘taradi. Birinchi bandda lirik qahramonning favvoraga murojaati orqali uning ruhiyatidagi ma’naviy tashnalik va shukuhga bo‘lgan ehtiyoji antropomorfik (shaxslantirish) usulda ifodalangan bo‘lib, bu asardagi kechinma rivoji uchun asosiy lisoniy turtki (impuls) vazifasini o‘taydi. Shoir lirik qahramonning favvoraga murojaati zamirida antitsipatsiya (ma’shuqa tashrifini kutish) va unga tayyorgarlik motivi yotadi. Lirik ko‘ngildagi ushbu “mubham mahzunlik” tushunchasi asarning semantik tuguni (konseptual markazi) bo‘lib, u lirik syujetning keyingi rivojini — ruhiy poklanish va shukuh sari intilishini belgilab beradi. Mazkur mahzunlik — tadorik ko‘rish jarayonidagi o‘ziga xos ruhiy tozalanish (katarsis) bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Favvora, bir lahza ruhimni yayrat,
Ko‘nglimdan tarqalsin tumanli hayol,
Yorning noz-firog‘i kelmasin malol,
Mahzun ko‘rib meni, bosmasin hayrat.
… Men uchun oydin bir go‘shani yarat.
Ziloling sochilur kumush tangaday
Tong bilan yor vasli ko‘rsatur jamol [3.274].

Sonetning ikkinchi katrenida lirik syujet o‘zining graduativ rivoj (yuksalish) bosqichiga ko‘tariladi. Lirik qahramon favvora obraziga murojaat qilar ekan, endi shunchaki shukuh emas, balki tabiatning estetik unsurlaridan foydalangan holda “oydin bir go‘sha” (ideal makon) yaratishni so‘rab iltijo qiladi. Ushbu lirik iltijo asarning psixologik kulminatsiyasi bo‘lib xizmat qiladi; unda lirik “men”ning ma’naviy poklanish va go‘zallikka bo‘lgan ichki ehtiyoji maksimal darajada vizuallashadi hamda asar tugunini yechim bosqichiga tayyorlaydi.

Sonetning birinchi tersetida (yechim bosqichida) lirik syujet o‘zining dinamik transformatsiyasiga uchraydi. Bunda favvoraning “oq alanga” kabi samoga intilishi oshiq qalbidagi hissiyotlarning jo‘shqinlashuviga (parokandalikka) metaforik parallel qilinadi. Xotima vazifasini o‘tovchi so‘nggi tersetda esa kutilgan ma’shuqaning tashrifi bilan syujet o‘zining estetik barqarorlik (statika) nuqtasiga yetadi. Ma’shuqaning kelishi favvoraning shovqini va ko‘kka otilish dinamikasini

ruhiy sukunat hamda mutlaq xotirjamlikka aylantiradi; barcha lisoniy va ruhiy "hadiklar" lirik yechim orqali bartaraf etiladi.

Faxriyor poetikasida sonet janrining kompozitsion izchilligi saqlansa-da, lirik syujet qurilishida obrazlar talqini va ma'no-mohiyat ifodasi o'ziga xos intellektual transformatsiyaga uchraydi. Shoir o'z ustozi Rauf Parfi an'analarini davom ettirgan holda, lirik syujetni assotsiativ ramzlar tizimi asosida quradi. Faxriyor sonetlarida syujet unsurlari (tugun, kulminatsiya, yechim) ko'pincha tashqi voqeaviylikka emas, balki murakkab metaforik qatlamlarga va ramziy ishoralarga tayanadi, bu esa matnning semantik sig'imini bir necha barobar oshiradi.

Hayot yuragimni tilkalar,
Sochlaringdan hanjarlar yasab,
Vayron ko'ngil otli o'lkalar,
Sevgi bilan ichaman qasam! [4.83]

Faxriyor sonetida lirik syujetning ekspozitsion qismi ilk misradanoq vizual-metaforik tasvir orqali shakllanadi: unda lirik qahramonning "hijronzada qalbi" va ma'shuqa "sochlari mavjlari" o'rtasidagi kontrast azobning chandon ortishiga sabab bo'luvchi impuls sifatida namoyon bo'ladi. Syujetning navbatdagi bosqichidagi tugun esa lirik "men"ning ichki kechinmalari dinamikasini yangi bosqichga olib chiqadi – bu yerda ko'ngilning ozorli va og'riqli holati performativ lisoniy akt (qasam) orqali ifodalanib, she'rning dramatik tarangligini ta'minlaydi.

Sonet kulminatsiyasida lirik syujet o'zining tragik nuqtasiga yetadi: bunda oshiq qalbining hijron iztiroblari ostida butkul mayib (ozurda) bo'lishi va uning "umidlar mozori"ga aylanishi kabi mudhish tasvirlar orqali ma'shuqaning transformatsiyaga uchramaydigan "bag'ritoshligi" kontrast holatda ifodalanadi. Sonet yechimida esa hissiy evrilish (peripetiya) sodir bo'ladi: lirik qahramon yuragining "batamom muzlashi" hislarning o'lik holatga kelganidan dalolat bersa, ma'shuqaning "olisdagi yulduz" ramzida namoyon bo'lishi lirik "men" va ideal obyekt o'rtasidagi masofaning cheksizlashganini ko'rsatadi. Syujet yakunidagi ushbu yulduzdan voz kecholmaslik holati lirik qahramonning metafizik bog'liqligini va taqdirga bo'ysunish (fano) falsafasini muhrlaydi.

Muzlab qolgan yurak chatnaydi,
Chaqnab yotar hajring yulduzi.
Ko'ngil sen tarafga qatnaydi.

Sonetning tarkibiy yakuni — "qulf" qismida lirik syujet o'zining konseptual nuqtasiga yetadi. Unda lirik qahramonning "armon mavj urayotgan qalb" bilan tanho qolishi hamda ushbu holatning fatum, ya'ni individual qismat sifatida e'tirof etilishi asarning umumiy pafosini belgilaydi. Faxriyor bu o'rinda an'anaviy ishqiy sonet qoliplaridan chekinib, lirik yechimni shaxsiy fojia va ontologik yolg'izlik bilan muhrlaydi. Bu esa sonetda lirik syujetning "tabiiy oqimi" nafaqat hissiy, balki falsafiy yakun topganidan dalolat beradi.

O'zbek sonetchiligida sof lirik kechinma ifodasi ham o'ziga xos ichki syujet yoki "psixologik syujet" qurilmasiga ega ekanligi tadqiqotda ruhiy voqelik tasviri ustuvor bo'lgan sonetlar tahlili orqali dalillandi. Bunda syujet tashqi hodisalar emas, balki lirik qahramon ruhiyatidagi dinamik o'zgarishlar, hissiy konfliktlar va kechinmalarning mantiqiy silsilasi asosida shakllanadi. Psixologik syujet tushunchasi sonetning qat'iy kompozitsion strukturasi (tugun, kulminatsiya, yechim) lirik qahramonning ichki olamidagi ekzistensial evrilishlarga to'liq muvofiq kelishini ko'rsatib beradi. "*Syujet sonetda ham, u lirika janri bo'lganligidan, fikr harakati, undagi pog'onalar sifatida ko'rinayotir. Ammo fikr obrazli emotsional – hissiy ifodalangan*" [1.41].

Sonet janrida lirik syujetning mavjudligi masalasi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Sonetlarda lirik syujet tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Unda lirik qahramonning ruhiy harakati (dinamikasi) hamda kompozitsion izchillik syujet unsurlarining (tugun, kulminatsiya, yechim) mantiqiy shakllanishini ta'minlaydi. Lirik kechinma oqimi va tabiatdagi evrilishlar o'rtasidagi parallelizm sonet lirik syujetining estetik tabiatini barqarorlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda shoir mahorati janrning qat'iy shakliy qoliplari ichida ruhiy erkinlikni va obrazlar mutanosibligini yaratishda salmoqli ahamiyat kasb etadi.

• Sonet janriga xos bo‘lgan qat’iy kompozitsion qurilish lirik syujetning “tugun – kechinma rivoji – kulminatsiya – yechim” kabi tarkibiy unsurlari bilan to‘liq izofunksional (vazifadosh) mutanosiblikni tashkil etadi. Mazkur strukturaviy unsurlardagi ichki uyg‘unlik sonet syujetini shunchaki matn qurilishi emas, balki shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat yaxlit poetik hodisa ekanligini isbotlaydi. Shu tariqa, sonetdagi 14 misralik qat’iy qolip ruhiy kechinmaning mantiqiy evolyutsiyasini ta’minlovchi estetik karkas (shakl) va lirik mazmunni tizimlashtiruvchi lisoniy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

• Sonet janrining kompozitsion qurilmasida ilk misralar lirik qahramonning ruhiy holati yoki ichki kechinmasi haqidagi birlamchi axborotni taqdim etuvchi o‘ziga xos ekspozitsiya vazifasini o‘taydi. Lirik syujetning boshqa unsurlari (tugun, rivoj, kulminatsiya va yechim) ham sonet qolipining qat’iy talablariga muvofiq ravishda mantiqiy izchillik bilan joylashadi. Shuningdek, o‘zbek sonetchiligida sof kechinma tavsifi bilan cheklangan matnlarda ham voqeabandlik emas, balki “psixologik syujet” (ruhiy evrilishlar silsilasi) mavjudligi lirik asarning estetik butunligini ta’minlovchi asosiy mezondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. To‘ychiyev U. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik, 2-tom. – T.: Fan, 1992.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom, – T.: Fan, 1978.
3. Barot Boyqobilov. Sonetlar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiryoti, 1982.
4. Faxriyor. Geometrik bahor. – T.: 2004. – B.83.

UO’K 801.6

XALQ DOSTONLARIDA MIFOLOGIK TASAVVURLAR VA OBRAZLAR TIZIMI

N.S.Matyazova, dots., PhD, Urganch RANCh texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dostonlarning kompozitsiyasiga asos bo‘lgan syujet ko‘plab motivlardan iborat bo‘lib, voqealar tasvirida o‘ziga xos o‘ringa egaligi ular orasida an’anaviy eposga xos motivlar alohida o‘ringa ega ekanligi nazarda tutilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mif, mifologiya, motiv, doston, qahramon, partogenezis, homiy, kult, epik.*

Аннотация. *В данной статье предполагается, что сюжет, лежащий в основе композиции былин, состоит из множества мотивов, и особое место в описании событий занимают мотивы, характерные для традиционных былин.*

Ключевые слова*: миф, мифология, мотив, эпос, герой, партогенез, покровитель, культ, эпос.*

Abstract. *This article assumes that the plot underlying the composition of epics consists of many motives, and motives characteristic of traditional epics occupy a special place in the description of events.*

Key words: *myth, mythology. motive, epic, hero, partogenesis, patron saint, cult, epic.*

Doston kompozitsiyasiga asos bo‘lgan syujet ko‘plab motivlar silsilasidan iborat bo‘lib, ular voqealar tasvirida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ushbu motivlar orasida an’anaviy eposga xos motivlar alohida o‘rin tutadi.

Motivlar asosan bir dostondan ikkinchisiga o‘tsada voqealarning rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qilganligidan ularning takrorlanganligi unchalik sezilmaydi. Quyida ulardan ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

Dostonlarda aksariyat hollarda soch bilan aloqador lavhalar uchraydi. Ayniqsa soch yoki mo‘y tutatish orqali uning egasini chaqirish hollari tez-tez tilga olinadi.

Dj. Frezerning yozishicha, kimki boshqa birovning soch tolasi yoki tirnog‘iga ega bo‘lsa, chaqirgan masofadan turib, uning egasi bilan ruhiy bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu odat butun dunyo bo‘ylab tarqalgan.

Xorazmda ham soch va tirnoq bilan aloqador anchagina irim-sirimlar mavjud. Masalan, soch va tirnoqni o‘tda kuydirish mumkin emas. Chunki, uning egasiga biron-bir zahmat yetishi mumkin. G.P.Snesarevning ko‘rsatishicha, sochlarni to‘g‘ri kelgan joyga tashlamay, maxsus chuqur qazib, uni

avliyolarga dafn qilish odatlari Xorazmda mavjud bo‘lib, bu odat “Avesto”dagi soch va tirnoq haqidagi maxsus qoidalarga asoslanadi.

Doston va ertaklardagi soch mo‘yni tutatish orqali uning egasini chaqirish voqeasi ana shu qadimgi mifik tasavvurlarning natijalaridir.

Romanik dostonlarda soch, mo‘y tutatish motivi keng qo‘llaniladi. Ayniqsa bu usul parilar faoliyati bilan aloqador holda beriladi.

“Hurliqo va Hamro” dostonida Hurliqo kerak bo‘lib qolganda Hamro soch tutatish orqali unga xabar beradi. Shunisi qiziqki, sochning hidi Hurliqoga yetib boradi. “Ming yillik yo‘lda yotgan Hurliqoning burniga saharning fayzli vaqtinda bir is kelib tegdi, aksa urib o‘rnidan sakrab turdi. Mening sevimli yorim Hamrojonga bir balo bo‘ldi o‘xshaydi, deb o‘ylaydi”. (Qo‘lyozma, 85-bet).

“Shahriyor” dostonida Zahhon bir oq va bir qora mo‘y vositasida qizni qora la’lga aylantiradi va yana asliga keltiradi. (Oshiqnoma, II-kitob, 398-bet). Binobarin, soch, mo‘y doston va ertaklarda hamisha sehrli narsalar sifatida talqin etiladi.

Qush pati bilan aloqador magik hatti-harakatlar “Avesto”da ham bor. Kimki varag‘i deb nomlanuvchi mifologik qushning patini olib badani, tanasi bo‘ylab u bilan siypasa, dushmanlarning sehru jodusi, ilmu amallaridan qutiladi, kuch-qudratga to‘ladir.

Qush pati yoki uning biror a’zosiga ega bo‘lish o‘sha qush homiyligidan foydalanish imkoniyatini berdi, degan tushuncha rus ertaklarida ham borligi V.Ya.Propp asarlarida keng tahlil etilgan.

Qush pati bilan aloqador sehrli hatti-harakatlar “Go‘ro‘g‘li” eposining sharqiy versiyasida mavjud. Biroq Xorazm “Go‘ro‘g‘li” eposi shoxobchalarida pat bilan bog‘iq epizodlar ko‘rinmaydi.

Shu narsani ta’kidlash lozimki, qush pati bilan bog‘iq irimlar Xorazmdagi marosim fol’klorida uchraydi. Qizlarning bosh kiyimiga ilgari albatta qush pati qadaladi. Qushning suyagi isiriqqa qo‘shib tutatilgan. Qumri, qaldirg‘och va kaptar haligacha muqaddas qushlardan sanaladi. Boshqacha qilib aytganda “Avesto” bilan aloqador bo‘lgan ushbu magik hatti-harakatlarning izi Xorazmda to‘la yo‘qolib ketmagan. Dostonlarda keltirilgan soch, mo‘y tutatish hodisasining ildizi mifologik tasavvurlar bilan aloqador ekanligi ayon. Biroq ularning asarda berilishi voqealarni yanada qiziqarli, sehrli va tilsim bilan aloqador qilib tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu lavhalar asarning badiiy jihatdan mukammal chiqishida, bosh qahramonlar faoliyatini yanada kengroq tasvirlash o‘ziga xos stimulyator vazifasini o‘taydi. Tinglovchini o‘sha voqealar girdobiga tortadi va unga ruhiy ta’sir qilib, obrazlar taqdiri bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Xorazm dostonlarda o‘simliklar bilan aloqador mifologik holatlar, o‘simlik kul’ti bilan bog‘liq bo‘lgan gulga tegishli mifologik rasm-rusumlar, magik hatti- harakatlar ham ko‘zga tashlanadi.

G.P.Snesarevning tadqiqotlarida berilishicha, bir vaqtlari Xiva atroflarida qizil gul bayrami o‘tkazilgan. Bu bayramning asosiy mohiyati qarindosh va yaqin kishilarga gul sovg‘a qilish bo‘lgan.

Mazkur tantana Xiva yaqinidagi Bovaris bobo qabristonida o‘tkazilgan. Bu yerga shaharning barcha yoshlari kelishgan. Qizlar va yosh juvonlar avliyo yaqinidagi tor so‘qmoqdan birin-ketin o‘tganlar. Yosh yigitlar esa yo‘l yoqasida turib, gullar, olmalar, bo‘yalgan tuxumlarni otishgan. Keyin halq uchun osh damlangan. Bu yerda gul asosan sevgi va yangi qurilajak oilaning ramzi hisoblangan.

Xorazmda gul bilan aloqador irimlar, ular bilan bog‘liq edi. Shulardan biri nozvoy (rayhon) gul haqida bo‘lib, bu rivoyatda Sa’d Vaqqosning o‘g‘li haqida so‘z boradi. Muhammad payg‘ambarning yaqin yo‘ldoshlaridan biri bo‘lgan Sa’d Vaqqos saxiylikda nom chiqargan bo‘lib, bir kuni Xudo yo‘lida hatto o‘g‘lining jonini ham ayamaydi. Uning birovning ehtiyoji uchun o‘g‘lini qurbon qilinganini bilgan Muhammad payg‘ambar Sa’d Vaqqosning o‘g‘limning jonini Xudodan iltijo qilib so‘raydi va ularning uyiga borib - Abdulla deb chaqiradi. Uchinchi chaqiriqda u yetib keladi. Undan nega birinchi chaqiriqda yetib kelmaganini so‘raydi. Abdulla birinchi chaqirganda jannat boshda sayr qilib yurganini, ikkinchi chaqirganda oilasi uchun Rayhon (nozvoy) terganini va nihoyat uchinchi chaqirganda yetib kelganini aytadi. Xozir ham nozvoy guli jannatdan kelgan deb e’zozlanadi va unga pashsha qo‘nmaydi.

Ko‘rinadiki, Xorazmda gulning muqaddas o‘simlik ekanligi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Bu yerda gulga alohida bir mehr bilan qarashadi. Nozvoy gulini bolalar beshigiga osib qo‘yishadi. Qishda esa uning poyasidan parcha olib bola yostig‘ining ostiga qo‘yishadi.

Gul bilan bog‘liq turli urf-odatlar, ularning magik xislatlari dostonlar tarkibiga ham kirib ulgurgan. Dostonlarda ham gul sevgi va oila ramzi sifatida beriladi. “Zavriyo” dostonida shundan bir lavha bor: “... tush ko‘rdi, So‘najonning qo‘lida bir dasta gul ochilmish. Ul vaqtda havodin bir bulbul kelib, shu guldin to‘rt yaproqni olib g‘oyib bo‘ldi”. (Oshiqnoma, I-kitob, 296-bet). So‘najon uyg‘onib, bu tushni kanizaklariga aytib berganda, ular sen gul, bulbul oshig‘ing deb javob berishadi.

V.I.Ereminaning ko‘rsatishicha, bu hodisa mifik tafakkurning animistik prinsiplari bilan aloqadordir. Ibtidoiy inson mifologik tafakkurning dastlabki davrlarida tabiat bilan ruhiyatni bir butun holatda tasavvur qilgan. Hatto ayrim xalqlarda insonlarni o‘simliklardan (bambuk, palma) kelib chiqqanligi haqida miflar mavjud.

Demak, insonning gulga aylanishi va uning asliga qaytishi hodiisasi ham qadimgi mifologik tasavvurlarning mevasi sifatida yetib kelgan lavhalardir.

Doston va ertaklarda uch yo‘l motivi ham ko‘plab uchraydi. Ushbu motivning qadimiyligi va uning ertak orqali dostonlarga o‘tganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. B.Sarimsaqovning, fikricha, uch yo‘l, uch olam ruhlarining o‘zaro aloqada bo‘lishlariga imkon beruvchi magik nuqta hisoblanadi.

M.Jo‘raevning ishlarida ushbu fikr yanada oydinlashtiriladi. Uch yo‘l motivi qadimgi turklarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi... Ko‘k, zamin, Yer osti uchligi ilk miflar qahramonlarining butun faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan epik makon idealidir. Qadimgi turk mifologiyasida Ko‘k-tangrilar, yaxshi ruhlar maskani, zamin-insonlar diyori, Yer osti-yovuz kuchlar, o‘simliklar olami sifatida tasavvur qilingan. Mifdagi trixotomik, ya’ni uch olam motivi o‘zbek xalq ertaklaridagi epik makon talqiniga asos bo‘lgan. Qahramon safari uch yo‘nalishdan bittasiga qaratilgan bo‘ladi. Uch yo‘l motivi “Hurliqo va Hamro” dostonida ham uchraydi.

Doston tarkibiga uch yo‘l motivining kiritilishini avvalo ertak ta’sirida yuzaga kelgan. Qolaversa, ushbu motiv dostondagi voqealarning barchasini bir joyga olib kelib birlashtiradi. Uch yo‘l motivi tarkibida esa yana boshqa qator sehrli voqealar ham namoyon bo‘ladi. Chunki, uch yo‘l haqida ma’lumot berilgandan keyin kenja o‘g‘ilning o‘zi ketgan “borsa kelmas” yo‘l ham eshituvchida qiziqish tug‘diradi. Kenja o‘g‘ilning sarguzashtlari boshlanadi. Bu sarguzashtlarning o‘zi qisqa bir syujet hosil qiladi.

Dostonlarda tush bilan aloqador lavhalar ham juda ko‘p. Ular aksariyat hollarda dostonning boshlang‘ich nuqtasida berilib, keyingi voqealar ana shu tush motivining davomi o‘laroq rivojlanishda davom etadi.

Tushga ishonish ibtidoiy kishilarning tabiat va hayotdagi ziddiyat, rivojlanish kabilarning mohiyatini tushuna olmasliklari, turli e’tiqodlarga ishonishlari natijasi.

Tush bilan bog‘liq epizodlar dostonlarga ertaklar orqali kirib kelgani ma’lum. “Tush manzarasi bo‘lmagan ertak yoxud dostonlarimiz kamdan-kam uchraydiki, uni o‘rganmasdan turib, xalq ijodi namunalar zamiridagi ma’no mohiyatini to‘liq anglab yetolmaymiz”.

Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, tush manzarasi aksariyat hollarda dostonning ekspozitsiyasida beriladi. “Go‘ro‘g‘li” eposiga kiruvchi asosiy shoxobchalardan biri bo‘lgan “Yunus pari dostonida Go‘ro‘g‘li tush ko‘radi. “Tushida bir soqolli kishi kelib, Go‘ro‘g‘lining manglayidan o‘pib aytdiki, Ey, Go‘ro‘g‘li, sen xafa bo‘lma, Xudo hammani o‘z jufti bilan yaratgan. Sening jufting Ko‘hi Kof tog‘ida makon tutgan. Jahon podshoning qizi Og‘a Yunus pari bo‘ladi. Mana sen bu parizodga bir nazar tashla, keyin yo‘l g‘amingni ko‘raver, uch oylarda yetarsan deb ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi”. (Go‘ro‘g‘li, 58-bet). Ushbu tush manzarasidan keyin asar voqealarida jonlanish. rivojlanish yuz beradi. Dostonlarning ko‘pchiligida ushbu holatni uchratish mumkin. Oshiq “Alband” dostonida ham xuddi shunday lavha mavjud.

Demak, tush manzarasi dostonlarga turli maqsadlarda olib kiriladi va keyingi voqealarni rivojlanishida u asosiy turtki vazifasini o‘taydi. Dostonlardagi tush bilan daxldor lavhalarning ikkinchi bir xili tush va uning ta’biri natijasi bilan bog‘liqdir.

“Bozirgon” dostonida ham huddi shunga o‘xshash epizod mavjud. Bozirgon Go‘ro‘g‘li bilan urushish uchun jo‘nash oldidan singlisi Oysulton unga yomon tush ko‘rganini aytib, uni ketmaslikka chaqiradi. Biroq, Bozirgon unga quloq solmay Chamlibelga ketadi va o‘sha yoqda shahid bo‘ladi. (Go‘ro‘g‘li, 356-bet).

Ibtidoiy inson miflarini ijod qilar ekan, unda inson ruhiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tush manzaralari ham tasvirlanadi. Bunday olib qaraganda tushning o‘zi ham bir mif. Ularning har ikkalasiga xos bo‘lgan xususiyat g‘ayritabiylikdir. Ibtidoiy inson tabiat sirlaridan behabar bo‘lganliklari sababli hayotda bo‘layotgan ayrim g‘aroyib voqealar ularga huddi tushdagi kabi tuyuladi. Bu tasavvur o‘z navbatida miflarga ko‘chgan.

Xullas, miflardagi ramzlardan “Milliy tafakkurga xos millatning ijod, tasavvur, fintastik salohiyati yetadi”.

Shunday ekan dostonlardagi tush tahlili xalqimiz ruhiyatining o‘ziga xos ko‘zgusi bo‘lib, uni o‘rganish xalqning qadimiy ma’naviyati bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Фрезер Дж. Золотая ветв, М.: ИПЛ, 1989, С.43.
2. Сенсаров Г.П Прликти домусулманских у ўзбеков Хорезма, м.: 1969,С.169
3. Авесто. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2000, № 2 76-бет.
4. Пропп. В.Й. Истаричиские корни, волшебний сказки. Ленинград, С.192
5. Снесарев Г.П. Реликти домусулманских веровании у узбеков Хоразма, С.206.
6. Еремина В.И. Миф и народная песня. // Миф, фолъклор, литература. Л.. 1978, С.6.
7. Саримсоков Б. Ўзбек маросим фолъклори, Т., 1986, 192-бет
8. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида "сеҳрли” ракамлар. Т., “Фан”,1991, 59-60-бетлар
9. Гўрўғли, Урганч, “Хоразм”, 2004. Б. 478.
10. Рўзимбоев Х.С. “Гўрўғли” эпосининг поэтикаси. Урганч, “Университет”, 2005: Б. 60.
11. Ошиқнома, 2-китоб, Урганч, “Хоразм”, 2006. Б. 454.
12. Ошиқнома, 4-китоб, Урганч, “Хоразм”, 2009. Б. 356.
13. Эшонқул Жаббор. Фолъклор: образ ва талқин. Карши., Насаф. 1999. 103-104-бетлар.
14. Эшонқул Жаббор. Ўша асар, 146-бет.
15. Sapaeva F., Khujaniyazova G., Khajieva I., Abdullaeva Sh., Matyazova N. Learning different contexts in teaching second language. Journal of Critical Reviews ISSN-239 Vol 7, Issue 3, 2020 (P. 266-267)
16. Abdullaeva Sh., Matyazova N. Using audio and video Materials for developing listening. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 3, 2020 Part II, ISSN 2056-5852(P.172-174)

UO’K 82.09

G‘ARB VA SHARQ SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY OBRAZLAR: NEMIS ADABIYOTSHUNOSLARI NIGOHIDA

A.D. Ma’diyeva, v.b.dots., PhD, O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada jahon adabiyotshunosligi, xususan, nemis tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida an’anaviy obrazlarning poetik tabiatiga oid qarashlar tahlil qilingan. Unda G‘arb va Sharq she’riyatiga xos bo‘lgan tabiat unsurlari (quyosh, oy, osmon, yer), ranglar (oq, qora, qizil) va diniy-mifologik timsollarning semantik o‘zgarishlari, ularning nemis va o‘zbek ijodkorlari asarlaridagi badiiy talqini qiyosiy o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *an’anaviy obrazlar, nemis adabiyotshunosligi, G‘arb va Sharq she’riyati, poetik ramz, mifopoetika, semantik transformatsiya, qiyosiy adabiyotshunoslik, tabiat unsurlari.*

Аннотация. *В статье на основе достижений мирового литературоведения, в частности научных изысканий немецких исследователей, анализируются взгляды на поэтическую природу традиционных образов. Проводится сравнительное изучение семантических трансформаций элементов природы (солнце, луна, небо, земля), цветов (белый, черный, красный) и религиозно-мифологических символов, характерных для западной и восточной поэзии. Также в сравнительном аспекте рассматривается художественная интерпретация этих образов в произведениях немецких и узбекских авторов.*

Ключевые слова: *традиционные образы, немецкое литературоведение, западная и восточная поэзия, поэтический символ, мифопоэтика, семантическая трансформация, сравнительное литературоведение, образы природы.*

Abstract. *The article analyzes perspectives on the poetic nature of traditional images based on world literary criticism, specifically the scientific research of German scholars. It provides a comparative study of the semantic transformations of natural elements (sun, moon, sky, earth), colors (white, black, red), and religious-mythological symbols inherent in Western and Eastern poetry.*

Furthermore, the artistic interpretation of these images in the works of German and Uzbek creators is explored through a comparative lens.

Keywords: *traditional imagery, German literary criticism, Western and Eastern poetry, poetic symbol, mythopoetics, semantic transformation, comparative literature, nature elements.*

Jahon adabiyotshunosligida an'anaviy obrazlarga bag'ishlangan ilmiy asarlar bir qancha bo'lib, ular orasida nemis adabiyotshunosligida ilmiy ishlar alohida qimmat kasb etadi.

Nemiszabon tadqiqotchilardan Xenrike Shmidt, Lukas Yulius Dorfbauer va Anna Magdalena Fenner tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor bo'lib, jumladan Xenrike Shmidt "Wortmusik, Schrifttanz, Textbilder. Intermediale Sprachkonzeptionen in der deutschen Poesie des 20. Jahrhunderts" (ya'ni, "Yigirmanchi asr nemis she'riyatida so'zning o'zaro konsepsiyasi. So'z musiqasi, harflar raqsi, so'z tasviri") nomli tadqiqotida Bertold Brext, Anna Marie Axenrainer, Hermann Hesse, Friedrich Bergammer, Rozee Auslender kabi yigirmanchi asr nemis shoiralarining ijodlarida an'anaviy obraz shaklida so'z va harflarning muzika bilan uyg'unlashuvini kuzatadi. [1: 30] So'z va harflar motivi zamirida an'anaviy obrazlar bo'lmish tungi hamroh, yolg'izlikda dardingni eshitguvchi yulduz, oy, quvvat ulashguvchi qadimiy daraxt, o'z bag'riga chorlovchi viqorli tog'lar, goh kulib, goh yig'lab berguvchi injiq bulut, orzuga aylangan osmon, mehrga to'la zamin, oq, kuchli va zabardast "qora", mehnatkash, doim tetik va jozibador "qizil", bepoyon "yashil" ranglar aks etadi. She'riyatda obrazlar ba'zan begonalashuv jarayoniga bo'ysunadi, qayta shakllanadi va tanib bo'lmaydigan darajada aksini namoyish etadi. [1: 80] She'rda majozli belgilarni o'z ichiga olgan an'anaviy obrazlar, muzika ohanglari, she'r sadolariga va raqqosaning hirom aylashi ramzigiga jon ato etuvchi bu - so'z. So'z musiqasi, harflar raqsi, matnli tasvirlar, tovushlarning qurilishi, raqamli she'rlar - medial o'zgarishlar zanjiri cheksiz va cheksiz ko'rinadi, chalkash ko'rinishlarga ega tasvirlar. Ko'rinish va ohangdorlikdan tashqari, raqs yoki va so'zlar yaralishi arxitektura ilhom manbai sifatida e'tirof etiladi. Venalik nemis tadqiqotchisi Lukas Yulius Dorfbauer ilmiy asarida shoir yashab ijod qilgan davr siyosati va unga bo'lgan munosabati, unda talqin etgan Xudo, Masih, Odam Ato, samo, farishta, jannat, do'zah kabi an'anaviy obrazlarning qo'llanilishi, ularning turli satrlarda turlicha qiyofa aks ettirgani haqida muhokama qiladi. [2: 278] Jumladan, farishtaning sedlicet nos aut angelus de caelo evangelizet (ya'ni, samodan farishta xushxabari bilan keldi. Bunda hayot go'zallashib borishi haqida xabar). Va yoki spiritu sancto misso de caelo (ya'ni muqaddas ruh samoga olib ketar). Haec locutus est Iesus et sublevatis oculis in caelum dixit (ya'ni Iso bu so'zlarni aytdiyu, ko'zlarini samoga qadadi). Caelestis ("samoviy") sifati, asosan, osmonga tegishli deb o'ylaydigan har qanday narsa bilan bog'lanishi mumkin: masalan, Nemiszabon shoirlar G. Ayx, M.L. Kashnits va N. Zaxs ijodini o'rgangan tadqiqotchi Anna Magdalena Fenner ilmiy ishida ona, ota, tabiat, farzand, vatan, "Men" an'anaviy obrazlariga alohida urg'u beradi. [3: 54] Nemis diyorining Ikkinchi jahon urushidan keyingi ko'rinishi adabiyotga, xususan she'riyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazganini isbot etgan Fenner ma'lum va mashhur bo'lgan har uchala shoirlarda o'xshash talqinlar, ya'ni o'z zamonidagi urushdan so'nggi siyosiy jarayonlaru, aziyat ko'rgan xalqning jabridan ta'sirlanib ona tuyg'usi, otalar alami, tabiat qayg'usi, vatanning sovuq ko'rki, farzand dardi va "Men"ning shakllanish hissi tasvirlangan she'riyatni tahlil etadi.

Sharq mumtoz mutafakkirlari Hofiz, Nizomiy, Rumiy, Sa'diy va Jomiy g'azallarini o'rgangan Huliya Nasiya Unlu o'zining "Form, Gehalt und Symbolik des orientalischen Ghasels in der deutschen Dichtung: Eine vergleichende Studie" nomli tadqiqotida Sharq g'azal an'anasining asosiy an'anaviy obrazlarini izchil tahlil qiladi. [4: 80-92] Unda quyosh, oy, sham, parda, raqs, ilohiy ishq, ma'shuqa va may obrazlarining tasavvufiy manbalari, falsafiy mazmuni hamda ramziy vazifalari yoritiladi. Tadqiqotchi ushbu timsollarning Gyote, Gyukkel va Rükert kabi nemis shoirlari ijodiga ko'chish jarayonini qiyosiy adabiyotshunoslik asosida tahlil qiladi.

Unlu Sharq g'azalidagi quyosh va nurning ilohiy haqiqat, oy va yulduzlarning ma'shuqa jamoli hamda huzur-halovat ramzi sifatidagi talqinlarini ilmiy asosda sharhlaydi. Shuningdek, sham va olovni ishqning yonishi, may va mayxonani ruhiy taskinlik va ichki osoyishtalik ramzi sifatida shakllanganini ko'rsatib, ularning Yevropa romantik she'riyati kontekstida qanday yangicha

semantik mazmun kasb etganini ochib beradi.[4: 123] Shuningdek, tadqiqot Sharq g'azali poetik merosining G'arb mifopoetik tafakkuriga ta'sirini aniq ilmiy dalillar bilan asoslaydi.

Gertrude Eva tomonidan yaratilgan "Natur und Kunst in Heinrich Heines Reiseschriften und in Annette von Droste-Hülshoffs Prosa" (Haynnrix Haynening sayohat satrlari va Anette fon Droste-Hyulsxofning prosasida tabiat va san'at) nomli ilmiy tadqiqotda nemis shoirasi Annette von Droste-Hülshoff ijodidagi tabiat va mifopoetik obrazlar keng yoritiladi. [5: 127-129] Muallif shoira ijodidagi o'lim farishtasi, oy nuri, osmon, kun va tun kabi ramzlarni romantik davr badiiy tafakkuri bilan bog'lab tushuntiradi. Tabiat unsurlari, ko'k, sariq, zinnobar-qizil ranglar, shamol, daraxt va yer obrazlari shoiraning dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular hayot-o'lim, yorug'lik-zulmat, yer-osmon kabi qadimiy G'arb dual obrazlarining poetik aks-sadosi sifatida talqin qilinadi. Droste-Hülshoffning tasvirlarida bu obrazlar inson ruhiyati, qo'rquv, umid, sukunat kabi ichki kechinmalarni ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi.

Tadqiqotda yana Heinrich Heinening "Reisebilder" (Sayohat lavhalari) asarlaridagi tabiat manzaralari tahlil qilinadi. [5: 88] Heine dengiz, shamol, to'lqin, yo'l va osmon obrazlari orqali shoirning ichki dunyosidagi o'zgarishlar, romantik iztirob va orzu-istaklarni ifodalaydi. Eva Heinening dinamik, o'zgaruvchan tabiat tasviri bilan Droste-Hülshoffning sokin, chuqur va mifopoetik tabiat manzaralarini qiyoslab, ikkala ijodkorning tasvir uslubi bir-biridan qanchalik farq qilishini aniqlaydi. Shuningdek, tabiat va san'at obrazlarining Heine va Droste ijodida turlicha badiiy ma'no kasb etishini ilmiy dalillarga tayangan holda ochib beradi.

Paul Celan poetikasini o'rgangan Heike Kristina Behlning dissertatsiyasida shoir tilining markazida turuvchi yo'l, iz, daryo, quyosh, oy kabi an'anaviy va arxetipik obrazlar modern poetik tafakkurda yangicha ma'no kasb etgani tahlil qilinadi. [6: 25-28] Tadqiqotning kirish qismida Celanning "Straßen ohne Zahl" (Behad ko'chalar) iborasi poetik makonning bosh metaforasiga aylantiriladi, yo'l obrazi shoirning "Anderer" – ya'ni o'zga odam, tarix, xotira yoki haqiqat sari intilish jarayonini ifodalaydi. Muallif Celanning "Meridian" she'rini "yo'lda bo'lgan, kimningdir huzuriga borishni istovchi" hodisa sifatida talqin qiladi va bu yo'l obrazi an'anaviy ruhiy sayohatning modern shakliga aylanishini ko'rsatadi. Shuningdek, Behl Celan tilining haqiqat anglash mohiyatini geologik obrazlar – tog', tosh, kon, suv, kristall orqali izohlaydi, bu yondashuv esa tabiat obrazlarining an'anaviy falsafiy ildizlarga ega ekanini namoyon qiladi.

Barbara Mabee esa nemis shoirasi Sarah Kirsch poeziyasida tarixiy xotira, iztirob va o'limning ramziy izlari badiiy ifodalanishi ilmiy asosda ko'rsatadi. Tadqiqot ayniqsa shoiraning obrazlar tilini qor (Schnee), muz (Eis), qish (Winter), kuz (Herbst), tosh (Stein), chang (Staub), daraxt (Baum), yulduz (Stern), kapalak (Schmetterling), oq-qora ranglar tarixning ramziy ko'rinishlari sifatida izohlaydi. [7: 12-20] Muallifning tahlilicha, ushbu obrazlar Kirsch uchun nafaqat tabiat tasviri, balki yo'qotish, sukunat va ruhiy jarohatlarning badiiy belgilaridir. Bundan ko'rinib turibdiki, shoira ijodida an'anaviy obrazlar tarixiy xotira bilan to'yingan ma'no kasb etadi. Jumladan, qor – obrazi ko'pincha izlarni, tarixni yashiruvchi, tosh – tarixiylik, chang – hayotning kulga aylanishi, daraxt – yashashga intilish, yulduz – umidning jilvasi kabi mohiyatni ifodalaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy obrazlar (quyosh, oy, yo'l, daraxt va h.k.) jahon she'riyatining o'zgarmas poetik poydevori hisoblanadi. Nemis adabiyotshunosligi ushbu timsollarning nafaqat tabiat hodisasi, balki madaniy xotira, mifopoetik tafakkur va ijtimoiy-ruhiy evrilishlar mahsuli ekanini isbotlaydi. G'arb va Sharq she'riyati o'rtasidagi farqlar uslubiy ko'rinishga ega bo'lsa-da, ularning markaziy g'oyasi - inson va koinot uyg'unligini ifodalashda mushtarakdir. An'anaviy obrazlar tahlili zamonaviy she'riyatda "gibrid" shakllarning paydo bo'lishini va klassik ramzlarning yangicha semantik mazmun kasb etishini tushunishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Schmidt H. Wortmusik, Schrifttanz, Textbilder. Intermediale Sprachkonzeptionen in der russischen Poesie des 20. Jahrhunderts.Hamburg, 2007. 401 S.

2. Dorfbauer L. J. "Das Wunderbare in den politischen Gedichten Claudians". dissertation dr.phil.Wien,2009. 328 S.

3. Fenner A.M. Trauer in der deutschen Nachkriegslyrik zur Emotionsgestaltung bei Günter Eich, Marie Luise Kaschnitz und Nelly Sachs: Diss.dr.phil. Göttingen 2015. 233 S.

4. Hülya Naciye Ünlü. Form, Gehalt und Symbolik des orientalischen Ghasels in der deutschen Dichtung: Eine vergleichende Studie. The University of Michigan, 1989. 355 S.

5. Gertrude Eva Keilbach-Sabath. Natur und Kunst in Heinrich Heines Reiseschriften und in Annette von Droste-Hülshoffs Prosa. University of Southern California, 2001. 296 S.

6. Heike Kristina Behl. Ohne Zahl sind die Strassen: Wege in die Dichtung Paul Celans. Universyti of California, San Diego, 1995. 311 S

7. Barbara Mabee. Geschichtsbewusstsein und Erinnerungsspuren in der Lyrik von Sarah Kirsch. The Ohio State University, 1998. 248 S.

UO'K 821.111

INGLIZ ROMANTIZMIDA HAYOTIY "YANGI JANNAT" HAQIDAGI POLEMIKA MASALASI

J.R.Mirzaev, talaba, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz romantizmining katta avlod shoirlari ijodida Oltin asr, tiklangan Jannat va Yangi Ierusalim obrazlari o'rtasidagi uzviy aloqalar hamda ularning bosqichma-bosqich transformatsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Bayronning bibliyaviy mif orqali inson va insoniyat tarixi haqidagi talqini uning katta yoshli zamondoshlari qarashlari bilan qiyosiy yoritiladi. Maqolada ingliz romantik poeziyasida jannat haqidagi polemikaning asosiy qutblari sifatida katta avlod romantiklari asarlarida shakllangan yo'qotilgan va yangi jannat diskursi hamda Bayron ijodidagi ushbu diskursning falsafiy transformatsiyasi ko'rsatib beriladi. Bayron ijodida universal va umuminsoniy jannat g'oyasi, shuningdek, shaxsiy jannatning imkoniyati qat'iyan rad etiladi.*

Kalit so'zlar: *Uordsvort; Kolridj; Bayron; bibliyaviy mif; Fransuz inqilobi; Oltin asr obrazlari; Jannat mifi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются взаимосвязи между образами Золотого века, восстановленного Рая и Нового Иерусалима в творчестве поэтов старшего поколения английского романтизма, а также поэтапная трансформация этих образов. Особое внимание уделяется интерпретации Дж. Байрона, который посредством библейского мифа осмысливает историю человека и человечества в сопоставлении с взглядами своих старших современников. В статье показано, что основными полюсами полемики о рае в английской романтической поэзии являются дискурс утраченного и нового рая, сформированный в произведениях поэтов старшего поколения, и его философская трансформация в творчестве Байрона. В поэтике Байрона последовательно отвергается как универсальная и общечеловеческая идея рая, так и возможность индивидуального рая.*

Ключевые слова: *Уордсворт; Колридж; Байрон; библейский миф; Французская революция; образы Золотого века; миф о рае.*

Abstract. *This article examines the interconnections between the images of the Golden Age, the restored Paradise, and the New Jerusalem in the works of the elder generation of English Romantic poets, as well as the gradual transformation of these images. Special attention is given to Lord Byron's interpretation of human and universal history through the prism of biblical myth, analyzed in comparison with the views of his older contemporaries. The article demonstrates that the main poles of the debate on Paradise in English Romantic poetry are represented by the discourse of the lost and the new Paradise formed in the works of the elder Romantics and by its philosophical transformation in Byron's oeuvre. In Byron's poetic worldview, both the universal, all-human idea of Paradise and the possibility of an individual Paradise are consistently rejected.*

Key words: *Wordsworth; Coleridge; Byron; biblical myth; the French Revolution; images of the Golden Age; the myth of Paradise.*

Yangi Jannat masalasi, aslida, baxtning imkoniyati masalasidir: u bir marta va abadiy beriladimi yoki unga qayta-qayta erishish mumkinmi; u umumiy (barcha uchun) shakldami yoki shaxsiy holda mavjudmi? Zamonaviy insoniyat uchun bu savol alohida dolzarblik kasb etadi. Avvalo, bu holat turli qadriyatlar tizimining, xususan, iste'molchilik jamiyatiga xos qadriyatlar tizimining inqirozi bilan bog'liq. Mazkur tizimda inson hayotida halovat va lazzatga uzluksiz intilish eng oliy qadriyat, hatto baxtning o'zi sifatida talqin qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi biokimyo, neyroetika va bioetika sohalarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar bilan ham belgilanadi. Ularda universal baxt formulasini yaratish yoki shunday formulalardan foydalanishning etik chegaralarini belgilash masalasi qo‘yilmoqda.

Shu ma’noda, XIX asr boshlarida Fransuz inqilobi hamda undan keyingi G‘arbiy Yevropa va Amerika ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta’sirida ingliz romantik poeziyasida shakllangan Yangi Jannat haqidagi polemikaga murojaat qilish tabiiydir. Bu polemika nafaqat estetik, balki ma’naviy va intellektual izlanishlarning ham tarixiy ifodasi bo‘lib, bugungi o‘quvchini hamon o‘ylantirayotgan savollarga javob izlashga qaratilgan.

Bayrondan katta avlod shoirlari uchun Fransuz inqilobi eski tarixning yakuni va Yangi Ierusalimga eltuvchi yo‘lning bashorati sifatida talqin qilindi. Bu qarash zamonaviy adabiyotshunoslikda ham mustahkam o‘rin egallagan. Xususan, “The Norton Anthology of English Literature” to‘plamining “Apocalyptic Expectations by Preachers and Poets” bo‘limida mazkur g‘oya aniq ifoda etiladi [14], shuningdek, qator monografiya va ilmiy maqolalarda ham rivojlantiriladi [18; 20; 23].

Biroq katta avlod ingliz romantiklari she’riyatida Oltin asr, tiklangan Jannat va Yangi Ierusalim obrazlari o‘rtasidagi aloqalar hamda ularning bosqichma-bosqich o‘zgarishi masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Bayronning bibliyaviy mif asosida inson va insoniyat tarixi haqidagi talqini uning katta yoshli zamondoshlari qarashlariga qanchalik mos yoki zid ekani ochiq qolmoqda.

U. Vordsvort va S. T. Kolridjning ilk she’riyatida Fransuz inqilobi yo‘qotilgan Jannatning qayta tiklanishi, Oltin asrning qaytishi va yangi, mislsiz saodat sari yo‘l ochuvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Vordsvortning ilk yirik asari — The Prelude (1798–1805) da Yevropa insoniyatining Oltin asrga qaytishi Fransiyaning “oltin soatlar” ostonasida turgani haqidagi bashorat bilan ifodalanadi:

Europe at that time was thrilled with joy,
France standing on the top of golden hours,
And human nature seeming born again [11, B. 346].

Bu satrlarda Fransuz inqilobi Yevropa uchun yangi tarixiy imkoniyat — insoniyatning ma’naviy qayta tug‘ilishi va yo‘qotilgan Jannatga qaytish yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi. Inson tabiatining to‘liq yangilanishi haqidagi bibliyaviy-apokaliptik ishora ham aynan shu kontekstda talqin etiladi.

Kolridjning Religious Musings (1794–1796) asarida tiklangan saodat g‘oyasi bevosita “Return…” degan da’vat orqali ifodalanadi [7, B. 2]. Asar Fransuz inqilobini umumiy qutulish sari tashlangan ilk qadam sifatida tasdiqlash bilan yakunlanadi [7, B. 13, 23].

Katta avlod ingliz romantiklari zamonni nafaqat Oltin asrga qaytish, balki tarixiy chegaralarni bekor qiluvchi, Apokalipsisdagi Yangi Ierusalim sari sakrash sifatida ham idrok etdilar [13]. Bu jarayonda bibliyaviy mif zamonaviy tarix bilan uyg‘unlashib, insoniyat tarixi modeli sifatida qayta talqin qilindi.

Bayron esa bibliyaviy mifni tarixiy va psixologik jihatdan qayta ishlab, yangi jannat g‘oyasining ham umuminsoniy, ham shaxsiy darajada amalga oshmasligini ko‘rsatadi. Uning Manfred, Cain va Heaven and Earth dramalarida Jannat yo‘qotilgan, ammo qayta tiklanmaydigan holat sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, ingliz romantizmidagi jannat haqidagi polemika Bayron ijodida romantik ishonch va ma’rifatchilik shubhasining murakkab to‘qnashuvi sifatida yangi falsafiy shakl kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ingliz romantizmi doirasida Yangi Jannat g‘oyasining shakllanishi, rivoji va falsafiy talqinini tahlil qilish orqali romantik poeziyada baxt, tarix va inson tabiatiga bo‘lgan munosabatning murakkab va ziddiyatli xarakterini ochib berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz romantizmining katta avlod vakillari — U. Vordsvort va S. T. Kolridj ijodida Oltin asr, tiklangan Jannat va Yangi Ierusalim obrazlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda, tarixiy taraqqiyot va insoniyatning ma’naviy yangilanishi g‘oyasi bilan uyg‘un talqin etilgan.

Ularning ilk ijodida Fransuz inqilobi insoniyat tarixida burilish nuqtasi, yo‘qotilgan uyg‘unlik va baxtning qayta tiklanishiga olib boruvchi imkoniyat sifatida ko‘riladi. Bibliyaviy mif bu shoirlar uchun nafaqat diniy syujet, balki tarixni va inson ruhiy rivojini anglashning universal modeli

vazifasini bajaradi. Keyinchalik esa mazkur mif individuallashib, shaxsning ichki kamoloti, tabiat bilan uyg‘unlik va ijodiy tasavvur orqali baxtga erishish g‘oyasi bilan boyitiladi.

Bayron ijodida esa ushbu romantik paradigma tubdan qayta ko‘rib chiqiladi. Shoir bibliyaviy mifdan foydalanar ekan, Yangi Jannatning na tarixiy, na shaxsiy darajada amalga oshish imkoniyatini tan oladi. Uning Manfred, Cain va Heaven and Earth asarlarida Jannat — insoniyat va shaxs ongida bir marta yo‘qotilgan va qayta tiklanmaydigan holat sifatida talqin qilinadi. Bayron dunyoqarashida inson va olam, inson va Xudo, bilim va baxt o‘rtasidagi murosasiz ziddiyatlar markaziy o‘rin egallaydi.

Shu tariqa, ingliz romantizmidagi Jannat haqidagi polemika Bayron ijodida yangi falsafiy bosqichga ko‘tariladi: romantik ishonch va apokaliptik umidlar o‘rnini skeptik tafakkur va tragik tarixiy ong egallaydi. Bu hol Bayronni nafaqat romantizm an’analarining davomchisi, balki ularni tanqidiy qayta talqin qilgan muhim adabiy shaxs sifatida namoyon etadi.

Umuman olganda, ingliz romantizmidagi Yangi Jannat haqidagi bahs insoniyatning baxt, erkinlik va ma’naviy mukammallikka intilishi bilan bog‘liq abadiy savollarning badiiy-falsafiy ifodasi bo‘lib, bugungi davr o‘quvchisi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

